

Космическая энциклопедия  
1986-1990

А.М. Зешкевич



Космическая  
энциклопедия

Kilob shu erda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilmagan holda topshirillishi shart

ilgerigi berilmalar miqdori \_\_\_\_\_

|  |  |
|--|--|
|  |  |
|--|--|







821  
Z. 84

5.0.

Rus adabiyoti durdonalari

# MIXAIL MIXAYLOVICH ZOSHCHENKO



УМКАР

# Ko'ngilli uchrashuv


*Hikoyalar*

T. 46

UO'K 821.161.1-31  
KBK 83.3(2Ros-Rus)  
Z 84

**Rus tilidan Ne'mat Aminov va Abduvohid Umirov tarjimalari**

Atoqli rus yozuvchisi Mixail Zoshchenko hikoyalarida xulq-atvori, e'tiqodi va falsafasi har xil odamlarning jonli qiyofalari satirik tilda mahorat bilan ochib berilgan. Mazkur to'plamga adibning eng sara hikoyalari kiritildi.



ISBN 978-9943-6585-7-8

© Ne'mat Aminov, Abduvohid Umirov (tarj.), 2021  
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021



## BARHAYOT KULGI

Mixail Mixaylovich Zoshchenko (1895–1958) uchun tom ma'nodagi haqiqiy shuhrat ijodining dastlabki uch-to'rt yilidayoq manaman, deb kelgandek bo'ldi. Qisqa muddat ichida u millionlab kitobxonlar qalbini zabt etdi. Mixail Zoshchenkoning birinchi hikoyasi 1921-yilda e'lon qilingan. Shundan bor-yo'g'i o'n yil o'tar-o'tmay, o'zi hayotligidayoq, ikki marta uning olti jildlik asarlar to'plami bosilib chiqdi. Go'yo shuhrat Zoshchenkoni izma-iz ta'qib qilib yurardi...

Aslida bu juda ham oson bo'lmagan.

Mixail Zoshchenko 1895-yilda Peterburgda kambag'al, ko'chmanchi rassom oilasida tug'ildi. Uning onasi Yelena Iosifovna Surina uy ishlaridan bo'sh paytlarida kambag'allar hayotidan hikoyalar yozar va «Koneyka» degan gazetada chop ettirar edi. Mixail o'n ikki yoshida otadan yetim qoladi. Kambag'allik, oiladagi yetishmovchiliklar... Hali gimnaziyadaligidayoq uning diliga yozuvchi bo'lish orzusi tushadi. Lekin bu orzu edi. O'z vaqtida o'qish pulini to'lamagani uchun universitetdan haydaladi. Shundan keyin uning «odamlar orasida»gi darbadarlik hayoti boshlanadi.

U «...temir yo'l uyezdiga nazoratchi, 1914-yilda – vzvod komandiri, praporshchik, Fevral inqilobi arafasida – batalyon komandiri bo'ladi. Yaradorlik. Gazdan zaharlanish. Muvaqqat hukumat davrida – pochta va telegraf boshlig'i, Peterburgdagi Bosh pochta-ning komendanti... Oktabr inqilobidan keyin Strel'n va Kronshtadtda chegarada turadi. So'ng ixtiyoriy ravishda Qizil armiya tomonga o'tib, to'pchilar guruhini boshqaradi, Narva frontida polk komandirining adyutanti bo'ladi. Gazdan zaharlanish og'ir asorat qoldirgan edi. Yurak kasalligiga chalinib, harbiy xizmatdan bo'shaydi. Petrogradga jinoyat qidiruv izquvari. Smolensk gubernasidagi Mankovo xo'jaligida quyonchilik va tovuqchilik yo'riqchisi, Ligovda militsiya xodimi bo'lib ishlaydi. So'ng yana poytaxtga qaytadi. Etikdo'zlik qiladi, Petrograd bandargohida hisobchi yordamchisi, idora xizmatchisi bo'lib ishlaydi...»

Ana shundan keyingina u yozuvchilikka o'tiradi.

Zoshchenko odamlar orasida bo'lib, turli kasb, rang-barang taqdirli bechora-yo'qsillarni ko'rgani uchun surunkali «vijdon uyg'oqligi» kasaliga chalingan edi. Shuning uchun yozmasdan tura olmas, yozganda ham kecha-yu kunduz tinmay yozar edi. U o'zi ko'rgan «bechora» kishilar dardi, orzu-umidlari bilan yashashga mahkum edi.

Mixail Zoshchenkoning yutug'i shundaki, u qalamga olgan «bechora» kishilar undan ranjimas, aksincha ishonar, har bir hikoyasini o'qigandayoq yozuvchini yaxshi ko'rib qolar edilar. Bu esa yozuvchining olamshumul yutug'iga aylanib borardi.

Zoshchenko o'z asarlarining tili haqida shunday yozgan edi: «Men juda siqiq yozaman. Jumlarim qisqa. Kambag'albop. O'quvchilarimning ko'pligi, ehtimol, shundandir».

Haq gap. Zoshchenkoning yutug'i – tildagi siqiqlik, tasvirdagi soddalik, xalqchilik va rostgo'ylikdan iborat. Bundan tashqari yozuvchi o'z hikoyalarida odamning o'zidan emas, balki undagi ayrim illatlardan kulardi. Zinhor odamdan emas, illatlardan xalos bo'lishga chaqirar, bu illatlardan tezroq gutulish uchun ularga yordam berar edi.

Murakkab insoniy va yozuvchilik taqdiriga ega bo'lgan M. Zoshchenko Gogol, Saltikov-Shchedrin, Chexov va boshqalar boshlab bergan rus mumtoz satirasini yangi, o'ziga xos asarlar bilan boyitgan ulkan so'z san'atkoridir. Undan bizga, necha-necha avlod kitobxonlariga mingdan ortiq hikoya, felyeton, qissa va komediyalar meros qolgan.

1920–1930 yillar o'zbek hajviyotiga M. Zoshchenkoning ta'siri juda kattadir. O'sha yillarda G'.G'ulom, A. Qahhor, G'ayratiy, K. Aliyev singari badiiy so'z ustalari Zoshchenko an'analari ta'sirida bir qator ajoyib hikoya va felyetonlar yaratganlar.

*Ne'mat Aminov*









## IBODAT

Hayit haftalaridan birida Fekla buvining saxiyligi tutib ketib, bit-tangalik sham oldi va uni ugodnik<sup>1</sup> oldiga qo'ydi.

Fekla uzoq unnab shamni sanamga yaqin yerga o'rnatdi. O'rnatib bo'lgach, bir necha qadam orqaga ketib, o'z qilmishidan mamnun cho'qinishga tutindi-da, xarjlagan bittangalik sham evaziga birmuncha yengillik va marhamatlar so'ray boshladi.

Fekla dimog'ida turli xil iltimoschalarni pichirlab, uzoq sig'indi, so'ng peshonasini iflos tosh yerga urib, chuqur xo'rsindi va tomoq qir-gancha tavba-tazarru qilishga o'tdi.

Ibodat mehrobda, parda orqasida davom etardi.

Fekla buvi allaqanday qishloqi kampiridan ketin navbatda turdi va yana g'o'ng'illab ohista cho'qinib qo'ydi. Odamlar parda ortida uzoq turib qolishmasdi.

Ibodatchilar u yerga kirishar, bir zum o'tmasdan yengil yo'talib, xo'rsinib chiqishar va ugodnikka ta'zim qilishardi.

«Pop muncha hovliqmasa, – deb o'yladi Fekla. – Xuddi ham-mayoqqa o't tushib ketayotgandek hovliqadi. Ibodatni ko'ngildagidek o'tkazmaypti».

Fekla parda ichiga kirib, popga chuqur ta'zim qildi va uning qo'llariga yopishdi.

Pop duo qilaturib so'radi:

– Oting nima?

– Otim Fekla.

– Bo'lmasa ayt-chi, Fekla, – dedi pop, – qanday gunohlaring bor? Aybing nima? Bekordan bekorga yomonlamassan? Xudoga tez-tez shak keltirib turasanmi?

– Albatta, otaxon, gunohkorman, – dedi Fekla.

---

<sup>1</sup> Nasroniylarning mehrobga o'xshash ibodat burchagi (*izohlar muharrirniki*).



– Xudo o‘zi kechiradi, – dedi pop Feklan yepatraxil<sup>1</sup> bilan berkitib. – Ayt-chi, xudoga ishonasanmi? Ikkilanmaysanmi?

– Xudoga-ku ishonaman-a, – dedi Fekla. – O‘g‘lim kelib, masalan, har xil gaplarni aytadi, muhokama-munozara qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, unga ham ishonaman.

– Bu yomon emas, onaginam, – dedi pop. – Lekin sen har qanday yo‘ldan ozdirishlarga, vasvasalarga osongina berilma-da. Xo‘sh, o‘g‘ling nimalar deydi? Nima deb ayblaydi?

– Ayblaydi, – dedi Fekla. – Ularning dini bir pulga qimmat, hammasi yolg‘on. Butun osmonni, bulutlarning orasini izlab chiqsang ham xudo yo‘q, deydi, yana...

– Xudo bor! – dedi qat‘iylik bilan pop. – O‘g‘lingga ishonma... Xo‘sh, ayt-chi, o‘g‘ling yana nimalar deydi.

– Har xil gaplar.

– Har xilmi? – dedi pop jahli chiqib. – Bo‘lmasa butun borliq qayerdan paydo bo‘lgan? Agar xudo bo‘lmasa bu sayyoralar, yulduzlar va oy qayerdan? Ehtimol, o‘g‘ling butun borliq haqida, atrof-muhit haqida biror nima degandir? Bu kimyo emasmi-kan? Esla-chi, shu haqda gapirmadimi? Ehtimol, bularning barisi kimyodir-a?

Fekla ko‘zlarini pipiratib:

– Bu haqda gapirmadi, – dedi.

– Ehtimol, hammasi kimyodir, – dedi o‘ychan pop. – Ehtimol, onaginam chindanam xudo yo‘qdir, hammasi kimyodir...

Fekla buvi popga qo‘rquv aralash boqdi. Lekin pop shu topda uning boshiga yepitraxilni yopib, ibodat so‘zlarini bosiq g‘uldirashga kirishdi.


– Bor, bor endi, – dedi pop ma‘yus ohangda. – Xudojo‘ylarni ushlab turma.

Fekla yana bir karra popga qo‘rquv aralash qarab oldi-da, so‘ng chuqur xo‘rsingancha yo‘talib mehrobdan chiqdi. Keyin o‘zining ugodnigi oldiga yaqin kelib, shamga qaradi, uning yonib bo‘lgan pili-gini to‘g‘rilagan bo‘ldi va butxonadan chiqdi.

1923

---

<sup>1</sup> *Yepitraxil* – Nasroniy ruhoniylari libosining bir qismi, bo‘yinga solib yuriladigan uzun mato.



## MUSIBAT

Sassiqhovuz qishlog'ilik dehqon Yegor Ivanovich, familiyasi Glovov ot olish uchun ikki yil pul jamg'ardi. Yaxshi yemadi, ichmadi, tamaki chekishni tashladi, samagon<sup>1</sup> ichish u yoqda tursin, hatto uning ta'mini ham esdan chiqarib yubordi. O'ldiring, pichoq bilan qiyma-qiyma qiling, uning ta'mini eslay olmaydi.

Albatta, eslashni xohlardi. Biroq, dehqon ahdida qattiq turdi. Chunki unga ot juda zarur edi.

«Xotirjam bo'ling, ot sotib olay, – deb o'yladi u, – ana undan keyin o'zim bilaman».

Ikki yil pul jamg'ardi va uchinchi yili o'z jamg'armasini hisoblab chiqib, yo'lga otlandi.

Xuddi shu yo'lga otlanayotgan asnoda Yegor Ivanovichning huzuriga qo'shni qishloqdan bir dehqon kelib, o'z otini sotib olishni taklif etdi. Biroq Yegor Ivanovich bu taklifga ko'nmadi. Hatto qo'rqib ketdi. – Nimalar deyapsan, bo'talog'im, – dedi u. – Men ot xarid qilish uchun ikki yil mobaynida nuqul somon kavshadim. O'ylab-netib o'tirmasdan uning otini sotib ol emish. Bu qanaqasiga xarid bo'lsin... Yo'q, meni cho'chitma, ukaginam. Yaxshisi, men shaharga tushaman. Chinakamiga xarid qilishim kerak.

Shunday qilib, Yegor Ivanovich otlana boshladi. Pulni ustidan paytava o'rab, oyog'iga etigini kiydi va qo'lga bir tayoq olib, yo'lga tushdi.

Bozorda Yegor Ivanovich bir otni ko'rib, yoqtirib qoldi. Bu oddiy, qorni shishinqiragan dehqoncha ot edi. Tusi aniq emas – balchiq, go'ng rangiga o'xshabroq ketadi.

Otning egasi o'z otini oladilarmi, olmaydilarmi, beparvo bir qiyofada kekkayib turardi.

Yegor Ivanovich pul o'ralgan etigida atay burilib, otga havas bilan tikilib, so'radi:

– Shu otni sotasanmi deyman-a, qadrdon?

– Otnimi? – dedi egasi. – Bo'lmasam-chi, sotaman. Albatta, sotaman.

Yegor Ivanovich ham otga muhtoj emasday bir ko'rinish bermoqchi edi, chiqmadi, aksincha ochilibroq dedi:

---

<sup>1</sup> Qo'lbola sharob.



– Bilasanmi, qadrdon, menga ot kerak. Nihoyatda zarur. Men senga aysam, qadrdon, ot olaman deb uch yilcha somon kavshadim. Ko‘rdingmi, ot menga naqadar zarur... Xo‘sh, ana shu otning bahosi qancha bo‘ladi? Faqat bo‘ladiganini ayt.

Otning egasi bahosini aytdi. Yegor Ivanovich bu bahoning haqiqiy emasligini bilsa-da, savdo-sotiq qoidasiga binoan, o‘zicha bahslashib o‘tirmadi. Aylanib otni ko‘zdan kechira boshladi. U to‘satdan otning ko‘ziga, keyin quloqlariga qattiq pufladi, boshini otning yuziga yaqin keltirib, tilida allaqanday ovozlar chiqarib, sho‘rlik qirchang‘ini shundayam qo‘rqitdiki, shu paytgacha tinchgina turgan jonivor Yegor Ivanovichga urilib ketmaslik uchun yengil tepinib, orqaga chekindi.

Otni qarab chiqqach, Yegor Ivanovich etigi ustidan yana bir karra pulni ushlab ko‘rib so‘radi:

– Demak, ot sotiladi-da, a?

Otning egasi ranjigandek bo‘ldi.

– Sotsa ham bo‘ladi.

– Xo‘p... Bu bahosi qandoq bo‘ladi? Otning narxi-da?

Otning egasi pulini aytgach, savdo-sotiq boshlanib ketdi.

Yegor Ivanovich qo‘njiga urib qo‘ydi, ikki marta etigini yechib, pulni ushlab ko‘rdi-da, ikki marta qayta kiydi, yig‘lamsirab, otning juda kerakligi uchun olti kundan beri somon kavshab kelayotganini aytib, ko‘z yoshlarini qo‘li bilan artdi. Otning egasi bahoni kamaytira boshladi. Nihoyat, bir bahoga kelishib olishdi.

– Mayli, olaqol, – dedi sotuvchi, – juda yaxshi ot. Tusiyam yaxshi, rangiyam yomon emas. Qara, qanday jozibali.

– Rangiga kelsak... to‘g‘risi, qadrdon, unchalik chiroyli emas... – dedi Yegor Ivanovich. – Otga mos rang emas... Jinday o‘t.

– Senga rangi nimaga kerak, – dedi sotuvchi. – Rangi bilan yer haydamaysan-ku?

Bu dalildan qizishib ketgan dehqon otni yana bir ko‘zdan kechirib, boshidan shapkasini olib yerga urdi-da, keyin toptab turib qichqirdi.

– Bo‘pti, kelishdik!

Keyin tosh ustiga o‘tirdi, etigini yechib pulni oldi. U har-har zamon otning egasiga yer ostidan qarab qo‘yib, pulni uzoq sanadi. Gohida barmoqlari chalishib ketib, ikki-uch martadan qayta sanashga ham to‘g‘ri kelardi.

Nihoyat, otning egasi pulni olib telpagi ostiga bekitdi va unga «siz»lab xitob qildi.

– Ot sizniki. Oling...

Yegor Ivanovich otni olib ketdi. U tantanali suratda «chu-chu»lab qo‘yar, otni o‘zicha Maruska deb erkalardi. Keng maydondan o‘tib, yon tomondan ko‘chaga burilganda, u o‘z hayotida qanday voqea ro‘y berganiga tushundi. U to‘satdan telpagini olib yerga urdi va jonholatda tepkilar ekan, qanday aqlli va ustamonlik bilan savdolashganini es-lardi. Keyin qo‘llarini oliftalarcha silkib, hayajonli to‘ng‘illab yo‘lida davom etdi.

– Sotib oldim! Otmisan ot... Qoyil, ofarin!.. O‘zimam rosa avradim-da. Boshi aylanib qoldi sho‘rlikning...

Yegor Ivanovning hayajoni biroz bosilgach, u soqollari orasida bilinar-bilinmas shaytoniy tabassum bilan o‘tgan-ketganlardan olgan moliga qarashlarini so‘rab imo qilardi. Biroq o‘tkinchilar unga juda befarq qarashardi.

«Biror bir hamqishloq ayol ham uchramaydi-ya, – deb o‘ylardi Yegor Ivanovich, – koshkiydi uchray qolsa».

To‘satdan uzoq bir qishloqlik, uncha tanish bo‘lmagan bir kishiga ko‘zi tushdi.

– Ho‘, qarddon, – deb qichqirdi Yegor Ivanovich, – buyoqqa kel, qarddon!

Qop-qora odam unga yaqin keldi va salomlashgach, otga qaradi.

– Mana... ana shu ot, sotib oldim! – dedi Yegor Ivanovich.

– Ha, ot, – dedi u kishi nima deb so‘rashini bilmasdan va qo‘shib qo‘ydi: – Avval oting yo‘q ekan-da?

– Hamma gap shunda-da, qarddon, – dedi Yegor Ivano-vich, – otim yo‘q edi-da. Bo‘lmasa menga ovoragarchilikning nima hojati bor edi... Yur, seni bir ziyofat qilay.

– Demak, yuvamiz ekan-da? – deb so‘radi hamqishloq.

– Bemalol. Yuvsak yuvibmiz-da. «Yagodka»ga kiramizmi?

Yegor Ivanovich boshi bilan ma‘qulladi, qo‘njiga bir urib qo‘yib otni yetaklab ketdi. Hamqishlog‘i oldinda.

Bu dushanba kuni edi. Chorshanba kuni ertalab Yegor Ivanovich qishloqqa qaytdi. Oti yo‘q edi.

Qora odam Yegor Ivanovichni nemis qishlog‘igacha kuzatib qo‘ydi.

– Ko‘p xafa bo‘lma, – derdi u. – Avval ham oting yo‘q edi. Bu-yam senga otlik qilmasdi. Ichganing yaxshi bo‘ldi. Bilasanmi, do‘stim yaxshilab yuvdik. Ot nima degan gap? Mana shu yuvishni bir umr eslab yursa bo‘ladi.

Yegor Ivanovich sariq so‘laklarini oqizib, jimgina ketib borardi. Hamqishlog‘i Slobodoga yaqin kelib, u bilan xayrlashmoqchi bo‘lganda Yegor Ivanovich past ovozda ming‘irladi.

– Bilasanmi, qadrdon, ikki yil somon kavshadim... hammasi bekor ketdi...

Hamqishlog‘i jahl bilan qo‘l silkidi-da, orqaga burildi.

– To‘xta! – deya qichqirdi dahshatli ovozda Yegor Ivanovich. – To‘xta! Amaki... qadrdon!

– Nima deysan ? – dedi qora odam.

– Amaki... qadrdon... ukaginam, – dedi Yegor Ivanovich kipriklarini pirpiratib. – Bu qandoq gap? Ikki yil bekorga somon kavshadimmi... Nima uchun... Nima uchun vino sotishadi?

Hamqishlog‘i qo‘l silkidi va shahar tomon ketdi.

1923

## QARMOQ

Men hamisha tramvayning ulama vagonida yuraman. U yerda bir muncha ochiqko‘ngil kishilar to‘planishadi.

Oldingi vagonida juda zerikarli va maroqsiz, hatto birovning oyog‘i ni bunday tuzukroq bosa olmaysan ham. Ulama vagonida oyoq haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas, ancha qulay, hatto xushchaqchaqlik hukm suradi. Bu yerda yo‘lovchilar gohida o‘zaro falsafiy mavzularda – aytaylik, haqqoniyat, oylik maosh xususida so‘zlashadilar. Ba‘zan g‘alati sarguzashtlar ham ro‘y berib turadi.

Yaqinda to‘rtinchi tramvayga chiqdim.

Ro‘paramda ikki odam turibdi. Bittasining qo‘lida arra, ikkinchisida pivo shisha. Shisha bo‘m-bo‘sh. Haligi odam barmoqlari bilan shishani chertib qo‘yadi, so‘ng ko‘zi yaqiniga keltirib, ko‘m-ko‘k shisha orqali yo‘lovchilarga qaraydi.

Yonginamda issiq ro‘mol o‘ragan bir xotin o‘tiribdi. U haddan tashqari charchagan yoki bemorga o‘xshaydi. Majolsiz. Vaqti-vaqti bilan ko‘zlari o‘z-o‘zidan yumilib ketadi. Uning yonida – qog‘oz xalta. Gazetaga o‘ralib, ip bilan chirmab qo‘yilgan.

Qog‘oz xalta xotinga unchalik yaqin emas, jinday uzoqroqda yotibdi. U gohida xaltaga qiya ko‘z tashlab qo‘yadi.





– Opaxon! – dedim xotinga. – Ehtiyot bo‘l, yana xaltangni urib ketishmasin.

U menga bir o‘qrayib qaradi-da, ko‘rsatkich barmog‘ini sirli ravishda labiga bosib, ko‘zlarini qayta yumdi. So‘ng avvalgidan ham battarroq norozilik bilan menga qarab olib, dedi:

– Rejalarimni barbod qilding-ku, ado bo‘lgur...

Xafa bo‘lganimni ko‘rib, ayol alam bilan qo‘shib qo‘ydi.

– Ehtimol, men bu xaltani ataylabdan qo‘ygandirman. Xo‘sh, endi nima bo‘ladi? Ehtimol, ko‘zlarimni jo‘rttaga yumib o‘tirgan, hamma narsani bippa binoyi ko‘rib turgandirman.

– Qanaqasiga? – dedim hayron bo‘lib.

– Nima qanaqasiga? – dedi jahl aralash. – Ehtimol, shu qog‘oz xalta bilan men o‘g‘rini tutmoqchidirman...

Yo‘lovchilar bizning suhbatimizga quloq sola boshlashdi.

– Xaltada nima bor o‘zi? – deb so‘radi shishali kishi.

– Aytyapman-ku, – dedi ayol, – ehtimol, men unga har xil suyak va keraksiz latta-puttalarni joylab qo‘ygandirman... shuning uchun ham o‘g‘ri unda nima borligini bilmaydi. Olsa «shap» etib qo‘lga tushadi... O‘zim bilaman, ko‘pam aralashmanglar. Ehtimol, bir haftadan beri shu ish bilan shug‘ullanarman...

– Xo‘sh, qo‘lga tushishadimi? – deb so‘radi kimdir.

– Bo‘lmasam-chi, – dedi ayol zavq bilan. – Albatta tushishadi... Yaqinda bir xonim ilindi... Yoshgina, chiroylikkina. Qorachadan kelgan, mayizday... Ha-ha, dedim, qo‘lga tushdingmi, muttaham...

– Bu xil o‘g‘rilarni tramvaydan uloqtirib tashlash kerak, – dedi arra ushlagan kishi qahr bilan.

– Tramvaydan uloqtirish yaxshi emas, – dedi allakim, – militsiyaga topshirish kerak.

– Albatta, militsiyaga topshirish kerak, – dedi xotin. – Ha, yaqinda yana bittasi ilinuvdi... Basavlat, kelishgan bir erkak... Qo‘lga tushdi. Avval qog‘oz xaltani olib, hech nima sezmagandek, beparvo ushlab turaverdi. Xuddi o‘zinikiday. Men yon tomonga qarab turgandek jimgina o‘tiribman. U bo‘lsa o‘rnidan turib sekin ketyapti... Men esam uning yo‘lini to‘sdim, ha o‘rtoq, qo‘lga tushdingmi, iflos, dedim.

– Bundan chiqdi qarmoq bilan ovlarkansan-da? – dedi kulib shishali kishi. – Ko‘plar ilinadimi?

– Aytyapman-ku, – dedi xotin. – Ilinib turadi.



Ayol ko'zlarini pirlpiratib oynaga qaradi, so'ng o'rnidan turib, eshikka yo'naldi.

– Ado bo'lgur, butun rejalarimni barbod etding! – dedi men-ga. – Butun vagonga qag'illashga balo bormi. Endi bu sirdan hamma voqif bo'ldi. Hech kim xaltaga qo'l cho'zmaydi. Shuning uchun mud-datidan avvalroq tushishimga to'g'ri keladi.

U ketgach, kimdir taajjublanib so'radi.

– Og'ayinlar, bu ish unga nimaga kerak ekan-a! Yoki o'g'rilikka butunlay barham bermoqchimi?

Boshqa bir yo'lovchi kulib turib javob berdi.

– E, yo'q, uni atrofdagi odamlarning yoppasiga o'g'irlik qilishlari qiziqtiradi.

Arra ushlagan kishi jahl bilan:

– Ko'rdinglarmi, – dedi, – o'tmishda tarbiyalangan bu ajina kampirlarning niyatini?

1923

## FAROVON TURMUSH

Kosib Ilya Ivanich Spiridonov tilla zayomdan besh ming yutdi.

Dastlabki paytlar Ilya Ivanich butunlay dovdirab, qo'llarini g'alati qimirlatib, bosh silkib yurar:

– Qarang-a, qarang... ana tomosha... Xo'p zo'r ish bo'ldi-da, og'aynilar! – derdi.

So'ng Ilya Ivanich o'z boyligini to'la o'zlashtirgach, bu pulning qanchasiga nimalar xarid qilish mumkinligini qayta-qayta hisoblashga kirishdi. Haddan tashqari mo'l-ko'l narsa xarid qilsa bo'larkan, shuning uchun ham Spiridonov qo'l silkib, hisob-kitobni yig'ishtirdi.

Eskitdan og'ayniligimiz tufayli Ilya Ivanich har kuni ikki marta biznikiga kirar, o'z yutug'i haqida qanday bilgani, o'sha baxtiyor kundagi misli ko'rilmagan hayajonlari haqida to'lib-toshib, qayta-qayta hikoya qilardi.

– Xo'sh, endi nima qilmoqchisan? – deb so'radim. – Nimalar xarid qilmoqchisan?

– Biror nima olarman, – dedi Spiridonov. – Birinchi navbatda o'tin sotib olaman. Xo'jalik uchun yangi kastrulka... Albatta, shim ham kerak.

Nihoyat, Ilya Ivanich bonkadan bir dasta yap-yangi chervonlarni olib, izziz yo'qoldi. Uzog'i bilan ikki oydan ko'proq menikiga kirmay qo'ydi.

Bir kuni Ilya Ivanichni ko'chada uchratib qoldim.

Egnida och jigarrang xaltamonand kostum. Bag'baqasi ostida pushtirang bo'yinbog', bo'yinini qattiq qisgan shekilli, tez-tez tortib qo'yadi, asabiy ravishda tupuradi. Kostum ham, tor nimcha ham, yumshoq bo'yinbog' ham unga xalaqit berar, odamday tinch yashashga monelik qilardi.

Ilya Ivanichning o'zi esa oriqlab, burni surnaydek bo'lib qolgan edi. Rangi zahil, ko'zlarining atrofida behisob ajinlar paydo bo'lgan, qisqasi kasalvanddek.

– Ahvollar qalay? – deb so'radim.

– Nimasini aytasan, – dedi Spiridonov xomush. – Yashayapmiz. O'tin sotib oldim... Umuman, zerikarli.

– Nima uchun?

Ilya Ivanich qo'l silkidi va meni pivoxonaga taklif etdi. U yerda Ilya Ivanich pushti bo'yinbog'ini bir tortib qo'yib, so'zlay boshladi.

– Hamma burjuylar, burjuylar, deb gapiradi... to'g'risi, burjuycha yashash ham saryog'day silliq emas ekan. Mana, mening o'zim ham burjuy, ya'ni kapitalist bo'lib ko'rdim... Buning nimasi yaxshi ekan?

– Nimesi?

– E, qo'yavering, – dedi Spiridonov. – Mana, o'zingiz o'ylab ko'ring. O'zim va xotinim tomondagi qon-qarindoshlarning barchasiga tupurdim. Aytishib qoldik. Bu – birmi? Ishim xalq sudiga tushdimi, yoki yo'q? Tushdi. Aytaylik, bu – ikki... Xotinim, ya'ni yostiqdoshim Marya Ignatevna kuni bo'yi sandiq ustida o'tirib yig'lagani yig'lagan... Aytaylik, bu – uch... Bosqinchilar uyim eshigini sindirishdimi, yoki yo'q? Sindirishdi. To'g'risi, sindirmagan bo'lishsa-da, bu bilan meni bezovta qilishdimi? Qilishdi. Ehtimol, endi men uydan chiqmasdan o'tirarman. Agar uyda o'tirsang yana yomon – o'tinni o'g'irlashadi. Bir kub o'tin sotib olganman. Qo'riqlash lozim.

Ilya Ivanich xafa bo'lib, qo'l silkidi.

– Nima qilishni bilmay qoldim, – dedi Ilya Ivanich. – Bo'ynimga sirtmoq solaymi?.. Pulni olgan birinchi kunimdanoq hamma baxtsizliklar boshlandi... Juda tinch, xotirjamgina yashardim-da, omad ham burchak-burchakdan kulib boqardi.

Pulni olib, uyga kelgan kunimoq, qandaydir ko'ngilsizlik yuz berayotgandek tuyulaverdi. Qarasam, birpasda barcha qarindoshlar tiqilib ketdi. Hali hech kim yo'q edi, endi esa bo'sh kursi topilmaydi. Tabriklashdi. Men bo'lsam ularning har biriga ikki so'mdan suyunchi berdim. Xotininimning ukasi Mishka bo'lsa, hammadan ham oshib tushdi.

– Shuyam gap bo'ldi-yu, – deydi, – ikki so'mdan berishga uyalmaydi ham. Yana bu kapitalist emish.

Gapga gap ulandi, qo'llar stolga urildi – mushtlashuv boshlanib ketdi. Kim kimni urdi – noma'lum. Mishka bo'lsa mening qoziqdagi mavsumiy paltomni yulib olib, tashqariga otildi.

Shunday qilib, qarindoshlardan xalos bo'ldim. Ularsiz yashay boshladim.

Har xil kerakli narsalarni sotib oldim. Kastrulkalar, ikki yilga yetadimi buniyam sotib oldim. Yana nimalarga pulni xarjlasam ekan, deb o'yladim. Qarasam – xotininimning uy ishlari bilan tinka-madori quriyapti. Dam olishga vaqti yo'q.

«Bu yaxshi emas, – deb o'yladim, – xotin, xotin bo'lsa-da, teng huquqli xotin-ku. To'xta, – deb o'yladim. – Yaxshisi, unga yoshgina bir qizni yordamchilikka olaman. Qizcha qozon-tovoq bilan shug'ullanadi».

Yordamchi oldim. Qizcha shavla pishiradi. Xotininim bo'lsa dam oladi, kunbo'yi pechka ustida o'tirib, yig'lagani yig'lagan. Bilasizmi, dam olish o'rniga uning esiga otasi qanday o'lgani, menga qanday turmushga chiqqani... kabi har xil ko'ngilsiz voqealar tushib ketaverarkan... Umuman, bekorchilikdan uning kallasi har xil bo'lmag'ur xayollarga to'lib borardi.

Albatta, xotininga pul ham berib ko'rdim.

– Klub yoki teatrga bor, – dedim. – O'zim ham sen bilan boram bo'ladi-yu, lekin o'tinni poylab qolishim kerak.

Ayol-da, yana biroz ko'zyoshi qilib olib, klubga jo'nadi. Loto o'ynay boshladi. Kunduzi – dam olishda yig'laydi, kechqurun esa o'ynaydi. Men bo'lsam, o'tinni qo'riqlab chiqaman. Qizcha esa ovqat tayyorlaydi. Keyin rais kirib:

– Bu nima degan gap? – deydi do'q urib, – sen, moda mushuk, nega o'smirni ekspluatatsiya qilasan? Nega qizaloq Bikovani hisobdan o'tkazmading? Men seni xalq sudiga beraman. Sen pulni ham bekorga yutgansan! – deydi.

Ilya Ivanich yana qo‘l silkidi, bo‘yibog‘ini tortib qo‘ydi va jimib qoldi.

– Yaxshi emaskan, – dedim men.

– Nimasi yaxshi bo‘lardi, – jonlandi Ilya Ivanich. – Shu yerda pivo ichib o‘tirgan bo‘lsam-da, yuragimni it talayapti. Ehtimol, shu daqiqalarda o‘tinimni olib ketishayotgandir. Yoki uyimga tushishgandirlar... U yerda yap-yangi samovar turibdi. O‘tirgim ham kelmaydi, borgim ham. Uyda ham nima bor? Albatta, xotinim yig‘lab turgan bo‘ladi. Qizaloq Bikova ham yig‘laydi – sudga tushishdan qo‘rqadi... Mishka bo‘lsa, xotinimning ukasi, uying atrofidan quzg‘undek aylanib yuribdi... E, qayerdan ham shu pul yutug‘i chiqdi! Chiqmasa yaxshi emasmidi?

Ilya Ivanich pivoning pulini to‘ladi va alam bilan mening qo‘limni siqib qo‘ydi. Xayrlashayotganda bir nimalar deb uni yupatmoqchi edim, lekin u to‘satdan so‘rab qoldi:

– Ha, aytmoqchi, yangi o‘yin tiraji qachon bo‘larkin? Ming so‘mgina yutsam yomon bo‘lmasdi, yaxlitgina summa...

Ilya Ivanich pushti bo‘yibog‘ini tortib qo‘yib, menga yengil bosh silkidi-da, shoshilib uyiga jo‘nadi.

1923

## INQILOB QURBONI

Yefim Grigoryevich etigini yechib, oyog‘ini menga ko‘rsatdi. Bir qaraganda unga hech narsa bo‘lmagandek edi. Faqat diqqat bilan razm solganda, tovonida allaqanday chandiq va yara-chaqa ko‘zga tashlanadi.

– Bitib ketar, – dedi Yefim Grigoryevich g‘amgin. – Nima ham qilardim – yettinchi yil ketyapti.

– Nima bu? – deb so‘radim.

– Bumi? – dedi Yefim Grigoryevich. – Buni, men senga ayt-sam, hurmatli o‘rtoq, O‘ktabr inqilobidan orttirganman. Hozir oradan olti yilcha o‘tgach, ayrimlar men ham inqilobga qatnashganman, men ham qon to‘kib, o‘zimni qurbon qilganman, deya ayyuhannos solishadi. Lekin meniki ko‘rinib turgan haqiqat. Bu yerda hech yolg‘oni yo‘q. Dalil-isboti o‘zi bilan... Men, hurmatli o‘rtoq, zavodlarda ishlamagan



bo'lsam-da, ijtimoiy kelib chiqishim Kronshtadt shahrining tug'di-bitdi meshchanlaridanman. Faqat o'z vaqtida taqdirida bor ekan – inqilob qurboni bo'lganman. Men, hurmatli o'rtoq, inqilob motori ostida majaqlanganman.

Yefim Grigoryevich menga kibr bilan qarab oldi-da, oyog'iga paytavasini o'ray turib, so'zida davom etdi.

– Shunday, motor ostida qolganman, yuk mashinasiniki edi. Biror o'tkinchi yoki boshqa bir oddiy kishining aybi, qolaversa, o'zimning e'tiborsizligim yoki shapko'rlikim oqibati bilan emas, aksincha, ayni inqilob davrida jarohatlanganman. Sobiq graf Oreshinni tanirmidingiz?

– Yo'q.

– Shunaqa... ana shu grafnikida xizmat qilardim. Pol artuvchi edim... Istasang-istamasang har kuni ikki marta ularning polini artib chiqishing kerak. Birinchi martasida mum bilan. Graflar mum bilan artishni juda yoqtirishardi. Menga qolsa, hammasiga tupurardim – ortiqcha xarajat. To'g'ri, pol yaxshi yaltiraydi. Graflar juda badavlat bo'lganlari uchun har qanday chiqimga ham tayyor edilar.

Shunday qilib, bilasizmi, qanday voqea sodir bo'ldi: men ularning polini dushanba kuni artib chiqdim, deylik, qarabsizki, shanbaga kelib inqilob, ha, inqilob bo'ldi. Dushanbada men ularning polini artib chiqdim, shanbada inqilob bo'ldi-ya. Inqilobga to'rt kun qolganda, ya'ni seshanba kuni huzurimga grafning darboni yugurib keldi.

– Tezroq bor, chaqirishyapti, – deydi. – Grafnikida o'g'irlik sodir bo'lgan, sendan ko'rishyapti. Tez! Bo'lmasa, kallangni olishadi.

Men kostumchamni yelkaga omonat tashlab, ularnikiga yugurdim. Yugurdim. Tabiiyki, xonaga otilib kirdim.

Qarasam – sobiq grafniya gilami ustida asabiy titrab turibdi, nuqul oyoqlari bilan yer tepinadi.


U meni ko'rdi-da, ko'z yoshlarini oqizib:

– O', Yefim, – dedi, – mabodo, siz mening to'qson olti tamg'ali gavhar bilan naqshlangan soatchamni o'g'irlamadingizmi?

– Nimalar deyapsiz, – dedim. – Siz sobiq grafniya? O'zim erakak bo'la turib, xotin-qizlar soatini taqamanmi? Kechirasiz-u, axir bu masxaravozlik-ku.

Grafniya yig'laydi.

– Yo'q, – deydi u, – siz o'g'irlamasligingiz mumkin emas. Shu asnoda to'satdan sobiq graf kelib qoldi va yig'ilganlarga:



– Men haddan ziyod badavlat kishiman, – deydi, – garchand sizning xotin-qizlar soatchangiz bir pullik narsa bo‘lsa-da, men bu ishni shunday qoldirmayman. Men halol qo‘limni bu iflos qilmishing uchun bulg‘ab turmayman, lekin jazoga torttiraman. Qani, yo‘qol bu yerdan!

Men derazaga qarab oldim-da, tashqari chiqdim.

Uyga qaytib, yotib oldim. Yotibman. Xafagarchilikdan zerikib ketdim. Axir, men ularning soatchalarini olgan bo‘lmasam.

Ikki kun yotdim. Ishtaham ham bo‘g‘ilib, tomog‘imdan ovqat o‘tmay qoldi, nuqul ularning naqshlangan soatchalari qayerga yo‘qoldiykin, deb o‘ylayman.

Beshinchi kuni to‘satdan miyamga bir narsa urilgandek bo‘ldi.

«Voy, onajonim, – deb o‘yladim, – axir, ularning soatchalarini upa solingan ko‘zachaga tashlagan edim-ku. Gilamda yotgan ekan, medalon deb o‘ylab o‘sha yerga tashlovdim.

O‘sha zahoti hatto ovqatlanmasdan kostumchamni yelkaga omonat tashlab, ko‘chaga otilib chiqdim. Sobiq graf zobitlar ko‘chasida yashardi.

Mana, ko‘chada yugurib boryapman, biroq allaqanday bir qo‘rquv vujudimni chulg‘ab olgan. Nima bo‘lgan o‘zi, deb o‘ylayman, nega odamlar qurol yoki zambaraklar otishmalaridan qo‘rqqandek pisib yurishibdi? Tinchlikmikan, deb o‘ylayman.

Yo‘lovchilardan so‘rayman. Ular:

– Kecha O‘ktabr to‘ntarishi bo‘lib o‘tdi, – deyishadi.

Zobitlar ko‘chasiga ham yetib keldim.

Uyga yugurib kiraman. G‘uj-g‘uj odam. O‘rtada motor turibdi. Shunda xayolimga o‘z-o‘zidan motor ostida qolmasaydim, degan fikr keldi. Motor esa joyida turibdi... Bo‘lari bo‘ldi, deb yaqinroq borib so‘radim:

– Nima bo‘lyapti o‘zi?

– Oqsuyaklarni yuk moshinasiga ortyapmiz, qamaymiz, – deyishdi, – bularni sinf sifatida tugatamiz.

Qarasam – olib ketishyapti. Sobiq grafni motor tomon sudrab ketishyapti. Odamlarni turli tomon itarib, bor ovozda qichqiraman.

– Soatchangiz, la‘nati soatchangiz ko‘zachada! Upa solingan ko‘zachada!

Quzg‘un graf bo‘lsa, menga hecham e‘tibor bermay o‘tiribdi.

Motorga yaqin borib tashlandim, o'sha zahoti la'nati motor dahshatli ovoz chiqarib, g'ildiraklari bilan meni bir chetga uloqtirib tashladi. «Bir qurbonlik tayyor», deb o'yladim.

Shunda Yefim Grigoryevich etigini qayta yechib, tovonidagi bo'rtib turgan chandiqlarga alamli tikilib turdi. So'ng etigini qayta kiyaturib:

– Ko'rdingizmi, hurmatli o'rtoq, – dedi, – o'z vaqtida kamina ham qattiq azob chekkan, aytish mumkinki, inqilob qurboni bo'lganman. Albatta, bu bilan maqtanmoqchi emasman, lekin meni xo'rlashlariga sira yo'l qo'ymayman. Aytmoqchi, turarjoy idorasining misini mening uyimni kvadrat metr lab o'Ichadi, hatto javon turgan joyni ham qo'shib hisobladi. Yana, javoningiz ostida yarim metrcha keladigan joy bor, deb meni haqorat qildi. Nahotki, javon yarim metr joyni band qilgan bo'lsa? Xo'jalik javoni-ya.

1923

## OYIMTILLA

Grigoriy Ivanovich chuqur xo'rsindi-da, yengi bilan egnini artib olib, hikoya qila boshladi.

– Men sizga aytsam, birodarlar, shlapa kiygan xotinlarni jinimdan battar ko'raman. Shlapali, oyog'iga fildekos<sup>1</sup> paypoq kiyib, qo'liga mops<sup>2</sup> ko'tarib olgan, yoki tilla tish qo'ydirgan ayollar xotin emas, menga qolsa bu xil oqsuyak xonimlar hech nimaga arzimaydi.

Bir paytlar kamina ham shu xil aslzoda xonimlardan biriga aylani-shib qoldim. U bilan sayr qildim, hatto teatrga ham olib tushdim. Hammasi ana shu teatrdan ro'y berdi. Teatrdan u o'z maslagini – g'oyasini keng ko'lamda oshkor etdi.

Oyimtilla bilan hovlida uchrashib qolgan edim. Majlisda. Qarasam, ofatijon bir narsa turibdi. Paypoq kiygan, tishlari tillodan.

– Qayerdانسiz, xonim? – deb so'radim. – Qaysi xonadan?

– Yettinchi xonadanman! – dedi.

– Yaxshi, salomat bo'ling, – dedim.

Bir qarashdayoq u menga nihoyatda yoqib qoldi. Unikiga, yettinchi xonaga tez-tez kiradigan bo'lib qoldim. Kirgandayam rasmiy qiyo-

<sup>1</sup> *Fildekos* – ipakka o'xshagan tola.

<sup>2</sup> *Mops* – tumshug'i yalpoq it.

fada: qalay xonim, vodoprovod va boshqa yoqlar joyidami? Ishlayap-timi degan savollar bilan murojaat qilaman.

– Ha, ishlab turibdi, – deydi-da, shol ro‘molga o‘ralib olgan-cha qotib turaveradi. Faqat ko‘zi bilan yeyman deydi. Tishlari bo‘lsa yiltiraydi. Unikiga bir oycha qatnagach, o‘rganib qoldi. Savollarimga to‘liqroq javob beradigan, ya‘ni vodoprovod ishlab turibdi, rahmat sizga, Grigoriy Ivanovich, deydi-gan bo‘ldi.

Keyin-keyin u bilan ko‘cha aylanadigan bo‘ldik. Ko‘chaga chiqqach, bilagidan olib yurishga ruxsat etdi. Cho‘rtan baliqdek uning bilagiga osilib yuradigan bo‘ldim. Nima desak ekan, bu odamlar nazari-da ham yomon emas edi, shekilli.

Bir kuni u:

– Nega meni hadeb ko‘cha aylantirasiz? – deb qoldi. – Boshim aylanib ketdi. Siz ham boshqa yigitlardek boshqa yoqlarga, hech bo‘lmasa teatrga olib tushsangiz.

– Xo‘p bo‘ladi, – dedim.

Xuddi ikkinchi kunning o‘zidayoq boshlang‘ich tashkilot qo‘mitasi operaga ikkita chipta jo‘natdi. Bittasini o‘zim oldim, ikkinchisini chilangar Vaska men uchun qurbon qilar bo‘ldi. Chiptaga qaragam, har xil ekan. Menikiga – pastga, Vaskanikiga – eng yuqoriga, galereyada o‘tirish kerak ekan.

Bordik. Teatrdagi o‘tiribmiz. U mening joyimga o‘tirdi, men – Vaskanikiga. Tepada o‘tiribman, hech vaqo ko‘rinmaydi. To‘sindan egilib qaragam, uni arang ko‘raman. Zerikib ketdim, pastga tushdim. Qaragam – antrakt. U chiqib kelyapti.

– Salom! – dedim.

– Salom.

– Qiziq, bu yerda vodoprovod ishlamasmikan? – deb so‘radim.

– Bilmasam, – dedi-yu, bufet‘ga qarab yurdi. Uning izidan men ham. Bufetga yaqin borarkan, peshtaxtaga qaradi. Peshtaxta ustida patnis, patnisda pirojniy.

Men bo‘lsam o‘sha beparvo, sovuq juvonning yonida turib, unga taklif qilaman.

– Birorta pirojniy yegingiz kelsa, uyalib o‘tirmang. Men pulini to‘layman.

– Mersi, – dedi u.

---

<sup>1</sup> Yengil tamaddixona.



Shunda beso'naqay bir yurish bilan borib, patnisdan qaymoqli pirojniy olib, tushira boshladi.

Menda esa pul hisobli. Zo'rg'a uchta pirojniyga yetsa kerak. U yeb turibdi, men bo'lsam bezovta, cho'ntagimga qo'limni tiqib, qancha pulim qolganini taxminan hisoblab ko'raman. Pulning esa cho'g'ini kul bosgan.

Qaymoqli pirojniyni yeb bo'lib, u boshqasiga qo'l cho'zdi. Baqirib yuborishimga sal qoldi. Lekin baqirmadim. Uyat ustunlik qildi. Jazmaning puli yo'q ekan, deb o'ylamasinlar tag'in, dedim.

Uning atrofida xo'rozga o'xshab aylanib turibman, u bo'lsa hiringlab mendan maqtov so'zlari kutadi.

– Teatrga kirish payti kelgandir? – deyman. – Qo'ng'iroq chalingandir?

– Yo'q, – deydi u va uchinchisini oladi.

– Och qoringa yaxshi emasdir? – deyman, – ko'nglingizni aynitmasin tag'in?

– Yo'q, bizlar o'rganib ketganmiz, – deydi. To'rtinchisini oladi.

Shunda boshimga qon urdi.

– Qo'y, joyiga qo'y! – dedim. U qo'rqib ketdi. Og'zi yarim ochildi. Tishlari yiltiradi.

Men esa dumiga changal qistirilgandek pishqirib turibman. Baribir endi u bilan yurmayman, deb o'ylayman.

– Qo'y joyiga, ochofat! – deyman.

U joyiga qo'ydi.

– Mana bu yegan uchta pirojniy qancha bo'ladi? – deb so'radim sotuvchidan.

Sotuvchi beparvo, loqaydlik bilan:

– Yeyilgan to'rtta pirojniy uchun deng, – deya tuzatgan bo'ldi.

– Qanaqasiga to'rtta bo'lsin? – dedim. – To'rtinchisi patnisda turibdi-ku.

– Yo'q, – dedi sotuvchi, – patnisda turgan bo'lsa-da, u tishlangan, barmoq bilan ezilgan.

– Kechirasiz, qanaqasiga tishlangan bo'lsin? – dedim. – Bu sizning xayolingizda shunday.

Sotuvchi loqaydlik bilan basharamga qo'l silkib turibdi.

Shubhasiz, odamlar – ekspertlar to'planishdi.

Birovlar – tishlangan desa, boshqalari – tishlanmagan deydi.

Men cho‘ntaklarimni ag‘dardim, albatta, bir nimalar polda dumalab ketdi. Odamlar qah-qah urishadi. Hech kulgili yeri yo‘q. Men bo‘lsam pul sanayman.

Hisoblab ko‘rdim – roppa-rosa to‘rt donaga yetib qoldi. Onam hurmati, bekorga g‘alva ko‘taribman.

Pulni to‘ladim. Oyimtillaga:

– Qolganini ham yeng, xonim, – dedim. – Puli to‘langan.

Oyimtilla qimir etmaydi. yeyishga uyalsa kerak.

Allaqayerdan paydo bo‘lgan bir amaki:

– Obkel, men yeyman, – dedi.

Ablah yamlamay yutdi qo‘ydi. Mening pulimga kelgan edi-ya.

Teatrga kirdik. Operani oxirigacha ko‘rib, uyga qaytdik. Uy oldida u menga o‘zining aslzodacha ohangida:

– Munchalik isqirt, ziqna bo‘lmasangiz, – dedi, – axir, pulsiz qaysi erkak xotinlar bilan yuradi?

– Kechirasiz, xonim, baxt faqat pulda emas, – dedim.

U bilan shunday ajralishdik.

Aslzoda, oyimtillalarni hecham yoqtirmayman.

1923

## STAKAN

Yaqinda bu yerda bo‘yoqchi Ivan Antonovich Bloxin kasallanib, o‘lib qoldi. Uning bevasi, o‘rta yoshlardagi juvon Marya Vasilyevna Bloxina marhumning qirqi kuni kichkina bir marosim o‘tkazdi.

Meni ham taklif etdi.

– Keling, – dedi, – xudoning bergani bilan rahmatlining arvochini shod qilaylik. Harqalay, tovuq va qovrilgan o‘rdak, qiyma jigar bo‘lmasa-da, – dedi, – istagancha choyxorlik qilishingiz, hatto u-bu narsalardan uyga ham olib ketishingiz mumkin.

– Choyni unchalik xush ko‘rmasam-da, mayli, kelishim mumkin, – dedim men. – Ivan Antonovich Bloxin meni juda yaxshi ko‘rardi, hatto shiftimni tekinga bo‘yab bergan edi.

– Shundayakan, albatta keling! – dedi.

Payshanba kuni kirib bordim.

Anchagina odam to‘planibdi. Uzoq-yaqin qarindoshlar. Qaynisi Pyotr Antonovich Bloxin ham bor. Mo‘ylovi dikkaygan, zahar bir

odam, Tarvuzning ro'parasida o'tirib olibdi. Yana deng, boshqa muhim hidi yo'qdek qo'lidagi pakkicha bilan tarvuzdan kesib olib, yeb turibdi.

Men esam bir stakancha choy ichib qonib qoldim. Ko'nglim hech narsa tusamaydi, deng. Umuman, choyi unchalik o'tirishmadi, chipta hidi anqiydi. E, bor-e, dedim-da, stakanni bir chetga surib qo'ydim. Sal ehtiyotsiz surgan ekanman, shu yerda turgan qanddon noxos unga urilib ketsa bo'ladimi. La'nati stakan chatnagandek bo'ldi. Sezishmasa kerak deb o'ylovdim. Sezishdi, xumparlar.

Beva gap qotdi:

– Stakan sindi, shekilli, otaginam?

– Bezalar, Marya Vasilyevna Bloxina, – dedim men, – hali bemalol ishlataversa bo'ladi.

Tarvuzdan to'yib olgan qaynisi gapga aralashdi:

– Nimasi bezalar? Judayam bezalar ekan-da! Bir sho'rlik beva ularni mehmonga chaqirsin-ku, ular bo'lsa bekordan bekorga beva-ni buyumlarini sindiraverishsin! Shundaymi, a?!

Marya Vasilyevna stakanni ko'zdan kechirdi-da, battar xafa bo'lib ketdi.

– Xonadonda stakanning sinishi, bu – xonavayron bo'ldim degan gap, – dedi alam bilan. – Tavba, birovi stakanni sindirsa, ikkinchisi samovarning jo'mragini tovlab olsa, uchinchi birov – salfetkani o'g'irlab, cho'ntakka ursal. Oqibati nima bo'ladi, axir?

– Bo'lmasam-chi, – deya bo'kirdi ochofat qaynisi. – Bunaqa mehmonlarning basharasini tarvuz bilan majaqlash kerak!

Men hech nima demadim. Faqat rangim oqarib ketdi.

– Menga qarang, o'rtoq qayni, – dedim, – basharaga til tekiz-mang. Basharam haqida eshitish men uchun nomus. Men, o'rtoq qayin, hatto tuqqan onamga ham basharamni tarvuz bilan majaqlash-ga yo'l qo'ymayman. Umuman, choyingizdan chipta hidi keladi! Siz nobakorlar uchun ikkita stakan va bitta krujkani sindirsa ham kamlik qiladi!

O'zingizdan qolar gap yo'q, shundan keyin shovqin-suron ko'tarildi. Boshqalarga nisbatan qayni ko'proq o'shqiradi. Yegan tarvuzi kallasiga urgan, shekilli.

Beva ham g'azabdan qaltirab turibdi.

Mening choyga chipta solish odatim yo'q, – dedi u, – ehtimol, o'zingiz uyingizda choyga chipta solib, aybni boshqalarga to'nkararsiz. Bo'yoqchi Ivan Antonovich bu xil haqoratli g'iybatlardan go'rida tik-

ka turgandir, balkim... Shundan keyin men Siz itfe'lni sirayam omon qo'yman.

Ularga qarshi hech nima demadim, faqat:

– Hammalaringizga, qayningizga ham tupuraman, – dedim, – tuf!

Zudlik bilan chiqib ketdim.

Shu voqeadan ikki hafta keyin Bloxina xonim ishi bo'yicha sud-dan chaqiriq qog'ozi oldim. Ishni ko'rgan xalq sudyasi:

– Hozir hamma sudlar shunga o'xshash ishlar bilan ko'mib tash-langan. Endi bunisi kammidi, – dedi, – shu xotinga ikki tiyin to'lab, kameraning havosini bulg'amay qo'yaqoling.

– To'lashdan qochmayman, – dedim men, – faqat me'yoriy tar-ib yuzasidan o'sha yorilgan stakanni menga bersin.

– Mayli, olaver, – dedi beva, – o'sha stakan bilan qo'shmozor bo'!

Bilasizmi, ikkinchi kuni ularning qorovuli Semyon stakanni men-ga obkelib berdi. Qarasam, stakan yana uch joyidan yorilgan edi. Ataylabdan qilishgan.

Buning uchun ham hech nima demadim, faqat:

– O'sha ifloslaringga aytib qo'y, – dedim, – endi ularni sudma-sud sudrash navbati menga keldi.

Shunaqa, shaxsiyatimga tegishsa, tribunal'gacha ko'tarilishim aniq.

1923

## MATRENAXON

Ayrim kambag'al-faqirlar hovli-joyli bo'lishdi, Ivan Savichga biror-bir qo'ra ham nasib etmadi. Chetga chiqmadi. Ivan Savich Katta Pushkar ko'chasidagi o'zining avvalgi uyida yashardi.

O'ziam uymisan uy-da, birodarlar! Nomigagina uy, har burchak-da bir qora ko'zga tashlanadi. Anisya buvi – bir, Fekla buvi – ikki, Pashka Ogurchik – uch... Tuf-ey, sanashning o'zi bir azob!

Shu xil uyda yashash bo'yoqchi va rassom kasbiga ega bo'lgan Ivan Savich uchun judayam ko'ngilli emas edi. Birda shunday voqea

---

<sup>1</sup> Favqulodda sud organi.



ro'y berdi: Anisya o'zining ichko'ylaklarini u chizgan rasmlarga ilib, osib qo'yibdi. Qarang, qanday tanggi-tor uy. Shuning uchun bo'lsa kerak, Ivan Savich kambag'allikdan sira qutula olmasdi.

Ivan Savichning xotini ham bor edi. Bebaho rafiqasi Matrena Vasilyevna deb ataladi. Naq yalmog'iz-shaytonning o'zi. Birodarlar, bu xil xotinni butun Sovetlar Rossiyasini izlasangiz ham topa olmay-siz. Mabodo, topguday bo'lsangiz, birinchi ko'rishdayoq hech qanday amnistiyani kutib o'tirmasdan, o'sha zahoti majaqlab tashlang.

Ivan Savich uni Motya deb ulug'lardi. Ofarin, Motya! Matrena. Matrenaxon! U Ivan Savichni har maqomga solardi. Bu iblis xotin Ivan Savichni o'lishga ham qo'ymas edi. Xudo haqqi shunday! O'lgudek ablah xotin. Faqat qopmas edi, xolos. It bilsin, ehtimol qopgandiram. Qayerdagi janjal, mushtlashuv, yulib-yulqinish bo'lsa, o'sha yerda Matrenaxon hozir-u nozir. Baliq suv bilan, to'ng'iz balchiq bilan, deganlaridek u ham janjal bilan tirik edi. Birovlardan kaltak yesa, birovlarining betini yumdalardi.

Shunga qaramay, u Ivan Savich bilan o'n besh yilcha bir jon, bir tan bo'lib yashadi. Shubhasiz, mushtlashgan paytlari ham bo'lgan. Gohida qon to'kilgan bo'lsa-da, aytarli katta janjal, yoki qotillik ro'y bermagan. Harqalay, Matrenaxon Ivan Savich o'ziga xos odamligini yaxshi tushunardi. Darhaqiqat, eri katta iste'dod egasi edi. Gohida shunday narsalarni chizib tashlaydiki, hatto tushunish ham amrimahol. Bir so'z bilan aytganda, o'ziga xos rassom. Buning ustiga o'ta tirishqoq. Biroq omadi chopmagan. Juda qashshoq yashardi.

Juda qashshoq yashagan ana shu kishi kasal bo'lib qoldi. Kasal bo'lishdan oldin, mazasi qochib, madori quridi. Harqalay, oyoqlari majolsiz bo'lsa-da, ularni qimirlata olar, faqat asablari, ruhiyati yaxshi emas edi. Boshqacharoq, yengil bir hayotni qo'msardi. Har xil kema-chalar, qip-qizil chechaklar, gullar, allaqanday saroylar tushiga kirib chiqadi. O'zi ancha odamovi, qo'rqqoq va xayolchan bo'lib qoldi. Nega bizning uyda tinchlik yo'q, deb nuqul xafa bo'ladi. Nega Anisya buvi plitka yonida filga o'xshab yuradi? Nega Pashka Ogurchik har kuni balalaykasini tiringlatadi?

Faqat osoyishta bo'lishni xohlardi. Harqalay, u o'limga tayyorgarlik ko'rayotgandek edi. Hatto baliq yegisi kelib ketdi. Nuqul sho'rbaliq so'rardi.

Seshanba kuni kasal bo'lgan bo'lsa, chorshanbada sho'rbaliq so'radi, payshanbada esa Matrena unga zug'um qila boshladi.

– Nega yotib olding? – dedi. – Bahona qilib yotgandirsan? Men qayerdan bilay. Ehtimol, ishni uddalaging kelmayotgandir.

Xotin qancha egovlamasin, er sukut saqlaydi.

«Mayli, qancha valaqlasa valaqlayversin, – deb o‘ylaydi. – Endi menga baribir. O‘limim yaqin, birodarlar».

O‘zi bo‘lsa o‘t bo‘lib yonadi, inqillaydi, kechalari to‘shakda to‘lg‘anib chiqadi. Kunduzlari bo‘lsa, o‘laksa itga o‘xshab majolsiz cho‘zilib yotadi. Nuqul xayol suradi.

– O‘limim oldidan tabiat og‘ushiga borgim kelyapti, – deydi, – ko‘ray-chi, qanaqa ekan. Hech qachon, hali bunaqasini ko‘rmaganman.

Uning shu xil xayol surishlariga yana ikki yoki uch kun qolganda quyidagi ahvol ro‘y berdi.

Matrena Vasilyevna katga yaqin kelib so‘radi:

– O‘layapsanmi?

– Ha, – dedi Ivan Savich, – o‘layapman, Motya... Oyoqlarim yengillashib qolganday. Go‘yo uzilayotganday.

– Men bo‘lsam senga ishonmayman, – dedi Motya, – hozir do‘xtirni chaqiraman. Do‘xtir anig‘ini aytsin. Ana o‘shanda sening o‘lish, o‘lmasligingni kelishib olamiz.

U kommunal shifoxonasidan rayon do‘xtirini chaqirdi. Rayondan kelgan do‘xtir Ivan Savichni ko‘rdi va Motyaga:

– Ahvoli og‘ir, – dedi. – Men ketishim bilan bandalikni bajo qilsa kerak.

Rayondan kelgan do‘xtir shunday degancha, tashqari chiqdi.

Shunda Matrena Ivan Savichga yaqin keldi.

– Demak, rostakamiga o‘lmoqchisan-a? – dedi. – Shunaqasi o‘lib ketishingga yo‘l qo‘yib bo‘pman. Ha-ha, sen sang‘i yotib oldim, endi nima qilsam bo‘laveradi, deb o‘ylasang kerak. Aldoqchisan! O‘lishingga yo‘l qo‘ymayman. Ho, sen boyvachcha, yo‘q, itvachcha o‘lishni xohlab qoldingmi? O‘lishing uchun sen mutahamda pul qani? Masalan, hozir o‘likni yuvish uchun ham pul kerak.

Shunda soddadil Anisiya buvi gapga aralashdi.

– Men yuvaman, – dedi, – Ivan Savich, men seni yuvaman. Hayron bo‘lma. Buning uchun sendan bir chaqa ham olmayman. Ma-yitni yuvish juda savob, xudo buyurgan ish.

Shunda Matrena Vasilevna Anisiya buviga ham zug‘um qildi.

– Ha-ha, – dedi, – xo‘p, yuvdik ham deylik. Tobut-chi? Masulan, o‘likni tashishga arava-chi? Qurib ketsin! Uning o‘lishiga yo‘l qo‘ymayman. Avval o‘limligi uchun pul jamg‘arsin... Ivan Savich, pul jung‘ar, mayli, keyin go‘rga, menga desa ikki marta o‘lgin – hech nima demayman.

Bu xil so‘zlardan hatto Ivan Savich ham oqarib ketdi.

– Qanaqasiga, Motya? – dedi. – Axir o‘lish menga bog‘liq emas-ku. Men pulsiz o‘lib ketyapmanmi, Motya?! Bu nima deganing?

– Hali shunaqami? – dedi Matrena Vasilyevna. – Bermayman, dedimmi, bermayman. Kechqurungacha pul mening qo‘limda bo‘lishi kerak. Bor, yerning ostidan bo‘lsa ham topib kel! Tamomvassalom.

– Xo‘p, – dedi Ivan Savich, – borib iltimos qilaman.

Bilasizmi, Ivan Savich to kechgga qadar shu ahvolda murdaday, bir nafasi kelib, bir nafasi kelmay yotdi. Kechqurun kiyina boshladi. Kaddan turib, inqillagancha ko‘chaga chiqdi. Juda qo‘rqinchli bir holatda: burni surnayday, qo‘llari yonida shalvirab turibdi, oyoqlari yerda arang sudraladi. Hovliga chiqdi. Qorovul Ignatni uchratdi.

– Tuzalishingiz bilan, Ivan Savich! – deya tabriklagan bo‘ldi qorovul.

Ivan Savich unga alam bilan tikilib:

– Ignat, ho Ignat, – dedi. – Menga pul ber... bu pulni qaytarolmayman. Chunki ertaga o‘laman. Motya qo‘ymayapti. Marhumni yuvish uchun. Yo‘q dema, Ignat, arzimagan pul.

– Qoch, uyoqqa, – dedi Ignat sekin, – senga qarash juda qo‘rqinchli, birodar.

Ivan Savich ketdi. Ko‘chaga chiqdi. Katta shoxko‘chagacha yurib bordi. G‘o‘ladan qilingan kursiga o‘tirdi. Baland qichqirmoqchi bo‘ldi, lekin ovozi juda past chiqdi.

– Birodarlar, o‘layapman.

Kimdir uning tizzasiga pul qo‘ydi. Keyin yana va yana. Kechga yaqin Ivan Savich uyga qaytdi. Ust-boshi qor, o‘zi terlab ketgan. Kela-solib katga yotib oldi. Uning qo‘llarida pul bor edi. Motya sanamoqchi bo‘lgan edi – bermadi.

– Teginma, tort, harom qo‘llaringni, – dedi. – Bermayman.

Ertasiga Ivan Savich yana o‘rnidan turdi. Yana inqillay-inqillay kiyinib chiqdi, kaftini ochib ko‘cha boshida o‘tirdi.

Kechga yaqin pul bilan qaytdi. Tushumni sanab, o'rniga kirib yotdi.

Uchinchi kun tag'in chiqdi. Keyin qayta-qayta chiqdi – xullas, bemor oyoqqa bosib ketdi.

Shunday qilib o'lmadi. Matrena uning o'lishiga yo'l qo'ymadi.

Albatta, qandaydir bir rayon do'xtiri bu hikoyani o'qib, kulib qo'yar. Hali fanda bu xil fakt uchramagan, Matrena Vasilyevnaga yo'l bo'lsin, der. Ehtimol, bu xil fakt haqiqatan ham fanda uchramas, lekin Ivan Savich hozirga qadar tirik. Hatto har kuni kechqurun katta shoxko'chaning Gulyarniy ko'chasidagi muyulishda past, xirillagan ovoz bilan o'tgan-ketganlardan sadaqa so'rab o'tiradi.

Bilasizmi nima? Bu hodisani tibbiyot nuqtayi nazaridan ham ilmiy asoslash mumkin. Ehtimol, Ivan Savich ko'chaga chiqish oldidan qattiq hayajonlanib, terga botgandir va ana shu ter bilan barcha kasalliklari chiqib ketgandir.

Bunisi ham noma'lum.

1923

## ISKOVUCH

Savdogar Yeremey Babkinning yonut terisidan qilingan po'stinini o'g'irlab ketishdi.

Savdogar Yeremey Babkin dod-voy soldi. Esiz, po'stin, juda alam qildi unga.

– Bilasizlarmi, og'aynilar. – dedi u. – Juda yaxshi po'stin edi. Esiz. Qancha bo'lsa ham sarflab, o'g'rini topaman. Uning basharasiga tupuraman.

Shunday qilib, Yeremey Babkin jinoyat qidiruv bo'limidan iskovuch itni chaqirdi. Oyoqlariga paytava o'ragan, shapkali bir kishi keldi. Oldida bir it. Koshki it bo'lsa, ko'rimsiz, tumshug'i ingichka, jigarrang bir kuchukcha.

Haligi kishi kuchukchasiga eshik oldidagi izni hidlatdi-da, «ps» degancha o'zi nari ketdi. It havoni hidlab ko'rdi, so'ng guruhga ko'z yugurtib chiqdi (albatta, odamlar to'planib turishardi), so'ng beshinchi uyda yashovchi Fekla buviga yaqin kelib hidlay boshladi. Kampir o'zini to'daga urdi. It uning yubkasiga osildi. Kampir bir chetga



qochmoqchi edi, it quvib tutdi. Kampirning yubkasidan tishlab olib, yubormay turdi.

Kampir o'zini izquvarning oyog'i ostiga tashladi.

– Qo'lga tushdim, – dedi u. – Tonmayman. Beshta chelakda samogon uchun achitqi tayyorlab qo'yganman. Chindanam, apparatning borligi haqiqat. Hammasi vannaxonada turibdi. Mayli, meni militsiyaga oboring.

Butun xalq hayratga tushdi.

– Po'stin haqida hech narsani bilmayman, – dedi, – boshqa hammasi to'g'ri. Olib borib o'ldiring meni.

Kampirni olib ketishdi.

Izquvar yana o'z kuchukchasining burnini izga bosib oldi-da, «ps» degancha o'zi nari ketdi.

It atrofga ko'z yugurtib chiqdi, so'ng ochiq havoni hidladi va to'satdan uy boshqaruvchisiga yaqinlashdi.

Uy boshqaruvchisi oqarib ketdi va o'zini tashlab yubordi.

– Mehribon odamlar, o'qimishli o'rtoqlar, – dedi, – bog'langlar meni. Suv uchun sizlardan pul yig'ib olib, hammasini o'z chiqimlarimga sarflaganman.

Albatta, istiqomat qiluvchilar uy boshqaruvchisiga tashlanib, uni bog'lab qo'yishdi. Shu orada iskovuch it yettinchi uyda yashovchi kishiga yaqin keldi. Uning ishton-pochasidan torta boshladi.

Rangi qum-qut o'chgan haligi kishi xalq oldiga dumalab tushdi.

– Aybdorman, – dedi, – hammasiga iqorman. Men, haqiqatan ham mehnat daftarchamdan bir yilni o'chirib tashlagan edim. Men, qirchang'i, armiyada xizmat qilish, ona-Vatanni himoya qilish o'miga yettinchi nomer<sup>1</sup>da yashab, elektr va boshqa xil qulayliklardan foydalanib yotibman. Ushlanglar, meni!

Xalq o'zini yo'qotib qo'ydi.

«Juda ajoyib, aqlli it ekanmi?» deb o'ylashdi. Savdogar Yeremey Babkin atrofga qarab olib, ko'zlarini piri-piratdi, so'ng yonidan pul chiqarib, izquvarga berdi.

– Qurib ketgur, cho'chqadan tarqagan bu kuchukchangni olib ket, – dedi, – yonut po'stin yo'qolsa satqayi sar. Kerak emas...

It bo'lsa xuddi shu yerda. Savdogarning ro'parasida dum urib turibdi.

O'zini yo'qotib qo'ygan savdogar Yeremey Babkin nari ketdi, it unga ergashdi. Unga yaqinlashib, kalishlarini hidlay boshladi.

<sup>1</sup> Xo'jalik uyining yettinchi xonasida demoqchi.

Savdogarning rangi oqarib, tili tutilib qoldi.

– Bilasizlarmi, – dedi, – xudo shohid, hammasi to‘g‘ri. Men, chinakamiga kazzob, muttahamman. Qo‘g‘aynilar, po‘stin ham o‘zimmiki emas edi. Uni o‘z akamdan o‘marganman. Uvvos solib yig‘lagim kel-yapti!

Xalq har tomonga tarqab ketdi. Iskovuch itga havoni hidlashga ham vaqt qolmagandek, ikki-uch kishini etagidan baravariga tishlab olib, ushlab turaverdi.

Bular ham iqror bo‘lib turishardi. Ulardan biri xalq pulini qimorga boy bergan, ikkinchisi dazmol bilan xotinini tushirgan, uchinchisi aytgan gapni tilga olish noqulay.

Qolganlar ham qochib ketishdi. Hovli bo‘shab qoldi. Faqat izquvar bilan it qoldi, xolos.

Shunda to‘satdan izquvarga yaqin kelib, dumini likillatib turaverdi. Rangi oqarib ketgan izquvar o‘zini it oldiga tashladi.

– Tishlang meni, – dedi. – Men sizning ovqatingizga ajratilgan uch chervondan ikkitasini o‘zimga olib qolardim...

– Keyin nima bo‘lgani – noma‘lum. Harqalay gunohlardan forig‘ bo‘ldim.

1923

## ITFURUSH

Vasya Semechkin degan yashardi. Bekorchi. Uni shtat qisqartish bahonasida bo‘shatgan bo‘lsalar-da, parvosiga kelmasdi.

– Mayli, – dedi u, – biror erkinroq ish toparman.

Nima qilsin: o‘tin tayyorlab sotsinmi, yoki boshqa biror ish bilan shug‘ullansinmi? Shu haqda o‘ylay boshladi. Nihoyat, yo‘li topildi.

To‘rtinchi uyda dunyoga dong‘i ketgan bir olim chol yashardi. Qariya itlar ustida turli xil tajribalar o‘tkazardi. Ba‘zan itning ichak-chavog‘ini tikar, gohida turli xil zardoblar o‘tkazar, vaboga qarshi emlar, hech ish topolmasa, itning dumini kesib, hayvonlarning dumsiz yashay olish, olmasligini kuzatardi.

Ittifoqo, bir kuni dunyoga dong‘i ketgan shu olim Vasyani hovlida uchratib qolib dedi:

– Ilmiy tajriba o‘tkazish uchun sizda biror kuchukvachcha topilmasmikin? Har bir itga uch so‘mdan to‘layman.

Vaska quvonib ketdi. O‘sha zahoti:

– Bor, topiladi, – dedi. – Tajriba uchun it topish mening asosiy kushim. Marhamat. Istagan paytingizda murojaat qilishingiz mumkin.

Qo‘l tashlashib, ayrilishdi.

Birinchi bo‘lib uy boshqarmasi boshlig‘ining iti yo‘qoldi. Bechora boshliq qattiq qayg‘urdi. Uyini tashlab ketmoqchi bo‘ldi, o‘zini tomdan tashlamoqchi bo‘ldi. Harqalay yaqinda o‘tadigan saylovlar uni bu shashtidan qaytardi.

Ikkinchi it yettinchi xonadan yo‘qoldi. Bu junlari osilib turuvchi, ko‘zlari qip-qizil bolonka<sup>1</sup> bo‘lib, shundayam bedavo kuchukvachcha ediki, qaragan odamning ko‘ngli ozib ketardi. Buning ustiga yomon tishlong‘ich. Vaskaning qo‘lida hamon chandiq bor.

Uchinchi itni Vaska ko‘chadan tutdi. Shundan keyin ishlar jo‘nashib ketdi.

Bir kuni dunyoga dong‘i ketgan olim chol:

– Bu qanaqasi, azizim, – dedi Vaskaga, – sen menga hamisha bo‘lmag‘ur, iflos itlarni olib kelasan? Endi oshqozon osti temir bezlari ustida tajriba o‘tkazmoqchiman. Shuning uchun menga baquvvat, chiroyli, dumi hamisha o‘ynab turadigan zo‘r it kerak. Masalan, pichoq ostida o‘ynab turadigani bo‘lsin.

Ertalabdan Vaska shu xil itni izlab chiqdi – yo‘q. Qaytaverishda uvoqqina bir qanjiqni qopga solib oldi.

Korpovkani oralab o‘tayotgan edi, qarasa, ustun yonida bir it turibdi. Zo‘r it. Nuqul havoni hidlaydi.

Vaska quvonib ketdi. Bay-bay. It juda kelishgan, dumi ham dikka-yib turibdi, chor atrofga alanglaydi.

Vaska unga yaqin kelib, non tutdi.

– Max, max, kuchukcha...

It bo‘lsa g‘ingshib, dumini o‘ynatdi. Vaska qopning og‘zini ochib itga yaqin borgan edi, u shap etib qo‘lidan oldi. Qani endi qo‘yib yuborsa.

Vaska qo‘lini tortdi – qani endi yuborsa. Odam to‘plana boshladi. Olomon. Shunda kimdir:

– Og‘aynilar, axir bu jinoyat qidiruvchi it-ku, – dedi, – oti Trefka.

Bu gapni eshitib Vaskaning esi og‘ib qoldi. Qo‘rquvdan yerga quladi. Qo‘lidagi qopning og‘zi ochilib, undan haligi qanjiq chiqib, dumini qisganicha bir chetga borib turdi.

<sup>1</sup> It zoti.

– Aha, – deya qichqirdi xaloyiq. – Axir, bu it o‘g‘risi-ku. Ushla uni!

Vaskani tutib, militsiyaga olib keldilar.

So‘ng uni sud qildilar. Harqalay oqlandi. Birinchidan – ishsiz, och qolgan. Ikkinchidan, bu ishni u fan taraqqiyoti uchun qilgan.

– Bundan keyin it o‘g‘irlama, – deyishdi unga.

Shundan beri Vaska o‘tinfurushlik qilib turibdi.

1923

## HISOB-KITOBLI NIKOH

– Avvallari odamlar, butunlay boshqacha edi, – deya so‘z boshladi Grigoriy Ivanovich. – Hamma narsa kuyovlarning kaftida turganday. Aytaylik, mana kelinposhsha, mana uning onasi, mana bunisi esa – sepi. Yana sep bo‘lgandayam, qanaqa sep deng, pulga chaqilgan yoki poydevori tashlangan uy bo‘lishi mumkin.

Mabodo, pul bilan bo‘lsa, saxiy qaynata uning necha so‘mligini e‘lon qiladi. Mabodo, poydevori tashlangan uy bo‘lsa – uning qanaqa uyligini ayting? Ehtimol, bu cho‘pkoridir, ehtimol g‘ishtin. Hammasi ravshan, hammasi tushunarli, hech qanday qalbakilikka o‘rin yo‘q.

Xo‘sh, endi-chi? Endi, kuyovbola qanchalik aralashmasin, aniq-lab bo‘pti! Chunki, hozirgi ota-onalarda sepqa pul berish odati yo‘q. Mol-mulkka umid qilgan kuyovlarga esa bundan ham og‘ir. Aytaylik, qo‘zg‘almas mol – bitta po‘stin qoziqqa osilgan. Osilsa osilgan-dir. Bir oy, ikki oy osilib turaverishi mumkin. Masalan, uni har kun ko‘rish va qo‘l bilan ushlab mumkin deylik, lekin ana shu po‘stin, ehtimol kelinga qarashli emas, boshqa bir ijarachinikidir. Yoki manavi parqu to‘shakni olaylik. Ko‘rinishda parqu, yotib ko‘rsang nuqul pat joylangan.

Mana sizga mol-mulk! Bu xil mol-mulk bo‘lgandan ko‘ra qon qusgan afzalroq.

Bu olamda nimalar bo‘lmayapti deysiz. O‘ylab o‘yingga yetol-maysan.

To‘qqizinchi yildan beri keksa inqilobchi, barcha partiyalarda bo‘lganligimga qaramasdan, bunga mening ham aqlim yetmay, boshim aylanib ketdi.



Faqat, xizmat qiladigan qalliqarning bir tomoni bor. Ularning oyligi, malaka darajasi, toifasi aniq, aldashmaydi. Biroq shunda ham chuv tushish mumkin ekan.

Menga ham bir qiz yoqib qoldi. Ko'z qisishdik. Tanishdik. U yondan-bu yondan gapga soldim. Qayerda ishlaysiz, qancha olasiz? Darajangiz nechanchi, maoshingiz qancha, deb so'radim.

– Omborda ishlayman, – dedi, – maoshim falon qadar.

– Mersi, a'lo, – dedim. – Siz menga yoqib qoldingiz. Darajangiz joyida, maoshingiz ham ko'ngildagiday, – dedim. – Tanishaylik.

Kinoga tusha boshladik. Pulni men to'layman. Bir hafta, ikki hafta qatnagach, meni uyingizga oboring, deb shart qo'ydim.

Uyiga obordi. Albatta uyida kampir – oyisi, kekxa inqilobchi – otasi, qiz – kelin va ularning ro'parasida men – kuyovday bo'lib o'tiribmiz.

Undan keyin boshlandi. Ularnikiga mehmon bo'laman, uyni ko'zdan kechiraman. Onaxon bilan falsafa so'qishamiz. Masalan, qanday yashayapsizlar, og'ir emasmi? U-bu masalalarda yordam kerakdir?

– Yo'q, hech qanday muhtoj emasmi, – deydi. – Faqat sep masalasida aldamoqchi emasman. Ko'rpa-to'shak va besh-oltita qoshiq berishim mumkin.

– Eh, xudo yorlaqagur, kampir, – dedim, – besh-oltitami, o'n-o'n beshtami, keyin ma'lum bo'ladi. Eldan burun gapirishga arzimaydi. Sizning qizingiz menga shundayam yoqadi, – dedim. – Harqalay, o'n beshinchi daraja, imtiyozlar, talonlar... ana shularning hammasi menga sep o'rmini bosadi.

Xudo yorlaqagur, kampirsho yig'lab yubordi. Kekxa inqilobchi otaxonning ham ko'zlari yoshlandi.

– Mayli, undoq bo'lsa uylanaqol, bo'tam, – dedi.

Unashish. Suhbatlar. Xo'rsinishlar.

Xudo yorlaqagur, kampirsho, cherkov masalasida ishora qildi. Cherkovdan o'tsangizlar yomon bo'lmasdi emish. Men bo'lsam:

– Shundoq ham bo'laveradi, – dedim, – men kekxa inqilobchi-man. Hatto tozalashni ham kutmasdan partiya safidan o'zim ketganman. O'z e'tiqodimga qarshi bora olmayman. So'rab o'tirmang.

Kampirsho yig'ladi. Kekxa inqilobchi otaxonning ham ko'zlari yoshlandi. Shunga qaramay rozi bo'lishdi.

Turmush qurdik.



Yosh, chiroyli xotinim ertalab azon bilan xizmatga ketib, to'rtida uyga qaytadi. Qo'lida tuguncha.

Yana shirin, jon o'rtovchi so'zlar – tur, Grisha, jonim, keyin yotasan, deydi.

Yana baxtiyorlik yoshlari va asal oyi.

Shu xil munozaralar yangicha hisob bilan ikki oycha davom etdi.

Ittifoqo, yana bir kuni yosh, chiroyli xotinim uyga qaytib, uvvos solib yig'ladi. Qo'lida tugunchasi yo'q edi.

– Nega yig'laysiz, nahotki tugunchani yo'qotgan bo'lsangiz? – deb so'radim.

– E, yo'q, – dedi u, – tuguncha ham gapmi? Shtat qisqarib, meni ishdan bo'shatishdi.

– A, nima? – dedim. – Rostdanmi?

– Ha, – dedi.

– Kechirasiz, – dedim, – men sizdan sep talab qilmaganman, chunki ishingizga umid bog'lagan edim.

Yosh xotinim bo'lsa hamon iztirobda.

– Shunaqa, ering bor deb ishdan bo'shatishdi, dedi.

– Kechirasiz, – dedim, – hozir o'zim ishxonangizga borib hammasini tushuntiraman. G'irt bema'nilik-ku, bu.

Tezgina shimimni kiyib, tashqari chiqdim.

Bordim. Bo'lim mudiri soqolli, keksa bir inqilobchi ekan.

Men u muttahamga qancha jon kuydirib tushuntirmay, hech narsa bilmayman, deydi. Unga sep haqida og'iz ochgan edim, oilaviy ishlariga aralashmayman, deydi.

– Axir, kamina ham beshinchi yildan beri inqilobchiman, – dedim.

U bo'lsa, marhamat qilib idoradan chiqing, deydi. Xayrlashib uyga qaytdim. Kirdim. Xotinim o'tiribdi, yig'lamaydi ham.

– Xo'sh, yig'lamayapsizmi? – dedim. – Men sizga uylansam-u, siz ishdan qisqarib tursangiz?!

Uning qo'lidan tutib, onasining yoniga obordim.

– Marhamatingiz uchun rahmat! – dedim. – O'nta qoshiq bilan hamma ish bitdi deb o'ylaysizmi?

Xudo yorlaqagur, kampirsho yig'lab yubordi. Keksa inqilobchi otaxon ham ko'ziga yosh oldi.

– Hammasi xudodan, – deydi. – Ehtimol, shundoq yashab ke-tarsizlar.

Bu soʻz uchun otaxonning basharasiga tupurmoqchi boʻldim, lekin oʻzimni tutib qoldim. Yana sudga berib yurmasin bu iflos, deb oʻyladim.

Uning nimchasiga tupurdim-da, tashqari chiqdim...

Hozir ajraldim, yangi qalliq izlayapman...

1923

## MUHABBAT

Bazm allamahalda tugadi.

Charchagan va terlab ketgan, gimnastyorkasiga kapalaknusxa bogʻich taqib olgan Vasya Chesnokov Mashenka oldida turganicha, yalinib-yolvorardi.

– Jinday shoshilmang, quvonchim... Birinchi tramvaygacha kuting. Azbaroyi savob, qayerga muncha shoshilasiz... Shu yerda oʻtirib kutsa ham boʻladi-ku, siz boʻlsangiz ketmoqchisiz. Xudo haqqi, birinchi tramvaygacha shoshilmang. Masalan, axir siz ham, men ham terlaganmiz... bu sovuqda kasal boʻlib qolish mumkin...

– Yoʻq, – dedi Masha kalishlarini kiyaturib, – xonimni sovuqda kuzata olmagan qanaqa jazmansiz, oʻzi?

– Axir, terlaganman-da, – dedi Vasya yigʻlamoqdan beri boʻlib.

– Xoʻp, kiyining!

Vasya Chesnokov itoatkorona poʻstinini kiydi-da, Mashenkaning tirsagidan mahkam tutganicha koʻchaga chiqdi.

Havo sovuq, oy yaraqlab turibdi. Oyoq ostida qor gʻijirlaydi.

– Eh, juda jonsarak qiz ekansiz-da, – dedi Vasya Chesnokov Mashenkaga yon tomondan koʻz tashlab olib, – agar sizning oʻrningizga boshqasi boʻlganda sirayam kuzatishga chiqmasdim. Xudo haqqi shunday. Faqat sevgi tufayli chiqdim.

Mashenka kuldi.

– Mana, siz kulib, tishingizning oqini koʻrsatayapsiz, – dedi Vasya, – men esa Marya Vasilyevna, sizni chinakamiga sevaman va qattiq hurmat qilaman. Masalan, siz, Vasya Chesnokov ana shu tramvay yoʻliga yot, desangiz, xudo haqqi, birinchi tramvaygacha temir izda yotishim mumkin...

– E, qoʻysangiz-chi, – dedi Mashenka, – qarang, oy yorugʻida atrof qanday goʻzal va ajoyib koʻrinadi. Shahar oqshomlari naqadar goʻzal! Juda ajoyib manzara!

– Ha, ajoyib go‘zallik, – dedi Vasya uying po‘sirtoq bog‘lagan devoriga bir qadar hayrat bilan tikilib. – Haqiqatan ham juda go‘zal... haqiqiy his-tuyg‘uga berilishning o‘zi ham bir go‘zallik, Marya Vasilyevna... Ko‘pgina olimlar va partiyaviy kishilar sevgi tuyg‘usini inkor qilishadi, men bo‘lsam, Marya Vasilyevna, sirayam inkor etmayman.

Men umrimning oxirigacha, yoki o‘z-o‘zimni qurbon qilish darajasigacha Sizni sevaman. Xudo haqqi... Masalan, Vasya Chesnokov, anovi devorga boshingni ur, deng – urmagan nomard.

– Ketdik, – dedi Mashenka beparvo.

– Xuddo haqqi, uraman. Xohlaysizmi?

Ikkalasi Kryukov kanali bo‘yiga chiqishdi.

– Xudo haqqi, – dedi Vasya, – istaysizmi, o‘zimni ana shu kanalga tashlay? A, Marya Vasilyevna? Siz menga ishonmaysiz, lekin men isbotlashim mumkin...

– Vasya Chesnokov panjaradan ushlab, tushmoqchi bo‘ldi.

– Voy! – deya qichqirdi Mashenka. – Vasya! Nima qilmoqchisiz?!

To‘satdan bir qora burchakdan otilib chiqdi-da, fonar yorug‘ida turib oldi.

– Nega chinqirasiz? – dedi haligi kishi ularning ikkalasiga qattiq tikilib.

Mashenka qo‘rquvdan qichqirib yubordi va panjaraga suyanib qoldi.

Haligi odam Vasya Chesnokovga yaqinlashib, uning yengidan ushladi.

– Xo‘sh, iflos, – dedi bo‘g‘iq ovoz bilan. – Paltoni yech. Tez! Qarshilik ko‘rsatsang, boshingga bir solaman, til tortmay o‘lasan. Tushundingmi, ablah!

– Ke-ke-ke, – dedi Vasya, kechirasiz demoqchi bo‘lib, – ke-kechirasiz, axir, bu nima deganingiz?

– Nima? – haligi kishi uning po‘stini yoqasidan tutdi.

– Vasya titroq qo‘llari bilan tugmalarni ochib, po‘stinni yechdi.

– Etiklarni ham yech! – dedi yo‘lto‘sar. – Menga etik ham kerak.

– Ke-ke-ke, – dedi Vasya, – kechirasiz... sovuq...

– Tez!

– Anovi xonimga ishingiz yo‘q. Menga esa etikni yech, deysiz, – dedi Vasya alam bilan. – Unda po‘stin ham, kalish ham bor. Menda bitta etik qoldi.



Haligi kishi Mashenkaga beparvo qararkan, dedi:

– Unikini yechsam – uzoqqa bormasdan titilib ketadi. Nima qilishni o‘zim yaxshi bilaman. Yechdingmi?

Mashenka dahshat bilan haligi kishiga qaradi-da, qimirlamasdan turaverdi. Vasya Chesnokov qorda o‘tirib, botinkalarini yecha boshladi.

– U qizni po‘stini ham bor, – dedi yana Vasya, – kalishlari ham bor. Hammasi uchun men yechinarkanman-da.

Haligi kishi Vasyaning po‘stinini kiyarkan, dedi:

– O‘tir, qimirlama! Tishlaringni ham takillatma. Agar qimirlasang, yoki qichqirsang – o‘ldim deyaver. Tushudingmi, ablah! Sen ham, xonimcha...

Yo‘lto‘sar po‘stinni o‘rab oldi-da, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Vasya bo‘shashib, shalpayganicha orqasi bilan qorga o‘tirib qoldi va oq paypoqli oyoqlariga ishonchsiz tikilib turaverdi.

– Mana oqibat, – dedi u nihoyat Mashenkaga jahl bilan boqib. – Ham uni kuzatay, ham mol-mulkimdan ajralay. Shundaymi?

Yo‘lto‘sarning qadam tovushlari butunlay eshitilmay qolgach, Vasya Chesnokov to‘satdan oyoqlari bilan qorni tepkilab, ingichka ovoza da dahshat bilan qichqira boshladi.

– Qorovul! Tunashyapti!

So‘ng o‘rnidan turib, qorda dam u oyog‘ida, dam bu oyog‘ida sakrab, dikillab chopa boshladi. Mashenka panjara yonida qoldi.

1924

## KUYOV

Yaqinda Yegorka Basov uylandi. Og‘irligi besh pudcha keladigan, semiz, baquvvat xotinni oldi.

Shunga qadar Yegorka Basov uch yilcha beva yurdi – unga hech kim tegmadi. Yegorka har qanaqasiga ham sovchi qo‘yishga tayyor edi. Hatto Mestechka qishlog‘ilik askar bevasi bilan ham unashildi. Bu arzimas bir sabab bilan bo‘lgan edi.

Bu unashish haqida hikoya qilishni Yegorka Basovning o‘zi ham yoqtirardi. Har gal hikoya qilganda yangi-yangi, qiziqarli tafsilotlarni bichib-to‘qir, yolg‘onni ayamay ishlatardi.

Bu voqeani hamma erkaklar yod bilsalar-da, kezi kelganda Yegorkadan boshidan hikoya qilib berishni oldindan kulgilarini bosib, iltimos qilishardi.

Erkaklar bir-birlariga ko'z qisib' olib:

– Qani, Yegorka, qanday uylanganingni aytib ber-chi, – deb so'rashardi.

– E, qo'ysanglar-chi, – derdi Yegorka, – yaltirog'iga uchganman-da.

– Shoshilgandirsan-da?

– Shoshilganman, – deydi Yegorka, – juda dolzarb payt edi-da. Bir tomondan o'rim-yig'im, ikkinchi tomondan g'allani o'z vaqtida tashib olish kerak. Shunday paytda, birodarlar, xotinim o'lib qolsa bo'ladimi. Aytaylik, bugun yiqildi-yu, ertasiga ahvoli og'irlashdi. Nolish qiladi, inqillaydi, bir payt qaragam – pechkadan ag'darilib tushdi.

– Rahmat, sizga Katerina Vasilyevna, – deyman unga, – meni pichoqsiz so'ymoqchimisiz. O'lishning ham zap vaqtini tanlabsiz-da. Kuzgacha sabr qiling, keyin o'lsangiz, mayli.

Xotinim qo'l silkitdi.

Tabibni chaqirdim. Albatta, quruqqa emas, bir pud suli evaziga. Tabib sulini o'z qopiga ag'darar ekan:

– Bu kasalga tibbiyot ojizlik qiladi, – dedi, – nachora, ayalingiz olamdan ko'z yumishi mumkin.

– Bemavrid savol uchun kechirgaylar, – deyman, – bu qanaqa kasal o'zi?

– Bu hali tibbiyotga ma'lum emas, – deydi u.

Harqalay tabib kasalga haptori berib jo'nab ketdi.

Haptorini og'ziga quydik – nafi tegmadi. Xotin sho'rlik alahlaydi, ingraydi, to'lg'ana-to'lg'ana pechkadan yiqiladi. Kechga yaqin uzildi.

Albatta, faryod chekdim. Qanday dolzarb payt, deb o'ylayman. Bir tomondan o'rim-yig'im, ikkinchi tomondan hosilni tashib olish darkor. Xotinsiz kalavanning uchini yo'qotib qo'yarkansan. Bir ish qilishga ham hayronman. Uylanay desang, masalan, kimni ham tanlay olasan? Bu masalada shoshilish ham yaxshi emas. Men uchun esa shoshilish kerak.

Oyoqlarimni yuvdim, yangi cholvorimni kiyib, otni aravaga qo'shdim-da, jo'nab ketdim.

Tanishlarimnikiga, Mestechka qishlog'iga yetib keldim.

– Vaqt ziq, – dedim ularga, – valaqlab o'tirishga fursat yo'q. Ko'r bo'lsayam oralaringizda birorta beva xotin yo'qmi? Uylanmoqchi edim.

– Bor, – deyishdi, – albatta hozirgi dolzarb pallada birov nikoh bilan ham qiziqmaydi. Anisya degan bir askar xotin bor, shunikiga borsangiz, ehtimol, rozi bo'lar.

Unikiga yo'l oldim.

Kirdim. Qarasam – sandiq ustida bir xotin oyoqlarini qashlab o'tiribdi.

– Salom, – dedim. – Oyog'ingizni qashlashni yig'ishtiring. Ish bor.

– Bu, ishingizga xalaqit bermaydi, – dedi u.

– Gap bunday, – dedim, – vaqt ziq, siz bilan bahslashib o'tirishga fursat yo'q. Siz-u men – ikkalamiz, uchinchi kishining hojati yo'q, rozi bo'lsangiz unashamiz, ertagayoq o'rimga chiqasiz.

– Agar sizga yoqqan bo'lsam, mayli, – dedi u.

Unga yaxshiroq qarab oldim. Yomon emas, to'lagina, ishbop xotin.

– Albatta, yoqtiraman, – dedim, – faqat so'rovnomadagidek savollaringa to'liq javob bering. Yoshingiz nechada?

– Yoshimmi? – dedi u, – unchalik ham katta emas. Hisobini ham esdan chiqarganman. Agar to'g'risini aytsam, bir ming sakkiz yuz sakson oltinchi yilda tug'ilganman.

– Xo'p, – dedim, – hisoblab o'tirishga fursat yo'q, vaqt ziq. Agar aldamagan bo'lsangiz, mayli.

– Yo'g'-a, – dedi u, – aldamayman, yolg'onchi xudoning qahriga uchrashi mumkin. Yig'ishtiraymi?

– Ha, yig'ishtiring, – dedim. – Narsalaringiz ko'pmi?

– Narsalarim unchalik ko'p emas, – dedi, – bir cho'ntag-u bir arqonga anjom yeydi. Manavi sandiq va paryostiqlar.

Sandiq va paryostiqlarni aravaga ortdik. Men yana tuvak va ikkita tarashani oldim-da, jo'nab ketdik.

Otlarni qistayman, qallig'im bo'lsa sandiq ustida tebranib borarkan, bundan keyingi hayot, pishir-tushur va qilinadigan boshqa ishlar rejasini chizardi, oxirda hammomga borish ham zarar qilmas, deb qo'ydi. Chunki uch yildan beri bormagan ekan.

Nihoyat, yetib keldik.

– Tushing, – dedim.

Xonimcha aravadan tusha boshladi. Qarasam, allaqanday g'alatiroq, yoni bilan sirg'alib tushyapti, go'yo ikkala oyog'i ham oq-sayotganday. Voy, bu qanday ahmoqgarchilik, deb o'ylayman.

– Nima bo'ldi, bonu, – dedim, – oqsagandaymisiz?

– Yo'q, – dedi u, – shunday o'zim, erkalanayapman.

– Bu qanaqasi? – dedim. – Bu jiddiy masala, nahotki oqsasangiz? Mening xo'jaligimga oqsaydigan xotin kerak emas.

– Bezarar, – dedi u, – chap oyog'im jinday, ikki yarim santimetrgina qisqa.

– Ikki yarimmi, besh santimetrmi, buning ahamiyati yo'q, – dedim. – Vaqt nihoyatda ziq. Kutib o'tirishga fursat yo'q. Hammasi befoyda. Suv keltirsangiz ham yarmi chayqalib to'kilsa. Kechirasiz, – dedim, – ko'zim qamashibdi.

– Yo'q, endi bo'lar ish bo'ldi, – deydi.

– Bo'lmaydi, – dedim. – Hammasi joyida, chehrangiz ham, yoshingiz, bir ming sakkiz yuz sakson oltinchi yilda tug'ilganingiz ham menga yoqadi. Iloji yo'q. Oyog'ingizga qaramabman. Bo'lmaydi.

Shunda xonimcha baqirib-chaqirmoqchi, so'kinib, janjal ko'tarmoqchi bo'ldi. Albatta, busiz mumkin emas. Shu orada men asta-sekin uning buyumlarini hovliga olib chiqa boshladim.

Anig'i esimda yo'q, bir-ikki marta basharamga tushirgach:

– Omading bor ekan, vaqtida sezib qolding, qo'zoqboy, – deydi, – uyimga oborib qo'y-da endi.

Aravachaga o'tirib jo'nadik.

Sakkiz chaqirimcha yurgan edik, to'satdan qattiq jahlim chiqdi.

«Vaqt ziq, – deb o'yladim, – ortiqcha gapirib o'tirishga fursat yo'g'-u, endi kelinni uylariga oborib qo'yarmishman».

Aravadan narsalarni olib otib, qarab turdim. Xonimcha chidab tura olmadi. O'zini narsalari ustiga otdi. Men bo'lsam baytalning jilovini o'rmonga qarab burdim.

Shu bilan gap tamom.

Xonimcha sandig'i va paryostiqlari bilan uyiga qanday yetib oldi, bu yog'i menga noma'lum. Faqat yetib olgani aniq. Bir yildan keyin turmushga chiqdi. Hozir ikkiqat.



## BAXT

Gohida notanish kimsaga yaqinlashib, xo'sh, ukajon, ahvoling qalay, o'z hayotingdan rozimisan, deb so'raging keladi. Hayotingda baxtli kun bo'lganmi? Qani, o'tmishingga bir nazar tashlab ko'r-chi.

Oshqozonim yallig'langandan beri shu haqda ko'p kishilardan so'radim.

Birovlar bu savolga hazillashib, yomon emas, nonimni topib yeb yuribman, desa, boshqalari – hayotim farovon, oltinchi daraja bo'yicha haq olaman, oilamdan roziman, bundan ortig'i ortiq, deb yolg'onni to'qib tashlaydi.

Faqat bir kishi bu savolga juda aniq va ishonarli qilib javob berdi. Bu mening eng yaqin, qadrli do'stim Ivan Fomich Testovdir. Uning kasbi oyna o'tkazuvchi. Aytarli donishmand emas. Lekin soqoli bor.

– Baxtmi? – deb so'radi u. – Bo'lmasam-chi, baxtli kunlar ham bo'lgan.

– Qanaqasi, katta baxtmi o'zi? – deb so'radim.

– Katta baxtmi, kichikmi u – buyog'i noma'lum, harqalay butun umr eslab yuraman.

Ivan Fomich ikkita papiros chekib, fikrlarini to'plab oldi-da, negadir menga ko'z qisib qo'ydi va o'z hikoyasini boshladi.

– Bu voqeaga, jonim jo'ram, yigirma yoki yigirma besh yilcha bo'lib qolgandir. O'shanda yosh va chiroyli edim. O'zimga yoqadigan, dikkayib turuvchi mo'ylov qo'yib olganman. Bilasizmi, qachon menga baxt kulib boqarkin, deb kutib yurardim. Yillar birin-ketin, navbat bilan o'tib borar, lekin biror-bir o'zgarish ro'y bermasdi. Uylanganimni ham, to'yda xotinimning qarindoshlari bilan mushtlashganimni ham, shundan keyin xotinimning bola tuqqanini ham sezmay qolibman. Hammasi silliq va ohista davom etardi. Buning aytarli baxtli joyi yo'q.

Bir kuni, 27-noyabrda ishga chiqdim, ishdan keyin kechga yaqin qovoqxonaga kirib choy so'radim. O'tirib taqsimchadan choy ho'play boshladim. O'zimcha, mana, yillar ham shamolday o'tib boryapti, lekin hamon baxtdan darak yo'q, deb o'ylayman.

Shuni o'ylab turgan edim, orqadan g'alati shovqin-suron eshildi. O'grilib qaradim – qovoqxona egasi, so'ng xizmatkor bola ust-ustiga qo'l silkiib turishibdi, ularning ro'parasida podsholik askari

bo'lib, zo'rlik bilan stulga o'tirishga harakat qilardi. Xo'jayin bo'lsa uni kursidan itarib, o'tirishga qo'ymas edi.

– Qovoqxonalardagi kursilarga o'tirish askarlarga man qilingan, – deya qichqirdi u. – Sen uchun to'lab zaril keptimi. Yaxshilikcha jo'nab qol.

Mast askar hamon o'tirishga urinadi. Xo'jayin esa qo'ymadi. Askar bo'lsa ota-onalarini eslaydi.

– Men ham sizlarga o'xshagan odamman, – deb qichqiradi. – Stolga o'tirishni xohlayman.

Mijozlarning yordami bilan askarni surib chiqarishdi. Askar bo'lsa ko'prikkaga yotqizilgan bir chaqirtoshni olib, deraza oynasiga qarab chunonam otdi. Oyna shuv to'kildi.

To'rtga uch deraza oynasining esa bahosi yo'q.

Qovoqxona egasining qo'l-oyog'idan jon chiqib ketgandek bo'ldi. U yaqindagi to'nkaga o'tirib, deraza tomonga qarashga yuragi betlamay, nuqul bosh chayqab turardi.

– Bu nima degan gap, xaloyiq, – deb qichqirdi u. Askar bola meni xonavayron qildi-ku! Bugun shanba, ertaga – yakshanba – ikki kun oynasiz nima qilaman? Koshki shu payt oyna o'tkazuvchini topib bo'lsa ekan, oynasiz mijozlar esa ranjishi mumkin.

Chinakamiga mijozlar norozilik bildira boshlashdi.

– Singan joydan shamol g'uvullab o'tib turibdi, – deyishdi. – Biz bu yerga issiqqinada dam olgani kirganmiz. Yo'q, bunisi ketmaydi.

Qo'limdagi taqsimchani stolga qo'ydim, sovib qolmasin uchun shapkam bilan choynakni bostirib qo'yib, eran-qaran yurib xo'jayinga ro'para bo'ldim.

– Muhtaram boyvachcha, – dedim, – men oyna o'tkazuvchiman.

Uning xursand bo'lganini ayting, kassadagi pulni qayta sanab turib mendan so'radi.

– Xo'sh, bu nag'ma qancha turadi o'zi? Bo'laklami qayta yamashning iloji yo'qmi?

– Yo'q, marhamatli boyvachcha, – dedim, – bo'laklardan hech nima chiqmaydi. To'rtga uch yaxlit oyna kerak. Bu xil oynaning bahosi yetmish besh so'lkavoy turadi, sindirsam o'zim javobgar. So'rab ham o'tirmang, marhamatli boyvachcha, bahosi bundan bir tiyin ham kam bo'lmaydi.

– Nima, aqlingni yedingmi? – deydi xo‘jayin. – Qani, mana bu yerga o‘tirib choyingni ich. Buncha pulni to‘lagandan ko‘ra, yaxshisi, parto‘shak bilan bekitib tashlayman.

U xotiniga uydan zudlik bilan parto‘shak olib kelishni buyurdi.

Parto‘shakni olib kelib derazasiga tutishdi. Lekin u dam ichkariga, dam tashqariga lo‘ppayib chiqib, hammaning kulgisiga sabab bo‘ldi. Buning ustiga ayrim mijozlar, qorong‘ida choy ichish juda noqulay, deb g‘ish-g‘isha qila boshladilar.

Shunda baraka topkur, bittasi o‘rnidan turib:

– Bunaqa parto‘shakka uyimda ham tiqilib o‘tirsam bo‘lardi, – dedi, – sizlarnikining hojati yo‘q.

Xo‘jayin menga yaqin kelib yalina boshladi va zudlik bilan oyna topib kel, deb pul tutqazdi.

Choyimni ham oxirigacha ichmasdan, pulni siqimlagancha yugurib chiqib ketdim.

Oyna do‘koniga chopib kelsam, do‘kon endigina yopilayotgan ekan. Yalinib-yolvordim – berishdi.

Hammasi joyida, aytganimdan ham yaxshi bo‘ldi: to‘rtga uch oyna o‘ttiz besh so‘m, tashib borishim uchun yana besh so‘m, jami – qirq so‘m.

Mana, oyna ham qo‘yildi.

Qand choyimni ichib bo‘lib, baliqli taomlardan so‘radim, undan keyin yana haligidaqa – taralla bedoddan. Yeb, ichib bo‘lgach, chayqalib qovoqxonadan chiqdim. Qo‘limda sof o‘ttiz so‘m pul. Xohla, hammasiga ich, xohla, bilganingni qil.

Eh, o‘shanda ichganlarim. Ikki oy surunkasiga ichibman. Bundan tashqari u-bu narsalar ham xarid qildim: kumush uzuk va patak sotib oldim. Yana ko‘ylak bilan shim sotib olmoqchi edim, pul yetmadi.

– Ko‘rdingmi, jonim jo‘ram, mening hayotimda ham baxtli onlar bo‘lgan. Faqat atigi bir marta. Qolgan umrim bir maromda o‘tdi. Bundan zo‘r baxt bo‘lmagan.

Ivan Fomich jimib qoldi, so‘ng negadir menga ko‘zini qisib qo‘ydi.

O‘zimning aziz oshnamga hasad bilan tikildim. Bu xil baxt mening hayotimda ro‘y bermagan.

Ehtimol, men uni sezmay qolgandirman.

## «BEGONA» QARINDOSHLAR

Timofey Vasilyevich o'z jiyani Seryoja Vlasovni ikki kun izladi. Uchinchi kun, ketish oldidan, topdi! Tramvayda uchratib qoldi.

Timofey Vasilyevich tramvayga o'tirgach, cho'ntagidan o'n tiynlik olib chiptachiga uzatmoqchi bo'ldi. Yopiray! Chiptachining qiyofasi unga juda tanish ko'rindi. Timofey Vasilyevich yana qaradi – xuddi o'zi! Tramvay chiptachisi Seryoja Vlasovning shaxsan o'zi edi.

– Hoy, Seryoga! – deb qichqirdi Timofey Vasilyevich. – O'zingmisan, jigarim?

Chiptachi qizarib ketdi, hojati bo'lmasa-da, patta g'altaklarini tuzatib qo'yarkan:

– Hozir, amaki... pattalarni tarqatib bo'lay, – dedi.

– Mayli! Bemalol. – dedi quvonch bilan amaki. – Kutaman.

Timofey Vasilyevich kuldi va yo'lovchilarga tushuntira boshladi.

– Bu Seryoga Vlasov, menga tug'ishgan qarindosh bo'ladi. Akam Pyotrning o'g'li... Uni yetti yildan beri ko'rmagan edim... Voy, itvachcha-yey...

Timofey Vasilyevich jiyaniga xursand qararkan, bor ovozda baqirib gapira boshladi.

– Men bo'lsam, Seryoga, oshnajon, seni ikki kundan beri qidiraman. Butun shaharni kov-kov qildim. Mana, qayerda ekansan! Chiptachi-ya. Manzilingga ham izlab bordim. O'sha, Raznochinskaya ko'chasiga-da. Yo'q, bu yerda yashamaydi, deyishdi. Nega yashamaydi, qayerga ketgan, menga anig'ini ayting, dedim, axir men uning tug'ishgan qarindoshiman. Bilmaymiz, deyishdi... Mana, sen qayerda ekansan. Chiptachimisan?

– Ha, chiptachiman, – dedi sekin jiyani.

Yo'lovchilar qarindoshga sinchkov nazar tashlashdi. Amaki mamnun jilmayar, jiyaniga mehr bilan tikilar, jiyani bo'lsa batamom hayratlanib, xizmat vazifasini o'tab turganidan noqulay ahvolga tushar va amakisiga nima deyish, u bilan qanday muomala qilishni bilmas edi.

– Shunday qilib chiptachiman degin? – dedi yana amaki. – Tramvay yo'lidami?

– Shunday, chiptachiman...

– Juda g'alati voqea. Bilasanmi, Seryoga, oshnajonim, tramvayga o'tirdim. Bunday qaragam – yopiray! Chiptachining ko'rinishi juda



tanishday. Qarasam – xuddi o‘zginang. Men ko‘rganda yetti-sakkiz yashar bola eding-da! Juda xursandman... juda mamnunman...

Chiptachi turgan yerida yer tepinib qo‘ydi va dabdurustdan:

– Amaki, yo‘lkira to‘lash kerak. Patta oling... uzoqqa borasizmi? – dedi.

Amaki mamnun jilmaydi va kafti bilan chiptachilik sumkasini shapatilab qo‘ydi.

– To‘lardim. Xudo haqqi, agar boshqa tramvayga o‘tirib qolganimda, albatta, to‘lardim. Pullarim dod deb ketardi. Eh, sening yetti-sakkiz yoshliging!.. Bilasanmi, Seryoga, oshnajon, men vokzalgacha bormoqchiman.

Chiptachi atrofga bir qarab oldi-da:

– Ikki bekat, – dedi.

– Bu bilan nima demoqchisan? – hayron bo‘ldi Timofey Vasilyevich. – Nima demoqchisan, nahotki?

– Yo‘lkira to‘lash kerak, amaki, – dedi chiptachi sekin. – Ikki bekatga haq to‘lash kerak... Patta olmasdan, tekinga yurish mumkin emas.

Timofey Vasilyevich alam bilan lablarini qimtdi va jiyaniga qahr bilan tikildi.

– Bu qanaqasi, o‘z amakingdan-a? O‘z amakingni shilasanmi?

Chiptachi derazaga g‘amgin tikilib qoldi.

– Kafando‘zlik qilmoqchimisan? – dedi amaki jahl bilan. – Men sen itvachchani yetti yildan beri ko‘rganim yo‘q. Sen bo‘lsang, o‘z amakingdan yo‘lkira so‘raysan-a. Bu nima degan gap? To‘xta, qo‘l silkima menga. Zotan, o‘z jiyanim bo‘lsang-da, sening qo‘l silkishlarindan sira qo‘rqmayman. Yo‘lovchilar oldida ko‘pam qo‘lingni paxsa qilaverma.

Timofey Vasilyevich qo‘lida o‘n tiyinlikni bir o‘ynab oldi-da, qayta cho‘ntagiga solib qo‘yarkan:

– Birodarlar, bu nima degan gap? – deya odamlarga murojaat qildi. – O‘z amakisidan yo‘lkira talab qiladi-ya. Ikki bekat emish... Buni qarang-a?

– To‘lash kerak, – dedi jiyani yig‘lamoqdan beri bo‘lib. – Siz, o‘rtoq amaki, xafa bo‘lmang. Chunki bu mening shaxsiy tramvayim emas. Bu davlatning tramvayi. Xalqniki.

– Xalqnikimi, xalqniki emasmi, buning menga ahamiyati yo‘q, – dedi amaki. – Sen, itvachcha, o‘z amakingni nahot-

ki hurmat qilmasang? Halol mehnat bilan topgan o'n tiyiningizni cho'ntagingizga solib qo'ying, bemalol ketavering, deyishing lozim edi. Bitta odam bilan tramvay buzilib qolmaydi-ku. Yaqinda men poyezdda kelgan edim. O'shanda begona bir kuzatuvchi ham bunday qilmagan. Marhamat qilib o'tiring, Timofey Vasilyevich, degan, pulning hojati yo'q... Bemalol o'tiravering, degan. Begona-ya... faqat ko'z tanish, hamshahar edi... Sen bo'lsang tug'ishgan amakingdan... Pul yo'q, senga.

Chiptachi yengi bilan manglayini artib oldi-da, to'satdan qo'ng'iroqni chaldi.

– Tushing, o'rtoq amaki, – dedi rasmiy ovozda.

Ishning jiddiy tus olishini sezgan Timofey Vasilyevich cho'ntagini kovlashtirib o'n tiyinlikni qayta qo'lga oldi, keyin yana yashirdi.

– Sen mishiqiga hech narsa to'lamayman, – dedi. – Yo'q, yaxshisi tushganim bo'lsin.

Timofey Vasilyevich qip-qizarib o'rnidan turdi va tantanali vaziyatda eshikka yo'naldi. So'ng orqa o'girildi:

– Amakingni, o'z amakingni haydayapsan-a, – dedi g'azab bilan. – Men sen mishiqini... Men sen itvachchani... Bu qilmishing uchun otib tashlashim mumkin. Ha-ha, hamma ish qo'limdan keladi...

Timofey Vasilyevich jiyaniga yeb qo'ygudek bo'lib bir o'qrayib qaradi-da, so'ng tramvaydan tushib ketdi.

1924

## DEHQONDAN CHIQQAN ISTE'DOD

Tug'ma iste'dod, dehqondan chiqqan bu shoirning familiyasi aniq esimda yo'q. Chamamda Ovchinnikov edi. Ismi sharifi ham oddiygina – Ivan Filippovich.

Ivan Filippovich dastlab haftasiga uch marta huzurimga kelardi. Keyinchalik har kuni keladigan bo'ldi.

Uning ishi aytarli murakkab emas. U bamisoli suvarakdek past ovozda o'zining dehqonbop she'rlarini o'qir va tanish-bilish orqali tezroq ularni biror-bir gazeta yoki jurnalda chiqarishga yordamlashishimni iltimos qilardi.

– Aqalli bittaginasini chop qilsaydilar, – derdi Ivan Filippovich. – Bosmada qanday chiqarkin? Shuni ko'rsam armonim yo'q edi.

Gohida Ivan Filippovich karavotga o'tirib olar va xo'rsinib gapga tushib ketardi.

– Bilasizmi, hurmatli o'rtoq, ochig'ini aytsam she'riyatga ixlos menda bolalikdan tug'ilgan. Hali bolaligimdayoq go'zallik va tabiatga oshufta edim... Aksar boshqa bolalar o'yin-kulgi qilishadi, baliq ovlashadi, tanga otib o'ynashadi, men bo'lsam, masalan, oddiy bir baliqchani, yoki bir parcha bulutni ko'rdim deguncha o'rtanib ketaman... Hissiyotlarim junbishga keladi. Bulutlarni, shamollarni... Hurmatli o'rtoq, bularning hammasini juda chuqur his etardim.

Har xil baliqchalar va bulutlarni qanchalik chuqur his etmasin, Ivan Filippovichning she'rlari nihoyatda yomon edi. Yomon ham gapmi, undan ham battar. Eng asosiysi, uning she'rlari har qanday qofiyadan batamom mahrum edi.

Ivan Filippovich o'z iqrorida:

– Men qofiyali she'rlar yozmayman, – derdi. – Chunki qofiya kishini yanglishtirib yuboradi. Buning ustiga ish ham unumli bo'lmaydi. Aslini olganda ikki o'n besh-bir o'ttiz, she'r qofiyali bo'ldi nima-yu, qofiyasiz bo'ldi nima?

Daslabki kunlar uning she'rlarini ko'tarib tahririyatma-tahririyat yurdim – olishmadi, keyin qatnamay qo'ydim...

Ivan Filippovich ertalab vaqtli kelar va karavotga o'tirib olib:

– Xo'sh, qalay, yana olishmadimi? – deb so'rardi.

– Olishmadi, Ivan Filippovich.

– Nima deyishadi? Ehtimol, ular mening ijtimoiy kelib chiqishimga shubha bilan qarashar? Axir, kamina chin dehqon farzandiman. Shubhaga ham o'rin yo'q. Ehtimol, muharrirlarga shuni tushuntirish kerakdir. Omochdan chiqqan, deb. Har tomonlama dehqondan chiqqanman. Otam ham, buvam ham, buvamning otasi ham dehqon o'tgan. Hammalari dehqon bo'lganlar. Hatto ular uylanishda ham dehqon qizlarini tanlashgan. Xudo haqqi, shunday bo'lgan. Gohida atrof-dagilar kulib: «Bu nima degan gap, hurmatli Ovchinnikovlar, nuqul dehqon qizlariga uylanisizlar, boshqalar qurib ketibdimi?» deyishadi. Biz bo'lsak «Nima qilishimizni o'zimiz yaxshi bilamiz», deymiz ularga. Hurmatli o'rtoq, ayting, ular ko'pam shubhalanaverishmasin, azbaroyi savob...

– Gap bunda emas, Ivan Filippovich. O'zlari olishmaydi. Zamona-ga hamohang emas, deyishadi.

– Unchalik ham emasdir, – deya qizishdi Ivan Filippovich. – Bu she’rlarning nimasi hamohang emas? Namoqulning nonini yebdi ular... Bolalikdan tabiatni chuqur his etishga o’rgangan bo’lsam, nimasi hamohang emas. Bulutlarni ham, baliqchalarni ham tushunsam. Nimasini olishmaydi bularning? Ochig’ini aytib, isbotlab berishsin. Odamning shaxsini ochiqchasiga haqorat qilish yaxshi emas-da, axir. Aqalli bittaginasini olishsin.

Shoirning qiyin-qistovlariga zo’rg’a ikki oy bardosh berdim.

Germon urushida gazdan zaharlangan kimsadek asablarim bata-mom ishdan chiqib, kasallanib qolishimga qaramasdan, ijtimoiy ke-lib chiqishiga hurmatim uchun ham Ivan Filippovichning hujumlariga zo’rg’a bardosh berardim. Biroq ikki oydan keyin toqatim toq bo’ldi.

Ittifoqo, bir kuni Ivan Filippovich kattagina bir dostonmi, ballada-mi, qurib ketsin, allanima baloni ko’tarib kelganda chidab tura olma-dim.

– Shunaqami, – dedim, – doston olib keldim, deng?

– Doston olib keldim, – dedi Ivan Filippovich ochiqko’ngillik bilan. – Juda zo’r doston chiqdi-da... O’zim ham ikki kun qimirla-masdan o’tirib yozdim... Quyilib kelaverdi, deng. To’xtatishning hech iloji yo’q...

– Nega endi?

– Negaligini o’zim ham bilmayman, hurmatli o’rtoq, ijod degani shunaqa bo’lsa kerak-da. Yozganing yozgan. Xuddi birov bilagingdan tutib yoz, deb qistaganday. Ilhom kelgach...

– Ihom, dedingmi? – deb so’radim. – She’r yozasanmi?.. Yo’q, ishlash kerak, o’rtoq, ishlash kerak. Oftobro’yada tosh maydalashing kerak, aks holda...

Ivan Filippovich hushyor tortgandek bo’ldi, keyin jilmaydi.

– Mayli, bo’lsa topib bering, – dedi. – Iltimos, yalinaman Siz-ga. Jonimdan to’yib ketdim. Axir, ikki yildan beri ishsiz tentirayman. Oddiygina bir ish bo’lsa ham mayli edi...

– Qanaqa ish? – hayron bo’lib so’radim, – she’riyat nima bo’ladi?

– Qanaqa she’riyat? – dedi Ivan Filippovich suvarakdek shivir-lab. – Ochman... She’riyat!.. Bilasizmi, hurmatli o’rtoq, she’riyatdan boshqa yana qayerga desangiz boraman... She’riyat...

Ivan Filippovich qat’iy ohangda mendan uch so’m qarz so’rab oldi-da, chiqib ketdi.



Bir haftadan keyin Ivan Filippovichni bir tahririyatga xat tashuvchi qilib ishga joylashtirdim. U she'r yozishni tashladi.

Shu kunlarda ishsizlar bo'lmasa-da, mening huzurimga tamaki fabrikasining sobiq ish yurituvchisi – dastgohdan chiqqan boshqa bir shoir kelib yuribdi. U ochiqchasiga: «Bilasizmi, she'riyat bilan shug'ullanib, idoradan topadigan arzimmas maoshimga biroz pul ishlab qo'shmoqchiman», deydi.

1924

## HALOL ODAM

*(Militsiyaga maktub)*

Sodiq bir maslakdosh sifatida sizlarga shuni ma'lum qilmoqchimanki, o'ninchi uyda istiqomat qiluvchi Guseva samogon qaynatish bobida juda shubhali shaxs. U shu yo'l bilan mehnatkashlarning uch qavat terisini shilib olib, qora qonga bo'yamoqda. Misol uchun, agar puling bo'lmasa, yoki atigi bir tiyin yetishmasa ham qarzgga hech narsa bermaydi, buning ustiga qanchalik erkin fikrlovchi kishi bo'lma, belingga tushirib qoladi.

Yana halol bir odam sifatida shuni ma'lum qilmoqchimanki, sakkizinchi uyda ham juda shubhali ishlar qilinmoqda. Bu yerda samogon ta'sirli va ko'p bo'lsin uchun turli xildagi qo'ziqorin qoldiqlari, apelsin po'choqlari qo'shib qaynatilmoqda. Qanchalik tavallo qilma, bu yerda ham tekinga berilmaydi.

Uy egasining o'zi bo'lsa o'ta qo'pol, iste'molchilarni binoning oshxonasida kutishga majbur qiladi. Kim biladi, ichkarida u samogonni qanaqasiga qaynatadi. Oshxonada bo'lsa pudel zotiga mansub kuchukchasi iste'molchilarga tashlanib, oyog'ini yulib oladi. O'latga uchgur ana shu pudel mening oyog'imga og'iz solsa bo'ladimi. Jonholatda ana shu pudelni urmoqchi bo'lib bir idishni ko'targanimni bilaman, uy egasi qo'limga mahkam yopishib:

– Hoy-hoy, nima qilyapsan? – deb qichqirdi. – Ma, pulingni olib yo'qol bu yerdan. Tilsiz bir jonivorni idish bilan urib, qiynamoqchi bo'lganing uchun, senga hech qanday mol bermayman.

Ochig'ini aytsam, men o'sha pudelni hecham qiynaganim yo'q, yolg'ondan idishni silkib qo'ydim, xolos.

– Muncha zahar bo‘lmasangiz, xonim, – dedim. – Pudelingizga qo‘limni ham tekkizganim yo‘q, – dedim. – Bu so‘zingizni qaytib oling. Axir, pudelning oyoqdan olishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, – dedim. – Shunday ekan, nega muncha baqirasiz, – dedim.

Shunga qaramay, u pulni menga qarab otib yubordi. Bir nechtasi koshin ustiga tushdi. Koshin ustiga tushishi bilan ularning pudeli pulni tishlab olib, yaqinlashishga qo‘ymadi. Yig‘la-siqta – bir pul.

Bo‘ynimga olaman, ana shunda o‘sha hayvonni oyog‘im bilan tepib pulni oldim. Bir so‘mlik ho‘l bo‘lib ketgan, qo‘lga olishga ham hazar qiladi kishi, ikkinchisining raqamlari o‘chibdi, davlat banki ham qabul qilmaydi. Yig‘la-siqta – bir pul.

Bo‘ynimga olaman, pudelning qorinchasiga yana bir tepdim-da, shoshilib tashqari chiqdim.

Endi esa o‘sha zahar xonim meni uyiga kiritmaydi. Qachon qarasam, eshigi zanjirlangan. Bu ham yetmagandek o‘sha alvasti, misol uchun, eshigiga yaqinlashishim bilanoq tirqishdan menga qarab tupuradi. Uning tupurishiga javoban men ham eshigini qattiq silkitib ochib, qo‘limga tushgan biror narsa bilan adabini bermoqchi bo‘lganimda, o‘sha alvasti qo‘rqqanidan bo‘lsa kerak, eshikni qattiq yopgan edi, qo‘lim tirsakdan eshik oralig‘ida qolib majaqlandi.

Men bo‘lsam, eshik oldida onadan kelib, bor ovozda qichqiraman, ichkaridan uning pudeli bor ovozda vovvullaydi. Xo‘rligim kelib ketdi. Bu haqda doktordan qog‘ozim bor, hozir ham yaralarimni qayta bog‘laganda qon oqib turibdi.

Yuqorida qayd qilingan shubhali uylardan bo‘lak «Quvnoq vodiy» nomli qovoqxona ham ulardan battar xavfli. O‘sha yerda mening basaramga tushirib, burchakka tiqib qo‘yishdi.

Men esa ularning qadahchasini ko‘rganim ham yo‘q, sindirganim ham yo‘q.

– Qadahchani sindirganim yo‘q, – dedim. – Qo‘yinglar, o‘rtoqlar, buterbrodimni yeb olay, – dedim.

Ular bo‘lsa buterbrodga yaqin yo‘latmasdan meni u yonga sudrashadi, bu yonga sudrashadi. Nihoyat, eshikkacha sudrab kelib, tashqariga tashlashdi. Buterbrod bo‘lsa stolda yotardi. Yig‘la-siqta – bir pul.

Yana halol bir odam sifatida shuni ma‘lum qilamankim, Varka Petrova juda shubhali va yengiloyoq qiz. Varkaga yaqinlashsam, u mendan jirkanadi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan shaxslarni qamashingiz, yoki istagingizni qilishingiz mumkin.

Endi yana shuni ma'lum qilamankim, bir maslakdosh sifatida yozgan arizam har tomonlama tekshirilib, turli xil unsurlarga qarshi o'tochilgan, haqiqatni aytganim uchun shtat qisqardi bahonasi bilan kamina ishdan bo'shatilganman.

Yana shuni iltimos qilamankim, «Quvnoq vodiy» qovoqxonasi hozircha yopib tashlanmasin. Chunki hozir betobman, qimirlashga holim yo'q. Shubhasiz, tez orada tuzalib, harakatga kirib qolarman. Axir, bu terbrod uchun ham pul kerak bo'ladi.

1924

## TABIAT O'YINLARI

Albatta, hamma ham poytaxtda yashayvermaydi. Ayrim, misol uchun, mayda odamlar «Baliqchilar posyolkasi»da bermalol yashashlari mumkin.

Poytaxtga nisbatan bu stansiyada shart-sharoit, albatta, unchalik yaxshi emas. Aytaylik, u yerda keng ko'chalar yo'q. Stansiyadan chiqish bilan shpallar ustidan yurib ketasan. Agar shpaldan yurishni istamasang – bir umr vokzalda o'tiraver.

Bizlarning bir tanishimiz, «Baliqchilar posyolkasi»ning tug'dibitdisi, ittifoqo, bir kuni chiday olmasdan sayrga chiqdi. Bahor edi.

Shunaqa, vokzaldan chiqib, shpallar ustidan yurib ketdi. Bahorro'ya edi. Aprel. Pasxa hayiti arafasi.

U shpallar ustidan yurib ketdi. Yo'lni o'zingiz bilasiz – shpallar ustidan yuriladi. Buning ustiga yana bahorgi loygarchilik, hammayoq ko'lmak. Salgina chetga burilsangiz, o'ng'ay emas – sho'ng'ib ketishingiz mumkin. Negaki, bahor. Butun tabiat erib, go'yo suv bo'lib oqyapti.

Shunday qilib, bizning tanishimiz temir yo'l ustidan ketib boryapti. Yo'l bo'yi bir nimalarni orzu qiladi. Aytdim-ku, bu voqea bahorda bo'lib o'tgan deb. Pasxa hayitidan keyinroq aprelning oxirlari edi. Qushlar qanot qoqib parvoz qiladi. Hammayoqni ularning sayrog'i tutib ketgan. Havo esa nihoyatda zo'r.

Bizning tanishimiz ketib borarkan, o'z-o'zicha, qushlarga maza-da, tepada turib sayrayveradi, agar ularni ham shpal ustiga qo'yib yuborsang ovozi o'chsa kerak, deb o'ylaydi.

U shunday deb o'ylarkan, beixtiyor bir chetga qoqilib ketdi. Ochig'ini aytish kerak, bu bahordagi gap. Pasxa hayiti, namgarchilik.

Bir chekkaga qoqilib ketarkan, oyog'i bilan chuqurga tushib, naq tizzasigacha suvga botdi.

Tanishimni oyog'ini tortib oldi. Rangi qum-qut uchgan.

«Yaxshiyamki, xonim bilan emas ekanman, – deb o'yladi. – Xonim bo'lganda bormi, naq sharmandalik bo'lardi. Iblis, oyog'im shilta ho'l. Nima oqyapti. Ishtonbog'im ham ochilib ketdi, shekilli. Nimalardir osilib turibdi. Etiklar ikkinchi yil tozalanmagan. Pesi chiqib ketgan. Sharmandalik!»

Tanishimiz nihoyatda xafa bo'lib ketdi.

«Hali shunaqami, – deb o'yladi, – suvdan to'siq qilmoqchimisizlar? Davlat qurilishi yo'liga-ya? Sizlarcha shpallar chirib ketsa maylimi? Xalq g'arq bo'lsa ham mayli ekan-da? Xuddi ana shunday deb yozamiz».

Tanishimiz uyiga qaytdi. Yechindi. Yechina solib yozishga o'tirdi.

Fosh qiluvchi kichik bir maqola yozdi. Maqolani «Qizil gazeta»ga jo'natdi. Qurilish yo'lidan o'tayotganda suvga sho'ng'ib ketgani, ehtimol u yerda shpallar chiriyotgani va hokazolar haqida...

Mazkur maqola aprelning oxirlarida bosilib chiqdi.

Ana shunda dahshatli bir shiddat bilan asosiy voqealar boshlanib ketdi.

Maqolani o'qigunlaricha, uni boshqarmada muhokama qilgunlaricha, eng oxirda taftish guruhi tuzgunlaricha – o'n to'rt yil o'tib ketdi.

Ko'p emas, sal kamroq vaqt o'tdi. Lekin hozir vaqt deganlari juda tez va shiddat bilan o'tadi. Har bir kun bir yilga to'g'ri kelishi mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, iyulning boshlarida yo'lni tekshirish uchun «Baliqchilar posyolkasi»ga tekshiruv keldi.

Kelishdi. Tekshirishdi, qip-qizil yolg'on. Suvdan asar ham yo'q. Aksincha, hammayoq chang. Issiq. Saraton o'rtasidek yonib yotibdi.

Tekshiruv guruhi, odamlar naqadar aldoqchi bo'lib ketishgan, degan xulosa chiqardi-da, zaharxanda qilib, jo'nab ketdi.

Iyulning boshlarida gazetada raddiya e'lon qilindi. Hammasi yolg'on va uydirma, degan ma'noda. Umuman, stansiyada hech qanaqa suv yo'q. Hatto grafinda ham.

Boshqarmada hozir ham bizning tanishimizni yolg'onchi deb o'ylashadi.

O'ylashsa o'ylayverishsin. Hayotda adolatli bo'lgan yaxshi-da.



## BEMOR

Anisya qishloq kasalxonasiga o'ttiz chaqirim yo'l bosib keldi.

Tong oqarmasdan yo'lga chiqib, tushlikda bir qavatli oppoq bino oldiga kelib to'xtadi.

Zinapoyada o'tirgan dehqoncha kiyingan kishidan:

– Jarroh qabul qilyaptimi? – deb so'radi.

– Jarrohmi, – dedi u qiziquvchan tikilib, – nima, kasalmisan?

– Kasalman, – dedi Anisya.

– Men ham kasalman, qarog'im, – dedi dehqon. – So'k oshidan bo'kib qoldim... Yettinchi bo'lib yozilganman.

Anisya otni novdaga bog'lab, kasalxonaga kirdi.

Ushoqqina, keksa va nihoyatda mashhur feldsher Ivan Kuzmich kasallarni qabul qilardi. Atrof-tevarakda hamma uni yaxshi bilardi, ta'rifini keltirishar va hech qanday sababsiz jarroh deb atashar edi.

Anisya jarroh o'tirgan xonaga kirib, chuqur ta'zim qildi va kursi chekkasiga omonat cho'nqaydi.

– Kasalmisan? – deb so'radi Ivan Kuzmich.

– Kasalman, – dedi Anisya, – a'zoyi badanim to'la dard. Ustixonlarim sirqirab og'riydi. Yuragim ham butunlay zardobga aylana-yotgandek.

– Nima uchun? Qachondan beri? – deya feldsher beparvo so'radi.

– Kuzdan beri, Ivan Kuzmich. Erta kuzdan beri. Kuzda mazam qochib qoldi. Erim Dmitriy Naumich shahardan kelgandan beri kasalman deng. Chunonchi, u kelganda stol yonida xamirdan kulcha yasab o'tiruvdim. Dmitriy Naumich shu xil kulchani juda yoqtiradi. Endi bo'lsa, Dmitriy Naumich qayerda bo'lsa ekan deb o'ylayman? U shaharda, sovetlarga deputat...

– Kechirasan, zaifa, – dedi feldsher, – aldasang mayli-yu, lekin ishontiraman, deb o'ylama. Qanaqa kasalsan o'zi?

– Atyapman-ku, – dedi Anisya, – stol yonida turib, kulcha yasayotgan edim... Bir payt Agafya xola bamisoli qo'y haydaganday qo'llarini harakatlantirib, chopib kelyapti. «Yugur Aniskajon, – deydi, – yugur tezroq, shahardan ering keldi, qo'lida hassa, xalta ko'targan, ko'chada turibdi». Yuragim qinidan chiqib ketayozdi. Oyoqlarimda mador qolmadi. Lalayib, kulcha yasab turibman deng... Keyin kulchani tashlab, hovliga chopib chiqdim. Hovlida quyosh nurlari jimirlab turibdi. Havo musaffo. Chapda – og'ilxonadagi sariq

buzoqcha dumchasi bilan pashsha qo'riydi. Buzoqchaga qarayman, ko'zchalari yoshlanib turibdi. Dmitriy Naumich sariq buzoqchani ko'rsa quvonib ketsa kerak, deb o'ylayman...

Feldsher qovog'ini solib:

– Kechirasana, bo'ladigan ishdan gapir, – dedi.

– Gapiryapman-ku, aylanay, Ivan Kuzmich, – dedi, – faqat ach-chig'ingiz chiqmasin. Hammasini gapiraman... Darvozadan yugurib chiqdim. Qarasam, bilasizmi, chapda – cherkov yonida echki yuribdi, xo'roz qanot qoqyapti, o'ng tomondagi o'rtta yo'ldan esa Dmitriy Naumich kelyapti. Unga qarab tosh qotdim. Yuragim o'ynab, hiqichoq tutib qoldi. Voy, xudojonim-ey, deb o'ylayman! Voy, ko'nglim aynib ketyaptimi, deb o'ylayman.

U bo'lsa bosiq, mayda qadam tashlab kelyapti. Soqollari havoda mayin silkinadi. Egnida shaharcha ko'ylak. Oyog'ida mardona botinka... Botinkani ko'rishim bilanoq ichimdan bir nima uzilib ketgandek bo'ldi. Voy, nahotki menday bir besavod xotin shu xil ilg'or, sovet deputatiga teng bo'lsam deb o'ylayman... Devor yonida ovsarlardek qotib qolibman, oyog'imni ko'tara olmayman. Qo'lim bilan devorni ushlab turaverdim. U bo'lsa, ya'ni Dmitriy Naumich, sovet deputati bir-bir bosib menga yaqin kelib salomlashdi.

«Salom, Anisya Vasilyevna, deydi. Necha qish-u necha yoz Siz bilan ko'rishmadik...» deydi.

Men tentak bo'lsam, Dmitriy Naumichning qo'lidan to'rvani olish o'rniga uning botinkalariga qarab miq etmay turaveribman. Voy, es-hushimni olib qo'ydi bu erkak, deb o'ylayman. Botinka kiyibdi. Shahardagilar bilan, hatto komsomol qizlar bilan ham gaplashsa kerak.

Dmitriy Naumich yo'g'on ovozda:

«E, shunaqaman, de. Juda nodonsan-da Anisya Vasilyevna, dedi, endi men sen bilan nima haqda gaplashsam ekan. Men, – deydi, – shaharlik odam bo'lsam, sovetlarga deputat bo'lsam. Men-ku, ehtimol, arifmetikadan to'rt amalni bilarman. O'nli kasr haqida gapirishni bilaman... Sen bo'lsang bunaqasan! Hatto oq qog'ozga o'z familiyangni yozib, qo'l qo'yishni ham bilmaysan. Mening o'rnimda boshqa xili bo'lsa, shu nodonliging va savodsizliging uchun seni bemalol tashlab ketgan bo'lardi».

Men devorga suyangancha, mayli, Dmitriy Naumich, nima qilay, bo'lganim shu, tashlab ketish Siz uchun hech gap emas, dedim.

U qo'llarimdan tutib, yupata boshladi.

«Hazillashdim, Anisya Vasilyevna. Qo'ying endi ko'pam o'ylamang. O'zim shunday. Qo'ysangiz-chi...»

Yuragim qayta o'ynab, hiqichoq tuta boshladi.

«Dmitriy Naumich, xotirjam bo'ling, men ham albatta to'rt amal va o'nli kasrni o'rganishim mumkin, yoki oppoq qog'ozga familiyamni yozib, qo'l qo'yishni ham. Men Sizday savodxon kishini uyaltirib qo'ymasman...» dedim.

Feldsher Ivan Kuzmich kursidan turib, xonada yura boshladi.

– Valdirash ham evi bilan-da, – dedi. – Ayt, kasaling nima?

– Kasalimmi? Hozir tuzukman, Ivan Kuzmich. Ancha yengil tortib qoldim. Sog'liqdan shikoyatim yo'q. U, Dmitriy Naumich bo'lsa: «Hazillashdim», deydi. Bo yana hazil emish.

– Albatta hazil-da, – dedi feldsher, – hazil bo'lmay nima? Hapdori beraymi?

– E, yo'q, – dedi Anisya, – maslahatlaring uchun rahmat senga, Ivan Kuzmich. Qushday yengil tortib qoldim. Chin dildan rahmat. Omon bo'l.

Anisya bug'doy solingan tugunni stolda qoldirib, eshikka yo'naldi. Keyin orqaga o'girildi.

– Ivan Kuzmich, o'nli kasr kerak menga... Uni qayerdan bilsam bo'ladi? Yoki o'qituvchini izlab borsammikin?

– Ha, o'qituvchining oldiga bor, – dedi feldsher xo'rsinib, – albatta o'qituvchiga. Uning tibbiyotga aloqasi yo'q.

Anisya chuqur ta'zim qilib tashqari chiqdi.

1924

## HAMMOM

O'rtoqlar, aytishlaricha, Amerikada hammomlar oliy darajada ekan.

Misol uchun, u yerga mijoz kelib, kiyimlarini maxsus qutiga tashlab, o'zi bemalol yuvinishga o'tib ketaverarkan. Hatto raqam ham olmaydi, u-bu narsam yo'qolmasmikin, o'g'irlashmasmikin, deb xavotirlanmaydi ham.

Ayrim behalovat amerikalik topilib qolsa, hammomchiga:

– Qarab tur, gut bay! – deydi. Tamom-vassalom.

Shu amerikalik cho'milib chiqqach, unga yuvilib, dazmollangan top-toza ichkiyim berishadi. Paytavasini ayting, qordan ham oppoq. Ishtonlar tikilgan, hatto yamab qo'yilgan. Mazza!

Bizdagi hammomlar ham joyida. Biroq andak yomonroq. Harqalay, yuvinsa bo'ladi.

Bizda faqat raqamlar chatoq. Avvalgi shanbada hammomga bordim (Amerikaga borolmayman-ku, deb o'yladim), menga ikkita raqam berishdi. Bittasi – ichkiyimlarga, ikkinchisi – palto bilan qalpoq uchun.

Qip-yalang'och odam raqamni qayeriga qo'yadi? Osadigan mix bo'lmasa? Cho'ntak yo'q. Hammayoq – qorin va oyoqdan iborat. Nima qilsam ekan? Soqolga bog'lab bo'lmasa?

Ikkala kalitni birdaniga yo'qolmasligi uchun har birini bittadan oyog'imga bog'lab oldim. Hammomga kirdim.

Raqamchalar oyoqlarimda chayqalib boryapti. Yurish noqulay. Yurmaslikning iloji yo'q. Chunki tog'ora kerak. Tog'orasiz yuvinib bo'larkanmi? Qip-qizil boshog'riq.

Tog'ora izlayman. Qarasam, bir odam uchta tog'orada yuvinyapti. Bittasiga oyoqlarini tiqib olgan, ikkinchisi bilan boshiga suv quymoqda, uchinchisini o'g'irlab ketmasinlar degan maqsadda chap qo'li bilan mahkam ushlab turibdi.

Uchinchi tog'orani o'zimga olish uchun qo'l cho'zgan edim, haligi odam:

– Hoy, nima qilyapsan o'zi, – deya o'shqirdi, – nega birovning tog'orasini o'g'irlyasan? Kallangga shu tog'ora bilan tushirman – tug'ilganingga pushaymon bo'lasan.

Men ham:

– Podshoning davrlari o'tib ketgan, – dedim, – kallaga tog'ora bilan tushirsang. Bu – shaxsiyatparastlik, – dedim, – egoizm. Axir boshqalar ham yuvinishi kerak-ku. Harqalay teatrga kelmaganmiz, – dedim.

U yuvinib turib orqa o'girildi.

«Uning tepasida turish yaxshi emas, – deb o'yladim. – Endi qasdma-qasdga ataylab uch kun yuvinishi mumkin».

Nari ketdim.

Bir soatlardan keyin qarasam, allaqanday bir amaki esi og'ib, qo'lidan tog'orasini tushirib yubordi. U sovun uchun egildimi yoki o'zicha xayol surib qoldimi, bunisi menga qorong'i. Faqat uning tog'orasini darhol o'zimga qildim. Endi tog'ora bor, lekin o'tiradigan



joy yo‘q. Tik turib yuvinish ham yuvinish bo‘pti-yu, qip-qizil boshog‘riq. Tik turgancha, qo‘limdagi tog‘ora bilan yuvina boshladim. Atrofda modarzot odamlar zo‘r berib kir chayqashadi. Birov shimini yuvadi, ikkinchisi ishtonini sovunlaydi, uchinchisi yana alla bir narsani zo‘r berib tovlaydi. Palakatlar, hozirgina yuvinib bo‘lmasdanoq yana iflos qilishadi. Ko‘lmakni sachratishadi, ablahlar. Kir yuvishdan shunaqa shovqin-suron eshitaladiki, hatto yuvinging ham kelmay qolarkan. Sovunni qayerga tushirib yuborganingni eshitmay qolarkansan. Qip-qizil boshog‘riq.

«Qurib ketsin, bu botqoqlik. Yaxshisi, uyda yuvinaman», deb o‘yladim.

Hammomga kiraverishdagi xonaga chiqdim. Ichkiyimlar uchun berilgan raqamni uzatdim. Qarasam – hammasi o‘zimmiki, faqat shim menikimas.

O‘toqlar, – dedim. – Axir menikining ana bu yerida teshik bor edi. Bunda esa mana qayerda!

Hammomchi:

– Biz teshiklar uchun qo‘yilmaganmiz, – deydi, – bu yer Sizga teatr emas.

Yaxshi. O‘sha shimni kiyib, paltoga o‘tdim. Paltoni berishmadi – raqam talab qilishdi. Esim qursin. Raqam oyog‘imda bog‘loqligicha qolibdi. Qayta yechinishga to‘g‘ri keldi. Shimni yechib, raqamni izladim – yo‘q, raqam yo‘q. Oyog‘imda bog‘langan ip turibdi, lekin qog‘ozcha yo‘q. Qog‘ozcha yuvilib ketibdi.

Hammomchiga ipchani berdim – rad etdi.

– Ipchaga bermayman, – dedi. – Har bir odam shu xil ip keltirib, bittadan palto olib ketaversa, bilasanmi nima bo‘ladi? Kutib tur, odamlar tarqalsin, qolganini senga beraman.

– Jon uka, aytib bo‘lmaydi, birorta yaramasi qolsachi? – dedim. – Bu yer teatr emas-ku. Yaxshisi, belgilariga qarab beraqol. Bir cho‘ntagi yirtiq, boshqa cho‘ntagi yo‘q, – dedim. – Tugmalariga kelsak, – dedim, – yuqori tugmasi bor, pastdagilari uzilib tushgan.

Harqalay berdi. Hatto ipchani ham olmadi.

Kiyinib, tashqariga chiqdim. Esim qursin. Sovunni unutib qoldiribman.

Izimga qaytdim. Palto bilan kirishga ruxsat etishmaskan.

– Yechining! – deyishdi.

Men:

– Uchinchi marta yechina olmayman, o‘rtoqlar, – dedim. – Bu yer teatr emas-ku, axir. Hech bo‘lmasa sovunning pulini to‘langlar.

Berishmadi.

Berishmasa – kerak emas. Sovunni olmasdan jo‘nadim.

Hurmatli o‘quvchi, ehtimol, bu hammomning qayerdaligi bilan qiziqar? Qayerda u? Manzili?!

Qanaqa hammom? Qanaqa bo‘lardi – oddiy, bir chaqalik.

1924

## ASABIY KISHILAR

Yaqinda bizning kommunal uyimizda mushtlashuv sodir bo‘ldi. Mushtlashuv ham emas, butun boshli jang. Qayerda deng? Glazova hamda Borovo burchagida.

Albatta, chin dildan mushtlashishdi. Oxirda nogiron Gavrilovning kallasini majaqlashga sal qoldi.

Buning asosiy sababi – xalqning nihoyatda asabiyligida. Arzimagana narsaga jahli chiqadi. Qizishadi. Shuning oqibatida, qorong‘ida qolgandek ur-yiqit boshlanadi.

Bu, albatta, fuqarolar urushidan keyin xalqning asablari butunlay ishdan chiqqanligi oqibati, deyishadi. Ehtimol, shundaydir, biroq bu g‘oyadan nogiron Gavrilovning kallasi hali-veri tuzalmasa kerak.

Mana bunday, Mariya Vasilyevna Shipsova degan shu uyda yashovchi bir ayol kech soat to‘qqizda oshxonaga kirib, primusni yoqadi. Bilasizmi, u hamisha shu vaqtda primusni yoqardi. Choy ichardi, kompress qo‘yardi.

Shunday qilib, u oshxonaga kiradi. Primusni oldiga qo‘yib yoqmoqchi bo‘ldi. Qurib ketgur hadeganda yonavermaydi.

«Bu ado bo‘lgur nega yonmasa ekan? Yoki kir tutdimikin, bu sabil qolgurni!» deb o‘ylaydi.

U chap qo‘liga maxsus ninani oladi va tozalamoqchi bo‘ladi.

Chap qo‘liga maxsus ninani olib tozalamoqchi bo‘lib turganda, boshqa bir qo‘shni ayol Darya Petrovna Kobilina qarasa – uning ninasini olishyapti, chidab tura olmadi.

– Hurmatli Mariya Vasilyevna, – deydi u, – aytmoqchi, yaxshisi, yoinki o‘z joyiga qo‘ysangiz.

Bu so‘zdan Shipsova gur etib yondi va:

– Marhamat, Darya Petrovna, – dedi, – yejik'ingiz boshingizdan ordona qolsin. Yejikingizni olish uyoqda tursin, unga qo'limni tekkizishga hazar qilaman.

Bu so'zlardan Darya Petrovna Kobilina ham albatta gur etib yondi. Ular o'zaro aytisha boshlashdi. Ularning santak-mantaki shovqin-suronga, to's-to'polonga aylandi.

Shovqinga sababchi maxsus nina egasi Darya Petrovna Kobilining eri Ivan Stepanich juda baquvvat, hatto qorindor, buning ustiga asabiy bir kishi edi.

Ana shu Ivan Stepanich paydo bo'ldi.

– Men, – dedi u, – roppa-rosa o'ttiz ikki so'm uchun ertadan kechgacha kooperatsiya<sup>2</sup>da bamisoli filday ishlasam, xaridorlarga kulib turib, kolbasa tortib bersam, halol mehnatimdan pul jamg'arib yejik sotib olsam-u, undan boshqalarning so'ramay-netmay foydalanishlariga sirayam rozi emasman.

Shunda yejik atrofida battar shovqin-suron ko'tarildi. Barcha qo'shnilar oshxonaga yopirilib kirishdi. Tiqilinch. Nogiron Gavrilich ham paydo bo'ldi.

– Nima gap, – dedi u, – shovqin bor-u, mushtlashuv yo'q? Shu so'zlardan keyinoq mushtlashuv boshlanib ketdi.

Oshxona mushtlashuvga moslanmagan deng. Tor-u tang. Hammayoqda kastrulka va primuslar. Aylanib ham bo'lmaydi. Buning ustiga yigirma kishi kirib olgan. Masalan, birovning betiga tupurmoqchi bo'lsang, uch kishining basharasi yuviladi. Qisqasi, hammaga urilaurila oxiri yiqilib tushasan. Oyoqsiz nogironga esa yo'l bo'lsin. Uch oyoqlab polda turishiga hecham imkoniyat yo'q edi.

Shunga qaramay, qurib ketgur, qalampiridon nogiron oldinga intiladi. Yejikni egasi Ivan Stepanich:

– Qoch, Gavrilich, – dedi, – nima qilasan aralashib, oxirgi oyog'ingni ham uzib tashlashadi.

– Mayli, – deydi Gavrilich, – oyoqdan ajralsam ajrala qolay. Lekin bu holda hech qayoqqa ketmayman. Chunki hozir mening butun izzat-nafsimni qora qonga bo'yashdi.

Haqiqatan ham xuddi shu onning o'zida kimdir uning basharasiga musht tushirdi. Lekin u chekinmadi, battarroq oldinga intil-

<sup>1</sup> Igna sanchib qo'yiladigan yostiqcha – kirpicha.

<sup>2</sup> Paychilik asosidagi do'kon.

di. Shu asnoda yana kimdir kastrulka bilan nogironning kallasiga tushirdi.

Nogiron shilq etib polga dumalađi. Ichikib yotdi.

Shunda qandaydir bir tekinxo'r militsiyaga chopdi.

Militsioner paydo bo'ldi.

– Go'r-cho'pingni hozirlayver, iblislar, hozir otib tashlayman! – deydi u.

Ana shu dahshatli so'zlardan keyin xalq biroz o'ziga kelgandek bo'ldi. Uy-uyiga tarqalishdi.

«Qarang-a, – deb o'ylashdi, – arzimagan narsa uchun mushtlashib o'tiribmiz-a, hurmatli o'rtoqlar?»

Xalq uy-uyiga tarqaldi, faqat nogiron Gavrilichgina tarqamadi. Bilasizmi, u polda g'ujanak bo'lib yotardi. Boshidan esa qon sizg'irdi.

Ana shu voqealardan ikki hafta o'tgach, sud bo'ldi.

Xalq sudyasi ham asabiy bir kishi ekan – ogohlantirishdan nariga o'tmadi.

1924

## AKTYOR

Bu – haqiqiy bo'lgan voqea Astraxanda ro'y bergan. Bu haqda menga havaskor aktyor hikoya qilib bergan edi.

Mana bunday.

«O'rtoqlar, siz mendan aktyor bo'lganmisiz, deb so'rayapsizmi? Bo'lganman. Teatrda o'ynaganman. San'atning shu turiga to'qnash kelgan edim. Bu yog'i uch pulga qimmat. Hech qanaqa ulug'lik-pulug'ligi yo'q.

Albatta, chuqurroq o'ylab ko'rilsa, teatr san'atida uncha-muncha yaxshi tomonlar ham yo'q emas.

Aytaylik, sahnaga chiqishing bilan barcha tomoshabinlar senga qaraydi. Tomoshabinlar orasida tanishlar, xotin tomon qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar bo'ladi. Qarasang – parterdan ko'z qisib, qo'rqma, Vasya, bo'sh kelma, deb turganday. Sen bo'lsang – tashvishlan-manglar, o'rtoqlar, degandek imo qilasan. Bilamiz. Bizda ham aql-farosat bor.

Agar chuqurroq o'ylab ko'rilsa, bu kasbning hech qanday yaxshi tomoni yo'q. Ba'zan qoningga tashna bo'lib ketasan.



Birda «Kim aybdor?» degan pyesani qo‘ydik. Avvalgi hayotdan olib yozilgan. Juda kuchli pyesa. Shu pyesaning bir pardasida o‘g‘rilar tomoshabinlar ko‘zi oldida savdogarni tunashadi. Juda tabiiy chiqqan. Savdogar oyoqlari bilan tepinadi, bor ovozda dod soladi. Shunga qaramay, uni tunashadi. Dahshatli pyesa.

Xullas, shu pyesani qo‘ydik.

Spektakl boshlanishidan oldin, savdogar rolini o‘ynovchi havaskor ichib qolsa bo‘ladimi. Issiqda shundayam pishib-yetilib qolibdiki, savdogar rolini o‘ynash u yoqda tursin, oyog‘ida zo‘rg‘a turibdi. Bu holda rampaga chiqsa, mast tuyaday elektr chiroqlarini toptab tashlashi aniq.

Rejissyor Ivan Palich:

– Ikkinchi pardada uni chiqarib bo‘lmaydi, – dedi men-ga. – Bu barcha chiroqlarni bosib, sindirib tashlaydi. Jon uka, balki uning o‘rniga o‘zing chiqarsan? Nodon tomoshabinlar bilib o‘tirishibdimi.

– Yo‘q, o‘rtoqlar, yaxshisi, so‘ramay qo‘yaqolinglar, – dedim, – rampaga chiqa olmayman. Hozirgina ikkita tarvuz yedim. O‘zimni juda lohas his etyapman.

U bo‘lsa:

– Jon uka, bir yordam qil, – deydi, – hech bo‘lmasa bir pardaga chiq. Ehtimol, ungacha o‘sha kasofat o‘ziga kelib qolar. Madaniyoqartuv ishimiz barbod bo‘lmasin.

Zo‘rg‘a ko‘ndirishdi. Rampaga chiqdim.

Pyesa davom etayotganda o‘z kostum-shimimda sahnaga chiqdim. Faqat boshqa kishining soqolini yopishtirib olganman. Tomoshabinlar ahmoq bo‘lsa-da, o‘sha zahoti meni tanib qolishdi.

– A, chiqqan Vasya-ku, – deyishdi, – qo‘rqma, ha, balli, bo‘sh kelma...

Men:

– Nimadan qo‘rqaman, o‘rtoqlar, – dedim, – shunday mushkul vaziyatda bo‘sh kelib bo‘larkanmi? Artist qattiq kayf qilib qolibdi, rampaga chiqa olmaydi. O‘lgudek mast.

Ko‘rinish boshlandi.

Savdogar sahnasini o‘ynashga kirishdim. Talonchilardan himoyalaniq maqsadida oyoqlarimni ishga soldim, bor ovozda qichqirdim. Havaskorlardan kimdir rostakamiga mening cho‘ntagimga qo‘l solganini sezib qoldim.

Kostunning cho'ntagini mahkam ushlayman. Artistlardan orqa o'girildim. Bo'lmadi. Ularning basharasiga tushirdim. Azbaroyi savob!

– Yaqin kelmanglar, ablahlar, – deyman, – yaxshilikcha aytyapman!

Ular bo'lsa pyesa davomida tunashgani tunashgan. Hamyonimni (o'n sakkiz chervon bor edi) tortib olib, soatinga yopishshdi.

Endi baland ovozda qichqira boshladim.

– Qorovul! O'rtoqlar, axir rostakamiga tunashyapti.

Bu katta muvaffaqiyat keltirdi. Ahmoq tomoshabinlar hayajondan chapak chalishadi. Qichqirishadi:

– Yana, bo'sh kelma, Vasya! Ur, tushir tumshug'iga! Sol, kallasi-ga tushir, ablahlarning.

Men bo'lsam jonholatda:

– Foydasi yo'q, og'aynilar! – deya qichqiraman va boshimni olib gochaman.

Qarasam – qonga belangan bir havaskor o'zini chetga oldi. Qolganlari, yirtqichlar menga battarroq tashlanishdi.

– Og'aynilar, – deya qichqirdim, – axir bu nima degan gap. Axir, meni o'ldirib qo'yishadi-ku!

Shu payt kulisdan rejissyor ko'rinadi.

– Yasha, Vasya, – deydi, – rolni juda qotirib o'ynayapsan! Ofarin! Shunday davom etaver.

Qarasam – dod-voyim foyda bermayapti.

Qanaqasiga dodlamay, hammasi pyesaning muvaffaqiyatiga xizmat qilmoqda.

Tiz cho'kdim-da:

– Og'aynilar, – dedim, – rejissyor, – dedim. – Ivan Palich! -- dedim. – Axir toqatim qolmadi. Pardani tushiringlar! Oxirgi chaqalarimgacha shilib ketishdi-ku!

Shunda ko'pgina teatr mutaxassislari bu so'zlarning pyesada yo'qligiga, uning kulisdan aytilayotganiga tushunib yetdilar. Suflyorga rahmatki, nihoyat u ham o'z katagidan chiqib keldi.

– O'rtoqlar, – deydi u, – haqiqatan ham savdogarning hamyoni-ni o'g'irlab ketishibdi.

Parda tushirildi. Ko'zachada menga suv keltirishdi. Ichdim.

– Og'aynilar, – deyman, – rejissyor Ivan Palich. Bu nima degan gap? Pyesa davomida kimdir mening hamyonimni olib ketdi-ku.

Havaskorlarning hammasini tintib chiqishdi. Faqat pulni topisha olmadi. Bo‘m-bo‘sh hamyonni kimdir kulisga tashlab ketibdi.

Shunday qilib pulni quritibdi. Adoyi tamom qilishdi.

Yana siz san‘at deysiz-a? Bilamiz! Bizam o‘ynaganmiz!»

1925

## INQIROZ

Yaqinda, o‘rtoqlar, ko‘chamizga bir arava g‘isht olib kelishdi. Xudo haqqi!

Bilasizmi, quvonchdan yurak o‘ynog‘i bo‘lib qoldim. Chunki, qurilish bo‘ladi-da, birodarlar. G‘ishtni bekorga keltirishmaydi-ku. Demak, qayergadir uycha quriladi. Tuf-tuf, ko‘z tegmasin – boshlab yuborildi.

Ko‘p emas, ehtimol yigirma yillardan so‘ng har bir kishi uchun alohida xos xona bo‘ladi. Vannalik uyga nima yetsin?

Ana o‘shanda mazza qilib yashaymiz-da, o‘rtoqlar! Aytaylik, bita xonada uxlasak, ikkinchisida mehmonlarni qabul qilamiz, uchinchi xonada esa yana boshqa ishlar... Ish ham deysizmi? Shunday erkin zamonda ish topilmay qolibdimi?

Hozircha kvadrat maydon masalasi birmuncha qiyinroq. Inqiroz tufayli ancha tanglik ro‘y bermoqda.

Men, og‘aynilar, Moskvada yashardim. Yaqinda u yoqdan keldim. O‘sha inqirozni boshimdan kechirdim.

Bilsangiz, Moskvaga tasodifan kelib qolgandim. Narsa-qoram bilan ko‘chada yuraman. Shundayam jonga tegdiki, yashash u yoqda tursin, hatto narsalarni qo‘yishga ham joy yo‘q.

Bilasizmi, ikki haftacha narsa-qoram bilan ko‘chalarda tentirab yurdim. Soqollarim o‘sib ketdi, narsalarimni yo‘qotdim. Harqalay, narsasiz yurish ancha oson ekan. Turarjoy izlashga tushdim.

Nihoyat, bir uyda zinapoyadan tushayotgan kishiga duch keldim.

– O‘ttiz so‘m evaziga sizni vannali uyga joylashtirishim mumkin, – dedi. – Shohona uy... Uchta hojatxona... Vanna... Yana vannada yashasa ham bo‘ladi, derazasi bo‘lmasa-da, eshigi bor. Qo‘l ostingda suv, istasang vannani limmo-lim qilib, kunbo‘yi sho‘ng‘i.

– Hurmatli o‘rtoq, men sizga baliq emasman, – dedim. – Sho‘ng‘ishga ham muhtoj emasman. Quruqlikda yashasam ham bo‘laveradi. Namgarchilik uchun jinday keching.

U bo'lsa:

– Jon deb kechardim-u, lekin qo'limdan kelmaydi, o'rtoq, – dedi, – umuman menga bog'liq emas. Uy kommunal xo'jalikka qarashli. Bizda vannaning bahosi ham qat'iy qilib qo'yilgan.

– Xo'p, unda nima qilamiz? – dedim. – Mayli. Mendan o'ttiz so'mni undirib, tezroq kiriting, uch haftadan beri tik oyoqdaman, bu naqada o'lib qolmay, deb qo'rqaman.

– Xo'p, yaxshi. Qo'yishdi. Yashay boshladim.

Vanna chinakamiga shohona. Qayerga qadam qo'yma, hammayoq marmar – vanna, kolonka va jo'mraklar yaltiraydi. To'g'risi, qayerga o'tirishni ham bilmaysan. Qirg'oqqa o'tirib bo'larkanmi, o'tirmoqchi bo'lsang, marmar vannaning ichiga sirg'alib tushasan.

Taxtadan o'tirgich yasab, yashay boshladim.

Bir oy ichida uylanib ham oldim.

Bilasizmi, yoshgina, shirin zabon bir jonon tushdi. Uyi yo'q ekan.

Vannaxonada yashashimni ko'rib, bu xil sharoit va oilaviy baxtga tob bera olmay, meni rad qilsa, deb o'yladim. Yo'q, rad etmadi, faqat jinday hurpayib olib:

– Nima bo'пти, olijanob odamlar vannada ham yashayveradi, – dedi. – Hech bo'lmaganda mana buyog'ini to'sib qo'ysa ham bo'ladi.

– To'ssa bo'ladi, xonim, – dedim, – lekin istiqomat qiluvchi iblislar yo'l qo'yishmaydi. Ular hech qanaqa qayta qurish mumkin emas, deyishadi.

Shunday, boricha yashay boshladik. Bir yilga qolar-qolmas erxotin oramizda murg'akkina chaqaloq tug'ildi.

Unga Volodka deb ism berdik-da, yana yashayverdik. Shu yerda vannada uni cho'miltiramiz, o'zimiz ham yashaymiz.

Bilasizmi, ishlar hatto a'lo darajada. Chaqaloqni deyarli har kuni cho'miltirsak-da, hecham shamollamaydi.

Faqat bir noqulayligi – kommunal uyda yashovchilar har oqshom navbat bilan vannada yuvinishadi. Shunday paytlarda butun oilamiz bilan koridorda turib chiqamiz.

Shunda ulardan iltimos qilaman:

– O'rtoqlar, – deymen, – shanba kunlari cho'milsangiz ham bo'lar. Har kuni cho'milish zaril keptimi? Axir, tushunsangizlar-chi, bizlar ham yashashimiz kerak-ku.



U muttahaamlar, koshki kam bo'lsa – o'ttiz ikki kishi. Hammasi baravariga to'ng'illashadi, so'kinishadi. Ayrimlari, basharangni dabdabla qilaman, deb dag'dag'a qilishadi.

Nailoj, nima ham qila olardik.

Shunday, boricha yashayverdik.

Ancha fursatdan keyin xotinimning onasi viloyatdan kelib, vannaxonaga tiqildi. Bug'qozon ustiga joylashib oldi.

– Men, – deydi, – anchadan beri nevaramni allalashni orzu qilib yurardim. Bu baxtdan meni benasib etmassizlar.

Men bo'lsam:

– Qarshi emasman, – dedim, – allalasangiz allalayvering, kampirsho. Vannaga suvni to'ldirib, nevarangiz bilan birga sho'ng'isalarangiz ham mayli.

Xotinimga esa:

– Ehtimol, xonimcha, boshqa qarindoshlaringiz ham kelar, – dedim, – tortinmasdan anig'ini aytavering.

– Bo'lmasam-chi, – dedi xotinim, – yangi yil bayramida ukam kelsa kerak...

Uning ukasini kutmasdanoq Moskvadan jo'nab ketdim. Oilamga pulni pochta orqali jo'natib turibman.

1925

## QASHSHOQLIK

Shu zamonda eng ko'p takrorlanadigan so'z qaysi? Barakalla, joningim ukam.

Men sizga aytсам, shu zamonda eng ko'p takrorlanadigan so'z, albatta, elektrlashtirish.

Bahslashib o'tirmayman, Sovet Rossiyasini elektr bilan munavvar etish bu – juda ulug' ish. Lekin hozircha bu sohaning ham ayrim keraksiz tomonlari bor ekan. Puli qimmat demoqchi emasman, birodarlar. Suv tekin. Ko'p pul ketmaydi. Bu haqda gapirmasam ham bo'ladi.

Mana nima haqda gapirmoqchi edim.

O'rtoqlar, kamina juda katta bir uyda istiqomat qilaman. Butun uy yermoyi bilan yoritilardi. Birovlarda kichikroq, boshqa birovlarda uncha katta bo'lmagan lampa, hech narsasi bo'lmaganlar esa o'z kulbasini popdan qolgan sham bilan yoritadi. Qisqasi, musibat.



Yakshanba kuni edi.

Ko'klam, bahor quyoshi mo'l-ko'l nur sochib turibdi. Butun borliq uyg'onayotganday. Giyohlar ko'kara boshlagan payt.

Bunday paytlarda, albatta, xalq ko'chaga yog'ilib chiqadi. Devorlarda quyosh nurlari jilolanadi.

Xalq bilan birga mahalliy militsiya boshlig'ining o'rinbosari o'rtoq Drojkinning shaxsan o'zlari ham sayrga chiqqanlar. Rafiqalari bilan. Chitdan tikilgan ajoyib libos. Shlapa. Mo'jaz shamsiya. Kalishlar.

Ular ham oddiy xalq qatori sayr qilib yurishibdi. Hazar ham qilishmaydi. Qo'ltiqlashib, umuman, yo'lkadan ohista qadam tashlashadi.

Sobiq Kaznacheyskiy ko'chasining muyulishiga burilishdi. Biroq to'satdan to'xtab qolishdi. Aytish mumkinki, piyodalar yuradigan umumiy yo'lkaning xuddi o'rtasida cho'chqa yuribdi. Aytish mumkinki, yetti pudcha keladigan juda yirik cho'chqa.

Cho'chqa qayerdan kelib qolganini it ham bilmaydi, bit ham. Lekin kelib qolgani va jamoat tartibini buzayotgani aniq.

Baxtga qarshi, Drojkin o'rtoq o'z rafiqasi bilan shu yerda paydo bo'lib qoldi.

Yo parvardigori bokaram! Ehtimol, Drojkin o'rtoq cho'chqaga qarashga hazar qilarlar? Ehtimol, xizmatdan bo'sh paytlarida go'zalroq bir tabiat manzarasiga qarashni istarlar? Cho'chqa-ya. Buni qarang. Yo parvardigori bokaram! Cho'chqa tomonidan qilingan bu ehtiyotsizlikka chidab bo'larmikin? Bu maxluqni kim ko'chaga chiqarib yubordi ekan? Axir bunga qanday yo'l qo'yib bo'ladi?!

Buning ustiga Drojkin o'rtoq juda qiziqqon edi. Qaynab ketdi.

– Kimning cho'chqasi bu? – deya qichqirdi. – Iltimos, zudlik bilan yo'qotinglar uni.

Ma'lumki, o'tkinchilar o'zlarini yo'qotib qo'yishdi. Hamma jim.

Boshliq yana qichqirdi.

– Kuppa-kunduz kuni bu nima degan gap? Cho'chqa yo'lovchilarga suykansa, qadam bosishga yo'l bermasa. Hozir men uni to'pponcha bilan saranjomlab qo'yaman.

Shunday degancha, Drojkin o'rtoq to'pponchasini chiqardi. Omma orasida parokandalik boshlandi. Ayrimlar, kattaroq harbiy malakaga ega bo'lgan, tajribali yo'lovchilar o'zlarini o'qdan himoya qilish maqsadida orqa chekindilar.

Boshliq tepkini bosmoqchi bo'lib turgan edi, xotini aralashdi. Rafiqasi:

– Petya, uni to‘pponcha bilan otmay qo‘yaqol, – dedi. – Hozir u anovi darvozaga kirib ketsa ajab emas.

Er baqirib berdi:

– Og‘zingni yum, bu sening fuqarolik ishing emas. Militsiya harakatiga aralashma!

Xuddi shu asnoda darvozadan ko‘rimsiz bir kampir otilib chiqdi. Kampir yugurib kelarkan, alanglab bir nimani izlardi.

– Voy, xudoyim-a, – dedi u, – mana mening to‘ng‘izim qayoqlarda yuribdi. Uni to‘pponcha bilan qo‘rqitmang, hurmatli boshliq. Hozir olib ketaman.

Drojkin o‘rtoq battar qizishdi. Ehtimol, u tabiatdan zavqlanishni istar, bu yerda bo‘lsa, kechirasiz-u, beo‘xshov kampir bilan iflos bir cho‘chqa turibdi.

– Ha-ha, bu sening cho‘chqangmi? – dedi u, – hozir men uni to‘pponcha bilan asfalasofilinga jo‘nataman. O‘zingni esa bo‘limga yuboraman. Minba‘d cho‘chqani qo‘yib yubormaydigan bo‘lasan.

Shunda gapga yana xotini aralashdi.

– Petya, – dedi, – xudo haqqi, ketaylik. Axir tushlikka kechikamiz.

U yur ketaylik, degan ma‘noda nodonlik bilan erining yengidan tortdi.

Militsiya boshlig‘i nihoyat darajada oqarib ketdi.

– Hali shundaymi, – dedi u, – militsiya harakatiga, uning ko‘rsatmalariga aralashasanmi? Yengimdan tortasanmi? Hozir men seni qamoqqa olaman.

Drojkin o‘rtoq hushtak chalib yaqindagi soqchini chaqirdi.

– Oling, manovi xonimni! – dedi. – Militsiya ishiga aralashgani uchun bo‘limga jo‘nating.

Soqchi ehtiyotsizlik qilgan boshlig‘i rafiqasini tirsagidan tutib, bo‘limga olib ketdi.

Xalq tinchib, jimib qoldi.

Boshliqning xotini militsiyada qancha o‘tirdi va oilaviy bu kelishmovchilik qanday oqibatlariga olib keldi – buyog‘i bizga qorong‘i. Afsuski, bu haqda gazetada hech nima deyilmagan edi.



## LIMONAD

Men Sizga aytsam, o‘zim ichuvchi odammasman. To‘g‘ri, gohida davradagilarning ra‘yiga qarab jinday-jinday olib turaman.

Ikki shishadan ortig‘i men uchun ortiq. Ko‘plik qiladi. Salomatligim ko‘tarmaydi. Esimda, bir marta sobiq farishtamning tug‘ilgan kunida bir «chorak» ichgan edim.

Bu, albatta, yoshlikda, yurak ko‘krak qafasida gursillab urib turgan, kallada allaqanday shirin orzular to‘lib-toshgan bo‘zbolalik kezlirim edi.

Endi qariyapman.

Yaqinda tanishim, veterinar feldsher, o‘rtoq Ptitsin meni ko‘rib qo‘rqib ketdi. Nuqul titraydi.

– Sizda to‘liq devalvatsiya<sup>1</sup> yuz beribdi – deydi u, – jigaringiz qayerda, qovug‘ingiz qayerda, aniqlashning sirayam iloji yo‘q. Butunlay xarob bo‘libsiz, azizim.

Feldsherning basharasiga tushurmoqchi bo‘ldim-u, zo‘rg‘a o‘zimni bosib oldim.

«Kel, avval vrachga borib aniqlay-chi», deb o‘yladim. Vrach hech qanaqa devalvatsiya topa olmadi.

– Barcha a‘zolaringiz joyida, – dedi. – Qovug‘ingiz ham juda yaxshi, oqizmaydi. Yuragingizga kelsak, u hali a‘lo darajada. Hatto odatdagidan ham kengroq. Faqat, ichishni tashlashingiz kerak, aks holda bu osongina o‘limga olib kelishi mumkin.

O‘lishni esa hecham istamayman. Yashashni yoqtiraman. Hali o‘zim yosh bo‘lsam. NEP<sup>2</sup>ning boshlanishida endigina qirq uchga chiqqan edim. Aytmoqchi, kuch-quvvatga to‘la baquvvat paytim. Yuragim ham ko‘krak qafasimda zo‘rg‘a anjom yeb turibdi. Hammadan ham qovug‘im joyida, oqizmaydi. Bu xil qovuq bilan bemalol yashab, o‘ynab-kulib yursa bo‘ladi. «Faqat, – deyman o‘z-o‘zimga, – ichishni uzil-kesil tashlash kerak». Bor-e, dedim-u, tashladim.

Ichmayman, dedimmi ichmayman. Bir soat ichmadim, ikki soat ichmadim. Kech soat beshlarda tushlik qilish uchun oshxonaga bordim.

<sup>1</sup> Tibbiyotda biror-bir biologik a‘zoni yo‘qotish ma‘nosida.

<sup>2</sup> NEP – novaya ekonomicheskaya politika, sovetlar davlatining o‘sha davrdagi yangi iqtisodiy siyosati.



Sho'ruva ichdim. Endi go'shtini qo'lga olgan edim, ichgim kelib ketdi.

«Achchiq ichimlikning o'rniga yutumi osonroq narzan, yoki limonadga o'xshash biror nima ichsammikan», deb o'yladim.

– O'v, menga qara, – deb chaqirdim, – ovqatni bergandan keyin limonad ham keltir-da, kallavaram. Menga ziyolicha barkashda limonad keltirishdi. Grafinda. Qadahchaga quyaman. Bir ko'tarishda ichdim. Araqqa o'xshaydi. Yana quydim. Xudo haqqi, araq. Voy, kasofat-a! Qolganini ham quydim, o'lay agar, haqiqiy araqning o'zi.

– Yana obkel! – deb qichqirdim.

Yana keltirishdi.

Ichib ko'rdim. Tabiiy araqligiga shubha qolmadi. Pulini to'lagandan keyin har ehtimolga qarshi ogohlantirdim.

– Men sendan limonad so'ragan edim, nima keltirding, kallavaram? – dedim.

U bo'lsa:

– Bu bizda limonad deb yuritiladi-da, – dedi. – To'g'risi, ham shu. Azaldan shunday... Tabiiy limonadning o'zini esa saqlamaymiz. Xaridor yo'q.

– Oxirgisini keltir! – dedim.

Shunday qilib tashlay olmadim. Qattiq ahd qilgan edim, faqat sharoit monelik qildi. Aytmoqchi, hayotning ham o'z qoidalari bo'larkan. Ularga bo'ysunish lozim.

1925

## OVOZ YOZGICH

Voy, bu amerikaliklar, naqadar aqlli xalq-a! Qanday ajoyib kashfiyotlar, qanday ulug' ixtirolar yaratishmadi ular! Bug', xavfsiz ustara. Yana jilet, yerning o'z o'qi atrofida aylanishi – bularning barchasi amerikalik tomonidan, bir qismi inglizlar tomonidan kashf qilingan.

Endi ruxsat etasiz, amerikaliklar kishilikni baxtiyor etgan yana bir olamshumul mashina – ovoz yozgich haqida gapiray.

Ehtimol, albatta, bu mashina bundan ancha avval ixtiro qilingandir, lekin uni bizga yaqindagina jo'natishdi.

Bu mashina keltirilgach ko'p katta tantanaga aylanib ketdi.

Bu g'alati uskunani ko'rishga tumonat odam to'plandi. Hammamiz uchun hurmatli Konstantin Ivanovich Derevyashkin mashinaning g'ilofini ochib, latta bilan arta boshladi. Shu orada uni qanday ulug' donishmand ixtiro qilganligini o'z ko'zimiz bilan ko'rib ishonдик. Darhaqiqat, bir olam murvat va murvatchalar, yana allaqanday sonanoqsiz g'ildirakchalar ko'zga tashlanib turardi. Ko'rinishdan ja nozik va nafis bu mashina, qanaqasiga ishlab, belgilangan vazifani bajarishini o'ylashning o'zi hayratli.

Eh, Amerika, Amerika – naqadar buyuk mamlakat!

Mashinaga qarab bo'lingach, hammamiz uchun hurmatli o'rtoq Derevyashkin amerikaliklarni maqtab, genial ixtironing ahamiyati haqida kirish nutqi so'zladi. So'ng amaliy tajribaga kirishildi.

Konstantin Ivanovich:

– Oralaringizda shu genial apparatga biror so'z aytishni istaydigan odam bormi? – deb murojaat qildi.

Shunda nihoyatda oriq, novcha, oltinchi daraja bilan maosh va yana ish vaqtidan tashqari haq oluvchi hurmatli o'rtoq Tikin Vasiliy so'z oldi.

– Ruxsat etsangiz, ushlab ko'rsam, – dedi u.

Ruxsat berishdi.

U biroz hayajon bilan mashinaga yaqin keldi, bir nima aytish uchun uzoq o'yladi, so'ng hech nima xayoliga kelmadi, shekilli o'zning chalasavodligidan o'kingandek bo'lib, qo'l silkiib mashinadan nari ketdi.

Keyin boshqasi keldi. U uzoq o'ylab turmasdan ochiq karnayga qarab qichqirdi:

– Hoy, sen la'nati xotin!

Shundan keyin qopqog'ini ochib valikni olishdi, uni tegishli joyga qo'yishdi. Xo'sh, keyin-chi? – keyin o'sha valik yuqorida aytilgan so'zlarni hammaga aynan eshittirdi.

Bundan ilhomlangan tomoshabinlar birori so'z, fikr yoki shior aytib qolish uchun baravariga truba tomon yorilishdi. Mashina hammasini aniq yoza boshladi.

Shunda oltinchi daraja bilan maosh va yana ish vaqtidan tashqari haq oluvchi Vasiliy Tikin so'z olib, jamoat orasidan biror kishi trubaga so'kinib ko'rsin-chi, deya taklif kiritdi.

Biz uchun hurmatli Konstantin Ivanovich Derevyashkin dastlab karnayga so'kinishni qat'iyman etdi va hatto tepinib ham

qo'ydi, so'ng ancha ikkilanishlardan keyin qo'shni uydan ashaddiy so'kong'ich – sobiq matrosni chaqirib chiqishga rozilik berdi.

Qora dengizda xizmat qilgan matros ko'pam tarang qilmasdan tez-gina chiqib keldi.

– Qayerga, – dedi u, – qaysi teshikka qarab so'kinay?

Albatta, unga ko'rsatishdi. U shunaqayam so'kinib ketdiki, hatto biz uchun hurmatli Derevyashkin, bo'ldi, bas, bu yer senga Amerika emas, deya qo'l ko'tardi.

Xayriyat, matrosni trubadan zo'rg'a chetlashtirib, valikni qo'yishdi. Haqiqatan ham apparat yozib olinganlarni aynan, o'z holicha takror-ladi.

Shunda boshqalar ham karnayga yaqin kelib, o'z bilganlaricha bi-rin-ketin so'kina boshlashdi. So'ng har xil ovozlar chiqarishdi: qar-sak chalishdi, oyoqda tapir-tupur qilishdi, tillarini tanglayga tekkizib «chuq-chuq» qilishdi – mashina bemalol ishlayverdi.

Bu ixtironing naqadar genial va buyukligini hamma ko'rdi.

Afsuski, faqat bu mashina o'ta nafis va nozikligidan ayrim qat-tiq tovushlarga tob bera olmas ekan. Masalan, Konstantin Ivanovich to'pponchadan karnayga qarab emas, yon tomonga otib, o'q ovozini valikka yozdirib, tarixga qoldirmoqchi edi – bo'lmadi. Mashina o'q ovoziga tob bera olmasdan – ishdan chiqdi.

Shu jihati amerikalik ixtirochi va chayqovchilarning shuhratiga ancha soya solib, uni pasaytiradi.

Harqalay, insoniyat oldida ularning xizmati katta, to'g'risi ancha-gina.

1925

## ARAVAKASH

Taxminimcha, Gorki qishlog'igacha bor-yo'g'i uch chaqirim bo'lsa kerak. Yayov borgim kelmadi. Bahorgi loygarchilik naq tizzaga chiqadi.

Stansiyaga yaqin, kooperativ oldida bir arava turardi. Telpak kiy-gan keksa dehqon oti oldida o'ralashardi.

– Hoy, amaki, meni Gorkigacha olib bormaysanmi? – deb so'radim.

– Olib borsa bo'ladi, – dedi, – faqat tekinga emas. Axir te-kinga mushuk ham oftobga chiqmaydi. Jondaygina qilib bir so'mni cho'zasan. Yo'lning yomonligini ko'ryapsan-ku, polvon.

Aravaga o'tirdim. Jo'nab ketdik.

Yo'l chinakamiga rasvo edi. Go'yo ikkala qirg'oqdan bor-yo'q hamma ifloslik atay shu yo'lga kelib quyilgandek. Atalaga aylangan loy g'ildiraklarni ko'mib borardi.

– Loyni qarang-a! – dedim.

Dehqon beparvolik bilan:

– Suv ko'p-da, suv, – deb qo'ydi.

U peshtaxtada oyoqlarini osiltirib o'tirar, tili bilan g'alati ovoz chiqarib otini qistardi.

Qizig'i shundaki, aravakash yo'l bo'yi shu xil ovoz chiqarib kelardi. Ovoz chiqarishdan birpas tiyildim deguncha, ot quloqlarini orqaga chimirib, o'z-o'zidan to'xtab qolardi.

Yuz qadamcha yurar-yurmas, orqadan – kooperativ tomondan ayol kishining chinqirig'i eshitildi.

Kulrang ro'mol o'ragan allaqanday xotin qo'llarini o'ynatib, kurakda turmaydigan so'zlar bilan so'kinar, loyda oyoqlarini arang sudrab arava ortidan kelardi.

Bu nima qiliq, sang'i! – deya qichqirdi ayol bizga yaqinlashib kelgach. – Aravaga kimni mindirib olding, juvonmarg? Ha, baloning o'qiga uchgur, firibgar.

Aravakash orqa o'girildi, soqollari oralab tabassum yugurgandek bo'ldi.

– Voy, alvasti xotin-e, – dedi u kulib, – qarg'ashini qarang uni.

– Nega qarg'aydi? – deb so'radim.

– Kim biladi deysiz. Aravaga xomtamaligi bor, – dedi. – Loygarchilikda piyoda yurgisi kelmayapti-da.

– Qo'y, minib olsin! – dedim.

– Uch kishini mindirish mumkin emas, – dedi aravakash, – yo'l og'ir, polvon, yo'l.

Xotin etagini qornigacha ko'tarib, tez yurishga harakat qilar, lekin loyning chuqurligidan bizga yeta olmasdi.

– U bilan kelishib olganmisizlar? – deb so'radim.

– Kelishib nima qilardim? – dedi aravakash, – axir, o'z xotinimku. Bekordan bekorga kelishib o'tiramanmi?

– Nahotki?! Xotinim dedingmi? – hayron bo'ldim. – Unda nega olib kelding, bo'lmasam?

– Xotin-da, o'zi yopishib oldi. Bugun uning tug'ilgan kuni. Kooperativga u-bu narsa xarid qilgani kelgan edik.



Menga, shahar odamiga aravada ketish juda noqulay bo'ldi. Chunki tug'ilgan kunini nishonlaydigan ayol kishi orqadan meni, avlodlarimni va o'z erini boloxonador qilib so'kib kelardi.

Aravakashga bir so'm berib, yerga sakrab tushdim-da:

– Xotining minib olsin! Men yayov ketaman, – dedim.

Aravakash pulni oldi-da, boshidan telpagini ham olmasdan, qayergadir sochlari orasiga yashirdi.

Biroq, u negadir xotini kutmadi. Til va tanglayida g'alati ovoz chiqarib, otni qistadi.

Men aravadan ushlagancha mardona qadam tashlab borarkanman, so'radim.

– Xo'sh, nega uni o'tqizmaysan?

Aravakash chuqur nafas oldi.

– Yo'l haddan tashqari og'ir. Hozir o'tqazish mumkin emas... E, zarari yo'q, xotinlarga jin ham urmaydi. U devdan baquvvat, juda kuchli.

Men yo'l-yo'lakay yana aravaga chiqib oldim-da, qishloqqa o'tirib keldim. Endi na aravakashga, na tug'ilgan kunini nishonlayotgan uning xotiniga qarardim.

Aravakashning qovog'i soliq. Jimgina ketyapmiz.

Uyga yaqin kelganimizda aravakash:

– Bilasanmi, yo'l juda og'ir, – dedi. – Bu xil rasvo yo'l-da sendan yo'lkiraga bemalol uch so'm olsa ham bo'lardi.

Aravakash bilan hisob-kitob qilib, raisni qayerdan topishimni so'rab bilgunimcha ayol ham yetib keldi. U qora terning tagiga qolgan. Yubkasining etagini tortib qo'yarkan, eriga qaramasdan:

– Tushirish kerakmi? – deb so'radi.

– Albatta, tushirish kerak, – dedi aravakash, – mollar yozgacha aravada yotmaydi-ku.

Xotin aravaga yaqin kelib, xarid qilingan narsalarni uyga tashiy boshladi.

1926

## DADA

Yaqinda sudda Volodka Gusevga bir narsani yopishtirdilar. Uni chaqaloqning otasi deb topib, oyligidan uchdan birini olib qolishga hukm chiqarishdi. Yosh, baxtiyor otaning qayg'u-hasratini tasvirlashga qalam o'zlik qiladi. Bundan u nihoyatda alamzada.

– Chaqaloqlarga toqatim yo'q, – deydi u. – Qaragim ham kelmaydi. Dam oyoqchalarini qimirlatadi, dam chinqiradi, dam o'qchiydi. Hatto egnini ham bemalol bulg'ashi mumkin. Qisqasi, bu xil chaqaloqlar – koni azob, rohatning zavoli.

Buning ustiga, yana unga pul ber emish. Oylikning uchdan biriniya. Topibsan yashashning oson yo'lini. Bu alamdan kasallanib qolish hech gap emas. Shuning uchun ham xalq sudyasiga:

– Bu kulgili-ku, o'rtoq xalq sudyasi, – dedim. – Ochig'ini aytganda bu ham kulgili, ham g'ayritabiiy hol. Shugina, tirnoqdaygina narsaga oylikning uchdan birini olib berasizmi, – dedim. – Uning nimasiga uchdan birini beraman? Axir, chaqaloq ichmasa, chekmasa, qarta o'ynamasa, nima qiladi shuncha pulni? Bu g'ayritabiiy holdan, – dedim, – kasal bo'lib o'lish mumkin-ku.

Sudya bo'lsa:

– Chaqaloq masalasiga qanday qaraysiz? – deb so'radi, – o'zingizni anaqangiz deb hisoblaysizmi, yoki yo'q?

– Gaplaringiz g'alati-ya, o'rtoq xalq sudyasi, – dedim, – ochig'ini aytсам, juda qo'pol, noqulay. Axir bu xil so'zlardan kasallanib qolishim mumkin. Tabiiy, chaqaloq meniki, – dedim. – Faqat shu mojaroni kim qo'zg'atganini bilmochiman. Bu, – dedim, – Maruska Kovrovaning ishi. O'sha-da mening pullarimga ko'z tikkan. Mening o'zim esa, o'ttiz ikki so'm olaman. Shundan o'n so'm yetmish besh tiyini unga bersam, o'zimda nima qoladi? Demak, yirtiq libosda yurarkanman-da? Bu yoqda Maruska mening pulimga royal va batis nozikbandlar sotib olsinmi? Tfu, qurib ketsin, bu xil ko'ngilsizliklar!

Sudya:

– Ehtimol, Siz ham eslarsiz, – dedi, – o'ylang-chi.

– Hech nimani eslamayman, – dedim. – Ochig'i, bu xil xotiralardan kasallanib qolishim mumkin... Maruska haqidami? Nima ham derdim, atigi bir martagina uyimga kelgan edi. Yana bir marta tramvayda birga ketganidi. Kirasini ham o'zim to'laganman. Faqat nima

sababdan bir umr har oy pul to‘lashim kerak ekan, shunga aqlim yetmay turibdi. So‘ramang...

– Agar chaqaloqchadan tonmoqchi bo‘lsangiz, hozir uni ko‘rib, Sizga o‘xshash tomonlarini aniqlashimiz mumkin, – dedi sudya.

Shu yerda turgan Maruska chaqaloqning yo‘rgagini ocha boshladi. Sudya chaqaloqqa qarab olib:

– Burunchasi xuddi siznikiga o‘xshaydi, – dedi.

– Kechirasiz, – dedim, – burunchasining o‘xshashligidan tonmayman. Haqiqatan ham burunchasi menikiga o‘xshash! Burun uchun, hamisha uch yoki uch yarim so‘m to‘lashga tayyorman. Lekin, – dedim, – boshqa a‘zolari menga tegishli emas. Men mumdek qopqoraman, bu esa, kechirasiz-u, eshikdek oppoq. Bu xil oqligi uchun bir so‘m, yoki boringki, bir yarim so‘m to‘lashim mumkin. Nikohda bo‘lmaganligi uchun bu ham unga ortiqcha.

– Haqiqatan ham burunchasi dadasiga tortgan bo‘lsa-da, – dedi sudya, – bu xil o‘xshashlikni har qanaqasiga yo‘ysa ham bo‘laveradi.

– Buruncha asos bo‘la olmaydi, – dedim. – Ochig‘i, haqiqatan ham burunchasi menikiga o‘xshashi mumkin. Lekin burunchadagi teshikchalar sirayam menikiga o‘xshamaydi – nihoyatda kichik. Bu xil teshikchalar uchun, bir so‘mdan ortiq bera olmayman. O‘rtoq xalq sudyasi, bu yerda ortiqcha ushlanib qolmasligim uchun tezda ketishimga ijozat bersangiz.

– Jinday kut. Hozir hukm chiqaramiz, – dedi sudya.

Qurib ketsin, hukm ham chiqardi. Faqat oyligimdan uchdan birini ushlab qolishga.

– Hammasiga tupuraman, – dedim men, – bu xil ishlardan kasallanib qolish mumkin-ku!

1926

## O'TIN

*Esga tushar o'qtin va o'qtin  
Muqaddas so'z, jonona – o'tin.*

### A. Blok

Bu haqiqiy voqea Rojdestvo bayramida ro'y berdi.

Gazetalarning hodisalar bo'limida kichik harflar bilan bu voqea falon yerda, falon vaqtda sodir bo'ldi, deb qayd etdilar.

Kamina qiziquvchan kishiman. Gazetaning quruq xabaridan unchalik qanoatlanmadim.

Mazkur manzilga yugurdim, mojaro aybdorini izlab topib, tezda uning po'stiga kirdim-da, bo'lgan voqeani ipidan ignasigacha aytib berishni iltimos qildim.

Bir shisha pivo ustida barcha voqea oydinlashdi qoldi.

Kitob degani juda ishonchsiz bo'ladi. Odamlar naqadar aldoqchi-a, deb o'ylashi mumkin.

Men aldamayman, hozir ham o'quvchi, sening ko'zlaringga tik qarab turib, «aldamayman» deyishim mumkin.

Umuman, men hech qachon yolg'on gapirmaganman va uydirmasiz yozishga harakat qilaman. Fantaziyaga bo'lsa, uquvim yo'q. O'zimning hayotiy ko'rgan-kechirganlarimni allaqanday bichib-to'qishlar, uydirmalarga sarflashni yoqtirmayman. Hayotiylik adabiyot uchun naqadar zarurligini yaxshi bilaman, hurmatli o'quvchi.

Marhamat, muqaddasdek tuyulgan ushbu hikoyani tinglab ko'r.

«O'tin, bu juda qimmatbaho narsa, – dedi suhbatdoshim. – Ayniqsa qish kelib, sovuq qilichini yalang'ochlaganda olamda o'tindan yaxshisi yo'q.

Hatto o'tinni tug'ilgan kunda ham sovg'a qilish mumkin.

Qayinsinglim Lizaveta Ignatyevaning tug'ilga kunida bir bog' o'tin sovg'a qilganman. Uning eri Pyotr Semyonich juda qiziqqon, badjahl kishi bo'lib, shu itemgur kecha oxirida tarasha bilan boshimga solib qolsa bo'ladimi.

– Bu senga o'n ikkinchi yil emas, o'tin ko'tarib qolsang, – deydi.

Shunga qaramasdan, o'tin haqidagi o'z fikrimda qolaman. O'tin – juda aziz va muqaddas narsa.

Aytaylik, hatto sovuqda taxta to'siq yonidan o'tayotib, beixtiyor uni ushlab qo'lasan.

Hatto o'tin-tarasha o'g'rilari ham bor. Kissavur ularning yonida ip ham yecholmaydi.



O'tin o'g'risi – juda mard, jasur odam. Uni hech qachon qo'lga ham tushirib bo'lmaydi.

O'g'rini esa to'satdan qo'lga tushirdik.

O'tin hovliga terib qo'yilgan edi. Jamoat o'tini yo'qola boshladi. Har kuni to'rt-besh boylamcha yo'qoladi. Hammadan ham to'rtinchi uyda yashovchi Seryoga Pestrikovning xunobi oshdi.

– Qorovullab chiqishga to'g'ri keladi, birodarlar, – dedi, – aks holda hech qanday o'g'rini ushlay olmaymiz.

Oradan oy o'tdi. Bir kuni jiyanim Mishka Vlasov kelib, so'z ochib qoldi.

– Xabaringiz bor, amaki, – deydi, – ximiklar jamiyatiga a'zoman. Qarindoshligimiz hurmati, sizga arzon bahoda dinamit patron keltirib beraman. Siz ana shu patronni o'tin orasiga yashirib qo'ying. Biz, petrozavodskliklar uyda hamisha shunday qilamiz. O'g'rilar bundan juda qo'rqishadi, o'tiningizga qo'l ham tekkizishmaydi. Juda zo'r tadbir.

– Obke, xo'roz bola, – dedim, – shu bugunning o'zidayoq qo'yamiz. Obkeldi.

Bitta tarashani olib, ichini o'ydim-da, patronni joyladim. Ustini bekitib, o'tinlar orasiga tashladim-u, buyog'i nima bo'larkin deb kuta boshladim.

Kechqurun uyda portlash ro'y berdi.

Xalq nima bo'lganidan bexabar dahshatga tushdi. Men bilan jiyanim Mishagina bilamiz, xolos. O'zi nima gap? Nima bo'lardi – to'rtinchi uyda istiqomat qiluvchi Seryoga Pestrikovning pechkasida patron portlagan.

Bu haqda Seryoga Pestrikovga hech narsa demadim. Faqat muttahamning yuziga, to'piri chiqib yotgan uyga, ag'anab yotgan eshigiga g'amgin bir qarab oldim, hech narsa demasdan chiqdim.

Bir kishi qurbon bo'ldi. Seryoganing hamxonasi – nogiron Gusev qo'rquvdan jon berdi. Uning boshiga g'isht tushib majaqlabdi.

Seryoga Pestrikovning o'zi va o'ziga o'xshash onasi hozir ham xarobada yashab turishibdi. Yangi yilda butun oilasi bilan o'tin o'g'irlagani uchun sud oldida javob beradi.

Faqat bir narsa juda alam qiladi. Bu omilkorlik itvachcha Mishka Vlasovdan chiqqan emish.

Sudda ochiq aytaman, tarashani o'yib, patronni men joylagan bo'lsam-u, yana hamma shon-shuhrat ungami?

Sud bo'lsa, shon-shuhratni baravariga taqsimlasin-da.

## O'G'RILAR

O'rtoqlar, negadir hozir o'g'irlik ko'payib ketdi. Yon-veringga qarab ulgurmasdan, bir nimangni shilib ketishadi.

Endilikda biror narsasini o'g'irlatmagan odamning o'zini topish mushkul.

Yaqinda Jmerinkaga yetmasdan turib mening ham jomadonchamni urib ketishdi.

Ayting-chi, shu xil ijtimoiy falokatning oldini olish uchun nima qilish kerak? Yoki o'g'rilarning qo'lini qirqish kerakmikin?

Aytishlaricha, qadim zamonlarda Finlyandiyada o'g'rilarning qo'lini kesishar ekan. Misol uchun, ularning biror fin birodari o'g'rilik qildi deylik. O'sha zahoti ship etib qo'li kesiladi, ana endi qo'lsiz yuraver, nomard.

Shuning uchun ham u yerdagi odamlar insofli bo'la borgan. U yerda hatto uylarni ochiq qoldirish mumkin, deyishadi. Misol uchun, u yerda biror kimsa hamyonini ko'chada tushirib qoldirsa, boshqalar shu hamyonni olishmas ekan. Bir chekkaga, ko'rinarli yerga qo'yisharkan, egasi topilmasa, bir asr ham turaverarkan... Mana, bema'nilik!

Harqalay, o'sha hamyondan pulni olishsa kerak. Olmasliklari sirayam mumkin emas. Bizda nafaqat qo'lini, hatto kallasini kessang ham baribir foydasi yo'q. Chunki pul kerakli narsa. Hamyonning o'zi qolsa ham, mersi, shukr qilishsin.

Jmerinkaga yetmasdan turib mening jomadonchamni o'g'irlab ketganlari aniq. Ichak-chavog'ini ag'darib tashlagan. Hatto jomadonning dastasini ham qoldirishmabdi. Besh so'mlik mochalka bor edi – shuyam yo'q. Bo'lmasa, o'sha ablahlarga mochalka nimaga kerak? Bir chetga uloqtirgan-da, ifloslar! Ana shunaqa. Hatto mochalkani ham o'g'irlashdi.

Mana bunday bo'lgan edi.

Kechqurun poyezdda bir kishi kelib yonimga o'tirdi.

– Ehtiyot bo'ling, – deydi, – bu yerda ashaddiy, olg'ir o'g'rilar ko'p. Ochiqdan ochiq yo'lovchilarga tashlanishadi.

– Bu meni qo'rqita olmaydi, – dedim, – yo'l bo'yi jomadonchamni boshimning ostiga qo'yib yotib ketaman. Xo'sh, yana nima deysiz, qulog'im sizda.

– Gap quloqda emas, – deydi u, – bu yerda shunaqayam abjirlari borki, hatto oyoqdan etikni ham bildirmasdan yechib ketishadi. Siz quloq deb o'tiribsiz-a.

– Etik dedingizmi? Mening etigim ruscha qilib tikilgan – qo‘nji uzun, yechisha olmaydi.

– E, bilganingizni qiling, – deydi u, – endi bir ogohlantirib qo‘ydim-da. Bu yog‘i o‘zingizga havola.

Shundan keyin mudrab ketibman.

Jmerinkaga yetmagan edik chamamda, qorong‘ida kimdir oyog‘imdan tortgandek bo‘ldi. Naq oyog‘im uzilib ketay dedi... O‘rnimdan sakrab turib, o‘g‘rining yelkasidan tutdim. U bo‘lsa chap berib, o‘zini tappa yerga tashladi. Yuqori qavatdan pastga sakradim. Quvmoqchi bo‘ldim. Negadir yugura olmay qoldim. Chunki etik yarmigacha yechilgan – oyog‘im sag‘rining qoq yarmida qayrilib turardi.

Dod soldim. Butun vagon to‘plandi.

– Nima gap? Tinchlikmi? – deb so‘rashadi.

– Birodarlar, sal qoldi etigimni shilib ketishardi, – dedim.

O‘tirib etikni yaxshiroq kiyaboshladim, qarasam – jomadon yo‘q. O‘g‘ri boshim ostidan jomadonni olish uchun ataylab oyog‘imdan tortgan ekan.

Katta stansiyaga tushib, maxsus bo‘limga arz qildim.

Ular hamdardlik bildirib, bir nimalarni yozib olishdi.

– Agar uni ushlangizlar, ablahning qo‘llarini kesinglar, – dedim.

Kulishadi.

– Xo‘p, albatta kesamiz, – deydi ular. – Qalamni joyiga qo‘ying.

Buni qarang-a, o‘zim ham bilmagan holda stoldan ularning rangli qalamini olib cho‘ntakka solibman.

– Shuning uchun ham maxsus bo‘lim deyishadi-da, – dedi izquvar, – qisqa muddat ichida yo‘lovchilar barcha yozuv asboblarningizni o‘g‘irlab ketishdi. Bitta urg‘ochisi siyohdonni olib ketibdi. Yana to‘la siyohi bilan-a.

Qalam uchun kechirim so‘rab, tashqari chiqdim.

«Bizda ham qo‘l kesish jazosi joriy qilinsa, hammayoqni nogiron bosib ketsa kerak, – deb o‘yladim, – o‘zimga ham qiyin bo‘larkan».

Harqalay, shu falokatning oldini olish uchun biror chora o‘ylab topish lozim.

Yildan yilga hayot yaxshilanib bormoqda, yaqin yillar ichida butunlay yaxshilanib, ehtimol o‘shanda o‘g‘rilar qolmas degan dangal fikr bizga tasalli beradi.

Ana o‘shanda bu masala, albatta, hal bo‘ladi. Kutaylik-chi.

1926



## YO'LOVCHI

Nega ham yo'lovchilarga Moskvaga uchinchi qavatda ketishga ruxsat etishadi? Axir, bu qavat yuk uchun-ku. Yuk qavatida yuk ketishi kerak-da, nainki odamlar.

Yana madaniyat, ma'rifat deyishlariga o'laymi? Axir, endilikda teplovoz poyezdlarga qo'shilgach, so'ng yurib ketadi-da. Shunga qaramay, vagonlarda har xil chalkashliklarga yo'l qo'yilmoqda.

Axir, bunaqada boshsiz qolish mumkin. Yiqilganda pastga qarab yiqilasan-da, nainki tepaga qarab bo'lsa.

Umuman, menga Moskvaga ketishning nima hojati bor edi. Itvachcha Vaska Bochkov qo'yarda-qo'ymay sayohatga yo'lladi.

– Mana senga tekin chipta, – deydi. – Xohlasang Moskvaga jo'na.

– Ukajon, – dedim, – Moskvada nima qilaman, – dedim. – Moskvangga hecham oyog'im tortmayapti. U yerda qalpog'im tushib qolmagan. Bundan tashqari, Moskvangda yotishga joyim bo'lmasa, jon uka, – dedim.

U bo'lsa:

– E, boravermaysanmi, – deydi. – Harqalay, tekin bo'lsa. Bunaqa omad hayotingda bir yoki ikki marta keladi. Noz qilishga balo bormi?

Shanbadan yakshanbaga o'tarda jo'nab ketdim.

Vagonga chiqdim. Yon tomonda o'tirdim. Ketyapman. Uch chaqirimcha yurilgach, qattiq ochiqdim. Yeyishga esa hech vaqo yo'q.

– Eh, itvachcha, Vaska Bochkov, – deb o'yladim. – Meni qanday balolarga giriftor qilding-a? Shundayam uzoq yo'lga chiqamanmi. Bu xil orqa-oldin yurgandan ko'ra, o'sha yoqdagi pivoxonada maza qilib o'tirmaymanmi.

Odamman degani anchagina to'plandi. Misol uchun, yon tomondagi deraza yonida soqolli bir amaki turibdi. Uning yonida xudo urgur bir kampir. O'lgudek zahar, shallaqi kampir, hammani tirsaklagani-tirsaklagan.

– Bu iblisning o'tirishini qarang, – deydi, – na nafas olib bo'ladi, na chiqarib.

– Xudo xayringizni bersin, kampirsho, – dedim, – ko'pam turtkilamang. Men o'z ixtiyorim bilan ketayotganim yo'q, meni Vaska Bochkov qo'yarda-qo'ymay bu yoqlarga yo'lladi.

Qani endi rahmi kelsa.



Shu orada kech kira boshladi. Teplovozdan bamisoli yomg'irdek uchqun sachraydi. Butun tabiat, hammayoq go'zal. Mening bo'lsa, tabiatga qaragim ham kelmaydi. Yaxshisi, o'ralib yotish deb o'yladim.

Qarasam, yotishga joy qayoqda. Hamma o'rinlar band.

Yo'lovchilarga murojaat qildim.

– O'rtoqlar, aqalli o'rtalikka o'tirishga ijozat beringlar, – dedim. Axir yon tomondan qulab tushishim mumkin, Moskvaga ketyapman.

– Bu yerdagilarning hammasi Moskvaga ketyapti, – deyishdi. – Harqalay, bu poyezd platskart emas. O'tirgan joyingda jimgina o'tiraver.

O'tirdim. Ketyapman. Uch chaqirimcha yurgach, oyog'im uvishib qoldi. O'rimdan turdim. Qarasam – uchinchi qavat ko'rindi. Unda jomadon ketyapti.

– Bu nima gap, o'rtoqlar, – dedim. – Bu yerda odam bukchayib, tiqilib, oyoqlari uvishib o'tirsin-u, anavi tokchada turli xil narsalar tursin... Harqalay, odam narsadan afzal-ku, – dedim. – Bu savat kimniki o'zi, qani oling-chi!

Kampirsho shang'illab o'rimdan turdi. Savatini ushlab:

– Sen iblislardan na kunduzi, na kechasi tinchlik bor, – deydi. – Ma, ol, kerak bo'lsa, chiqaver. Xudo xohlasa, yarim kechalikda yiqilib, kallang uziladi.

Yuqoriga chiqdim.

Yotib olib, uch toshcha yo'l bosdim. Shiringina mudrab ketyapman.

Bir payt to'satdan otilib ketdim, yon tomondan pastga ag'darildim. Qarasam – yiqilyapman. Uyqu aralash, qanaqasiga yiqilsam ekan, deb o'yladim.

Yon tomonga shunaqayam uchib tushdimki, boshim, oshqozonim, qo'llarim tamom... Yiqildim.

Yaxshiyamki, qulayotganda oyog'im bilan ikkinchi qavatga ilinib qolganligim tufayli qattiq zarb yemadim.

Polda o'tirib, boshimni ushladim. Shumikin? Ha, shu.

Vagonda to's-to'polon boshlanib ketdi. Yo'lovchilar, biror narsamizni o'g'irlashmadimi, deb o'ylab, shovqin-suron ko'tarishdi.

Shovqin tufayli fonar ko'targan brigada yetib keldi.

– Kim yiqildi? – deb so'radi vagon kuzatuvchisi.

– Yuk tokchasidan quladim. Moskvaga ketyapman. Itvachcha Vaska Bochkov shu safarga undadi meni.

– Bologoyega yetganda yo‘lovchilar hamisha shunaqa yiqilishadi, – dedi kuzatuvchi. – Juda yomon bekat.

– Yiqilgan kishiga bu xil so‘zni eshitish juda alam qilarkan, – dedim, – yaxshisi, brigada yuqori qavatda ketishga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Mabodo, Biror-bir yo‘lovchi yuqori qavatga chiqmoqchi bo‘lganda ham, o‘rtoq, chiqmang u yerga, deya tanbeh berish mumkin edi.

Shu asnoda kampirsho shovqin ko‘tardi.

– Qurib ketgur, boshing bilan savatimni majaqlabsan-ku!

– Savatdan odam afzal, – dedim. – Savatni pulga sotib olish mumkin. Boshning bahosi yo‘q, bildingizmi?

Shovqin solishdi, oh-voy qilishib, boshimni latta bilan boylashdida, poyezdni to‘xtatmasdan, yo‘lda davom etdik.

Moskvaga yetib bordim. Tushdim. Vokzalda o‘tirdim. Katta idishdan to‘rt krujka suv ichdim. Yana izimga qaytdim.

Boshim bo‘lsa g‘uvullaydi, zirqiraydi. Xayolimga bo‘lmag‘ur fikrlar keladi. Hozir qo‘limga Vaska Bochkov tushib qolsa bormi, qovurg‘alarini mayda-mayda qilardim, deb o‘ylayman. Ablah, deyman, shunaqa safarga ham yuboradimi odamni. Leningradgacha yetib keldim. Tushdim. Idishdan bir krujka suv ichib, chayqala-chayqala yurib ketdim.

1926

## ER

Bu nima degan gap, xaloyiq, oilaviy frontda nimalar bo‘lyapti o‘zi? Erkaklarning ishi batamom kasodga uchramoqda. Ayniqsa, xotintlari dolzarb masalalar bilan shug‘ullanadiganlarga og‘ir.

Men sizga aytsam, yaqinda shunday bir zerikarli voqea ro‘y berdi. Uyga qaytdim. Kirmoqchi edim. Ya‘ni, masalan, o‘z eshigimni taqilatsam, yopiray – ochishmaydi.

– Manyusa, – deyman o‘z xotinimga, – bu menman, keldim, Vasyaman, axir.

Yashirib turibdi. Miq etmaydi.

Shu asnoda eshik orqasidan Mishka Bochkovning ovozi eshitiladi. Bilasizmi, Mishka Bochkov degani xotinim bilan birga ishlaydigan xodim.

– E, – deydi, – bu sizmi, Vasil Ivanich? Bir daqiqa, – biz seni kiritamiz. Jinday sabr qil, do‘stim.

Bilasizmi, shunda boshimga kaltak tushgandek bo‘ldi. «Bu nima gap, oilaviy frontda nimalar bo‘lyapti o‘zi, xaloyiq, – deb o‘yladim, – ertlarni o‘z uyiga qo‘yishmasa-ya». O‘zimni qo‘lga olib:

– Och, xo‘rozvoy, – deyman, – qo‘rqma, sen bilan mushtlashmayman.

Bilasizmi, men haqiqatan ham mushtlasha olmayman. Kechirasiz, bo‘yim pakana, gavdam ham uvoqqina, maydaginaman. Mushtlashishga yo‘l bo‘lsin. Buning ustiga, bilasizmi, qattiqroq harakat qilsam, ichimda bir nimalar muttasil quldirab turadi. Feldsher: «Oshqozoningizda ovqatlar o‘yinga tushadi», deydi. Bilasizmi, bu xil o‘yin men uchun judayam ko‘ngilli emas. Topibdi o‘yinchog‘ini. Bir so‘z bilan aytganda, faqat shuning uchun ham mushtlasha olmayman. Eshikni taqillataman.

– Och, – deyman, – och deyapman, sen daydiga.

U bo‘lsa:

– Eshikni taqillatma, iblis. Hozir ochaman, – deydi.

– O‘rtoqlar, – deyman, – axir, bu qanday bedodlik? Begona erkak sening xotining bilan ichkarida qamalib olsin-u, yana men eshikni taqillatmasdan jimgina o‘tirarmishman. Och, hozir! Aks holda, shunaqayam janjal ko‘taramanki.

U bo‘lsa:

– Jinday sabr qil, Vasil Ivanich, – deydi. – Yo‘lakdagi sandiq ustida birpas o‘tiratur. Faqat ehtiyot bo‘l, jinchiroqni ag‘darib yuborma. Uni sen qorong‘ida turtinib ketmagan deb ataylab qo‘yganmiz.

– Og‘aynilar, – deyman, – aziz o‘rtoqlar. Bu qanday gap, nahotki bu iflos shaxs shunday paytda begona xotinning eriga jinchiroq haqida bemalol gapirib tursa?! Nimalar bo‘lyapti o‘zi?

U bo‘lsa eshik ortidan zo‘r berib ishontirishga harakat qiladi.

– Eh, sen Vasil Ivanich, – deydi, – hamisha partiyasiz meshchanin<sup>1</sup> eding, bundan keyin ham partiyasiz meshchanin bo‘lib tugaysan.

– Bo‘lganim shu, – deyman, – partiyasiz meshchanin sifatida hozir militsiyaga yuguraman.

Turgan gap, quyiga, soqchiga yugurdim.

---

<sup>1</sup> Chor Rossiyasi davrida shahar mayda savdogari, hunarmandi.

– Biror-bir chora qo‘llay olmaymiz, o‘rtoq, – deydi soqchi. – Agar ular sizni o‘ldirmoqchi bo‘lishsa yoki umumiy oilaviy mojarolar tufayli derazadan uloqtirsalar, biror chora ko‘rish mumkin... Hozir esa, aytarli hech qanday voqea ro‘y bermagan... Hammasi odatdagicha, o‘z o‘rnida... Yaxshisi, o‘sha yerga yana bir marta borib ko‘ring. Ehtimol, kiritishar.

Izimga qaytdim. Haqiqatan ham yarim soatlardan keyin Misha Bochkov eshikni ochdi.

– Kiring, endi mumkin, – deydi.

Yugurib xonaga kiraman, qaysi ko‘z bilan ko‘rayki – ichilgan, chekilgan, toptalgan, rasvoyi raddi balo qilingan. Aytmoqchi, stol atrofiga yetti kishi – uch xotin va ikki erkak bo‘lib, it bilsin – yozibmi, maslahatlashibmi o‘tirishardi.

Ular meni ko‘rib, qah-qah otib kulib yuborishdi.

Ularning peshqadam o‘rtog‘i Misha Bochkov ham stolga egilgan cha kulgisining zo‘ridan bilinar-bilinmas chayqalib turibdi.

– Uzr, pardon. Siz bilan bir hazillashdik-da, – deydi. – Shu xil holatga tushganda erlar nima qilishlarini sinab ko‘rmoqchi edik.

Men zaharli qilib:

– Kulish yaxshi emas, – dedim, – modomiki, yig‘ilish ekan, avvaldan bildirish kerak. Yoki eshikka e‘lon osib qo‘yish kerak edi. Umuman, chekilganda xonani shamollatish lozim, – dedim.

Ular o‘tirib-o‘tirib – nihoyat, tarqalishdi. Ortiqcha ushlab qolishga urinmadim.

1926

## KORJOMA

Buni qarang, qanday kunlarga qoldik-a, birodarlar. Ishchi xalqi hatto restoranga ham kirolmaydi, to‘g‘risi qo‘yishmaydi. Korjomasiga olayib qarashadi, go‘yo iflos, hashamga to‘g‘ri kelmasmish.

Vasiliy Stepanovich Konopatovning shaxsan o‘zi xuddi shunday aziyat chekdi. Uni restorandan itarib chiqarishdi. Shuyam gap bo‘ldiyu, birodarlar.

Asosiysi, Vasiliy Stepanich, eshikdan kirishi bilan negadir o‘zini boshqacharoq his etdi, go‘yo darbon uning kiyimiga boshqacharoq qaragandek bo‘ldi. Kiyimi esa o‘zlaringga ma‘lum – ishchilar



mehnat qilganda kiyiladigan, arzimas bir korjoma. Gap bunda ham emas. Ularning muomalasi Vasiliy Stepanichning xo'rligini keltirib yubordi.

U darbonga:

– Nega muncha olayib qaraysan? – dedi, – korjomam yoqmadi, shekilli? Po'rimlarga o'rganib qolgansan-da.

Darbon bo'lsa, Vasiliy Stepanichning qo'lidan shap etib ushlab, ichkariga qo'ymadi. Vasiliy Stepanich bor ovozda:

– Hali shunaqami, – deya qichqirdi. – Ishchilarni restoranga qo'ymaysizlarmi? Korjomasi yoqmaydi-da, a?

Albatta, odamlar yig'ilib kelishdi. Qarashsa, Vasiliy Stepanich hamon qichqirardi.

– To'g'ri, birodarlar, haqiqatan egnimda po'rim kiyim yo'q, bo'ynimda bo'yinbog' ham salanglab turmaydi... Ehtimol, men gardanimni uch oydan beri yuvmagandirman. Biroq men, ehtimol, ishlab chiqarishda terlab, dimiqib ketgandirman. Shuning uchun korjomamni almashtirib kelishga vaqtim bo'lmagandir.

Shunda umumiy ovqatlanish xodimlari Vasiliy Stepanichga yopirishdi. Qo'llarini qayirishdi. Ko'ppak darbon bo'lsa, eshikdan osongina sirg'alib chiqsin uchun unga qarshi tizzasini ishga soldi.

Vasiliy Stepanovich Konopatov alamdand quturib ketdi. Bechora inson ho'ngrab yubordi.

– O'rtoqlar, tug'ishganlarim! – dedi u, – ishchi-dehqonlar yurtida nimalar bo'lyapti o'zi? Po'rim kiyinmagan odamni ovqatlanishga qo'yishmasa.

Xalq ko'rdiki, g'oyaga til tekkizildi. Shunda to's-to'polon bo'lib ketdi. Oziq-ovqat xodimlarini bir chekkaga surib qo'yishdi. Birov shisha, yana birov kursi ko'targan...

Xo'jayin shu to'polonga yo'l qo'yilgani uchun restoranni bekitishlari mumkin, deya bor ovozda qichqirdi.

Shu orada orkestrdan kimdir militsiyaga yugurdi.

Militsiya keldi. Musichadek mo'min-qobil Vasiliy Stepanovich Konopatovni foytunga o'tqazdi.

Vasiliy Stepanich hamon tinchimasdi.

– Og'aynilar, bu nima degan gap, axir, – deya qichqirardi. – Korjomam uchun meni haydab chiqarganlarini militsiya ko'rabilaturib gapirmas ekan, men bunga toqat qila olmayman. Amerikaga, burjuylarga o'tib ketganim yaxshi emasmi?

Shunday qilib, Vasya Konopatovni milisaxonaga olib kelib, hujraga tiqishdi.

Tun bo'yi musichayi beozor Vasya Konopatov ko'z yumradi. Ertalabga yaqin biror soatcha uxlab oldi. Ertalab uni uyg'otishib, boshliq huzuriga olib kirishdi.

– Boring, o'rtoq, uyingizga, bu xil ishlar boshqa takrorlanmasin.

– Shaxsiyatimni haqorat qilgandan keyin, endi boringmi? – dedi Vasya. – Ishchining korjomasi yoqmagani emish. Eshakning mehna-ti halol-u, go'shti harom ekan-da? Men hozir poyezdga o'tirib, Maliy Sovnarkomga<sup>1</sup> borib, bu qilmishlaringizdan shikoyat qilishim mumkin.

– Qo'ysang-chi, o'rtoq, valaqlashni, – dedi militsiya boshlig'i. – Bizda mastlarni restoranga kiritilmasin degan qoida bor. Sen bo'lsang zinapoyadayoq tupuribsan.

– Nima? – dedi Konopatov. – Demak, meni korjoma uchun tur-tib chiqarishmagan ekan-da?

Shunda Vasiliy Stepanovichning chehrasi yorishib ketgandek bo'ldi.

– Men bo'lsam korjoma uchun qo'yishmadi, deb o'ylabman. Agar mastlik uchun qo'yishmagan bo'lsa, unda to'g'ri, Men ham tushuna-man, axir. Bahslashib ham o'tirmayman.

Vasya Konopatov boshliqning qo'lini qattiq qisdi-da, bezovta qil-ganligi uchun qayta-qayta uzr so'rab, chiqib ketdi.

1926

## TORMOZSIZ YIGIT

Asosiy sabab Volodka Bokovning jinday kayfi borligi bo'lmasa, u bu xil jinoyatga sirayam qo'l urmasdi, albatta. Ichgan edi-da, ichgan edi.

Mabodo, bilishni istasangiz, poyezdga chiqishdan oldin bir shisha-cha yerevanchasidan otib, izidan pivo ham ichib oldi. Ovqat masalasi-ga kelsak, ovchilar sosiskasidan yedi, shuyam ovqat bo'ldi-yu? Shun-day qilib, yigitchani elitdi. Shu orada vagon ham kelib qoldi. Bundan uning boshi aylananar, yuragida allaqanday orzu-niyatlar tug'yon urar, hurmatli odamlar oldida o'zini ko'rsatgisi kelardi.

<sup>1</sup> Xalq kengashi kichik qo'mitasi demoqchi.

Mana, Volodya poyezdga o'tirib, asta-sekin o'zini ko'rsata boshladi. U shunday odam ediki, go'yo unga hamma narsani qilish mumkin-day. Biror voqea bo'lib qolsa, uni hatto xalq sudi himoya qiladigandek edi. Buning ustiga odamlar bilib qo'ysin, uning ijtimoiy kelib chiqishi nihoyatda a'lo. O'z buvasi – podachi, onasi bo'lsa nihoyatda oddiy ayol...

Volodkaning tili g'o'ldirab, ana shular bilan faxrlangisi kelib ketdi. Shunda Volodkaning ko'z o'ngida allaqanday bir odam paydo bo'lib qoldi. Uning qulog'iga paxta tiqilgan, unchalik zo'r bo'lmasa-da, lekin toza kiyingan edi.

– Menga qara, – dedi u, – o'zingni bosib ol, birinchi bekatda-yoq sezib qolishmasin.

– Sen mening jamiyatdagi mavqeyimga til tekkizma. Ijtimoiy kelib chiqishimni hech kim o'zgartmaydi. Hammasi uchun menga ruxsat berilgan, buyur, istaganingni qila olishim mumkin.

Mast-da. Hamma unga turg'aldi.

Birovlar bu borada o'z noroziligini bildirdi. Ayrim zaharroqlar esa, ularni mutelikda ayblashdi. Havorang shapkali, qorayurak bir kimsa:

– Sen-chi, yigit, – dedi, – anovi deraza oynasiga kalla qil-chi, bir nima bo'larmikin, ko'raylik-chi, seni sezishmasmikin. Yaxshisi, toza oynaga tegmay qo'yaqol, anovi tutqichni tortib poyezdni to'xtataqol...Tormoz bu...

– Mana bu tutqichmi? – dedi Volodka. – Sen iflos, yaxshiroq tushuntir-da.

Havorang shapkali:

– Ha, shuning o'zi-da, – deb tushuntirdi. – Bu Vestingauza tormozi. Uni bu tomonga, chapga qarab tort.

Odamlar va qulog'iga paxta tiqilgan kishi, albatta, gijgijlovchini to'xtatib qolmoqchi bo'lishdi. Biroq mast odamning kallasiga har xil hushyor fikrlar kelarkan.

Volodka Bokov o'rnidan turib, tortqichni chap tomonga tortib yubordi. Shunda to'satdan hamma gung va soqov bo'lib qoldi. O'sha zahoti yo'lovchilar orasiga jimlik cho'kdi. Faqat g'ildiraklarning tovushi eshitalardi. Boshqa hech nima. Havorang shapkali kimsa:

– Oh, vabo-ye, – dedi jonholatda, – to'xtatding-ku.

Ayrimlar o'rnidan turib ketdi. Havorang shapkali kimsa esa, gu-nohdan qutulish maqsadida maydoncha tomon shoshildi. Yo'lovchilar uni qo'yishmadi. Qulog'iga paxta tiqilgan kishi:

– Bu bezorilik, – dedi. – Axir hozir poyezd to‘xtaydi... Kechikishdan tashqari, transport yana qancha zarar ko‘radi.

Volodka Bokovning o‘zi ham qo‘rqib ketdi.

– Havorang shapkalini tutinglar, – dedi u. – Qamalsam birga qamasinlar. O‘sha meni shav oldirdi. Poyezd negadir to‘xtamayotgan edi. Odamlar chuvillashdi.

– Poyezd birdaniga to‘xtashi mumkin emas. Harqalay, atrof poyezdi bo‘lsa-da, tormoz bosilgandan keyin ham tag‘in yigirma besh sarjin yurishi mumkin. Nam yo‘lda undan ham ko‘proq bosadi.

Poyezd bo‘lsa hamon yurib borardi. Balandlikdan o‘tib, bekatda ohista to‘xtadi. Qulog‘iga paxta tiqilgan odam:

– Tormoz... buzuqqa o‘xshaydi, – dedi.

Volodka bo‘lsa:

– Aytdim-ku, – dedi, – menga hech balo bo‘lmaydi. Bildinglarmi?

O‘tirdi. Bekatda maydonchaga chiqdi, andak o‘ziga kelgach, uyiga hech narsa ko‘rmagandek, oynadek musaffo va hushyor kirib keldi.

1926

## EZIBICHKI

Endilikda, o‘rtoqlar, xalq sudlari aksar mediklarni sud qilishyapti. Bilasizmi, birovi iflos qo‘l bilan operatsiya qilgani, ikkinchisi – burni ustidagi ko‘zoynagini ichak-chavoqqa tushirib topa olmagani, uchinchi birovi esa – qisqichni ichki a‘zolarida yo‘qotgani yoki tajribasizligi tufayli allaqanday bir xonimning boshqa yerini kesib qo‘ygani uchun sudga tushadi.

Bularning barchasi ovro‘pochasiga emas. Nodonlik oqibati. Shu xil vrachlarni, albatta, sud qilish kerak.

Xo‘sh, o‘rtoqlar, medik Yegorichni nima uchun sud qilishadi? Albatta, uning oliy ma‘lumoti yo‘q. Aytarli aybi ham yo‘q.

Shu yerda bir odam kasallanib qoldi. Familiyasi – Ryabov, kasbi – kirakash izvoshchi. O‘ttiz yetti yoshlarda, partiyasiz.

Partiyasiz bo‘lsa-da, kengashga a‘zo, uchinchi daraja bilan haq oladi. Shubhasiz, yaxshi odam.

Shu kasallanib qoldi. Yotdi. Ahvoli nihoyatda og‘ir. Bilasizmi, uning qorni shishib ketib, nafas olishi qiyinlashdi. Jinday chida! Is-siq suv to‘ldirilgan shishani qorniga bosdi – bo‘lmadi. Nihoyatda



qoʻrqib ketdi. Varaja tutgandek boʻldi. Hech qanday pulni ayamaydigan xotiniga juda zoʻr, mashhur vrachni chaqirishni buyurdi. Xotiniga nima? Pul uchun javrab-qaqshab yigʻladi, lekin bemor bilan bahslashib oʻtirmadi.

Nihoyatda soʻrriq, besoʻnaqay oliy maʼlumotli vrach keldi. Familiyasi – Vorobeychik. Partiyasiz.

Xoʻsh, qoringa qaradi. Kerakli joyni tutib koʻrib:

– Hammasi bir pul, – dedi, – mashhur vrachlarni bekorga bezovta qilibsizlar. Haddan tashqari koʻproq yeb, boʻkib qolibdi. Tovuq shoʻrva ichib, kolistir qoʻysa olam guliston.

Yaxshi qolinglar, dedi-yu, joʻnab qoldi.

Mujik<sup>1</sup> xafa boʻldi.

«Eh, – deb oʻyladi u, – oyogʻidan ossang ham kamlik qiladi uni! Allaqanday zaifona dorilarni aytadi. Otam rahmatlik bu xil yengil-yelpi dorilarni bilmagan, men ham xohlamayman. Tovuq shoʻrvani esa xalqaro burjuaziya ichaversin».

Shunday qilib, mujik kechqurungacha oʻksinib yotdi. Kechqurun xotiniga pulni ayamadan Kichik Oxtadan mashhur Yegorichni chaqirishni buyurdi.

Albatta, xotini pulga achinadi, bemor bilan bahslashib oʻtirishni lozim topmay, joʻnab ketdi. Taklif qilindi.

Doʻxtir, albatta, ikkilanib turdi.

– Mashhur doʻxtirlardan keyin menga nima bor u yerda? Oliy maʼlumotim boʻlmasa, yozishni ham yaxshi bilmayman. Nimada u yerga borib kelaman?

Ikkilanib turib, qancha non, qancha pul kerakligini pisanda qilib, joʻnadi.

Kelishdi. Salom-alik.

Oshqozonni qoʻli bilan ushlab ham koʻrmadi.

– Koʻrinib turibdi, – dedi, – kasal oshqozonda emas. Hammasi ichdan. Ichkarini qancha ushlab koʻrma, foydasi yoʻq, bundan kasalni gazak oldirish mumkin.

Birinci doʻxtir nima yozganini, qanaqa dori-darmon berganini soʻrab, oʻzicha pisqam urib qoʻydi, keyin bemorga oʻz qoʻli bilan «oʻzim sogʻlom, rahmatlik otam ham sogʻlom edi, otam va muqaddas ruhlar nomidan» degan mazmunda bir ezibichki yozish kerakligini aytdi.

<sup>1</sup> Chor Rossiyasida maʼlumotga ega boʻlmagan omi dehqon odam maʼnosida.

Shu ezibichkini yutish kerakligini tayinladi.

Mujik eshitib turib, mo'ylovini burab qo'ydi.

«Eh, – deb o'yladi u, – oyog'idan ossang ham kamlik qiladi bularni. O'qigan olim, o'qimagan – zolim. Davlat bularga o'qi desa ham – o'qishmagan. Endilikda fan naqadar kerakli».

Mujik soqolchasini titratib, tishlari orasidan gapirdi.

– Yo'q, – dedi, – yoza olmayman. O'qimaganman. Imzo chekishni bilaman, xolos. Ehtimol, shu kifoyadir.

– Yo'q, – dedi Yegorich qovog'ini uygancha mo'ylovini burarkan, – bo'lmaydi. Yolg'iz familiyaning o'zi yetarli emas. Familiyani churra uchun ezib ichsa bo'lar, lekin ichki kasal uchun yuqoridagi narzalarni yozish kerak.

– Unda nima qilamiz, – dedi mujik, – ehtimol, men uchun o'zingiz yozishga harakat qilarsiz.

– Men-ku yozardim-a, – dedi Yegorich, – ko'zoynagimni royal ustida unutib qoldiribman. Qarindoshlar yoki tanishlardan biror kimsa yozsa ham bo'lar.

Xo'p bo'ladi. Qorovul Andronni chaqirishdi.

Qorovul g'irt partiyasiz bo'lsa-da, yozish va imzo qo'yishga mu-taxassis edi.

Andron keldi. Kekkayib turib, qalam so'radi va o'zi qog'oz keltirib, yozishga o'tirdi.

Terlab-pishib, bir-ikki soat o'tirdi, nihoyat yozdi:

«O'zim sog'lom, rahmatlik otam ham sog'lom edi, otam va mu-qaddas ruhlar nomi bilan.

6-uyning qorovuli

Andron»

Yozib, mujikka berdi. Mujik yutdi, bo'lmadi, yana yutdi, tomog'idan o'tib ketdi.

Shu orada Yegorich barcha bilan iliq xayrlashib, qanday natija berishi uchun javobgar emasman, chunki bemorning o'zi yozishi kerak edi, deya jo'nab ketdi.

Mujik xursand bo'ldi, hatto ovqatlandi ham, faqat kechga yaqin o'ldi.

O'limidan oldin qattiq qusdi, qornida bir nima uzilib ketgandek bo'ldi.

O'lgan bo'lsa – tobut buyurish, go'r kavlash, keyin ko'mish kerak. Ayoli pulga ko'zi qiymay, kengashga borib Yegorichdan pulni qaytib olishga yordam so'radi.

Yegorichdan pulni qaytarish uchun unday qilishdi, bunday qilishdi – ish gazak olib ketdi.

Mujikni yorib ko‘rishdi. Ichidan qog‘ozchani topishdi. Ochib ko‘rib o‘qishdi. Hamma hayratdan yoqa ushladi. Qarasalar – imzo boshqacha, qorovul Andronning imzosi. Ish sudga oshirildi. Sudga imzo boshqacha, ezibichki gulqog‘ozga yozilgan, hajmi oshqozonga kattalik qiladi, hal etinglar, deb topshiriq berildi.

Tergovda Yegorich: «Birodarlar, mening nima aybim bor, axir, men yozmagan bo‘lsam, yutmagan bo‘lsam, qog‘ozni ham topib kelmagan bo‘lsam. Qorovul Andron o‘z imzosini qo‘ygan. Bemorni men oxirigacha ko‘rmaganman. Meni yaxshi qaramaganim uchun sud qilsangizlar, mayli», dedi.

Andron bo‘lsa: «Ikki soat davomida terlab-pishib yozganim rost. Terlab-pishib familiyamni ham yozganman, – dedi. – Siz o‘ylagan qotil – menman. Shafqat qilinglar».

Endi Yegorichni Andron bilan qo‘shib sud qilishadi. Nahotki shunday bo‘lsa-a?

1926

## TO‘RT KUN

Girmon urushi va har xil handaqchalar endi o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda, birodarlar. Shularning oqibatida hammamiz kasal va nimjonmiz.

Kimningdir asabi qaqshagan, birovning qursog‘i ishdan chiqqan, yana bir kishining yuragi o‘zi xohlagandek bir tekis urmaydi. Xullas, hammasi urush oqibati.

Sog‘liqdan unchalik shikoyatim yo‘q, albatta. Sog‘lomman. Yaxshi yeb-ichaman. Uyqum ham joyida. Shunga qaramay, o‘sha handaqchalarning menga ham ta‘sirini har daqiqa his etib turaman.

Kamina ham yaqinda kasaldan turdim. Hozirgidek esimda, o‘rnimdan turib, etikni kiydim. Xotininim:

– Nima qilyapsan o‘zi, Vanya, – dedi, – bugun rangi-ro‘ying boshqacharoq. Mazang yo‘qmi, yo‘?

Oynaga qaradim. Darhaqiqat, betim bordo vinosidek qip-qizil, basharam lov-lov yonayotganday.

Shunisi kam edimi, deb o‘yladim. Handaqchalarning ta’siri. Ehtimol, yuragim yoki boshqa biror a’zom yomon urayotgandir. Shundan rangimda rang qolmagan bo‘lsa kerak.

Tomirimni ushladim – sokin bo‘lsa-da, urib turibdi. Shu payt ichimda bir og‘riq qo‘zg‘aldi. Sim-sim og‘riydi deng.

Zo‘rg‘a kiyinib, choy ham ichmasdan ishga chiqib ketdim. Ishxonaga keldim. Mabodo, biror kimsa rangi-ro‘yim haqida gap ochsa, albatta do‘xtirga boraman, deb o‘yladim. Odam yashab-yashab yurib, birdaniga lop etib, o‘lib qolishi mumkin-ku. Bunday misollar kammi?

Hozirgidek esimda, o‘n besh ta kam o‘n birda, katta usta Jitkov yonimga kelib:

– Azizim, Ivan Fyodorovich, nima bo‘ldi, senga? – dedi. – Bugun haddan tashqari ma’yussan. Ko‘rinishing ham g‘alati, kasalga o‘xshash.

Bu so‘zlar to‘g‘ri yuragimga qadaldi.

Voy, onajon, salomatlikni qo‘ldan berib qo‘yibman-ku, deb o‘yladim. Naqadar e’tiborsizlik.

Tag‘in ichimda bir nima sim-sim og‘riy boshladi. Arang uyga yetib keldim. Hatto tez yordam chaqirmoqchi bo‘ldim.

Uyga kela solib to‘shakka ag‘darildim. Yotibman. Xotinim uf tortadi, qayg‘uradi. Qo‘shnilar chiqib, achinib bosh silkib qo‘yishadi.

– Ko‘rinishing g‘alati-ya, Ivan Fyodorovich, – deydi. – Bir nima deb bo‘lmaydi. Bordo vinosidan ham qip-qizil-a.

Bu so‘zlar yaramga battar tuz sepadi. Yalpayib yotibman, uxlay olmadim.

Qurib ketsin, ertalab zo‘rg‘a o‘rnimdan turdim. Tezroq vrachni chaqirishni buyurdim.

Kommunal vrach kelib ko‘rdi va mug‘ambirlik, dedi.

Bu so‘zi uchun sal qoldi vrachni urib yuborishimga.

– Men, – dedim, – senga mug‘ambirlikni ko‘rsatib qo‘yaman. Men hozir, xonavayron bo‘lsam-da, mol-mulkimni sotib bo‘lsa-da, professorga borib, o‘zimni ko‘rsatishim mumkin.

Professorga borish uchun tayyorgarlik ko‘ra boshladim. Top-toza ichkiyim kiydim. Soqol olishga tutindim. Ustarada betimdagi sovunni sidirib olib qarasam – yuzim oppoq, sog‘lom, oqi oqqa, qizili qizilga ajralib, yashnab turibdi.

Basharamni latta bilan artdim, qarasam qizil bilan oq oralig‘idagi bir rang jilolanib turibdi.



Xotinim kelib:

– O‘zi nima gap, Vanya, bir haftadan beri basharangni chayqamaganmisan?

– Bir hafta, deysanmi, – dedim, – o‘zing ham rosa gapni olib qochasan-da, ahmoq. To‘rt kun desang, to‘g‘ridir. Bu boshqa gap.

To‘g‘risi, oshxonamiz nihoyatda sovuq va noqulay. Hatto yuvinishga ham erinasan kishi. Oh-uhlardan keyin esa butunlay yuvinmay qo‘ygan edim. Yuvinish qayoqda deysiz, karavotdan arang qo‘zg‘alib, hojatga borib kelardim-u.

O‘sha zahoti soqolni olib, yuvinib, bo‘yinbog‘ni bog‘lab, toza uzilgan bodringday bo‘lib, jo‘ramnikiga yo‘l oldim.

Og‘riq ham darhol sekinlashdi. Yurak urishim ham yaxshi. Sog‘lig‘im ham nihoyatda olijanob.

1925

## KINODRAMA

Teatrga tushmayman. Chunki kino yaxshi-da. Teatrdan qulayroq. Misol uchun, yechinib o‘tirmaysan – harqalay, o‘n tiyindan yonda qoladi. Soqolni qirtishlashning ham hojati yo‘q – qorong‘ida basharangni kim ko‘rib o‘tiribdi deysan.

Kino ko‘rish uchun zalga kirish mashaqqat, xolos. To‘g‘risi – it azobi. To‘s-to‘polonda o‘lib ketishing hech gap emas.

Qolgan hammasi joyida bo‘ladi. Maza qilib ko‘raverasan.

Xotinimning tug‘ilgan kunida ikkalamiz kinodrama ko‘rmoqchi bo‘ldik. Chipta sotib olindi. Kuta boshladik.

Xaloyiq degan ancha-muncha to‘plangan. Hammasi eshik oldida kuymalashadi.

To‘satdan eshik ochilib, go‘zal bir juvon: «Kiringlar!» dedi.

Dastlab uncha-muncha tiqilinch bo‘ldi. Hammayam o‘ziga yaxshiroq joy egallashga oshiqadi-da.

Odamlar eshikka yopirilishdi. Birpasda eshik oldida tiqilinch hosil bo‘ldi.

Orqadagilar qisishadi, sho‘rlik oldindagilar qayoqqa borishsin?

Bir payt meni ham qisib suvimni chiqarib yuborishdi. O‘ng tomon surila boshladim.

«Yo, tavba, eshik sinib ketmasaydi», deb o‘y layman.

– Birodarlar, – deb qichqirdim, – xudo haqqi, sekinroq, axir bu-naqada odam bilan eshikni mayda-mayda qilish mumkin-ku.

Shu asnoda orqada hosil bo'lgan to'liqin yana shiddat bilan yopirilib keldi. Orqamda turgan harbiy esa madaniyatsizlarcha menga yopishib turibdi. Itqiliq, to'g'ridan to'g'ri belimni parmalaydi.

Nokas harbiyni o'tdek tepmoqchi bo'laman.

– Habashona hazillaringizni yig'ishtiring, o'rtoq, – deyman.

Shunda yuqoriga qalqib chiqqandek bo'ldim-da, basharam bilan eshikka qattiq urildim.

Eshikni odamlar bilan sindirmoqchilar, deb o'yladim.

Eshikdan nari ketmoqchi bo'ldim. Boshim bilan yo'l ochmoqchi edim. Qayoqda. Qo'yishmaydi. Bir payt qarasam, shimim eshikning tutqichiga ilinibdi. To'g'risi – cho'ntagim.

– Sekinroq, o'rtoqlar, – deb qichqiraman, – qorovul, qaydasan? Eshik tutqichiga ilinib qolganman, axir!

– Tezroq bo'lsangiz-chi, o'rtoq, – deya orqadan qichqirishadi, – boshqalar ham kirishi kerak. Bo'ling tez!

Qanaqasiga qutulsam ekan, qo'limni qimirlatib bo'lmasa.

– To'xtanglar, to'xtasanglar-chi, ablahlar, – deya qichqirdim. – Shimimni chiqarib olay. Axir, avval eshikni tutqichidan chiqarib olish kerak. Yap-yangi edi-ya, shu holda yirtilib ketaversinmi?

Quloq solish qayoqda. Ezg'ilashadi...

– Siz xonim, – dedim oldimdagiga, – xudo haqqi, sal buril-sangiz-chi. Odamning mayligayam qaramaydi-ya, axir shimim.

Xonim esa ko'karib ketgan, xirillay boshladi. Umuman, qaragisi kelmaydi.

E, rahmat-e, to'satdan yana yengil tortgandek bo'ldim.

Yo men eshik tutqichidan xalos bo'ldim, yoki uni shimimdan chiqarib olishdi.

Shunda keng yo'l ochildi.

Erkin nafas ola boshladim. Xayriyat. Qarasam, shimim joyida. Eshik tutqichi bitta shimni ikkiga ajratib tashlabdi. Yurganda yelkan-dek chayqaladi.

Qarang, tomoshabinlarni qanaqasiga kiyintirishadi, deb o'ylayman.

Shu holatda xotinimni izlab ketdim. Uni orkestr turadigan yerda unutilib qoldirishibdi.

O'sha yerda bargdek titrab o'tiribdi.

Xayriyat, chiroqni o'chirdilar. Tasmani aylantira boshladilar.

Qanaqa tasma – aytishga ham tilim bormaydi. Doimo shimni changallab turdim.

Baraka topkur, xotinimda bitta to‘g‘nag‘ich bor ekan. Yana bir rahmdil ayol o‘z kiyimidan to‘rt dona to‘g‘nag‘ich ajratib berdi. Pol-dan esa yarim kilo keladigan ip topdim. Yarim seans vaqtim bir nimalarni qidirish bilan o‘tdi.

Boyladim, qadadim, qarabsizki, shu orada drama ham tugadi. Uyga qaytdik.

1926

## TEJAMKORLIK

Boshqa shaharlarda iqtisodiy tejamkorlik qanday o‘tyapti, bu men-ga qorong‘i, o‘rtoqlar.

Borisovka shahrida esa bu tadbir ancha izga tushib qoldi.

Faqat bizning korxonamizda shu qishning o‘zidagina yetti sarjin archa o‘tin iqtisod qilindi. Yomonmi?

O‘n yil iqtisod qilsak – o‘n kub degan gap. Yuz yil davomida esa bemalol uchta kemani iqtisod qilish mumkin. Ming yildan so‘ng esa umuman o‘tin bilan savdo qilsa ham bo‘ladi.

Bundan oldin xalq nimani o‘ylagan ekan-a? Nega shu tejamkorlik-ni oldin amalga oshirishmagan? Shunisi alam qiladi kishiga! Bizda bu tadbir ham kuzdayoq boshlangan edi.

Mudirimiz – o‘zimizning yigit. Hamma masalada biz bilan tug‘ishgandek maslahat qiladi. Ko‘ppakvoy hatto tamaki ham ulashib chiqadi.

Bir kuni shu mudirimiz kelib, e‘lon qilib qoldi.

– Bilasizlarmi, yigitlar, boshlandi... Qo‘shilishimiz kerak. Biror nimani iqtisod qilinglar...

Nimani, qanday iqtisod qilish – noma‘lum. Nimani iqtisod qilish haqida o‘zaro gapira boshladik. Jin urgur, mo‘ysafid hisobchiga oylik bermasakmikin?

– Hisobchiga to‘lamay bo‘psiz, – dedi mudir, – to‘lamay ko‘ring-chi, mehnatni muhofaza qilish jamiyatiga arz qiladi. Boshqacha-roq bir nimani o‘ylash kerak.

Shunda, baraka topkur, farroshimiz Nyusha zaifona bir taklifni o‘rtaga tashladi.



– Demak, xalqaro ahvolda shu masala ko‘tarilgan ekan, – dedi, – umuman, quvur haqida o‘ylab ko‘rsa ham bo‘ladi. Masalan, aytaylik hojatxonani isitmasak ham bo‘ladi. U yerga tarashani isrof qilishning nima hojati bor? Mehmonxona emas-ku u yer!

– To‘ppa-to‘g‘ri, – dedik, – hojatxona sovuq bo‘lsa ham bo‘laveradi. Yetti sarjin o‘tinni tejashimiz mumkin. Xo‘p, sovuq bo‘lsa nima qilibdi? Bu qaytaga foyda. Odamlar sovuqda ko‘p o‘tirishmaydi. Shundan mehnat unumdorligi ham so‘zsiz ortadi.

Shunday qildik. Pechkani yoqmasdan tejamkorlikni hisob-kitob qildik.

Haqiqatan ham yetti sarjin iqtisod qilibmiz. Sakkizinchi sarjinni tejashga kirishganimizda bahor boshlanib qolsa bo‘ladimi.

Alam qilib ketdi.

Agar, baloga uchragur, bahor boshlanmaganda, yana yarim kubcha o‘tinni iqtisod qilgan bo‘lardik.

Bir so‘z bilan aytganda, bahor bizni juda dog‘da qoldirdi. Shunisi-ga ham shukrki, harqalay yetti sarjin ham o‘tin-ku.

Sovuqdan allaqanday quvur yorilgan bo‘lsa yorilgandir, keyin ma‘lum bo‘lishicha, bu quvur podshoh davrida qo‘yilgan ekan. Bu xil quvurlarni ildizi bilan quritish kerak.

Kuzgacha bemalol quvursiz amallasa bo‘ladi. Kuzda arzonroq bir nima qo‘yarmiz. Harqalay, mehmonxona emas-ku u yer!

1926

## BOCHKA

Mana, og‘aynilar, bahor ham boshlanib qoldi. Qarabsizki, u yog‘i yoz. Yoz yaxshi-da, o‘rtoqlar! Issiq. Quyosh qizdiradi. Sen bo‘lsang, piymada emas, yupqa kiyimda, bemalol nafas olasan. Allaqaydan qushning sayrog‘i eshitiladi. Yana qaydadir tillaqo‘ng‘iz vizillaydi. Qurt va chigirtkalar chirillaydi. Yoz gashtli-da, birodarlar.

Albatta gashtli-yu, lekin unchalik emas.

Bundan ikki yilcha avval kooperatsiyada ishlardik. Hayotimiz shunday oqimga tushdiki, asti so‘ramang. Yigirma ikkinchi yil. Pesh-taxta ortida turishga to‘g‘ri keldi.

Shunday qilib, o‘rtoqlar, kooperatsiyada hatto tobistonda ham ish topilarkan. Mahsulot buzilib qolishi, to‘g‘risi, aynishi mumkin. Al-



batta ayniydi, achiydi. Bu chirish, aynishlardan kooperatsiya zarar ko'radimi? Ko'radi.

Ehtimol, shuning uchun ham iqtisodiy tejamkorlik shiori o'rtaga tashlangandir. Buni qanaqasiga joriy qilishni sizlardan so'rasak?

Tabiat hodisalari, kunlarning isib ketishiga bu qadar xudbinlar-cha quvonib, qarsak chalish yaxshi emas-da, o'rtoqlar. Axir, o'rtoqlar, umumjamiyat manfaatini ham o'ylashimiz kerak-ku.

Esimda, kooperatsiyamizda bir kuni karam aynib, taqqosim uchun kechirasiz-u, hammayoq jiyib ketdi.

Bundan kooperatsiya to'ppadan to'g'ri zarar ko'rishdan tashqari, yana qo'shimcha chiqimlar ham bo'larkan. Aynigan mahsulotni tashib chiqarish ham xarajat. Mahsuloting aynigan bo'lsa, uni tashib chiqarish ham o'zingni bo'yningda. Shunisi alam qiladi!

Karam aynigan bochka nihoyatda katta edi. Sakkiz pudcha kelarov. Bir-ikki kilo bo'lsa boshqa gap. Shunday yirik bochka-ya.

Undan shunaqayam qo'lansa hid taralardiki, bamisoli hidlangan murda solingan tobut deysiz.

Mudirimiz Ivan Fyodorovich butunlay o'zini yo'qotib qo'ydi. Aylanib ko'radi, hidlaydi.

– Bu ayniganmi-a, og'aynilar, – deb so'raydi.

– Yo'q, Ivan Fyodorovich, – deymiz, – aynimagan, sasigan, xolos.

Haqiqatan ham sassig'i dimoqni yorar darajada edi. Biz tomondan odamlar burnini bekitib o'tardi. Shunday qilishmasa, yiqilib tushishardi go'yo.

Ana shu bochkani biror-bir yergami, go'rgami eltib tashlash kerak. Biroq mudirimiz Ivan Fyodorovich ikkilanadi. Harqalay, pulga achinadi. Besh-oltita hammol, yana shaharning bir chekkasiga oborib tashlash uchun ot-ulov ham yollash kerak. Shuning uchun mudirimiz:

– Pulga tushsak ham, ustamamizga ta'sir etsayam, og'aynilar, – dedi, – bu bochkani chiqarib tashlash kerak.

Ahvol nihoyatda og'ir.

Vaska Veryovkin degan sarkorimiz bo'lardi.

Shu kishi:

– Axir, o'rtoqlar, bu bochkani chiqarib tashlash uchun sarfxarajatga qolish, yana ustamamizdan ajralish zaril keptimi? Yaxshisi, bu bochkani hovliga dumalatib chiqara qolaylik. Ko'raylik-chi, ertalabgacha nima bo'larkin.

Bochkani hovliga dumalatib chiqardik. Ertalab kelib qarasak – bochka top-toza bo‘lib turibdi. Kechasi karamni ship-shiydam qilib ketishibdi.

Bu ishdan biz kooperatsiya xodimlari nihoyatda xursand bo‘ldik. Ish o‘z-o‘zidan yaxshi tomonga yurishib ketdi. Aziz mudirimiz Ivan Fyodorovich bo‘lsa yurib turib, qo‘llarini ishqaydi.

– Qoyil, o‘rtoqlar, – deydi, – endi butun mahsulotimiz aynisa ham g‘amim yo‘q, eng oson yo‘li topildi.

Ko‘p o‘tmay, bodringli yana bir bochkacha aynidi.

Xursand bo‘lib ketdik. Bochkani dumalatib hovliga chiqardik, o‘tgan-qaytganlar yaxshi ko‘rsin uchun eshikni ham qiya ochib ko‘ydik. Marhamat, o‘rtoqlar!

Faqat bu gal jinday jarimaga tushdik. Nafaqat bodringni, qurib ketkurlar, bochkachani ham dumalatib ketishibdi. Bochkachani ham o‘marishgan.

Keyinchalik buning ham yo‘lini topdik. Aynigan mahsulotni chipta ustiga to‘kib qo‘yamiz. Chiptasi bilan ham olib ketisharkan.

1926

## HAYITDAGI HODISA

Mana, qadrdonlar, pravoslavlarning Pasxa hayitiga ham eson-omon yetib keldik.

Ayrim dindorlar qo‘y yetaklaydi, hayitga shirinkulcha pishirib eltadi. Oborsa oboraverishsin! Men esam obormayman. Zaril keptimi. O‘tgan pasxada, qadrdonlar, shirinkulchamni oyoq bilan toptagan edilar. To‘g‘risi, o‘shanda biroz ushlanib qolib, marosimga kechikkan edim. Cherkov to‘sig‘idan o‘tib, ichkari kirsam, hamma stollar band ekan. Pravoslav birodarlar, jinday surilinglar, desam – istashmadi. So‘kinishadi.

– Qurib ketgur, kechikdingmi, boshqalardek shirinkulchangni yerga qo‘yib tingla. Itarib, turtkilashga balo bormi, shirinkulchalarni ag‘darib yuborasan, – deyishdi.

Nima ham qilardim, shirinkulchamni barkashi bilan yerga qo‘ydim. Boshqa kechikkanlar ham shunday qilishgan ekan.

Yerga qo‘yishimni bilaman, qo‘ng‘iroqlar jaranglab, ibodat boshlandi.

Qarasam, maxsus cho'tkacha ushlagan otaxon chiqib kelyapti.

Cho'tkachani chelakka botirib olib, atrofga sepadi. Kimning basharasiga, kimning shirinkulchasiga – farqi yo'q.

Otaxonning izidan barkash ushlagan dyakon<sup>1</sup> chiqib sadaqa tera boshladi.

– Qizg'anmanglar, pravoslav bandalar, – deydi u, – ataganlaringni barkashning o'rtasiga qo'yinglar.

Ular mening yonimdan o'tishayotganda, dyakon o'z barkashiga alahsib ketib, shirinkulcham solingan taqsimchamga oyoq bossa bo'ladimi.

Jon-ponim chiqib ketdi.

– Nega shirinkulchani bosasan, uzunsoch, – dedim, – pasxa oqshomida shu sendan lozimmi?..

– Kechirasiz, bilmasdan, – deydi.

– Sening kechirim so'rashingdan mushuk oftobga chiqmaydi. Butun qimmatini to'lasin, – dedim. – Qani, dyakon ota, pulini cho'z baqqa!

Marosim to'xtab qoldi. Cho'tkacha ushlagan otaxon:

– Kimning shirinkulchasini bosib olishdi? – deb so'radi.

– Menikini, – dedim, – ko'ppak dyakon bosib oldi.

Otaxon bo'lsa:

– Hozir men ana bu cho'tkacha bilan tozalab beraman, – dedi. – Keyin bermalol yeyaverish mumkin. Harqalay, dindor kishi bosibdi-ku. Bezalar.

– Yo'q, otaxon, – dedim, – butun chelakdagi obizamzam bilan yuvsang ham bo'lmaydi. Rozi emasman. Pulini cho'z,

Shovqin ko'tarildi. Birovlar men tomon, qolganlar menga qarshi.

Zangchi qo'ng'iroqxonadan bosh suqib so'radi.

– Chalaveraymi yoki bas qilay?

– To'xta, Vavilich, chalma, – dedim, – qo'ng'iroq ovozidan ular hech nima eshitishmayapti.

Kasalmand pop mening yonimga kelib, odamlarni qo'li bilan tarqata boshladi.

Iblis, uzunsochli dyakon, devorga suyangancha, mening shirinkulchamning qoldiqlaridan oyog'ini tozalab turibdi.

Shundan keyin menga barkashdan bir miqdor pul olib berib, shovqin solib ibodatga xalaqit berguncha uyingga jo'na, deyishdi.

---

<sup>1</sup> Provaslav cherkovida ruhoniylarning quyi unvoni.

Cherkov to'sig'idan tashqari chiqqach, dyakonni bor ovozdada yana bir karra so'kib, tuzlagach, uyga jo'nadim.

Hozir dam solinmagan shirinkulcha yeb o'tiribman.

Mazasi o'sha maza. Faqat ko'ngilg'ashlik tarqamayapti.

1925

## SAN'AT SHAYDOSI

Aytishlaricha, ichkilikka qarshi eng zo'r chora san'at ekan. Misol uchun, teatr. Charxpalak. Yoki allaqanday musiqa studiyasi.

Bularning hammasi kishini ichkilik ichib, gazak qilishdan alahsirtarmish.

Darhaqiqat, shunday, birodarlar, misol uchun, bizlarning chilangirimiz Pyotr Antonovich Kolenkorovni olaylik. Shunday odam shaxs sifatida adoyi tamom bo'la boshladi. Umuman, u kurk bo'lgan tovuqday yashardi.

Odatdagi kunlarda ishdan keyin ovqat yeb, to'yib olardi. Bayram va yakshanba kunlari esa Pyotr Antonovich ichkilikka boshi bilan sho'ng'irdi. Bo'kib ichardi.

Hafta mobaynida Pyotr Antonovich biror xil madaniy ish bilan shug'ullanmasdi. Shanbada hammomga borib, boshidan suv quyish ham ish bo'ldi-yu. Uning madaniy ishlari faqat shundagina iborat edi.

Pyotr Antonovichning bu qilig'idan yaqin qarindoshlari nihoyatda tashvishda edilar. Hatto qo'rqardilar.

– Pyotr, – deyishdi ular, – Antonovich. Axir Siz yosh emassiz, malakali odamsiz. Mastlikda aytaylik, javonchaga urilib, abjag'ingiz chiqishi mumkin. Jinday kamroq ichish kerak. Oilangizga ham rahmingiz kelsin, axir.

Quloq solish qayoqda. Avvalgidek ichib, xursandchilik qilaverdi.

Nihoyat, mahalliy qo'mitadan ko'ngilchan bir kishi topildi. Bilasizmi, u Pyotr Antonovichga to'ppadan to'g'ri shunday dedi:

– Pyotr Antonovich, sizga aytyapman, ichkilikka chek qo'ying. Hech bo'lmasa, uning o'rniga yakshanba kunlari teatrga tushing. O'tinaman Sizdan, hatto chiptani ham tekinga berishim mumkin.

– Nahotki, – dedi Pyotr Antonovich. – Tekinga bo'lsa, unda bir urinib ko'rish kerak. Agar tekinga bo'lsa teshib chiqmas.

Bir so'z bilan aytganda, ko'ndi.



Pyotr Antonovich teatrga tushdi. Yoqdi. Shundayam yoqdiki, ketgisi kelmay qoldi. Tomosha allaqachon tugagan bo'lsa-da, u mo'mingina bo'lib, qimirlamasdan o'tiraverdi.

– Endi qayoqqa ham borardim, – dedi. – Qarang, hamma yoq qop-qorong'i. Axir, hamma pardalar tushirilgan-ku. Obbo, g'alamislar-e, zo'r narsaga o'rgatishibdi-da!

Harqalay, qiyshanglab-qiyshanglab o'z oyog'i bilan uyiga ketdi. U mutlaqo hushyor edi.

Ikkinchi dam olish kuni yana teatrga tushdi. Uchinchi marta chipta olish uchun mahalliy qo'mitaga o'zi yugurdi.

Xo'sh, bu yog'i qanday bo'ldi, deb o'ylarsiz? Teatrqa qiziqib qoldi. To'g'risi, rayondagi eng ashaddiy teatr muxlisiga aylandi. Teatr afishasiga ko'zi tushishi bilanoq butun vujudi bargdek titrardi. Yakshanba kunlari ichishni tashladi. Shanba kunlari ichishga o'tdi. Ham-momni esa chorshanbaga ko'chirdi.

Oxirgi shanbada Pyotr Antonovich kayfi taraqqiy holda javonchaga qattiq urildi va yakshanba kuni teatrga bora olmadi. Bu butun mavsum davomida Pyotr Antonovich kirolmay qolgan yagona spektakl edi. Kerasi yakshanbada tuzalib qolsa, albatta, yana teatrga tushadi. Chunki san'at uni batamom asir qilgan. Batamom...

1926

## QUTURISH

Kecha dahshatli voqea ro'y berdi. Vahimali bir qo'rquvni boshdan kechirdik.

Boshqarma a'zosi Lapushkin, ehtimol, hozir ham uyida titrab-qaqshab o'tirgandir. Qaqshamay nima? Uni yaxshi bilaman.

Shu kunlarda havoning qizib ketganidan xabaringiz bor, albatta. Nafaqat, yirik mollar, aytaylik, hatto kananing ham issiqdan madori qurimoqda. Albatta, uni oftobro'yaga qo'ysangiz.

Tag'in gazetalarda «har kuni yigirma olti boshdan mol harom o'lmoqda», deb yozishadi.

Bundan ham vahimagata tushasan kishi.

Masalan, biz darvoza oldida gaplashib o'tirardik. Aqdan-baqdan. To'g'risi, quturish xususida. Xuddi shu asnoda dumini qisib olgan bir it biz tomon chopib qolsa bo'ladimi.

Albatta, it judayam tez chopmas edi. Ko‘rinishidan sirayam quturganga o‘xshamaydi. Dumchasi joyida, so‘lagiyam oqmayapti. Faqat negadir jag‘lari qisilgan, ko‘zlari esa ochiq.

It shu holda chopib kelardi. U boshqarma a‘zosiga yaqinlashdi. O‘zingiz bilasiz, boshqarma a‘zosining qo‘lida hassasi bor edi. Shu hassa bilan itning boshiga bir tushirdi. Ko‘rib turibmiz – it g‘irt quturgan. Kaltakdan itning dumi battar chotiga qisildi. Umuman, u bizga tashlanmoqchi bo‘ldi. Lekin hali so‘lagi ko‘rinmas edi.

Tashlanmoqchi bo‘lib turganda, qorovulimiz Volodin o‘zini yo‘qotmasdan qo‘liga ilingan tosh bilan itning boshiga soldi. Qattiq urdi.

Ana shundan keyin qarasak – quturishning hamma belgilari suv betidagi olmadek yuzada qalqib turibdi. Itning og‘zi ochilib ketdi. So‘lagi oqa boshladi. Dumi bamisoli kolbasaga aylangan. Umuman, tashlanay-tashlanay deb turibdi.

Boshqarma a‘zosi:

– Qochinglar! Quturgan u! – deya qichqirdi.

Hammamiz har tomonga tirqirab ketdik. Qorovul Volodin bo‘lsa hushtak chalib yubordi.

Butun ko‘cha to‘s-to‘polon bo‘lib ketdi. Qiy-chuv. Qo‘yma-qo‘yma.

Posbon yugurib qoldi. Yonidan to‘pponchasini chiqardi.

– Qani o‘sha quturgan it, – deya qichqirdi, – ko‘rmadinglarmi, yigitlar? Hoziroq uni yer tishlatamiz!

Otishma boshlanib ketdi. Boshqarma a‘zosi o‘z uyining derazasidan qayoqqa otish va yo‘lovchilarning qayoqqa bekinishlari uchun ko‘rsatma bera boshladi.

Albatta, bir amallab kuchukcha otib tashlandi.

Xuddi shu asnoda itning egasi yugurib keldi. U o‘qdan qo‘rqib, verto‘lada yashirinib turgan ekan.

– Bu nima degan gap, – dedi u, – nega sog‘lom itni o‘ldirasizlar, ablahlar? Butunlay sog‘lom itni o‘ldirishibdi-ya.

– E, qo‘ysang-chi, og‘ayni, – dedik unga, – qanaqasiga bu it sog‘lom bo‘lsin, qachonki odamga tashlansa.

U bo‘lsa:

– Qisqa muddat ichida mening uchta sog‘lom itimni otishdi-ya, – deya faryod chekardi. – Axir, bu qanday bedodlik? Nahotki o‘ylamasanglar? Uylaringdan birorta bo‘sh xona topilmasmikin, bu jonivorni opkirib...

– Bo‘sh xona yo‘q, amaki, – dedik.

U bo‘lsa kuchukchasini yelkalab, jo‘nab ketdi. Voy, tentak-ey!

## XONIMNING MUSIBATI

Hayit arafasida og'izocharga chorak kilo saryog' olish uchun do'konga kirdim.

Odam tirband. Qimirlashning iloji yo'q.

Navbatda turdim. Orziqib kutyapman. Atrofda nuqul uy bekalari, navbatda tiqilishib, shovqin solishadi. Kiyimlarni tez-tez tortib qo'yishga to'g'ri keladi.

Shu topda do'konga tez yurib bir xonimcha kirib keldi. Ko'pam qarimas, boshida qora shlapa. Shlapasiga qora bog'ich tikilgan. Ko'rinishidan azador.

Xonimcha peshtaxtaga tiqilib bordi-da, sotuvchiga ro'para bo'lib, bir nima dedi. Shovqin tufayli hech kim eshitmadi.

– Bilmayman, xonim, – dedi sotuvchi, – bir so'z bilan aytganda, boshqalar ruxsat berishsa, menga baribir.

Navbatdan kimdir:

– Nima gap? – deb so'radi. – Tinchlikmi?

– Mana bularning oilalarida musibat, – dedi sotuvchi, – erlari o'z-o'zini otib qo'ygan... Navbatsiz bir qadoq qaymoq va yigirmata tuxum berib yuborishni iltimos qilyaptilar.

– Nima bo'пти. Berib yubora qoling, – deya chuvillashdi navbatdagilar. – Albatta berish kerak. Navbatsiz bera qoling.

Hamma xonimga qiziqib qaray boshladi. Xonim shlapasidagi qora bog'ichni to'g'rilab qo'yarkan, chuqur xo'rsindi.

– Qanday musibat-a, – dedi sotuvchi qaymoqni tortarkan, – kechirasiz, qanday ro'y berdi-a, xonim?

– U melanxolik, xafaqon edi, – dedi xonim.

– So'rashga ruxsat etasiz, ko'p bo'ldimi?

– O'tgan haftada qirqini o'tkazdik.

– Qarang-a, qanaqa baxtsizliklar yo'q olamda, – dedi sotuvchi. – Ayting-chi, u kishi to'pponcha bilanmi yoki boshqa narsa bilan o'z-o'zini?..

– To'pponcha bilan, – dedi xonim. – Muhimi, hammasi mening ko'z o'ngimda ro'y berdi. Qo'shni xonada o'tirgan edim. Yuragim siqilib, qo'lim negadir ishga bormaydi deng. Shu asnoda dahshatli gumburlash eshitildi. Qisqasi o'q ovozi. Yugurib kirdim, hammayoq tutun... Shundoq ko'z o'ngimda turibdi.

– Hmm, – dedi navbatda turganlardan biri, – bo'lishi mumkin.



– Bo‘lishi mumkin-u, – dedi norozi ohangda xonim, – biroq kishining ko‘z o‘ngida ro‘y berishi, haqiqatan ham...

– Naqadar dahshatning dahshati, – dedi sotuvchi.

– Mana siz bo‘lishi mumkin deyapsiz-u, – deya davom etdi xonim, – inkor etmayman, haqiqatan ham bo‘lishi mumkin. Bir tanihimning jiyani o‘z-o‘zini otib qo‘ydi. Lekin u uyda emas, chiqib ketib, noma‘lum yo‘qolgan... Bu esa kishining ko‘z oldida...

Sotuvchi qaymoqni o‘rab, tuxumlarni xaltachaga solib, mehribonlik bilan xonimga tutqazdi.

Xonim qayg‘uli bosh chayqab, eshikka yo‘naldi.

– Eri o‘z-o‘zini otib qo‘ygan ekan, yaxshi, – dedi navbatda turgan bir kimsa, – lekin nega muncha shoshiladi. Hatto tuxumni ham navbatsiz oldi. Bu noto‘g‘ri!

Xonim o‘girilib, o‘sha kimsaga manfur bir qaradi-da, chiqib ketdi.

1926

## G‘ALATI HORDIQ

Odam, albatta, dam olishi kerak. Axir, odam harqalay, tovuq emas-ku. Ehtimol, haqiqatan ham tovuqning ta‘tilga ehtiyoji yo‘qdir. Lekin odamni ta‘tilsiz tasavvur qilish qiyin.

Misol uchun, mening o‘zim qirq yil dam olmabman. Ikki yasharligimdan beri tik oyoqdaman. Hozirgacha dam olmasdan ishlab kelmoqdaman.

Yakshanba yoki bayram kunlariga kelsak, bu qanaqasiga dam olish bo‘lsin? O‘zingiz bilasiz, gohida jinday ichiladi, ba‘zan mehmon kelib qolishi bor yoki divanning oyog‘ini yelimplashga to‘g‘ri keladi. O‘rtacha bir odamga ish kammi deysiz? Ba‘zan xotinning diydioshi boshlanib qolsa – uyda ko‘ring tomoshani. E, dam olish qayoqda?

Shu yoz dam olgim kelib ketdi. Bunga sabab atrofingdagilarning hammasi dam olib tursa-yu, sen tovuqday katagingda pisib yotsang. Alam qilarkan. Misol uchun, Vanyusha Yegorev Qrimga borib keldi. Shaytonday qop-qorayib qaytdi. Yana semirganini ayting... Petruxa Yaichkin bu yil ham Kavkazda dam oldi. Misha Bochkov o‘z qishlog‘iga jo‘nab ketdi. Ikki hafta maza qilib yashabdi. Negadir o‘sha yerda uni rosa do‘pposlashibdi. Qaytganda – bir hol-e, tanib bo‘lmaydi. O‘ng beti andak shishib, momataloq bo‘lib ketgan.



Qarasam, hamma hordiq chiqarib, semirib, tuzalib qaytyapti. Yolg'iz men dam olmayman.

Shu yozda, albatta, jo'nayman. «Qrimga borishga yo'l bo'lsin. Oxirda xonavayron bo'lib qolmay tag'in. Yaxshisi, yaqinroq bir yerga boramam», deb o'yladim.

Dam olish uyiga jo'nadim.

Juda so'lim va xushmanzara joy ekan. Muomalalari yomon emas. Ovqati ham yog'liqqina.

Kelishim bilan tarozida tortishdi. Yangicha o'lchov asboblarida ish ko'risharkan. Ko'krak qafasimni, hatto bo'ynimni ham o'lchab olishdi.

– Dam olavering, – dedilar.

– Albatta, jinday semirsam yomon bo'lmasdi, – dedim. – Bo'yim narvonday. Shunisi yetadi. Lekin sal vaznni to'g'rilab olsak zarar qilmasdi. Harqalay, tovuq emasman-ku, o'rtoq feldsher, – dedim.

– Vazn deganingiz bu arzimagan gap. Buning yo'li oson. Boravering! – dedi feldsher.

Dam ola boshladim. Bilasizmi, negadir menda favqulodda bir zerikish boshlandi. Nima qilishga ham hayron qolarkansan. Bo'lmasa ovqati yog'liq, yaxshi qarashadi, tarozida ham tortib turishadi. Shunga qaramay, qattiq zerikadigan bo'ldim.

Misol uchun, ertalab o'rningdan turasan, yuzingni chayqab olasan, bir nimalarni yamlab yutgandan keyin yonboshlaysan. Istasang – bu biqinga, istasang – u biqinga. Yotishni xohlamasang → o'tir. O'tirishni xohlamasang – yur. Biroq, bekordan bekorga yurish kimga kerak. Zaril keptimi? Qirqqa kirib bunga odatlanmaganman.

Bir kuni aylanib keldim. Izimga qaytishda juda erindim. Xayriyat, bog'da o'zimizda dam oladigan yigitlarni uchratib qoldim. Jonim kirdi.

Ular o'tloqda qarta o'ynab o'tirishardi.

– Beshko'tar o'ynayapsizlarmi? – deb so'radim.

– Ha, – deyishdi ular, – lekin istasak «ochko» o'ynashimiz ham mumkin. Ermak-da. Qani, o'tiring, hurmatli o'rtoq! Bizlar ertalabdan beri tashlashyapmiz.

Albatta, o'tirdim.

Kechki ovqatgacha o'ynadik. Ovqatdan keyin yana birpas. Ertalab vaqtli turib tag'in to'plandik. Qarta chiylashdi. Shunday qilib, har kuni qarta o'yin. Qarabsizki, kunlar ham shamoldek o'tyapti. Zerikish qa-

yoqda deysiz, hatto betingni yuvib, kofengni ichishga ham vaqt topa olmaysan.

Ikki hafta shirin tushdek o'tdi-ketdi. Qirq yil mobaynida atigi bir marta joni-tanim yayrab, maza qilib dam oldim.

Jindak ozgandek bo'ldim.

Vazn topiladigan narsa. Uni ishlab chiqarish mobaynida to'g'rilab olsa bo'ladi. Xayriyat, bo'yim avvalgi holatda qolibdi. Faqat jinday qisqargan ekanman. Feldsher bu ko'p o'tirishdan, deydi.

1926

## KALISH

Tramvayda kalish yo'qotish unchalik mushkul emas, albatta.

Ayniqsa, biqiningdan birov turtkilab tursa yoki allaqanday bir gabr tovoningni bosib olsa, kalishdan judo bo'ldim, deyaver.

Umuman, kalish yo'qotish arzimagan narsa.

Mening kalishimni osongina yechib olishdi. Hatto «voy» deyishga ham ulgurolmay qoldim.

Tramvayga chiqqanimda ikkala kalishim ham joyida edi. Tramvaydan tushib qarasam, bitta kalishim shu yerda, ya'ni oyog'imda turibdi. Etigim ham shu yerda. Qarasam, paypog'im ham, ichki ishtonim ham joyida. Faqat kalish yo'q.

Tramvayning izidan yugurmaysan-ku, albatta.

Ikkinchi kalishni ham yechib, gazetaga o'rab qo'ltiqqa urdim-da, shundayicha yurdim.

Ishdan keyin izlab ko'rarman, deb o'yladim. Yo'qolib ketmas axir! Biror yerdan topilib qolar.

Ishdan keyin qidirib ketdim. Dastlab, tanish vagon boshqaruvchi bilan maslahatlashib ko'rdim.

U to'ppadan to'g'ri:

– Tramvayda yo'qotganingga rahmat de, – dedi menga umid bag'ishlab. – Boshqa jamoat yerida yo'qotsang, ehtimol, topilmasligi mumkin, lekin tramvayda yo'qotganing juda savob ish bo'libdi. Bizda yo'qolgan buyumlarni saqlaydigan maxsus bo'lma bor. O'sha yerga borib, yo'qotgan narsangni jonday qilib, olib ketaver.

– Rahmat, – dedim. Yelkamdan tog' ag'darilganday bo'ldi. Qu-rib ketkur kalish unchalik eski emasdi-da. Uchinchi mavsum kiyishim.

Ikkinchi kun topilmalar bo'lmasiga bordim.

– Og‘aynilar, kalishimni qaytarib olsam bo‘ladimi? – deb so‘radim. – Tramvayda yechilib qoluvdi.

– Mumkin. Qanaqa kalish? – deyishdi.

– Oddiy kalish, – dedim, – o‘n ikkinchi o‘lchamli.

– O‘n ikkinchi o‘lchamli o‘n ikki mingta kalish bor, – deyishdi. – Belgisini ayt.

– Belgisi? Oddiy, – dedim, – albatta poshnasi biroz bosilgan, ichidagi qizil lattasi yeyilib, tamom bo‘lgan...

– Bizda shu xil belgili kalish mingdan ortiq bo‘lsa kerak. Boshqa aniqroq belgisi yo‘qmi?

– Aniqroq belgisi ham bor, – dedim, – uchidan jinday teshilgan. Tovoni ham yeyilib, andak qiyshaygan. Choklari hali mustahkam.

– O‘tirib tur, – deyishdi, – hozir qarab ko‘ramiz.

Bir payt kalishimni olib chiqishdi.

Biram xursand bo‘ldimki, asti so‘ramang. Mana, azamatlar, qanday ishlashadi, deb o‘yladim. Bitta kalish uchun shu qadar e‘tibor.

– Rahmat sizlarga, – dedim o‘sha olijanob odamlarga, – o‘la-ol‘guncha minnatdorman. Baqqa bering. Tashakkur! Hoziroq kiyib olaman.

– Yo‘q, hurmatli o‘rtoq, – deyishdi. – Bera olmaymiz. Ehtimol, buni sen yo‘qotmagandirsan?

– Nega, o‘zim yo‘qotganman, – dedim. – Qasam ichishim mumkin.

– Ishonamiz, bu kalishni sen yo‘qotganing ham ehtimoldan xoli emas, – deyishdi. – Tushunamiz. Biroq bera olmaymiz. Haqiqatan ham kalishni yo‘qotganing to‘g‘risida qog‘oz keltir. Bu qog‘oz uy boshqarmasidan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Shundagina seni ovora qilmasdan qonuniy ravishda kalishingni berishimiz mumkin.

– Og‘aynilar, savobtalab o‘rtoqlar, – dedim. – Axir kalishni yo‘qotganligim haqidagi fakti uy boshqarmasidagilar bilishmaydi. Ehtimol, ular qog‘oz ham berishmas.

– Ularning vazifasi, – deyishdi, – qog‘oz berishadi. Bo‘lmasa uy boshqarmasi kimga kerak?

Kalishga yana bir qarab oldim-da, tashqari chiqdim.

Ikkinchi kuni uy boshqarmamiz raisiga borib uchrashdim.

– Qog‘oz ber, kalishim chirib ketyapti, – dedim.

– Haqiqatan ham yo‘qotganmisan? – deb so‘radi rais.

– Xudo haqqi, yo‘qotganman! – dedim.

– Sening quruq gapingga ishonib bo‘larkanmi? – dedi u. – Yaxshisi, bunday qil: tramvay parkiga borib, kalishingni yo‘qotganing to‘g‘risida guvohnoma obkel, keyin, mayli, senga qog‘oz yozib beraman. Hozir ilojim yo‘q.

– Axir ularning o‘zi meni senga yuborishdi-ku.

– Undoq bo‘lsa, mening nomimga ariza yoz.

– Nima deb yozay?

– Falon-falon sanada, falon yerda kalishimni yo‘qotdim deb yoz! – deya qiroat qildi rais. – Keyin ana shuni aniqlab, hal qilib berishingiz uchun ushbu tilxatni yozaman...

Ariza yozdim. Ikkinchi kuni raqamli guvohnoma oldim.

Maxsus guvohnoma bilan yana topilmalar bo‘lmasiga bordim.

Bilasizmi, hech qanday ovoragarchilik va qog‘ozbozliksiz menga kalishimni berishdi.

Kalishni oyog‘imga kiygach, o‘z-o‘zimdand iyib ketdim. Qarang-a, odamlar qanday ishlashadi! Agar boshqa yerda bo‘lganda mening kalishim uchun shuncha ovora bo‘lisharmidi? Bir chetga uloqtirib yuborishardi, vassalom. Bir haftaga qolmasdan o‘zimga qaytarishdi-ya, baraka topkurlar.

Faqat alam qiladigan boshqa bir tomoni bor. Shu hafta ichida u bir poy kalishimni yo‘qotib qo‘ydim. Xaltachaga solib, qo‘ltig‘imga qisib yurgan edim, qayerda qoldirganim esimda yo‘q. Harqalay, tramvayda emas. Tramvayda qoldirsam jon derdim-a. Qayerdan izlasam ekan?

Harqalay ikkinchi poy kalishim topildi-ku. Men uni javonning pastiga qo‘ydim.

Gohida zerikib qolganingda o‘sha kalishga yengil bir qarab qo‘yasan, shunda qalbing o‘z-o‘zidan yorishib ketgandek bo‘ladi.

Mana, idoralarimiz qanday zo‘r ishlaydi, deb o‘ylayman.

Bu kalishni esdalik uchun asrab qo‘yibman. Kelgusi avlodlar ko‘rib, qoyil qolishsin.

1926

## MONTYOR

Teatrdan kim muhim aktyormi yo rejissyormi, ehtimol, teatr duradgoridir? Bu haqda, og‘aynilar, Siz bilan bahslashib o‘tirmayman. Faktning o‘zi ko‘rsatadi. Hamisha faktlar o‘zlari haqida izoh berib kelishgan.



Bu voqea Saratov yoki Simbirskda, bir soʻz bilan aytganda, Turkistondan uzoq boʻlmagan bir shahar teatrida sodir boʻlgan. Shu teatrdan opera qoʻyildi. Mashhur artistlar bilan birga teatrdan shunchaki montyor – Ivan Kuzmich Myakishyev ham bor edi.

Yigirma uchinchi yilda butun teatr guruh boʻlib suratga tushganda shu montyorni «ha, bir texnik xodim»-da bahonasida nazarga ilmay chetga surib qoʻyishdi. Oʻrtada suyanchiqli kursiga esa tenor ovozli artistni oʻtqazishdi.

Montyor Ivan Kuzmich Myakishyev bunga hech nima demadi, lekin koʻngliga ogʻir oldi. Buning ustiga suratga uni juda noaniq va xira tushirishibdi.

Aytilgan kun ham yetib keldi. Bugun, masalan, «Ruslan va Lyudmila» oʻynaldi. Glinka muzikasi. Dirijyor maestro Katsman. Oʻn besh ta kam sakkizda montyorni ikkita aslzoda oyimqiz soʻroqlab keldi. Ularni montyor yo avvaldan taklif qilgan, yoki oʻzlari kelib qolgan edilar. Bu yogʻi nomaʼlum. Ikkala oyimqiz kelasolib, haddan tashqari noz-firoq bilan spektaklni koʻrish uchun umumiy zalga joylashtirishni soʻrashdi.

– Birpas sabr qiling, xonim, – dedi montyor. – Hozir men sizlarga bir juft chipta hal qilib kelaman. Manovi yerda birpas kutinglar.

Shunday degancha boshqaruvchi huzuriga yoʻl oldi.

– Bugun dam olish kuni, odam juda ur-yiqit, – dedi boshqaruvchi, – har bir oʻrindiqlar hisobida. Ilojim yoʻq.

– Shundaymi hali, – dedi montyor, – unda men ham oʻynamayman. Toʻgʻrisi, sizning bu qorongʻi otxonangizni yoritishdan bosh tertaman. Mensiz oʻynayveringlar. Koʻramiz, hali qaysi birimiz muhimroq ekanmiz. Shunda kimni chetda va yana kimni oʻrtaga qoʻyib suratga tushirish ham maʼlum boʻladi.

Shunday degancha u xonasiga qaytdi. Butun teatrdan chiroqni oʻchirib, xonani hamma kalitlar bilan qulflab chiqdi-da, tanish oyimqizlarining noz-firoqli soʻzlarini eshitib oʻtiraverdi.

Shubhasiz, gʻalati tartibsizlik, toʻs-toʻpolon boshlandi. Boshqaruvchi yugurib keldi. Tomoshabinlar bor ovozda qichqirishdi. Chiptachi qorongʻida pulni shilib ketmasinlar degan tashvishda zir titraydi. Doimo oʻrtada turib suratga tushadigan daydi, operaning yetakchi tenori rahbariyatga kirib oʻzining tenor ovozida:

– Men qorongʻida tenor ovozda kuylashga noroziman, – debdi, – qorongʻi boʻlsa ketaman. Menga ovoz kerak, ayting, oʻsha montyoringiz kuylasin.

Montyor ham:

– Kuylamasa kuylamasin, – dedi. – Tupurdim unga! O‘rtada o‘tirib suratga tushishni biladi-ku? ,Qo‘ying, bir qo‘lida kuylab, ikkinchi qo‘lida chiroqni yoqsin. Tenor bo‘lgach, hamisha menga chiroqni yoqib beradilar, deb o‘ylasa kerak-da. Go‘yo tenorlar yo‘qdek.

To‘satdan boshqaruvchi paydo bo‘lib, bor ovozda qichqirdi.

– Qani o‘sha qaqaqjon qizlaring? Hamma falokat o‘shalardan chiqdi. Hozir ularni biror joyga o‘tqizaman. Ko‘pam suzong‘ich bo‘lma, ho‘kiz.

– Mana, o‘sha qaqaqjon qizlar! – dedi montyor. – Faqat falokat ular tufayli emas, men tufayli chiqdi. Hozirning o‘zidayoq yorug‘lik beriladi. Men uchun energiya nima degan gap.

Aytganini qildi. O‘sha onning o‘zida yorug‘likni berdi.

– Boshlanglar! – dedi.

Uning oyimqizlarini belgili yerga o‘tqazishib, spektaklni boshlashdi.

Ana endi o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, teatrning murakkab mexanizmidan kim muhimroq ekan.

Albatta, qizishmasdan muhokama qilib ko‘rilganda tenor ham teatr uchun – katta boylik. Ba‘zi operalar uningsiz qo‘yilmaydi ham. Biroq, montyorsiz teatrdan umuman hayot to‘xtab qoladi.

Demak, ularning har qaysisi o‘ziga xos katta bir boylik. Shuning uchun bu yerda «Men tenorman» deya kerilishning hojati yo‘q. Do‘stona munosabatlarni esa buzmaslik lozim. Suratga ham aniq tushirish kerak, xira emas.

1927

## MADANIYAT AJOYIBOTLARI

Kamina hamisha markazdan bo‘ladigan ko‘rsatmalarga xayrixohman.

Hatto harbiy kommunizm davri – NERni joriy qilganlarida ham qarshi chiqmaganman. O‘zingiz yaxshi bilasiz. NER – bu NER.

Shunga qaramay, NERni amalga oshirmoqchi bo‘lganlarida yuragim o‘z-o‘zidan siqilib ketdi. Jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishini oldindan sezganday bo‘ldim.

Darhaqiqat, harbiy kommunizm davrida madaniy va taraqqiyot munosabatlarida ancha erkinlik berilganday bo‘ldi. Aytaylik, teatrga

kelganda o'z kiyiming bilan yechinmasdan bemalol o'tiravershing mumkin. Bu, albatta, taraqqiyot edi.

Madaniyat masalasi – jiddiy masala. Teatrda yechinib kirish ham shunga kiradi. Garchand, tomoshabinlar paltosiz juda go'zal va sipo ko'rinsalar-da, burjua mamlakatlarida yaxshi deb topilgan ayrim masalalar gohida tishga botmay qolarkan.

O'rtoq Loktev va uning rafiqasi Nyusha Koshelkova yaqinda meni ko'chada uchratib qolishdi. Sayrgami yoki tomoqni ho'llashgami chiqqan edim. Aniq esimda yo'q.

Uchrashgan onim biri qo'yib, ikkinchisi gapira ketdi.

– E, tomoqmi, – deyishdi, – Vasiliy Mitrofanovich, Sizdan qochib qutulib bo'пти. Tomoq hamisha o'zingiz bilan birga. Istagan vaqtda uni ho'llashingiz yoki namlashingiz mumkin. Yaxshisi, yuring, bugun teatrga kiraylik. «Grelka» degan spektakl bor ekan.

Bir so'z bilan aytganda, meni ko'ndirishdi. Teatrga kirib, madaniy hordiq chiqarmoqchi bo'ldik.

Albatta, teatrga keldik. Chipta ham oldik. Zinadan ko'tarila boshladik. To'satdan chaqirib qolishdi. Yechinishni buyurdilar.

– Paltoni yechinglar! – deyishdi.

Loktev o'z rafiqasi bilan o'sha zahoti paltoni yechib tashlashdi. Men bo'lsam, albatta o'ylab turaverdim. O'sha oqshom paltoni tungi ko'ylak ustidan kiyib olgan edim. Kostumsiz. Qandoq bo'larkin? Paltosiz o'zimni juda noqulay sezdim, og'aynilar. «Axir odobsizlik ro'y berishi mumkin», deb o'yladim. To'g'ri, ko'ylakni kir deb bo'lmaydi. Ko'ylak unchalik kir emas. Lekin biroz qo'polroq, tungi ko'ylakda. Tugmalari shineldan olingan – jez. Yoqasidagi tugma esa undan ham kattaroq. «Bu xil yirik tugmalar bilan foyeda yurish odobsizlik bo'lar», deb o'yladim.

– Ochig'i, nima qilishimni ham bilmay qoldim, o'rtoqlar, – dedim, – bugun aksiga olib yaxshi kiyinmagan edim. Paltoni yechish noqulay bo'lyapti. Tungi ko'ylakdaman, noqulay, yana yelkatasmalarim ham bor.

– Qani ko'rsat-chi, – dedi Loktev.

Tugmalarni ochib ko'rsatdim.

– E-e, – dedi u, – haqiqatan ham ko'rinishing g'alati.

Rafiqasi ham ko'rib, o'sha zahoti:

– Yaxshisi, men uyga ketaman, – dedi, – ko'ylakchan jazman bilan yonma-yon yurish sharmandalik. Yana anovi tasmalarni qa-



rang – rezinkalari chiqib yotibdi. Bu ahvolda teatrga kirish juda uyat, nomus.

– Teatrga borishimni qayoqdan' bilay? – dedim. – Yengiltaklik qilmang ko'p. Ehtimol, kamina kamdan kam kostum kiyarman. Ehtimol, men uni asrarman. Xo'sh, unda nima qilish kerak?

Nima qilishni o'ylay boshladik. Ko'ppak Loktev nima deydi deng?

– Men, – deydi, – Vasiliy Mitrofanovich, hozir senga o'z nimchamni yechib beraman. Uni kiyib ol. Odamlar nazdida kostum issiqlik qilgani uchun doim yechib yurgandek ko'rinasan.

Kostumining tugmalarini yechib ichdan qornini siypab ko'rdi-da:

– Ana xolos, – deya qichqirib yubordi, – axir mening o'zim ham bugun nimchani kiymabman-ku. Yaxshisi, – dedi u, hozir men senga bo'yinbog'imni yechib beraman. Harqalay, bo'yinbog'da siporoq ko'rinasan. Bo'yingga boylab ol. Issiq bo'lgani uchun go'yo atayin kostumni yechib qo'ygandek bo'lib ko'rinasan.

Rafiqasi bo'lsa:

– Yaxshisi, men uyga ketaqolay, – deydi. – Uyda tinchgina o'tiraman. Bitta jazmanim ichko'ylakda, yelkatasmalar bilan, ikkinchisi – bo'yinbog'siz yursa qandoq bo'larkin? Yaxshisi, Vasiliy Mitrofanovich palto bilan kiritishlarini iltimos qilib ko'rsin.

Yalindik, yolvordik, hatto kengashning daftarchasini ham ko'rsatdik, qo'yishmadi.

– Bu sizlarga, – deyishdi, – o'n to'qqizinchi yil emas, paltoda o'tirsangizlar.

– Bir ish chiqarish qiyin, og'aynilar, – dedim. – Uyga qaytishga to'g'ri keladi.

Puli to'langan-ku, axir, deb o'ylayman, ketishga hech oyog'im tortmay turibdi.

Ko'ppak Loktov nima deydi, deng?

– Yaxshisi, sen anovi yelkatasmalarini yechib ol, – deydi, – uni ana bu xonim sumkacha o'rnida ko'tarib olsin. O'zing esa doimo yozgi ko'ylakda yurgandek, gerdayib, g'oz yurish bilan kirib ketaver.

– Nima qilsangiz qiling, lekin men yelkatasmani ko'tarib yurmayman, – deydi jahl bilan xotini. – Bir kamim erkaklarning buyumlarini ko'tarib yurish qoluvdi. Vasiliy Mitrofanovichning o'zi ko'tarsin yoki cho'ntaklariga tiqib olsin.

Paltoni yechdim. Qo'tir itdek bir ko'ylakda dildirab turibman.



Sovuq ham kampirkushak. Qaltirayman. Tishim-tishimga tegmaydi. Atrofdagilar menga qarashadi, imlashadi.

Xotin bo'lsa:

– Qurib ketgur, tezroq tugmalarni qadab olsangiz-chi, – deya firoq qiladi. – Hammayoq odam-a. Xudo haqqi, hozir uyga ketaman.

Tugma qadash koshki oson bo'lsaykin. Sovuq. Barmoqlarim uvihib ketgan – hadeganda qaday olmaydi. Kaftlarimni ochib yopaman.

Bir amallab uzimizni tartibga keltirib, borib joyimizga o'tirdik.

Birinci parda yomon o'tmadi. Faqat sovuq-da. Butun parda davomida badantarbiya bilan shug'ullandim.

Tanaffusda orqadagi qo'shnilar to'satdan shovqin ko'tarib qolishdi. Ma'muriyatni chaqirishdi. Men haqimda tushuntira ketishdi.

– Xotinlarga anovining tungi ko'ylagiga qarash juda noqulay, – deyishdi. – Bu bo'lsa, tinchgina o'tirish o'rniga turli qiliqlar bilan ko'ylagini ko'z-ko'z qiladi. Kuchala yegan itdek qiyshanglaydi.

– Qiyshanglashim sovuqdan. – dedim. – O'zingiz ham shu sovuqda ko'ylakchan o'tirib ko'ring-chi. Menga ham oson emas. Bu ahvolimdan xursand emasman, og'aynilar. Lekin na iloj?

Meni albatta idoraga olib bordilar. Bor gapni yozib, qog'oz qoralashdi.

Eng oxirda ruxsat berarkanlar:

– Ana endi, – deyishdi, – sudga uch so'm to'lashingizga to'g'ri keladi.

Voy, yaramas-e! Balolar oyoq ostida deganlari shu ekan-da. Qayoqdan chiqib kelishini ham bilmay qolarkansan...

1927

## ISHQIBOZ

Shaxsan men, og'aynilar, vrachlarga kamdan kam, nihoyatda og'ir va zarur paytlardagina qatnayman. Aytaylik, terlama qaytalaganda yoki zinapoyadan yiqilib tushganimda.

Shunda, haqiqatan, ham tibbiyotdan yordam so'rayman. Boshqa vaqt davolanishga ko'pam ishqiboz emasman. Menimcha, tabiatning o'zi hamma a'zolari boshqarib turadi. Uning o'ziga havola.

Albatta, men tibbiyotga qarshi emasman. Menimcha, bu umumni davlat qurilishi mexanizmida juda kerakli kasblardan. Faqat tibbiyotga ortiqcha berilib ketish unchalik yaxshi emas, demochiman.

Tibbiyotning ashaddiy ishqibozlari shu kunlarda, ayniqsa, ko'payib ketdi.

Masalan, mening jo'ram Sasha Yegorovni olaylik. Miriqib davolandi. Yaxshi odam edi. Ba'zi ahmoqlardek ichmaydi, farosatli, ziyolinaro kishi. Mana, besh yildan buyon davolanadi.

Dastlab unda aytarli hech nima yo'q edi. Haddan tashqari oriq edi, xolos. O'zingiz bilasiz, urush davri juda yomon ovqatlanishgani uchun iligi qurigan. Davolana boshladi.

Qarang, foyda qildi. Semira boshladi.

Semirgandan semirib ketaverdi. Ikki yil ichida shunday to'lishib ketdiki, uning haddan tashqari semizligi va ko'z qarashlaridan hatto o'z bolalari ham qo'rqadigan bo'lishdi.

Ko'z qarashlari g'ayritabiiy – qo'rquvgami, hadikkami o'xshaydi. Beso'naqaylashib ketayotganidan – uning o'zi ham tashvishga tushib qoldi. Davolashni to'xtatmoqchi bo'ldi: kechikibdi. Qarasa, endi semizlikdan davolanish kerak.

Oriqlash uchun davolana boshladi.

Vrach:

– Semizlik – bu sizning ko'p harakat qilmasligingizning oqibati, – dedi. – Yoki teskarisi. Shuning uchun ko'proq nari-beri yurib turish kerak, harqalay, shundan keyin oriqlashingiz mumkin.

Jo'ram tez yurishni boshladi. Devona itdek yurgani-yurgan, daydigani-daydigan. Kun bo'yi yurgach, kechqurun ishtahasi chunonam ochilib ketadi – bamisoli yuho! Uyqusi ham juda yaxshi – ko'z ocha olmaydi. Bir so'z bilan aytganda, qisqa muddat ichida yana bir pudcha semirdi. Og'irligi to'qqiz pudga yetdi.

– Yo'q, sizga yurish zararli, – dedi vrach. – To'xtating. Sizga uzoqlarga ketish kerakka o'xshaydi. Kurortga boring.

Endi jo'ram kurortga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Yo yesentuki, yoki Borjomiga bormoqchi. Bilaman. Bir so'z bilan aytganda, albatta foydasi tegadi deb o'ylayapti.

O'z navbatida men ham kurort, albatta, unga foyda qiladi deb o'ylayman. Chunki u temir yo'l chiptasi uchun – ikki kecha-kunduz, pul olish uchun, yana ma'lumotnomaga shuncha yugurib-yelsa – o'z-o'zidan kam deganda ikki pudcha oriqlashi turgan gap.

Endi tushungandirsiz. Buni tabiatning odam organizmiga bevosita ta'siri, deydilar.

1927

## MAYDA-CHUYDA

Bugun allaqanday qahramonlarcha ko'krak kerib, quloch otgim kelib turibdi. Turlicha ilg'or qarash va kayfiyatlarga boy, keng xarakterli, ulug'vor qahramonni tasvirlasam deyman. Kichik, mayda-chuyda, bo'lak-so'lak narsalar, to'g'risi, jonga tegdi.

Shu xil qahramon o'rtoq bilan yaqindan tanishish, u bilan to'qnash kelish, ehtimol, hayotda uchramagandir. Buning o'rniga har xil mayda-chuyda, qalang'i-qasang'ilar oyoq ostida o'ralishadi.

Men esam, og'aynilar, haqiqiy qahramonni sog'inganman! Koshkiydi, shunaqasini uchratsam edi!

Aytmoqchi, yaqinda bittasini uchratib qoldim. Hatto uni qissaga qahramon ham qilib olmoqchi edim. U, itdan to'ragan bo'lsa, oxirgi daqiqalarda qahramonlik yo'lidan batamom chetga chiqib ketganligi sababli, u to'g'risida ko'tarinki ruhda yozging ham kelmay qolarkan.

Albatta, vaziyat o'ta jiddiy tus oldi. Bunga sabab o'sha odamning kasallanib qolishi bo'ldi.

O'tgan yilning o'n to'qqizinchi dekabrda kasallandi. Bilasizmi, shamolladi. Dastlab u «shilq-shilq» burnini tortib, yo'talib yurdi. Keyin qora terga botdi. Keyin butun a'zoyi-badani qaltiray boshladi. Qarab-sizki, eng oxirda sho'rlik odam butunlay oyoqdan qoldi. Ikkinchi kuni yotgan yerida uning nafasi ichiga tushib ketdi: na aksiradi va na nolish qiladi. O'pkada umidsiz bir holat hayal o'tmay butun a'zoyi-badanini muzlatib yubordi. Umuman, o'limi yaqinlashib kelmoqda edi.

O'quvchilarni xafa qilmasdan, oldindan ayta qolaylik, harqalay – u odam o'lmadi, asta-sekin tuzalib ketdi, hatto yaqinda o'zining xizmat vazifasiga ham qaytdi. Ammo o'lim uni qoralab kelgan edi.

Boshqa, to'poriroq o'rtoq bu xil achinarli dalildan juda xafa bo'lardi. Biroq o'rtoq Barbarisov haqiqiy qahramon edi. Hamma frontlarda bo'lgan. Tinch qurilishda ham mayda meshchanlarning qiziqishlariga qarshi kurashar, hatto uy pulini o'z vaqtida to'lamagan kishilarni uyaltirib, sharmandasini chiqarardi.

O'rtoq Barbarisov mayda-meshchancha o'limdan sira ham qo'rqmasdi. U boshi ustida xo'rsinib turgan qarindoshlariga – yo'qoling-



lar baring, iblislar, shundayam ko'nglim aynib turibdi, degandek qo'l silkidi. Basharalarini ko'z-ko'z qilishini qarang bularning...

Shunga qaramay, eng oxirgi daqiqalarda u rosa laqilladi. O'zining ilg'or dasturi bilan o'rab-chirmab tashladi.

Allaqanday so'zlarni shivirlay boshladi.

Albatta, qarindoshlari uni qayta o'rab olishdi. Nima haqda gapirayotganini so'radilar.

Barbarisov:

– Gulchambar kerak emas, – dedi, – Yaxshisi, qabr ustiga tunuka soyavon qilinglar. Yana, poplarga aytinglar, qabrim ustida o'q otishga ruxsat etmasin. Faqat, – dedi, – meni krematoriy<sup>1</sup>ga olib bormanglar. O'tinaman, sizlardan, iltimos. Odatdagicha ko'minglar.

Qarindoshlari qanaqasiga krematoriy bo'larkan, hammasi bekor gap, deya uni yupata boshladilar. Barbarisov ayanchli jilmayib:

– Yo'q, – dedi. – Bu fikrga o'rtoq Galkin qarshi chiqar, deb qo'rqaman. Chunki do'stona bir suhbatda shu haqda unga gapirib, majbur qilgan edim. Koshkiydi, u ablah endilikda shunga amal qilmasa. Kuydirishga yo'l qo'ymanglar. Men bunga odatlanmaganman, axir.

Shu so'zlardan keyin hushsizlanib, yengil uyquga ketdi. Butun tanasi orom olgandek bo'ldi. Umuman, u tuzala boshladi.

Bir haftadan keyin Barbarisov o'z to'shagida yostiqqa suyanib o'tirardi. Betlari toza, sal-pal qizargan. Shu payt o'rtoq Galkin uni ko'rishga kelib qoldi. Har xil gap-so'zlardan uzoq suhbatlashdilar. Krematoriy masalasida Barbarisov o'tinib kechirim so'radi.

– Ochig'i, o'zim ham bilmayman, – dedi, – nega krematoriyga borgim kelmay qoldi. Qo'rqdim. Ikkinchi marta o'lsam – hech ikkilanib turmasdan to'g'ri krematoriyga olib boringlar.

– Nahotki yana o'n yil kutsangiz, oboramiz, – dedi Galkin, – lekin bu haqda hozir so'z ham bo'lishi mumkin emas. Chunki krematoriy hali bizning Piterda rasm bo'lmagan. Endi loyihalarmoqda-ku.

Shunda Barbarisov manglayiga bir tushirdi.

– Darhaqiqat, – dedi, – nega bu haqda o'ylamabman-a? Bekor-ga vahima qilibman, uzr!

Besh kundan so'ng Barbarisov tuzalib, bu voqea haqida boshqa o'ylamaydigan bo'ldi.

1927

<sup>1</sup> Mayit yoqiladigan maxsus pech.



## ETIKCHALAR

Bizlarning kommunal uyimizda yashovchi Trofimich o'z qiziga etikcha xarid qilmoqchi bo'ldi. Qizi Nyushka, unchalik katta emas, jismonan nuqsli bir bolacha. Yoshi – yettida.

Shunday qilib, Trofimich ana shu Nyushkasiga etik sotib olmoqchi bo'ldi. Bu yog'i kuz yaqinlashib kelyapti, haliga qadar etigi yo'q.

Bu xil katta xarajatni o'ylab, tishlari g'ijirlab ketgan Trofimich Nyushkasining qo'lidan tutib, unga xarid qilishga otlandi.

U bolasi bilan bir tijorat do'koniga kirdi. Tovarni ko'rsatishni so'radi. Kiyib ko'rishni buyurdi. Hammasi joyida – tovar ham yaxshi, to'g'riyam keldi. Faqat bir joyi yoqmayroq turibdi – narxi. Bahosi aridek – o'n ikki so'm!

Trofimich bu xil bolabop narsalarni – bir yarim, ikki so'mga sotib olmoqchi edi.

Nyushkaning yer urib yig'lashiga qaramasdan, Trofimich boshqa do'konga o'tdi. Boshqa do'konda o'n so'm so'rashdi. Uchinchi do'konda ham o'n so'm. Bir so'z bilan aytganda, qayerga kirishmasin – shu ahvol: tovar yaxshi, oyoqqayam loyiq keladi, faqat bahosi aridek chaqib oladi. Nyushka ham ari chaqqandek bor ovozda yig'laydi.

Beshinchi do'konda Nyushka yana bir etikni kiyib ko'rdi. Oyog'iga loppa-loyiq. Bahosini so'rashdi: bir tiyin ham kam emas – to'qqiz so'm. Trofimich uch-to'rt so'm arzon qilishlarini so'rab turganda yangi etikchani kiyib olgan Nyushka eshikka yaqin keldi va o'zini garanglikka solganicha, ko'chaga chiqdi.

Trofimich bolasi izidan ko'chaga otilmoqchi edi, mudir uni to'xtatib qoldi.

– To'xtang, o'rtoq, – dedi, – avval pulini to'lang, keyin mayli, boshqa ishingizga boravering.

Trofimich, birpas kutib turinglar, deya iltimos qila boshladi.

– Ehtimol, hozir bola kelib kolar, – dedi. – Ehtimol, bola yangi etikchada yurib, chopib ko'rmoqchi bo'lgandir.

– Buning menga ahamiyati yo'q, – dedi mudir. – Tovar qani? Tovarni pulini to'lang. Bo'lmasa do'kondan hech qayoqqa chiqmay-siz.

Trofimich:

– Yaxshisi, do'kondan hech qayoqqa chiqmayman. Qizaloqning kelishini kutaman, – dedi.

Ammo Nyushka qaytmadi.

U yangi etikchalarni kiyib, do‘kondan chiqdi va o‘zini garanglikka solgancha, to‘g‘ri uyiga ketdi.

«Dadam, bir ichishni boshlasa, tag‘in narxi qimmat ekan degan bahona bilan menga hech qachon narsa olib bermaydi», deb o‘yladi.

Shunday qilib qaytmadi.

Trofimich nima ham qilardi – so‘raganlarini to‘ladi-da, tishlarini g‘ijirlatgancha uyiga yo‘l oldi.

Nyushka bo‘lsa allaqachon uyga kelgan va yangigina etikchalarini ko‘z-ko‘z qilib yurardi.

Trofimich uni yengilgina savalagan bo‘lsa-da, biroq etikchalar uning o‘zida qoldi.

Agar diqqat qilgan bo‘lsangiz, ana shu voqeadan keyin davlat do‘konlarida etiklarni faqat bir poyi – chapini kiyib ko‘rishga ruxsat etiladigan bo‘ldi.

O‘ng poy etik esa boshqa bir yerga yashiriladi yoki mudirning o‘zi tizzalari orasiga mahkam qisib – boshqalarning tegishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shubhasiz, bolalar ham juda mustaqil o‘shiyapti.

Yosh avlod juda erkin o‘shiyapti, demoqchiman.

1927

## MESHCHANLAR

Bu voqea odamni butunlay adoyi tamom qilishi mumkin.

Kim biladi, qaysi yildan beri partiyasiz, qip-qizil proletar Vasiliy Tarasovich Rastopirkin, ya‘ni Vasya Rastopirkinni tramvay yo‘lagidan uloqtirib yuborishdi.

Bu ham yetmagandek uning basharasini tramvayning mis ustuniga rosa suyakshdi. U ustunni ikki qo‘llab ushlagancha, uzoq vaqt qo‘yib yubormay turdi. Uni militsiya va ober-strelochnik<sup>1</sup> zo‘rg‘a ajratib olishdi.

Ayrim yo‘lovchilarning meshchanona iltimoslari tufayli uni yerga sudrab tushirishdi.

---

<sup>1</sup> 1925-yilgacha Chor Rossiyasi temir yo‘llarida yo‘nalishni nazorat qilib turgan katta xodim.

Albatta, Vasiliy Tarasovichning frak kiyganligi haqida soʻz ham boʻlishi mumkin emas. Uning frak kiyib, koʻkragiga qadamarlar taqishga vaqti ham yoʻq. Ehtimol, u besh soatlik ovorachilikdan keyin toʻgʻri uyiga qaytardi. Ehtimol, u boʻyoqchidir. Ehtimol, u shuning uchun ham itdek iflos yurar. Ehtimol, ishlayotganda turli xil boʻyoq va boshqa narsalar uning kostumiga yuqar. Ehtimol, shuning uchun ham ruhan charchab yayov ketish unga malol kelgandir.

Koʻrinishdan, juda oddiy, oylik maosh evaziga borib-kelish uchun moshina yollay olmas. Moshinani choʻntak koʻtarmaydi. Tramvayda yurish ham unchalik oson emas. Qarang-a, qanaqa yashashyapti oʻzi, qayoqqa qarab ketishyapti.

Vasiliy Tarasovich soat beshga qadar rosa ishladi. Soat beshda koʻchma narvonni yelkalab chelakda qolgan boʻyoq bilan uyiga qaytdi. Uyiga qaytarkan, yoʻl-yoʻlakay:

«Kun boʻyi narvondan tushmasdan ishladim, – deya oʻyladi u, – jonimga tegdi. Piyoda borolmasam kerak. Kel, yaxshisi, charchoq proletariat sifatida tramvayga oʻtiraqolay».

Xuddi shu asnoda uning roʻparasiga oltinchi raqamli tramvay kelib toʻxtadi. Vasiliy Tarasovich bir yoʻlovchidan boʻyoq qoldigʻi solingan chelakni ushlab turishni iltimos qildi. Oʻzi boʻlsa tramvay yoʻlagiga narvonni joylashtirishga tutindi.

Albatta, narvon ham koʻpam yaraqlagan, toza emasdi. Boʻyoq solingan chelak bilan paltolarni boʻyamaslik ham oson emas. Orqadan kimdir surilgan edi, bir xotin oʻz-oʻzidan chelakka qoʻlini botirib oldi. Yalmogʻiz. Begona buyumga qoʻl choʻzadi-ya!

Boʻlgan voqea shu. Bu bilan biz ortiqcha bahslashib oʻtirmaymiz. Haqiqatan ham Vasiliy Tarasovich narvon bilan tramvayga chiqib, qonunga xilof ish tutgan. Bu haqda soʻz ham boʻlishi mumkin emas. Soʻz – kostum haqida. Tramvayda ketayotgan nepmanlar xuddi ana shu kostum xususida toʻpolon koʻtarishdi.

– Unga yaqinlashmanglar, – deyishdi ular, – kiyimlaringiz dogʻ boʻladi, yaqinlasha koʻrmanglar.

Vasiliy Tarasovich ham:

– Judayam toʻgʻri aytdilar-da, – dedi keskin, – alif aralashtirilgan moyli boʻyoq boʻlgandan keyin, albatta, dogʻ qoladi-da. Agar dogʻ qolmaganda judayam qiziq boʻlardir.



Shunda bir nepman ayol chiptachilarga tegishli qo'ng'iroqni bosgan edi, butun vagon to'xtab qoldi. Vagon to'xtagach, buyruq ohangida Vasiliy Tarasovichga tushing deyishdi. Vasiliy Tarasovich ham:

– Tramvay – omma uchunmi yoki omma – tramvay uchun? – deb so'radi. – Axir buni tushunish kerak-da! Axir, men besh soat ishlab kelayotgandirman. Ehtimol, bo'yoqchidirman?

Xuddi ana shunda militsiya va ober-strelochnik qayg'u va hasrat to'la bir ish qilishdi. Qip-qizil proletar, buning ustiga hunarmand Vasiliy Tarasovich Rastopirkinni, bamisoli itvachchadek sudrab, tramvay yo'lagidan tushirishdi. Shu bilan birga butun basharasini tramvay ustuniga urib rosa ishqalashdi. Nega deng – narvon bilan tramvayda yurish mumkin emasmish! Qayoqqa qarab ketyapmiz o'zi-a?

1927

## BEG'ARAZLIK

Bizga habashlarning kelgani esingizdadir. O'tgan yil edi. Habashlarning negrooperettasi keluvdi.

O'sha habashlar bizning mehmondorchiligimizdan juda mamnun bo'lishgan edi. Madaniyatimizni, umuman, dastlabki yutuqlarimizni rosa maqtab gapirishgan edi.

Faqat ular ko'cha harakatidan biroz norozi bo'lgan edilar.

– Ko'chada yurish nihoyatda og'ir, – deyishdi, – goh turtkilashadi, goh oyog'ingni bosib olishadi.

To'g'risi, habashlarning o'zi ham yevropacha madaniyatdan ortiqcha taltayib ketganligi sababli bunga odatlanishmagan. Bir-ikki yil yashashsa, bizga moslashib, o'zlari ham bemalol oyoq bosadigan bo'lishadi. Anig'i shu.

Haqiqatan ham bizda oyoq bosishadi. Nima ham derdik. Bu – ayb.

Lekin habashlar shuni yaxshi bilishsinki, bu qiliq bizda ataylabdan emas, oddiy, beg'arazlik tufayli, qo'qqisdan ro'y beradi. Bu yerda hech qanaqa g'arazli fikr yo'q. Oyoqni bosdingmi – indamasdan o'tib ketaverasan. Chunki ishga shoshilyapsan.

Yaqinda mening o'zim ham bir odamning oyog'ini bosib oldim. Tasavvur qiling. O'sha o'rtoq ko'chadan o'tib borardi. Yelkalari keng, baquvvat yigit.



O'sha yigit ketib boryapti. Men uning izidan ketyapman. U oldinda ketib boryapti. Mendan hammasi bo'lib bir qadamcha oldinda. Shunday qilib, juda xotirjam ketyapmiz. Hammayoq saranjom-sarishta. Bir-birimizning oyog'imizni bosish xayolimizda ham yo'q. Hatto qo'llarimizni ham qimirlatmaymiz. U ketib boryapti. Izidan men ham. Aytish mumkinki, bir-birimizga sirayam xalaqit bermaymiz. Bir so'z bilan aytganda, bahri-dilimiz ochilib, yuraklarimiz yayrab boryapmiz.

Hatto men: «Yo'lovchi yaxshi yurarkan, juda maromida ketib boryapti, – deb o'yladim. – To'ppa-to'g'ri. Bir tekis. Yer tepinmasdan. Boshqasi bo'lsa oyoq ostida o'ralashib qolardi. Buning qadam olishi joyida».

Esimda yo'q, to'satdan bir gadoga qarab alahsib qolibman. Ehtimol, izvoshchiga qaragandirman.

Nima bo'lsa-da, gadoyga alahsib ketib, oldindagi o'rtoqning oyog'ini bosib oldim. Tovonini, anig'i, tovonidan sal yuqoriroqqa oyoq bosibman.

Bosganda ham ayamasdan, bor kuch bilan bosibman.

O'sha onning o'zidayoq qo'rquvdan baqa bo'lib qoldim. To'xtadim. Hayajonning zo'rligidan hatto «kechirasiz», ham demabman.

«Hozir bu mehribon odam shart orqa o'girilib, quloq-chakkamga bir tushiradi, – deb o'yladim. – Yursang, to'g'ri yur-da, oshqovoq!»

Qo'rquvdan qotib qoldim. Hatto tegishli jazoni olishga ham tayyor edim. Xayriyat-e!

Haligi mehribon odam menga qaramasdan, yo'lida davom etaverdi. Hatto kallasini ham o'girmadi. Ishoning, hatto oyog'ini ham silkib qo'ymadi. Tinchgina yo'lida ketaverdi.

Aytdim-ku Sizga, bu bizlarda tez-tez takrorlanib turadigan oddiy holat. Hech qanaqa ichqoralik yo'q. Sen birovning oyog'ini bossang, senikini ham birov bosadi. Nima bo'пти? Tinchgina ketaver.

Xudo haqqi, o'sha mehribon, muloyim odam hatto o'girilib qaramadiyam.

Uning izidan ancha yergacha yurib bordim. Mana, mana orqa o'girilib, o'qrayib qarar, deb o'yladim. Yo'q. Ketaverdi. Hatto meni sezmadim ham.

## JARROHLIK

Bu qayg'uli, arzimas voqea o'rtoq Petyushka Yashchikov bilan bo'lib o'tdi. Tavba, qanaqasiga arzimas bo'lsin! Sal qoldi uni so'yishardi. Albatta, jarrohlik yo'li bilan.

Xayriyat, bunga hali ancha bor. Ochig'i juda uzoq. Petka ham so'yishlariga manaman deb tayyor turadigan anoyilardan emas. Tan olish kerak, unaqa yigitmas. Harqalay, u shu ko'ngilsiz voqeani boshidan kechirgani aniq.

Vijdonan aytganda, unchalik ham qayg'uli voqea sodir bo'lgani yo'q. Bir hisobda Petka jinday adashdi. O'ylab ko'rmadi-da. Buning ustiga jarroh huzuriga ham ilk bor kelishi. Odatlanmagan.

Petyushkada g'alati bir kasallik boshlandi. O'ng ko'zining yuqori qovog'i shishib ketdi. Uch yil mobaynida siyohdonday lo'ppayib chiqdi.

Petya Yashchikov klinikaga qatnadi. Yoshgina, sho'x-shaddod doktor juvonga qaratdi.

Doktor juvon unga shunday maslahat berdi:

– Ixtiyor o'zingizda. Xohlang – kestiring. Xohlang – shunday yuravering. Bu – olib ketadigan kasalliklar xilidan emas. Ko'pgina erkaklar tashqi ko'rinishlari bilan hisoblashmasdan shu xil shish bilan bemalol yuraveradilar.

Petyushka qiyofam yaxshi bo'lsin degan maqsadda operatsiyaga rozi bo'ldi.

Doktor juvon, ertaga keling, deb buyurdi.

Ertasiga Petyushka Yashchikov ishdan keyin to'g'ri jarroh huzuriga o'tmoqchi bo'ldi. Biroq o'ylanib qoldi.

«Garchand bu operatsiya ko'z ustida qilinsa-da, aytaylik, ichki a'zolar kesilmagan taqdirda ham yana kim biladi, deysiz, ehtimol, ular kostumni yechishga buyurishar. Tibbiyot – bu qorong'i olam. Uyg borib ichkiyimlarni almashtirib kelsinmi?»

Petyushka uyga yugurdi.

Axir, doktor juvon yoshgina narsa. Petyushka jon-jon deb unga ko'zini qaratadi. Egniga yap-yangi, bashang kostum kiygani tuzuk, biroq ichko'ylakning ham toza, ohori bo'lgani yaxshi-da.

Xullas, Petya qo'qqisdan uyalib qolishni istamadi.

Uyiga keldi. Toza ko'ylak kiydi. Bo'ynini benzinda tozaladi. Qo'llarini sovunlab yuvdi. Mo'ylovini yuqoriga buradi. Keyin yugurdi.

Doktor juvon:

– Ana shu jarrohlik stoli, – dedi. – Mana bu nishtar. Bu esa sizing kasalingiz. Siz uchun hozir hammasini qilaman. Etiklaringizni yechib, mana bu jarrohlik stoliga yoting.

Petyushka o‘zini yo‘qotib qo‘ygandek bo‘ldi.

«Qiziq, – deya xayolidan kechirdi u. – Etikni yechishni o‘ylamagan ekanman. Bu yog‘i qandoq bo‘ldi? Axir paypoqlarim anaqaroq, e, anaqadan ham battarroq edi-ku».

Petyushka Yashchikov bu nuqsonni boshqa ichki afzalliklar bilan baravrlashtirish maqsadida kitelini yechishga tutindi.

Doktor juvon:

– Kitelni yechmasangiz ham bo‘ladi, – dedi. – Bu yer mehmonxona emas. Etikni yechsangiz kifoya.

Petyushka qo‘shqo‘llab etigini ushladi. Keyin:

– Ochig‘i, o‘rtoq doktorposhsha, – dedi, – oyoqni sira o‘ylamagan ekanman. Ko‘z og‘rig‘i tashqi kasallik devdim. Ochig‘i, o‘rtoq doktorposhsha, – dedi, – ko‘ylakni almashtirdim, kechirasiz, qolganiga teginganim yo‘q. Iltimos, – dedi, – operatsiya qilayotganda boshqasiga e‘tibor bermasangiz.

Oliy ma‘lumotli doktor juvon:

– Chiq, tez bo‘l, vaqt ziq! – dedi charchoq ohangda.

O‘zi bo‘lsa kulay-kulay deb turibdi.

Shunday qilib, Petyushkaning ko‘zini kesdi. Kesib turib qah-qah uradi. Uning oyoqlariga ko‘zi tushganda kulgidan entikadi, hatto qo‘llari titrab ketadi.

Titroq qo‘l bilan kesish mumkin emas-ku, axir!

Nahotki inson hayotini shu qadar xavf ostiga qo‘ysalar?

Shunga qaramay, operatsiya juda yaxshi o‘tdi. Petyushkaning ko‘zida esa hech qanday shish qolmadi.

Ehtimol, shundan keyin Petyushka yaxshiroq, tozaroq paypoq kiyib yuradigan bo‘lgandir. Agar shu rost bo‘lsa, uni yana bir karra tabriklaymiz.

1927

## SHOHONA ETIK

Shu yil Qishki saroyda podsholikka tegishli har xil lash-lushlar sotildi. Savdoni muzey fondi uyushtirgan, shekilli. Bunisidan xabarim yo‘q.

Katerina Fyodorovna Kolenkorova bilan o‘sha yerga bordim. Unga o‘n kishilik samovar kerak ekan.

Negadir u yerda samovar yo‘q edi. Podshoh choyni choynakdan ichgan yoki unga oshxonadan qirralli, billur stakanga o‘xshash bir idishda choy tutishgan. Buyog‘i menga qorong‘i, faqat sotuvda samovarning yo‘qligi aniq.

Biroq boshqa narsalar ko‘p edi. O‘ziyam narsamisan, narsa-da. Ko‘zingiz qamashadi, har xil shohona pardalar, kashtali, hoshiyali yopqichlar, turli xil qadahchalar, tillarang tupdonlar, ko‘ylaklar, xullas, rango-rang shohona buyumlar. Qarab to‘ymaysan, qay birini ushlab, qay birini xarid qilishga ham hayransan.

Shunda Katerina Fyodorovna, ehtimol, samovarning puliga bo‘lsa kerak, to‘rtta ayollar ko‘ylagi sotib oldi. Nihoyatda mayin matodan tikilgan. Juda chiroyli. Shohona.

Ko‘zim ro‘yxatdagi etikka tushib qoldi. Qo‘njli, ruscha etik. O‘n sakkiz so‘m turarkan.

Savdo qilib turgan hunarmanddan so‘radim.

– Jo‘rajon, bu etiklar qanaqa etik-a?

– Odatdagi, shohona etik.

– Buning shohona ekanligini qayerdan bilaman? – deb so‘radim.

– Ehtimol, buni allaqanday kapeldiner<sup>1</sup> kiygandir. Siz bo‘lsangiz podshoniki deysiz. Bu – yaxshi emas, odobsizlik.

– Bu yerdagi hamma narsalar podshoning familiyasida bo‘lgan, – dedi hunarmand. – Biz arzimas narsani sotmaymiz.

– Tovarni ko‘rsat! – dedim.

Etikni olib ko‘rdim. Nihoyatda yoqdi: o‘lchami ham joyida. Uziyam keng emas, ingichka, ixcham, uchi, poshnasi – joyida. Qisqasi, noyob etik. O‘ziyam deyarli kiyilmagan. Ehtimol, podsho hammasi bo‘lib uch kuncha kiygandir. Tagcharmi yaltirab turibdi.

– Voy, xudoyim, – dedim, – Katerina Fyodorovna, avvallari podshohning poyabzalini orzu qilish bironing xayoliga kelarmidi.

<sup>1</sup> Teatr eshikboni.



Yoki podshohning etigini kiyib ko'chadan o'tib ko'r-chi? Voy, xudoyim, zamon qanday o'zgarib ketdi-ya, Katerina Fyodorovna!

O'ylab ham o'tirmasdan o'n sakkiz so'mni sanab berdim. Podshohning etigi uchun bu pul nima degan gap. Suv tekin.

O'n sakkiz so'mni qoldirib, podshohning etigini uyga olib keldim.

Haqiqatan ham uni kiyish qiyin edi. Paytava u yoqda tursin, paypoq bilan ham kiyish dushvor. «Baribir kiyaman», deb o'yladim.

Uch kun kiydim. To'rtinchi kun tagcharmi ko'chdi. Nafaqat tagcharmi, balki poshnasi bilan, butun quyi qavati timsohning og'zidek bo'lib ajraldi. Hatto oyog'im ham ko'rniib qoldi.

Bu murdor ish ko'chada, to'g'rirog'i Kengashlar xiyobonida ro'y berdi. Mehnat saroyi yaqinida. Tagcharmsiz Vasilyevskiy oroli orqali uyga arang yetib keldim.

Hammadai ham pulimga kuyaman. Kammi – o'n sakkiz so'm-a? Dardingni kinga aytasan. Agar bu etiklar «Skoroxod» yoki boshqa bir fabrikaning mahsuloti bo'lganda, boshqa gap edi. Bu texnik qu-sur uchun sudga berish yoki qizil direktorni ishdan haydash mumkin bo'lardi, kechirasiz, bu esa podshohning etiklari.

Albatta, ikkinchi kuni muzey fondiga bordim. Berk – savdoni allaqachon yig'ishtirishibdi.

Ermitaj yoki boshqa biror yerga kirmoqchi edim, hafsalam bo'lmay, qo'l silkidim. To'g'risi, Katerina Fyodorovna meni to'xtatib qoldi.

– Nafaqat podshohning etigi, – dedi u, – shu vaqt ichida qirolning etigi bo'lsa-da, allaqachon irib-chirib ketardi. Harqalay inqilobdan buyog'iga o'n yil o'tib ketdi-ku. Tushuning, shu davr ichida iplari ham titilib ketishi mumkin.

Haqiqatan ham, og'aynilar, o'n yil o'tibdi-ya. Hazilmi bu? Har qanday mol ham eskiradi-da.

Katerina Fyodorovna meni qanchalik ovutmasin, o'zi olgan xotin-qizlar ko'ylaklari ham chok-chokidan so'kilib, titilib ketibdi. Yana u chor tizimini og'zidan bol tomib maqtaydi.

Umuman, o'n yil o'tib ketibdi, xafa bo'lish ham kulgili.

Vaqt naqadar tez o'tadi-ya, og'aynilar! Barcha eskiliklar kunpayakun bo'lib ketyapti.

1927

## MAHSULOTNING SIFATI

Tanishim Gusevlarnikida berlinlik bir nemis yashagan edi.

Ijaraga xona olib, ikki oycha yashadi.

Allaqanday bir kichik qabila yoki xalqdan emas, Berlinda tug'ilgan haqiqiy girmon fuqarosi edi. Rus tilida og'iz ocholmaydi. Uy egalari bilan qo'l va bosh ishorasida gaplashadi.

Nemis qurg'ur, albatta juda yaxshi kiyinardi. Ko'ylaklari oppoq. Shimi ilonning og'zidan chiqqandek tikka. Ortiqcha hech nima yo'q. Bamisoli gravyura deysiz.

Shu nemis jo'nab ketgach, uy egaloriga undan ancha lash-lush qoldi. Hammasi chet elniki. Har xil shishachalar, qaytarma yoqa va qutichalar. Bundan tashqari ikki juft ko'ylak-ishton. Yana unchalik kiyilmagan jempir. Erkaklar va xonimlar pardozi uchun kerak bo'ladigan mayda-chuydani aytmasa ham bo'ladi.

Ana shularning hammasi qo'l yuvgich yonida, bir burchakka uyib tashlangan edi.

Uy bekasi Guseva xonim, ochig'ini aytish kerak, juda halol, pokiza xonim, nemis jo'nashi oldidan bitte-dritte, nahotki bu chet el buyumlarini qoldirib ketasiz, mazmunida gap qildi.

Nemis ham bitte-dritte, bu haqda gap ham bo'lishi mumkin emas, marhamat, ola qoling, ma'nosida bosh silkib qo'ydi.

Shunda xonadon egalari qoldirilgan matolarga baravariga yopirishdi. Gusevning o'zi esa qoldirilgan narsalarni ro'yxatga olib chiqdi. Albatta, u birinchi navbatda sviter va ichki ko'ylak-ishtonni o'ziga olib qo'ydi.

Ikki haftadan keyin ichki ko'ylak-ishtonni qo'lida ko'tarib, oldidan chiqqan kishiga maqtanib, nemischa mahsulotning sifati haqida valaqlab yurdi.

Haqiqatan ham bu narsalar biroz kiyilgan bo'lishiga qaramay, chet el matosi emasmi, sifatiga so'z yo'q, qarab to'ymaydi kishi.

Yana qoldirib ketilgan narsalar orasida xoka-poroshok solingan bir bidoncha, aniqrog'i yupqa bonka bor edi. Poroshok – mayin, qizg'ish. Biram xushbo'yki, allaqanday gulning hidi keladi.

Dastlabki kunning quvonch va shodiyonalaridan keyin Gusevlar poroshokning nimaligini aniqlamoqchi bo'lishdi. Hidlab ko'rishdi, chaynab ko'rishdi, olovga ham sepib ko'rishdi, lekin aniqlasholmadi.

Uyma-uy yurib qo'shnilarga, oliy o'quv yurti talabalariga va har xil ziyolilarga ko'rsatishdi, hech narsa chiqmadi.

Ko'plar bu upa deyishdi, boshqalar, yangi tug'ilgan nemis chaqaloqlarining pishgan joylariga sepiladigan talk, deya karomat qilishdi.

– Mayin, nemischa talk menga nimaga kerak, – dedi Gusev. – Yangi tug'ilgan chaqaloq ham yo'q menda. Yaxshisi, bu upa bo'la qolsin. Har kuni soqol olganimdan keyin betimga surkayman. Dunyoga bir marta kelgach, bunday madaniyroq ham yashash kerak-da.

Soqol olib, betini upalay boshladi. Har soqol olgandan keyin, betlarini qip-qizil yashnatib, atrofga hid taratib yuradigan bo'ldi.

Atrofdagilar hasaddan turli xil savollar berishadi.

Shunda Gusev yana nemislar ishlab chiqargan mahsulotni og'iz ko'pirtirib maqtashga tushadi.

– Buni qarang, tug'ilganimdan beri o'zimizning har xil ruscha upa-yu pudralarni ishlatib kelardim. Nihoyat, topildi. Bu upa tugasa, bilmadim nima qilsam ekan. Yana bir bonkacha so'rab olishga to'g'ri keladi. Xat yozaman. Juda ajoyib narsa-da! To'g'risi, shuni surkasam, huzur qilib dam olaman.

Bir oydan keyin, upa tugay deb qolganda, Gusevnikiga ziyoli bir kishi mehmon bo'lib keldi. Kechki choy oldidan u bonkadagi yozuvni o'qib ko'rdi.

Ma'lum bo'lishicha, bu burganing ko'payishiga qarshi nemischa dori ekan.

Gusev xushchaqchaq kishi bo'lmasa, bu holdan ancha noqulay ahvolga tushardi. Hatto xushchaqchaq kishi ham hech bo'lmaganda qizarib, alamdan bo'zarib, o'zini qo'ygani joy topa olmasdi. Biroq, Gusev unday emas edi.

– Buni yaxshi tushunaman, – dedi u. – Ana buni mahsulotning sifati deyilar! Olamshumul taraqqiyot. Bu xil mahsulot nihoyatda noyob va zarur. Uni ista, betingga surka, ista, burgaga sep. Hammasiga yaraydi. Bizda nima bor?

Gusev nemis ishlab chiqargan mahsulotni qayta-qayta maqtab so'zida davom etdi.

– Buni qarang-a, yana bir narsa esimdan chiqibdi. Betimni bir oydan beri upalayman, qani endi birorta burga chaqsa. Guseva xonimni bo'lsa chaqadi. O'g'illarimiz ham tuni bilan qashlanib chiqishadi. Iti-



miz Ninka ham tuni bilan g'ingshiydi. Men bo'lsam, jonim rohatda. Mazza qilib uxlayman. Hatto hasharotlar ham sifatli mahsulotni bili-sharkan. Haqiqatan ham nihoyatda...»

Hozir Gusevda kukun tugadi. Ehtimol, uni yana burga chaqayot-gandir.

1927

## SANSOLARLIK

Yaqinda Kulkov Fyodor Alokseyevich degan hurmatli bir o'rtoq byurokratizmga qarshi ajoyib tadbir ixtiro qildi. Umumdavlat ahami-yatiga molik kallasi bor-da, azamatning.

Bu nihoyatda arzon, haqiqiy tadbir bo'lib, Fyodor Alekseyevich Kulkov chet eldan bermalol patent olishi mumkin edi-yu, biroq u yoq-qa bora olmaydi-da. Chunki qadrton do'stimiz o'z ixtirosi tufayli qa-malib yotibdi. Oqar suvning qadri yo'q, deb shunga aytisharkan.

Fyodor Kulkov byurokratizmga qarshi juda o'tkir usul o'ylab topdi.

O'zingiz bilasiz, Kulkov ham ko'plar qatori nihoyatda hurmat-li bir idoraga tez-tez qatnab turardi. Albatta, shaxsiy ishi bilan. Yo bir oy, yoki ikki oycha har kuni qatnadi. Hech qanday natija yo'q. O'zini o'ldirsa ham byurokratlar unga zarracha e'tibor berishmaydi. Hatto uning ish jildini izlab ham ko'rishmasdi. Dam turli qavatlariga yo'llashadi, dam «erta keling» bilan ovutishadi. Gohida javob o'rniga to'ng'illash eshitadi.

Albatta, ularga ham oson emas. Ularning, ya'ni byurokratlarning huzuriga har kuni yuzlab shikoyatchi ahmoqona masala bilan kirib chiqadi. Beixtiyor asabiy qo'pollik paydo bo'ladi.

Faqat Kulkov bu sirni tushunmas va ortiqcha kutishni istamas edi.

«Nahotki bugun ham ishim bitmasa, – deb o'yladi u, – yana bir oydan ko'proq ovora qilishsa-ya. Hozir idora xodimlaridan bittasini topib basharasiga tushiraman. Ehtimol, shundan keyin menga e'tibor berib, ishimni hal qilishar».

Har ehtimolga qarshi, Fyodor Kulkov eng pastki qavatga kir-di. Chunki mabodo derazadan uloqtirishsa, o't-beti sinib qolmasligi uchun shunday qildi. Xonama-xona kirib chiqa boshladi.

To'satdan g'alati manzaraga ko'zi tushdi. Vena stulida o'rta yosh-lardagi bir byurokrat qo'r to'kib o'tirardi. Yoqalari toza. Bo'yinbog',



qadamlari joyida. Hech ish qilmasdan, bermalol o'tiribdi. Stulga yalpayib o'tirishdan tashqari, yengil hushtak chalar, oyoqlarini salanglartardi.

Uning bu qilig'i Fyodor Kulkovni dindand chiqarib yubordi.

«Bu nima qiliq? – deb o'yladi u, – davlat idorasi bo'l-sa, hammasida portretlar osig'liq, javonlarda kitoblar, stol-stullar qo'yilgan bo'lsa-yu, oyoqlarini salanglatib, hushtak chalsa. Bundan ortiq haqorat bo'ladimi?»

Fyodor Kulkov byurokratga uzoq qarab turdi – jahli qo'zidi. Keyin unga yaqin keldi-da, basharasiga qarab yengil tarsaki tortib yubordi.

Albatta, byurokrat vena stulidan ag'darilib tushdi.

Oyoqlari salanglamay qoldi. Faqat hushtak o'rniga baqirib yubordi.

Shunda har tomondan byurokratlar yopirilib kelib, Kulkovni o'rab olishdi.

– Men, – dedi tarsaki yegan kishi, – ish bilan qolgan edim. Ertalabdan beri kutib o'tiribman. Nahotki davlat idorasida menga nonushta o'rniga kaltakni lozim ko'rishsa, bu faktga qanday chidayman.

Fyodor Kulkov haddan tashqari ajablandi.

– Bilasizlarmi, o'rtoqlar, – dedi, – men buning shikoyatchiligini bilmabman. Byurokrat o'tirgandir deb o'ylabman. Bo'lmasa unga qo'limni ham tekkizmasdim.

Boshliq:

– U yoq-bu yoqdan Kulkovning delosi qidirib topilsin! – deya qichqirdi.

Shunda tarsaki yegan ham tilga kirdi.

– Iltimos, ayting, menikini ham qidirib topishsin. Nega endi urgan kishiga e'tibor bo'larkan? Mening ish jildimni ham izlashsin. Familiyam Obrezkin.

– U yoq-bu yoqni qarab, Obrezkinning ishi ham topilsin.

Tarsaki yegan Kulkovga yaqin kelib, uning qo'lini minnatdor qisib qo'yarkan:

– Bashara-ku topiladigan narsa, – dedi, – ana shu boqimonda ishni hal qilganingiz uchun sizdan o'la-o'lguncha minnatdorman.

Shunda zudlik bilan dalolat tuzildi, shu orada Kulkovning ishini ham olib kelishdi. O'sha zahoti ko'rsatma qo'yib, harakatga tushirib yuborishdi.

Tarsaki yeganga esa:

– Siz yigitcha bu yerga adashib kelib qolibsiz, – deyishdi – so-besga<sup>1</sup> uchrashishingiz kerak edi. Yo‘l ustidagi bino.

Tarsaki yegan:

– Unda nega mening basharamga tarsaki tushirishadi, o‘rtoqlar? – dedi. – Hech bo‘lmasa falon o‘rtoq Obrezkinning basharasiga tarsaki tushirishdi degan ma‘lumotnoma beringlar.

Obrezkinga ma‘lumotnoma berishni rad qilishdi. Shunda u Fyodor Kulkovga tashlandi. Lekin uni ajratib olishdi, shu bilan ish ham yopildi.

Kulkovning o‘zini esa ikki haftaga qamashdi. Faqat uning ishi juda oson, sansolarliksiz hal bo‘ldi.

U shundan xursand.

1927

## TABIB

Aytish mumkinki, butun umr folbin va turli qalang‘i-qasang‘i tabib-qo‘shnochlarni so‘kib kelganman.

Endi esa mum tishlab qoldim.

Juda ibratli va hayratangiz bir ish bo‘lib o‘tdi.

Qiziq, barcha mediklar bu qizchani davolashdan bosh tortishdi. Hech narsani bilmaymiz, deya yelka qisib qo‘yishdi. Tibbiyot go‘yo bunga ojizdek.

Shunda o‘rta ma‘lumotga ham ega bo‘lmagan yoki bezori, qisqasi, oddiy bir kimsa qizchani o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi-yu, betobligining sabblarini ochiq-oydin aytib berdi.

Bu voqea qizaloq oldida ro‘y berdi.

O‘n uch yoshlardagi uvoqqina qizcha. Uni o‘g‘il bolalar qo‘rqitishgan. U o‘z shaxsiy ishi bilan hovliga chiqqanda, shumtaka o‘g‘il bolalar hazillashib, qo‘rqitmoqchi bo‘lishibdi. Qizchanning ustiga o‘lik mushukni tashlashadi. Natijada qizcha gapirish qobiliyatini batamom yo‘qotadi. Shundan keyin u bir so‘z ham ayta olmaydigan bo‘lib qoladi. Bir nimalar deb g‘o‘ldiraydi, lekin hech narsa anglab bo‘lmaydi. Hatto ovqat ham so‘ray olmaydi.

---

<sup>1</sup> *Sotsialnoye obespecheniye* – ijtimoiy ta‘minot demoqchi.

Qizchanning ota-onasi unchalik ilg'or emas. Inqilobning oldingi saflarida bo'lishmagan. Ular kambag'al, hunarmand edilar. Etikka ip qilishardi. Qizcha esa shu ipni yigirib berardi. Tinmay charx aylantirardi. Endi na aylantira oladi, na gapiradi.

Ota-onasi uni uzoq muddat vrachdan vrachga olib yurishdi. Bo'lmadi. So'ng maxsus bir kishi huzuriga olib borishdi. Albatta u na professor yoki na tibet tibbiyotining vrachi edi. Qisqasi, oddiy, tug'ma tabib edi.

Shunday qilib, ular o'z bolalarini shu mutaxassisga ko'rsatish maqsadida Shuvalovoga olib kelishdi. Bor gapni aytib, yordam so'rashdi.

– Mana, gap mana bunday, – dedi tabib, – go'daklaringiz so'zlash qobiliyatidan qattiq qo'rquv tufayli ajralgan. Menimcha, shunday. Hozir men uni yana qaytadan qattiq qo'rqitaman. Ehtimol, shunda u qaytadan tilga kirar. Inson organizmi har xil hayratlarga mo'lik. Vrachlar, hatto dono professorlar ham inson organizmida nimalar sodir bo'lishini ochiq-oydin ayta olmaydilar. Men ham xuddi shunday, o'shalar bilan hamfikrman. Kimning jigari qayerda, kimning talog'i qayerda, ochiq ayta olmayman. Birovniki – mana bu yerda, boshqa birovniki – ana bu yerda. Birovning ichagi og'riydi, boshqa birov gapirish qobiliyatini yo'qotgan. Holbuki, tili og'zida qimirlab turibdi. Faqat dardning qayerdaligini aniqlab, sababini bilib, uni tarasha bilan urib chiqarish kerak. Mening kuch-quvvatim ham, bilimim ham ana shunda. Men eng avvalo kasallikning sababini aniqlayman.

Ota-ona qo'rqib ketib, qizaloqni tarasha bilan urmaslikni iltimos qilishdi.

– Nima? E, yo'g'-e! – dedi medik. – Men tarasha bilan hecham urmayman. Aksincha paxmoq yoki patli sochiq olaman, sochiqni yo-zib, sizning nuridiydangizni unga o'tqizaman. U uch minutcha o'tiradi. Shundan keyin men eshik orqasidan yugurib chiqib, to'satdan «Vax!» deya sochiqni qattiq tortaman. Ehtimol, u qattiq qo'rqib, menimcha, qaytadan tilga kirar.

Shunda u javondan o'sha paxmoq sochiqni olib, qizchani belgilangan joyga o'tqizdi-da, o'zi tashqariga chiqdi.

Oradan ikki daqiqacha o'tgach, sekin qizchaga yaqin kelib, qulog'i ostiga to'satdan «Vax!», deb yubordi.

Qizcha qichqirgancha orqaga ag'darilib tushdi.

Bilasizmi, gapirib yubordi.

Shundayam tez va ko'p gapiradiki, asti so'ramang. Otasiga mahkam chirmashib olgan. Nuqul uyimga ketaman deydi. Qarashlari ham allaqanday bezovta va tentakona.

– Nahotki shundan keyin qizimiz tentak bo'lib qolsa-a? – deb so'rashdi ota-onasi.

– Buni ayta olmayman, – dedi tabib. – Mening ishim so'zlashuv qobiliyatini tiklash. Mana, ko'rib turibsiz, bunga erishdim. Hatto meni sizning uch so'mingiz ham qiziqtirmaydi. Meni qiziqtiradigan narsa – natija!

Ota-ona uch so'm berib chiqib ketishdi.

Qizaloq chinakamiga gapira boshladi. Faqat aqliy jihatdan jinday qusurliga o'xshab qolgan edi. Harqalay, qanday yozsa, shunday gapira olardi.

1928

## MOJARO

Ligov poyezdi hecham ildam yurmaydi. Bu – yo'lning mazasi yo'qligi yoki semafor'larning haddan ko'pligi uchun bo'lsa kerak. Bunisi menga qorong'u. Faqat poyezdning yurishi o'ta sekin. Imillagan. Ochig'i, shu poyezdda ketishning o'zi haqorat. Albatta, imillab yuradigan poyezdda zerikishdan yuraging tars yorilay deydi. Ochig'i, nima qilishingni ham bilmas ekansan.

Odamlarga qarash esa unchalik odobdan emas. «Ha, namuncha tikilib qolding? Tanimayapsanmi?», deb xafa bo'lishlari mumkin.

O'z ishing bilan esa qachongacha shug'ullanasan. Misol uchun, o'qish mumkin emas. Chiroq nihoyatda xira. Buning ustiga juda balandga osilgan, tepada shiftga yaqin yerda bamisoli cho'g'day miltiraydi. Qaraganda kishining yuragi siqilib, boshi aylanib ketadi.

Chiroq haqida gapirmasa ham bo'lardi. Chunki bu kulgili mojaro kupp-kunduzi ro'y berdi. Aytganday, kunduzi ketish ham kechqurungidan beshbattar.

Shunday qilib, chekmaydiganlar vagonida Feklusha ham bor edi. Fekla Timofeyevna Razuvayeva. U tovar olish uchun Ligovdan Leningradga borayotgan edi. Chunonchi, u Ligov vokzalida olma va pis-

<sup>1</sup> Temir yo'lda svetofoz vazifasini bajaruvchi chiroq.



ta sotardi. Shunaqa, ana shu Feklusha o'zicha Shchukinga borayotgan, to'g'risi o'sha yerdagi bozordan biror quti sal-pal zaxa yegan olma olish niyatida edi.

Feklusha vagon oynasi yonida joylashib olib, Ligovdan jo'nab ketdi. Mana, ketib boryapti.

Ro'parasida Fedorov Nikita joylashgan. Yonida sug'urta idorasida ishlovchi Anna Ivanovna Blyudechkina o'tiribdi. Hammalari Ligovdan ishga ketishyapti.

Ligovdan sal yurilgach, yangi yo'lovchi chiqdi. Harbiy. Yoki bir so'z bilan aytganda, qo'nji baland etiklilardan.

U hozirga qadar vagon yo'lagida tik turib kelayotgan edi. Fekla Timofeyevna Razuvayevaning yonginasidagi burchakka kelib tiqildi. Bemalol joylashib olib ketyapti.

Fekla Timofeyevna xotirjam, yalpayib o'tirib olib, ro'molini ohib, qayta bog'ladi, so'ng savdo-sotiq ishlarini o'ylab, shirin xayol surib keta boshladi. Misol uchun, bir qutida qancha antonovka olmasi bo'lishi va uni pullaganda... va hokazo.

So'ng oynadan tashqariga qaradi.

Fekla Timofeyevnani mudroq bosdi. Vagondagi issiq harorat yoki oynakdan chopib, lipillab o'tayotgan bir xildagi zerikarli tabiat manzaralari Fekla Timofeyevnaga ta'sir etib, uni elitgandek bo'ldi. Esnab qo'ydi.

Birinchi marta yomon esnamadi. Ikkinchi marta esnaganda og'zi katta ochilib, hatto tishlarini bemalol sanash imkoni tug'ildi. Uchinchi marta og'zi yanada katta ochilib, maza qilib esnadi. Shu payt biqinida o'tirgan harbiy kishi etmay-ketirmay ko'ngilchanlik bilan uning ochiq og'ziga barmog'ini tiqdi. Hazillashdi. Biror kishi ust-ustiga esnasa uning og'ziga barmoq tiqish udumi azaldan yo'q emas. Bu, albatta, o'zaro tanishlar – haqiqiy do'stlar yoki xotin tomon qarindoshlar orasida bo'lishi mumkin. Bu kishi esa batamom notanish. Yetti yot begona. Fekla Timofeyevna uni birinchi marta ko'rib turgan bo'lsa.

Shuning uchun Fekla Timofeyevna juda qo'rqib ketdi. Shu qo'rquv tufaylidan beixtiyor jomadonini bekitib qo'ydi va ayni paytda harbiy kishining barmog'ini «g'arch» etib tishlab oldi.

Harbiy kishi dahshat bilan qichqirib yubordi. Bor ovozda so'kina boshladi. Go'yo barmog'ini uzib olgandek. Holbuki, barmog'i uzib olinmagan, salgina tishlangan edi. Qon ham unchalik ko'p emas, yaram stakancha ketgan edi, xolos.

Adi-badi boshlanib ketdi. Harbiy kishi:

– Axir, men hazillashdim, – dedi. – Hazilga shunchalikmi? Agar men sizning tilingizni sug‘urib olmoqchi bo‘lsam, mayli tishlang edi. Roziman. Lekin men harbiy kishiman. Har qanaqa yo‘lovchiga barmog‘imni tishlatib qo‘ymayman. Buning uchun hech kim menga rahmat ham demaydi.

Fekla Timofeyevna:

– Voy, voy, anovini qaranglar-a, – dedi, – agar tilimni ushlaganingda bormi, butun qo‘lingni uzib olgan bo‘lardim. Tilimga chang soladiganlarning ko‘pini ko‘rganman.

Fekla Timofeyevna, kim biladi barmog‘ing iflosdir, bir nimalarni ushlagandirsan, yuviqsiz bo‘lishing mumkin, tozalikka xilof ishlarni qilish yaxshi emas-da, deya javrar, ust-ustiga yerga tupurardi.

Shu asnoda ularning bahs-munozarasi o‘z-o‘zidan to‘xtab qoldi. Leningradga yetib kelingan edi. Fekla Timofeyevna harbiy kishiga yana bir bor to‘ng‘illadi-da, Shchukin tomon yurib ketdi.

1928

## ILMIY HODISA

Yaqinda bizlarning Gavanda g‘alati bir voqea ro‘y berdi. Ko‘chadan o‘tib ketayotgan edim, qaragam xarobazorda odamlar to‘planishyapti.

– Nima gap? – deb so‘radim.

– Nima bo‘lardi, – deyishdi, – yer ostida ajoyib bir hodisa ro‘y beryapti. Yo‘q, zilzila emas, allaqanday yer osti kuchi odamlarni titratyapti. Biror kishi ham ana bu ko‘lmak atrofiga, ya‘ni titratadigan yerga qadam bosa olmaydi. Silkinish ro‘y beradi.

Bolalar bo‘lsa o‘tgan-ketganlarni u yerga itarib, o‘zlari ahmoqona tomosha ko‘rishyapti. Qurib ketgurlar meni ham yo‘llashsa bo‘ladimi.

Kimki u yerga qadam bossa, beixtiyor titrab ketadi. Umuman, u yerda turishning sirayam iloji yo‘q, juda og‘ir.

Shunda kimdir:

– Harqalay yer ostida kabel uzilganga o‘xshaydi, – dedi, – tok nam yerdan o‘tsa, shunaqa bo‘ladi. Buning hech qanday ajablanadigan yeri yo‘q.

Ikkinchi bir kishi:

– Men o‘zim sobiq elektrotexnikman, – dedi. – Birda nam qo‘lim bilan yoqqichni ushlagan ekanman, shunaqayam qoqib tashladiki, asti so‘ramang. Bu ilmiy hodisa ko‘lmakda, ayniqsa, oson ro‘y beradi.

Odamlar hamon ko‘payib borardi.

Qarashsa, militsioner kelyapti.

Kimdir:

– To‘xtanglar, og‘aynilar, – dedi, – hozir uni ham bir boplaymiz. Uyam bir titroqqa tushsin, axir.

Militsioner o‘sha xavfli yerga yurib kela boshladi.

– Nima gap? – dedi u. – Qanaqa yer osti hodisasi ekan? Qani, tarqalinglar...

Shunday degancha o‘sha xavfli yerga qadam bosdi. Qarasak, xavfli yerni bosib turibdi – hech qanday silkinish ham, titroq ham ro‘y bermadi. Militsioner xotirjam.

Shunda dastlab xaloyiq angrayib qoldi. Nega endi hammani titratadi-yu, militsionerni yo‘q. Nima gap? Nahotki fanda ham shu xil g‘ayriqonuniy qoidalar bo‘lsa?

Militsioner qattiqqo‘llik bilan o‘sha xavfli yerni boshdan-oyoq yana bir qadamlab chiqdi-da, odamlarni hayday boshladi.

Shunda kimdir:

– Axir og‘aynilar, uning kalishi bor-ku! – deb baqirdi. – Rezina elektr quvvatini o‘tkazishga haqqi yo‘q!

Unga qarshi militsioner hech narsa demadi, aksincha xaloyiqqa bir o‘qrayib qaradi-da, oyog‘idan kalishini yechib, ko‘lmakka yaqin keldi. Qarang, u ham qattiq titrab ketdi.

Shundan keyin xaloyiq xotirjam tarqala boshladi. Birozdan keyin elektromontyor kelib yerni kovlashga tushdi.

Xaloyiq tarqalgach, militsioner yana bir marta kalishsiz o‘sha yerga yaqinlashdi, tag‘in titradi.

Shundagina u ilmiy hodisaga qanoat hosil qilgandek bosh qimirlatib qo‘ydi-da, o‘zi turadigan chorrahaga qarab ketdi.

1928

## MUSHUK VA ODAMLAR

Qurib ketsin, pechkam juda yomon-da. Butun oilam bir necha bor isdan zaharlandi. Baloga yo'liqqur Jak<sup>1</sup> bo'lsa, tuzatib berishni xayoliga ham keltirmaydi. Tejamkor-da. Ortiqcha chiqimga toqatlari yo'q.

Yaqinda pechkamni tekshirib ko'rdilar. Mo'rini ko'zdan kechirishdi. Boshlariniyam tiqib qarashdi.

– Hojati yo'q, yashasa bo'ladi, – dedilar.

– Axir, o'rtoqlar, – dedim, – yashasa bo'ladi, deyishning o'zi uyat-ku. Qanaqasiga yashasa bo'larkan. Ana shu pechkalaringiz tufayli bizni bir necha bor is tutdi. Hatto mushuk ham zaharlangan. Jonivorningan ko'ngli aynib, chelakka kirib ketuvdi. Yana yashasa bo'ladi, deysizlar-a.

Jak raisi:

– Unda hozir pechkangizni yoqib, tajriba o'tkazamiz, – dedi, – ko'raylik-chi, is chiqararmikin. Agar yoqilgandan keyin bizni is tutsa – sizning baxtingiz. Agar is tutmasa pechkani yoqqaningiz uchun sizdan uzr so'raymiz.

Pechkani yoqdik. Uning atrofida tizilib o'tiribmiz.

Pechka gurillab yondi. Hidlaymiz.

Mo'ring og'zida rais o'tiribdi, kotib Griboyedov ham unga yaqin yerda, xazinachi bo'lsa mening karavotimda o'tiribdi.

Albatta, tez orada butun xonaga is tarqala boshladi.

Rais hidlab turib:

– Yo'q, – dedi. – Sezilmayapti. Faqat issiq oqim kelyapti, xolos.

Qurbaqaga o'xshash xazinachi:

– Juda ajoyib havo, – dedi, – bemalol hidlasa bo'ladi. Bundan kallaga hech qanday zarar yo'q. Mening uyimda havo juda rasvo. Shunga qaramay, bekorga nolimayman-ku. Bu yerda bo'lsa batamom o'zgacha, ajoyib, qaymoqday havo.

– Kechirasiz, unchalik ham emasdir, – dedim, – hali gaz chiqsin, keyin ko'rasiz.

Rais bo'lsa:

– Mushukni chaqiring, – deb buyurdi. – Agar mushuk ham tinch o'tirsa, demak hech vaqo yo'q. Hayvonlar bu masalada nihoyatda sezgir bo'ladi. Mushuk – odam emas. Bemalol unga ishonsa bo'ladi.

<sup>1</sup> Uydan foydalanish idorasi demoqchi.



Mushuk keldi. Karavotda o'tiribdi. Tinchgina. Tinchgina o'tirishidan ancha ko'nikib qolganga o'xshaydi.

– Yo'q, – dedi rais, – pechkani yoqqanimnz uchun Sizdan uzr so'raymiz.

To'satdan xazinachi karavotda chayqalib ketib:

– Bilasizlarmi, zarurat uchun tashqari chiqqim kelyapti, – dedi.

U shunday deganicha derazaga yaqin borib, tirqishdan nafas ola boshladi. Ko'karib ketgan, oyog'ida zo'rg'a turardi.

Rais ham:

– Hozir hammamiz birga ketamiz! – dedi.

Uni deraza oldidan nariroq itardim.

– Ekspertizani bunaqa o'tkazish yaxshi emas, – dedim.

– Marhamat, – dedi, – chetlashishim mumkin. Uyingizdagi havomen uchun juda foydali. Tabiiy. Salomatlik uchun batamom yaroqli havomen. Ta'mir qila olmayman. Pechkangiz joyida.

Yarim soatdan keyin shu raisni zambilga solib, «Tez yordam» aravasiga ortar ekanmiz:

– Xo'sh, qalay? – deb so'radim undan.

– Yo'q, – deydi u ingrab, – ta'mir bo'lmaydi. Bemalol yashash mumkin.

Shunday qilib tuzatishmadi.

Nima ham qilardim? Ko'nikyapman. Axir odam kana emas – hamma narsaga ko'nikishi mumkin.

1928

## CHET ELLIKLAR

Chet ellikni o'zimizning sovet fuqarolaridan hamisha osongina farqlay olaman. Ularning, chet ellik burjuylarning basharasi o'ziga xos. Ularning basharasi bizlarnikiga qaraganda boshqacharoq, beti qilt etmaydi, jirkanch bir harakat muhrlanib qolgandek. Aytaylik, ularning yuz ko'rinishlari shunday ifodaga egaki, shu ifoda bilan ular bemalol boshqa narsalarga ham qarayveradilar.

Ko'pgina chet elliklar o'zlarini tutib turish uchun ko'zlariga monokl<sup>1</sup> taqishadi. Go'yo, bu oyna qanday holatda bo'lmasin qimir etmay ko'zda turaveradi.

<sup>1</sup> Bir ko'zga tutiladigan ko'zoynak.

Adolat bilan aytganda, bunga qoyil qolish kerak.

Bu faqat chet elliklar uchun chiqarilgan, xolos. Ularning burjuvcha hayoti nihoyatda bezovta. Burjua axloqi ularning tabiiy yashashiga yo'l bermaydi. Shu xil tutim bo'lmasa ular tezda sharmanda bo'lishlari mumkin.

Masalan, bitta chet ellikning tomog'iga suyak tiqilib qoldi. Tovuq yeb turib, keraksiz narsani ham yutib yuboribdi. Voqea e'tiborli bir ziyofatda ro'y beribdi. Bu haqda menga savdo vakolatxonasida ishlovchi bir tanishim aytib bergan edi.

Aytdim-ku, bu voqea e'tiborli bir ziyofatda ro'y bergan. Hamma-yoqdan militsionerlar tashrif buyurgan. Stulda Ford o'tiribdi. Atrofida boshqalar.

Bilasizmi, shunda haligi odam suyak yutib yuborsa bo'ladimi.

Albatta, bizning nuqtayi nazarimizdan qaraganda bu unchalik uyatli ish emas. Yutgan bo'lsa yutgandir-da. Bizda bu masala zudlik bilan hal etiladi. Tez yordam. Mariinsk kasalxonasi. Yoki Smolensk qabristoni.

Ularda esa bunday emas. Kazo-kazolar to'plangan, nufuzli jamoat. Atrof to'la militsionerlar. Stulda Ford o'tiribdi. Hammasi frakda. Xonimlar. Ikki yuztadan ortiq chiroqli ulkan qandil nur taratib turibdi.

Shu vaziyatda odamning tomog'iga suyak tiqilib qoldi. Hozir aksirsa kerak. Yo'q, o'qchiydi. Tomog'ini ushlaydi. Voy, parvardigorim-e! Qurib ketsin, juda noqulay holat.

Stoldan turib, xojatxonaga qarab yugurish ham noqulay – odobdan emas. «Ha-ha, shamollaging kepqopti-da», deb o'ylashlari mumkin. U yerda sirayam mumkin emas.

O'sha tomog'iga suyak tiqilgan fransuz dastlab, albatta o'lgudek dahshatga tushdi. Tomog'ini ushlab, uqalab ko'rdi. So'ng basharasi bo'rdek oqarib ketdi. O'z stulida enkayib qoldi. Biroq tezda o'zini qo'lga oldi. Bir daqiqadan so'ng jilmaydi. Xonimlarga havoyi bo'salar jo'nata boshladi. Uy bekasining stol ostida yurgan jajji itini siypalab qo'ydi.

Mezbon unga fransuzchalab:

– Kechirasiz, – dedi, – ehtimol ko'ngilga yoqmaydigan biror nima yeb qo'ydingizmi? Tortinmasdan, to'g'risini aytavering.

Fransuz beparvolik bilan:

– Koman? – dedi. – Nima gap? Kechirasiz, nima demoqchisiz? Sizning tomog'ingiz qandayligini bilmayman-u, lekin meniki joyida.

Yana havoyi tabassumlar yo‘llay boshladi. So‘ng fransuzcha ovqatga qo‘l cho‘zib, bir miqdorchasini yeb qo‘ydi.

Bir so‘z bilan aytganda, ziyofat oxirigacha hech kimga sir bermay o‘tirdi.

Faqat stoldan turayotganda u yengil chayqalib, biqinini ushladi. Ehtimol, o‘sha yeriga bir nima sanchilgandir. Tezda o‘zini o‘nglab oldi.

Mayda burjuacha urfiyatga ko‘ra, mehmonxonada uch daqiqacha o‘tirgach, dahlizga chiqdi.

Dahlizda ham shoshilmasdan uy bekasi bilan suhbatlashdi, qo‘lchalarini siypab, iltifot ko‘rsatdi, keyin tiqilgan suyagi bilan egi-lib, stol ostidan kalishini olib kiydi. Ketdi.

Zinapoyadan esa, albatta, juda shoshilib tushdi.

Foytuniga tashlanib:

– Hayda! – deya qichqirdi, – keksa tovuq, kasalxonaga hayda!

O‘sha fransuz o‘lib ketdimi yoki yashayaptimi, buni aniq ayta olmayman. Ehtimol, yashayotgandir. Ja, joni qattiq millat-da!

1928

## G‘OLIBIYAT

G‘alati bir voqea. Ikki odam mushtlashib qolishdi. Ikki odam urishdi-yu, kuchsizi, to‘g‘rirog‘i, butunlay zaif, betiga yara-chaqa toshgan o‘smir o‘zidan o‘n hissa baquvvat kishini do‘pposladi.

Kishining ishongisi ham kelmaydi. O‘rtoqlar, qanaqasiga kuchsiz bir o‘smir ximiya va fizikaning asosiy qonunlariga xilof ish qila oladi? Aldagandir? Yoki o‘sha firib bergandir?

Yo‘q! Faqat uning shaxsiyati ustun keldi. To‘g‘risini aytsam, mardligi. Ana shu tufayli u o‘z raqibini ura oldi.

Aytdim-ku Sizga, ikki kishi mushtlashdi deb. Ulardan biri budyoniychasiga mo‘ylov qo‘ygan, tepaday bir erkak, ya‘ni g‘avvos, o‘rtoq Filippov. Ikkinchisi – oliy o‘quv yurti talabasi, nimjon yigitcha. Ancha ma‘lumotli, ziyolinamo talaba. Buning ustiga u mashhur sovet romanchisi Malashkin bilan familiyadosh.

G‘avvos Filippov, hali aytganimdek, o‘ta kuchli bir gabr. Zotan, g‘avvoslikka kuchsiz kishilardan foydalanishmaydi, shuning uchun ham u devday baquvvat edi.

— Talaba bo'lsa, jikkakkina, juda nochor bir shaxs. Ko'rinishi ham aytarli emas. Basharasiga allanimalar toshgan. Ehtimol, shirincha bo'lsa kerak. Bunisi menga qorong'i.

Shunday qilib mushtlashishdi.

Faqat shuni aytilish kerakki, ular o'rtasida sinfiy kurash yo'q edi. G'oyaviy kelishmovchiliklar ham bo'lmagan. Ikkalasinig ham ijtimoiy kelib chiqishi tub proletariatdan. Qo'pol qilib aytsa, o'zaro qiz talashib qolishdi! Ajab bir kulgili ahvol.

Shurochka degan qiz bo'lardi. Yomon emas, o'rtacha. Og'izchasi, burunchasi hammasi joyida. Atrofdagi qizlardan ajralib turadigan biror-bir tomoni kuzatilmagan.

Inqilobning o'n ikkinchi yilida g'avvos, o'rtoq Filippov uni qattiq yaxshi ko'rib qolgan edi.

Qiz ham u bilan biroz yurdi-da, keyin yarim ziyoli tomon og'ib ketdi. Malashkinga aylanishdi. Ehtimol, Malashkin unga so'zamolroq tuyulgandir. Yoki uning qo'llari tozaroqmikin. Buyog'i menga qorong'i. Faqat qizning uni degani aniq.

Yigit esa o'z qismatidan ko'pam xursand emas edi. Chunki, qarasa, raqibi judayam qo'rqinchli. Shunday bo'lsa-da, sir bermadi. O'z xonimchasi bilan ochiqchasiga yurib, uni turli joylarga yetaklab yuraverdi.

Tabiiy, g'avvos uning g'ashiga tegardi. To'g'risi, nafas olgani, rangini chiqqani qo'ymasdi.

Uni har xil bo'lmag'ur nomlar bilan atab, masxaralardi. Gohida hech qanday sababsiz ko'krigidan itarib yuborardi. Hamisha shunday.

— Qani, buyoqqa chiq! — derdi, — kallangni sapchaday uzib olaman!

Bechora talaba nima qilsin, chidaydi. So'zsiz nari ketadi.

Bir kuni hovlida anchagina yigitlar to'planib turishardi. Hamma boshqarma shu yerda: a'zolari ham, nazorat komissiyasi ham. G'avvos esa bir chetda turibdi. Shu payt Kostya Malashkin o'z Shurochkasi bilan hovliga kirib keldi. G'avvos nazorat komissiyasiga atay eshittirib:

— Basharasiga qarang, u moxovning, — dedi, — endi xonimchasini eshikkacha kuzatishga odatlanibdi.

Shunda talaba xonimini eshikkacha kuzatib; iziga qaytdi.

U iziga qaytib, davraga yaqin keldi va o'rtoq g'avvosning basharasiga to'satdan musht tushirdi. G'avvos bu xil bezbetlikdan hayron qoldi va o'z navbatida talabani urib yubordi. Talaba yerga qapishdi.



G'avvos yugurib kelib uning qorniga urdi, yana kerakli, keraksiz joylariga tushira boshladi.

Albatta, nazorat komissiyasi a'zolari g'avvosni talabadan zo'rg'a ajratib olishdi, talabani arang oyoqqa turg'izishdi. Pachoqlangan ko'ksini qor bilan ishqalab, o'ziga keltirib, uyiga oborib qo'yishdi.

U o'ziga keldi, kechqurun toza havodan nafas olgani tashqari chiqdi.

Toza havodan nafas olib, iziga qaytayotgan edi – g'avvosni uchratib qoldi. Shunda u g'avvos tomon tez-tez bordi-da, yana uning basharasiga musht tushirdi.

Bu gal nazorat komissiyasi yo'q edi, shuning uchun g'avvos, o'rtoq Filippov bizning talabani xumordan chiqquncha dazmolladi. Uni shinelchasiga solib uyiga oborishdi.

Oradan bir yarim haftalar chamasi o'tdi. Talaba tamom sog'ayib, o'z oyog'ida uy yig'iniga bordi.

Yig'indan qaytayotib, yo'lda yana g'avvosni uchratib qoldi.

G'avvos uni ko'rmaslikka olib chetga burilib ketmoqchi edi, lekin u yaqinlashib borib, to'satdan uning lunjiga musht tushirdi.

Shunda ahvol battar xunuklashdi. Talabani ag'anatishdi, dumalatishti, hamma yeriga urib po'la qilishdi. Uni yana shinelchasiga solib uyiga olib ketdilar.

Faqat bu gal uning ahvoli nihoyatda og'ir edi. Aytishlaricha, talabaning oyoqlari ishlamay qolibdi.

Bu voqea ko'klamda bo'lgan edi. Chechaklar ochildi, qushlar sayradi. Bizning ardoqli talabamiz shu janjaldan keyin har kuni ochiq deraza oldida o'tirar, dam olardi. G'avvos ham unga yaqin kelgach, doimo chetga burilib ketardi. G'avvosda g'alati bir qiliq paydo bo'ldi. Odamlar, hatto nazorat komissiyasi a'zolari unga yaqinlashganda, u beixtiyor qaltirar, go'yo birov basharasiga musht tushiradigandek boshini orqaga olib gochardi.

Ikki haftalardan keyin talaba tuzalib chiqib, yana uch marta g'avvosni urdi. Shundan ikki martasida unchalik qattiq bo'lmasa-da, o'zi ham kaltak yedi.

Uchinchi gal – oxirgisida g'avvos javob qilmadi. Faqat musht tushgan basharasini kafti bilan artib olib:

– Men Sizning oldingizda taslimman! – dedi. – Siz tufayli, o'rtoq Kostya Malashkin, sochimdan timnog'imgacha vahshiyga aylanib qoldim. Sizdan o'tinib so'rayman, iltimos, meni boshqa urmang.

Shunda bir-birlari bilan kelishib olib, do'stona xayrlashishdi.

Tez orada talaba o'z Shurochkasidan ajraldi. G'avvos esa «Qora shahzoda» sharafiga uchun sho'ng'ish niyatida Qora dengizga jo'nab ketdi.

Bor gap shu.

Demak, kuch-kuch bilan-u, lekin zo'rga qarshi yana allanima ham kerak ekan.

1929

## KO'RILMAGAN TOMOSHA

Bu mayda voqea, albatta dunyoviy ahamiyatga ega emas. Ayrim mayda kishilar esa, bu yerda gap nimadaligini hatto tushunishmaydi ham.

Masalan, kamzulining bir cho'ntagida kumush tangalar jiringlab turadigan nepmanning ham bu voqeaga osonlikcha aqli yetmasa kerak.

Biroq bunga bel bilan pul kovlab chiqara olmaydigan oddiy ishchilar yaxshi tushunishadi. Shu xil kishilar Vasiliy Ivanovichni yaxshi tushunishadi, hatto unga hamdardlik ham bildirishadi.

Ish Vasiliy Ivanovichning teatrga chipta olishidan boshlandi.

Maosh olgan kuni Vasya teatrga kirib, bekorga harakat qilib qo'ymaslik uchun oldindan o'n oltinchi qatorga chipta sotib oldi.

U bir oqshom madaniy hordiq chiqarishni ko'pdan orzu qilib yurardi. Shuning uchun ko'zini chirt yumdi-da, bir chervon cho'zdi. Faqat chiptachi tangalarni jiringlatib sanayotganda tilini tanglayiga tekizib g'alati ovoz chiqardi.

Mazkur spektaklga Vasiliy Ivanovich jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. Yuvindi, soqolini oldi, bo'yinbog' bog'ladi.

Oh, oh, Vasiliy Ivanovich, Vasiliy Ivanovich! Sening ham olijanob qalbing tirikchilik tashvishlaridan orom olarkan-ku! Turmush ikir-chikirlarini oldindan ko'ra olasanmi? Sening po'lat qo'llaring bo'yinbog' bog'laganda nahotki titramagan bo'lsa?

Oh-oh! Naqadar ayanchli, naqadar qayg'uli hodisalar bo'lmas ekan, bu yorug' olamda.

Spektakl kuni Vasiliy Ivanovich juda xursand va shod-xurram kayfiyatda teatrga yo'l oldi.

«Boshqa sho'rliklar, – deb o'yladi u, – o'z umrini ishxonalarda, ichkilik va tamaki hidi bijg'igan joylarda o'tkazishyapt. Sen bo'lsang,

qo'lingda chipta. Teatrda boryapsan. Issiq, hammayoqda ziyolicha sarishtalik. Chiptaning bahosi – bir so'm».

Vasiliy Ivanovich teatrda yigirma daqiqa oldin yetib keldi.

«Yechinishdan oldin, – deb o'yladi u, – hali vaqt bor, bo'yinbog'ni boshqatdan yaxshiroq bog'lab olsa bo'ladi».

Aziz do'stimiz Vasiliy Ivanovich yechinar ekan, devordagi yechinish uchun kishi boshiga yigirma tiyindan, degan e'longa ko'zi tushdi.

Vasiliy Ivanovichning yuragi uvishib ketdi.

«Buncha pulim yo'q-ku, – deb o'yladi u. – Chiptaning puli to'liq to'langan bo'lsa. Boshqa yo'q. Sakkiz tiyin chiqsa kerak. Agar aytganini to'lamasa kiyimlar nima bo'ladi? Palto, kalishni yechib, qalpoqda o'tirishga to'g'ri kelar».

Qadrli do'stimiz Vasiliy Ivanovich kiyimi va kalishini yechib, to'siqdan nariga uzatib:

– Kechir, amaki, – dedi, – maydam kam edi. Sanamasdan shuni olaqol.

Kiyim iladigan joyda aksiga olib, ziqna bir kishi turardi. U mayda pulni tezda sanab chiqdi.

– Sen itvachcha, nega mening qo'limga olti tiyin tutqizasan? – dedi. – Bu chaqalarning evaziga kalishing bilan basharangga tushirishim mumkin!

Baqiriq-chaqiriq. Ular o'rtasida bahs boshlanib ketdi. Kiyim qabul qiladigan:

– Sening bu mayda pullaring evaziga iflos kalishingga qaraymanmi? – dedi. – Ket bu yerdan, aks holda biror kor-hol ro'y bersa men javobgar emas.

Vasiliy Ivanovich:

– Sen iflos ko'p baqirma, menga, – dedi alam bilan. – Burjuylar ko'z oldida obro'yimga til tekkizma. Shu holicha kiyimimni qabul qilaver, qolganini ertaga obkelib beraman.

– Sen meni burjuylar bilan qo'rqitma, – dedi u. – Hech kimdan qo'rqmayman. Yo'qol bu yerdan, iflos arabvachcha!

Shunda boshqa kiyim iladiganlar ham bahsga aralashib ketishdi. Ular olti tiyinni qo'lga qistirish mumkinmi, degan masala yuzasidan qizg'in munozara boshlab yuborishdi.

Vaqt bo'lsa o'tib borardi. Oxirgi tomoshabinlar zalga yugurib qolishdi. Tomosha boshlandi.

Vasya aytishgan kishi kiyim iladigan to'siq orqasida turib:

– Bu tekinox‘r, kelgusi gal o‘z ilgichi bilan kelsin! – deb to‘ng‘illardi. – O‘zi ilib, o‘zi qo‘riqlasin.

Vasiliy Ivanovich alamdanda sal qoldi yig‘lab yuborishiga.

– Eh, sen qari chayon, – dedi. – Sening bu gaplarning uchun soqolingni bittalab yulishim mumkin.

Shunda Vasiliy Ivanovich tezda paltosini kiyib, kalishini va qalpog‘ini qo‘lga olib, eshik tomon shoshildi. Kiyimda qo‘yishmadi.

– Og‘aynilar, hurmatli o‘rtoqlar, – dedi Vasiliy Ivanovich, – mana, qaranglar, chiptam bor, axir. Nazorat chizig‘ini yirtib olib, qo‘yib yuboringlar.

Yo‘q, qo‘yishmadi.

Haqiqatan ham Vasiliy Ivanovich nima qilishini bilmay qoldi. Spektakl davom etardi. Musiqa yangrab turibdi. Chipta qo‘lda, lekin o‘tib bo‘lmaydi.

Vasiliy Ivanovich tezda yechinib, kiyimlarini o‘rab, tugun qildi-da, eshikka yo‘naldi. Yana qo‘yishmadi.

– Hali siz, paryostiqlar ham olib kirarsiz, – deyishdi.

Vaqt o‘tib borar, musiqa gumburlardi. Nihoyat, antrakt boshlandi – Vasiliy Ivanovich batamom umidsizlandi. Yana o‘sha kiyim iladigan kishiga ro‘para bo‘ldi.

– Eh, sen padarla‘nat! – dedi. – NEP tufayli uning semirib ketganini qaranglar!

Yana biroz o‘tsa, ko‘ngilsiz to‘qnashuv ro‘y bergan bo‘lardi. Xayriyat, boshqalar bor ekan, ularni ajratib qo‘yishdi.

Ko‘rinishdan ancha ko‘ngilchan, kekxa bir kiyim iladigan:

– Senga qarab turib, rahmim kelib ketdi, – dedi Vasiliy Ivanovichga, – juda xunob bo‘lding. Mayli, tekinga bo‘lsa-da, anovi yerga ilib qo‘y. Lekin Iso hurmati, ertaga pulini keltirishni unutma.

Vasiliy Ivanovich:

– Ikkinchi parda ketyapti, endi nega ilarkanman, – dedi. – Endi baribir hech narsaga tushunmayman. Buning ustiga pyesani oxiridan ko‘rishga odatlanmaganman.

Vasiliy Ivanovich o‘z chiptasini uchragan kishiga sotmoqchi bo‘ldi. Allaqanday bir boqimsiz bolaga ikki pulga zo‘rg‘a pulladi. Keyin o‘zi bilan janjallashgan, kiyim iladigan kimsa tomonga qattiq tupurdi-da, ko‘chaga otildi.

1928



## ZILZILA

Mashhur Qrim zilzilasi davrida Yaltada Snopkov degan bir kishi yashardi.

Mayda hunarmand. Kasbi – etikdo‘zlik. Yaltada do‘kon ochgan. Do‘kon ham emas, unchalik katta bo‘lmagan tosh hujra.

O‘z do‘sti bilan hamkorlikda ishlardi. Ikkalasi ham kelgindi. Mahalliy xalq va dam olishga kelganlarning poyabzalini yamab berishardi.

Ular yomon yashamasdi. Qishda so‘zsiz och qolishar, yozda esa ish oshib-toshib yotardi. Hatto ichishga ham vaqt topisholmasdi. Ichishga-ku vaqt topilardi-ya, lekin boshqasiga...

Shunaqa. Demak, zilzila arafasida, to‘g‘risi juma kuni, o‘n birinchi oktabrda yamoqchi Ivan Yakovlevich Snopkov shanbani ham kutib o‘tirmasdan bir yarim shisha achchiq rus arag‘ini ichib oldi.

Harqalay, ishni yakunlagan. Buning ustiga ikki shisha olib qo‘yilgan edi. Shunday ekan, nimani ham kutadi? Shishani olib, ichdi. Chunki, u hali zilzila bo‘lishini bilmasdi.

Shunday qilib, bir yarim shishani otib olgach, anchagacha ko‘chada sang‘ib, xirgoyi qilib yurgach, iziga, uyiga qaytib keldi.

U qaytib kelib, zilzilani ham kutib o‘tirmasdan hovlida uxlab qoldi.

U ichib kelganda, albatta, hovlida yotardi. Mast holda uyda yotishni yoqtirmasdi. Shift ostida yotganda yuragi siqilardi. Dim havo nafasini qaytarardi. Shuning uchun kayfda hamisha ochiq havoda yotgisi kelardi.

Shunaqa. Zilziladan oldin, xuddi o‘n birinchi oktabrda Ivan Yakovlevich Snopkov achchiq araqdan to‘yib, qattiq kayf qilgach, hovli-dagi kiparis<sup>1</sup> soyasida uxlab qoldi.

U maza qilib, shirin tushlar ko‘rib yotgan bir asnoda mashhur Qrim zilzilasi ro‘y berdi. Uylar qisirladi, yer ovoz chiqarib, qattiq silkindi, Snopkov bo‘lsa hech narsadan xabarsiz, beparvo uxlab yotardi.

Uning hamkasbiga kelsak, u birinchi zarbdayoq qo‘rqib, tomning tagida qolib o‘lmaslik uchun shahar bog‘iga qochib kirdi.

Faqat ertalab, azon bilan soat oltalarda bo‘lsa kerak, Snopkov do‘stimiz uyqudan ko‘z ochdi. Bizning Snopkov kiparis tagida uyg‘ondi-yu, qadrdon hovlisiga qarab hech narsaga tushunmay qoldi. Buning ustiga ularning tosh do‘koni qulagan edi. Butunlay qula-

<sup>1</sup> Sarv daraxti.

gan, devorlar yorilib, ayrim joylar o'pirilib yotardi. Faqat kiparis o'z o'rnida, boshqasi ayqash-uyqash, tanib bo'lmas darajaga kelgan edi.

Do'stimiz Snopkov ko'zlarini uqalab olib, o'ylay boshladi.

«E, onajon-ey, qayerlarga kelib qoldim-a? Nahotki kecha mastlikda yana biror joyga kirgan bo'lsam? Hammayoq bunchalik xarobazor-a! Kimning hovlisi bo'lsa ekan-a? O'lgudek ichish ham yaxshi emas. Ichkilik koni zarar-da, xotirangda hech vaqo qolmas ekan».

Uning yuragi siqilib, hayotning qizig'i qolmagandek edi.

«Ehe, mana, qayerga kelib qolibman, – deb o'yladi u, – yaxshiyam ko'chada emas, hovlida yotib qolibman. Bo'lmasa it qopardimi yoki moshina bosib ketarmidi? Kamroq ichish, yoki umuman tashlash kerak».

Bu fikrlardan uning ahvoli og'irlashib, vujudi o't bo'lib yondi, shuning uchun ham cho'ntagidan yarimta qoldiqni olib, xafagarchiligi tarqaguncha ichdi.

Suyuqlikni ichgach, u qayta boshdan kayf qildi. Chunki u anchadan beri hech narsa tatimagani, boshi ham ichkilikdan po'la bo'lgan edi.

Kayf qilib olgan do'stimiz Snopkov o'z oyog'ida turib, ko'chaga chiqib ketdi.

Ko'cha bo'ylab yursa-da, mastligi tufayli hech narsaning farqiga bormasdi. Buning ustiga zilziladan keyin xaloyiq guruh-guruh bo'lib yurishardi. Birorta tirik jon uyda emas, hamma ko'chaga chiqqan. Odamlar har xil qiyofada, kimlar yarim yalang'och, yana kimlar ko'rpa-to'shak va choyshablarga o'ranib olishgan.

Snopkov ko'chadan yurib borarkan, yuragi o'z o'zidan uvishib ketdi.

«Yo Parvardigor, – deb o'yladi, – yetti-sakkizda qaysi kovakka kirib qoldim-a? Yoki kemaga tushib Batumiga kelib qoldimmikan? Yoki Turkiyaga obkelib tashlashdimi? Issiq o'lkalardagidek hamma yalang'och yuribdi-ku».

Mast holda yurib borarkan, ho'ngrab yuborishiga sal qoldi.

Katta yo'lga tushgach, hech narsani o'ylamasdan o'zicha ketaverdi.

Yura-yura charchoq va ichkilikning zo'rligidan yo'l chetiga yiqildi va murdadek uxlab qoldi.

Uygʻonganda kech kirib, qorongʻi tushgan edi. Tepasida yulduzlar charaqlab turibdi. Sovuq. Shuning uchun sovuq ediki, u yoʻl chetida yalangʻoch, yalangoyoq holda faqat qisqa ishtonda yotardi. Yoʻl boʻyida ship-shiydam holda yotarkan:

«Yo, parvardigor, – deb oʻyladi u, – yetti-sakkiz, yana qayerda yotibman-a?»

Snopkov oʻz-oʻzidan qoʻrqib ketdi va yalang oyoqlarini bosib oʻmidan turdi-da, yoʻl boʻylab ketdi.

Bir chaqirimchami, undan koʻproqmi yurdi va charchab tosh ustiga oʻtirdi.

Toshga oʻtiringach, battar xunobi oshdi. Qayerdaligini bilmadi, fikrlarini ham bir yerga toʻplay olmayapti. Yuragi ham, butun vujudi ham sovuqdan dirillaydi. Qorni haddan ziyod ochib ketdi.

Faqat ertalabga yaqin Ivan Yakovlevich Snopkov nima boʻlganini bildi. Bir yoʻlovchidan soʻragan edi, yoʻlovchi:

– Oʻzing-chi, misol uchun nega oq ishtonda yuribsan? – dedi.

– Oʻzimam bilmayman, – dedi Snopkov, – oʻtinaman, toʻgʻrisini ayting, qayerdaman-a? Gaplashishdi.

– Qayerda ham boʻlarding! – dedi yoʻlovchi, – buyogʻi Yaltaga cha bir oʻttiz chaqirimcha kelar.

Yoʻlovchi unga zilzila haqida, qayerlar buzilgani, yana qayerlar buzilishi kerakligi haqida gapirdi.

Snopkov zilzila boʻlayotganidan qattiq qaygʻurdi va Yalta tomon shoshildi.

Butun Yaltani oq ishtonda kezib chiqdi. Zilzila tufayli unga hech kim eʼtibor bermas, hatto biror kimsa hayron ham qolmasdi.

Shundan keyin Snopkov oʻziga keltirilgan zararni hisoblab koʻrdi: yaxshigina shilishibdi. Oltimish soʻmcha naqd pul, sakkiz soʻmlik kostum, bir yarim soʻmlik cholvor va yana deyarli yap-yangi sandal. Qattiq zarar koʻrgan, doʻkonni hisoblamaganda ham yuz soʻmcha mablagʻ qulogʻini ushlab ketibdi.

Endi I. Ya. Snopkov Xarkovga joʻnash uchun tayyorgarlik koʻryapti. Ichkilikbozlikdan davolanishni xohlab qoldi. Bundan boshqa iloji ham yoʻq edi.

Muallif ushbu badiiy asari bilan nima demoqchi?

Mazkur asar bilan muallif ichkilikbozlikka qarshi keskin oʻt ochgan. Ushbu badiiy satira ichkilikbozlik va alkogolizmga qarshi qaratilgan.

Muallif bu bilan aytmoqchiki, ichgan odamlar nafaqat oddiy nar-salarga, hatto zilzilaga ham befarq qaraydilar.

Yoki bir peshlavhada yozilganidek «Ichma! Ichkilik tufayli o'z sinfiy dushmaningni ham o'pishga tayyor bo'lasan!»

Nafsilambiri ham shu, o'rtoqlar.

1930

## BEMORLAR

Odam ajab g'alati maxluq-da. Yo'q, maymundan paydo bo'lgani ham gumon. Shu masalada qariya Darvin jinday yanglishganga o'xshaydi.

Odamning qiliqlari – ochig'ini aytish kerak, faqat insonlargagina xos. Hayvonot olamiga sirayam to'g'ri kelmaydi. Misol uchun, hayvonlar o'zlarining biror-bir lahjalarida so'zlashganlarida ham men yaqinda eshitgan suhbatga mutlaqo o'xshamasdi.

Bu voqea shifoxonada ro'y berdi. Ambulatoriya qabulxonasi-da. Haftasiga bir marta borib ichki kasalimni davolataman. Doktor Opushkin qaraydi. Hamma kasalga tushunadigan, malakali vrach. Besh yildan beri shunga qarataman. Shukur, kasalim yomon emas.

Odatdagiday shifoxonaga keldim. Yettinchi o'ringa yozib qo'yishdi. Na iloj. Kuta boshladim.

Yo'lakdagi divanga o'tirib oldim.

Bir payt kutayotgan mehmonlarning o'zaro suhbatlarini eshitib qoldim. Suhbat past, bosiq ovozdada, hech qanday shovqin-suronsiz davom etardi.

Kalta yarim palto kiygan, haddan tashqari semiz amaki o'z suhbatdoshiga:

– Eh, menga qara, ukaginam, – deydi, – nahotki sening kasaling churra bo'lsa? Shuyam kasal bo'ldi-yu. Buni kasal qatoriga qo'shmay qo'yaqol. Mana mening kasalimni kasal desa bo'ladi. Ko'pam semizligimga qarama. Aslida kasalim og'ir, uka. Buyragim ishdan chiqqan.

Qo'shnisi birmuncha noxush ohangda e'tiroz bildirdi: – Menda-yam faqat churraning o'zi emas-da. O'pkam ham madorsizlangan. Buning ustiga qulog'imning orqasida yog'li o'sma paydo bo'lgan.



Lunjlari osiq, semiz kishi:

– Buning ahamiyati yo‘q, – deydi. – Bu xil kasallarni buyrak bilan tenglashtirib bo‘larkanmi?

Kutayotganlar orasidan shol ro‘mol o‘ragan bir ayol tuyqusdan gapga aralashdi:

– Buyrak bo‘lsa nima qipti? Mening tug‘ishgan jiyanim buyrak bilan kasallangan, lekin ahvoli yomon emas. Kiyim-kechaklarini o‘zi tikadi, hatto dazmol ham qiladi. Sizning shu ko‘rinishingizda bu kasal nima degan gap. Qo‘rqmang, bu darddan sirayam o‘lmaysiz.

Lunjlari osiq, semiz kishi:

– Eshitdinglarmi? – deydi. – Bu darddan sirayam o‘lmas emishman. Men o‘lmaymanmi? Judayam bilarkansiz-da, xonim! Yana bu kishining tibbiyotga oid suhbatga aralashganlariga o‘laymi?

– Men Sizning dardingizni kamsitmoqchi emasman, o‘rtoq, – deydi xotin. – To‘g‘ri, Sizning dardingiz ham mustaqil bir kasallik. Shunga qaramay, aytmochimanki, Sizning buyrak-muyragingizga nisbatan mening kasalim jiddiyroq. Meniki – saraton.

Lunjlari osiq, semiz kishi:

– Xo‘p, saraton bo‘lsa nima qipti? – deydi. – Buyrak bilan saratonning farqi bor. Ehtimol, bezarar saratondir, olti oyga qolmasdan tuzalib ketar.

Bu xil nohaq haqoratdan xonimning rangi oqarib, butun vujudi qaltiray boshladi. So‘ng qo‘llarini asabiy o‘ynatib gapira boshladi.

– Ko‘rdinglarmi, saraton olti oyda tuzalib ketarmish. Bilmadim, bu qanaqa saratonni ko‘rgan ekan. Uning shishinib, semirib ketganini qaranglar, yana bu kasal emish.

Lunjlari osiq o‘rtoq bu haqorati uchun ayolga munosib bir javob qilmoqchi bo‘ldi-yu, lekin qo‘l silkitib orqa o‘girildi.

Shu yerda navbat kutayotganlardan biri kulib turib:

– O‘rtoqlar, to‘g‘risi, nima haqda maqtanib turibsizlar? – deb so‘radi.

Bemorlar savol bergan kishiga bir qarab oldilar-da, jimgina o‘tirib qabulni kuta boshladilar.

1930

## KO'NGILLI UCHRASHUV

Shu kuzda transportda alomat bir voqea sodir bo'ldi.

Rostovdan Moskvaga ketayotgan edim. Kech soat olti-yu qirq beshda yo'lovchi poyezdi kelib to'xtadi.

Shu poyezdga chiqdim.

Odam unchalik ur-yiqit emas. Hatto o'tirib ketsa ham bo'ladi.

Sal surilishni iltimos qilib, o'tirib oldim.

O'z hamrohlarimni ko'zdan kechira boshladim.

Hali aytganimdek oqshom tushib qolgandi. Unchalik ham qorong'i emas, biroq g'ira-shira. Elektrni tejash maqsadida chiroq ham berishmagan edi.

Shunday qilib, atrofdagi yo'lovchilarga qarayman – juda e'tiborli guruh. Hammasi kelishgan, to'q odamlar.

Bittasi pop bo'lmasa-da, shapkasiz, uzun sochli kishi. Ziyolinamo, qora tujurka<sup>1</sup> kiygan.

Uning yonida ruscha etik, formalı furajka kiygan mo'ylovdor odam. Harqalay, u injener emasdi. Ehtimol, hayvonot bog'iga qorovul yoki agronom bo'lsa kerak. Faqat ko'rinishidan juda ochiqko'ngil edi. U qo'lidagi qalamtarosh pakkicha bilan antonovka olmasini tozalar, keyin mayda bo'laklarga bo'lib, yonidagi qo'lsiz qo'shnisiga yedirib o'tirardi. Qarasam, u qo'lsiz odam bilan hamrohlikda ketyapti. Shunaqa, yosh, proletar, yigitcha-ya. Ikkala qo'liyam yo'g'-a! Ehtimol, mehnat nogironi bo'lsa kerak. Qarab, kishining yuragi ezilib ketadi.

Lekin u zo'r ishtaha bilan yardi. U qo'lsiz bo'lganligi uchun ham sherigi olmani mayda bo'laklarga bo'lib, pakkichaning uchida uning og'ziga tutardi.

Nihoyatda insonparvar bir manzara, Rembrantga munosib mavzu.

Ularning ro'parasida qora kartuz<sup>2</sup> kiygan, sochlariga oq oralagan o'rta yashar kishi o'tirardi. Shu kishi bo'lar-bo'lmasga jilmayib qo'yardi.

Ehtimol, men kelguncha ular o'rtasida qiziqroq bir suhbat bo'lib o'tgandir. Faqat shu yo'lovchi hali ham sovimagani, vaqti-vaqti bilan «ho-ho-ho!» deya qahqaha otardi.

<sup>1</sup> Tugmasi ikki tomonga qadaladigan kalta kamzul.

<sup>2</sup> Erkaklarning oftobpo'shli bosh kiyimi.

Oq soch odamning bu o'ransiz qiligi qo'lsiz kishiga shafqatimni yanada oshirib yubordi.

Mehr-shafqat bilan unga achinib qarayman va qanday e'tiborsizlik oqibatida bu holga tushganini so'ragim keladi. Lekin noqulay.

Hamrohlarimni obdan o'rganib olgach, yotigi bilan so'rab olarman, deb o'yladim.

Mo'ylovli kimsaga turli xildagi qiziq savollar bilan murojaat etdim, lekin u istar-istamas, qovoq-dimog' bilan javob qaytarardi.

Shunda uzun sochli ziyolinamo kishi o'z-o'zidan suhbatga aralashib qoldi.

Suhbatimiz, qayoqqa ketyapsiz, karamning bahosi qanday, hozirga qadar ham sizlarda uy-joy tanqisligi hukm suryaptimi, degan har xil kichik mavzularda boshlanib, nihoyat, qizg'in tus oldi.

– Bizlarda uy-joy tanqisligi yo'q, – dedi u, – buning ustiga biz shahar atrofida o'z hovlimizda yashaymiz.

– U yerda xonada yashaysizlarmi yoki itxonaga o'xshash uychadami? – deb so'radim.

– E, qo'ysangiz-chi, – dedi. – Balanddan kelavering. Menga saroy, hojatxona va boshqa zarur joylardan tashqari yana to'qqizta xona qaraydi.

– Aldamayapsizmi? – dedim. – Inqilob tufayli sizni surgun qilishdimi, yoki bu sovxozmi?

– Yo'q, – dedi u. – Bu mening kindik qonim to'kilgan joy. O'zimga qarashli. Albatta, mehmon bo'lib keling. Ayrim oqshomlar bazm uyushtiraman. Atrofda favvoralar suv sachratadi. Simfonik orkestr vals chalib turadi.

– Bu qanaqasi, – dedim. – Siz bu binoni ijaraga olganmisiz, yoki o'zingizning shaxsiy mulkingizmi?

– Shaxsiy mulkim, – dedi. – Men zamindorman.

– Kechirasiz, – dedim, – sizni qanday tushunsam bo'ladi? Siz sobiq zamindormi? Axir, proletar inqilobi Sizning darajangizni aniq lab bergandir? Kechirasiz, bu masalada hech narsaga aqlim yetmay qoldi. Bizda ijtimoiy inqilob, sotsializm qurilyapti, zamindorlar haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas.

– Bo'lishi mumkin, – dedi u. – Mana, men zamindorman. Sizlarning butun inqilobingiz davomida o'zimni asrab qola oldim. Hammasiga tupurib, yashayapman. Sizlarning ijtimoiy inqilobingiz bilan ishim ham yo'q.

Unga diqqat bilan qarasam-da, hech narsaning farqiga yetmasdim.

– Keling, o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rasiz, – dedi u. – Istasangiz, hozir ko‘ramiz. Juda ajoyib, pinhona hayot bilan tanishasiz. Yuring.

«G‘alati, – deb o‘yladim. – Borsammikin. Ko‘ray-chi, bu zot proletar inqilobidan qanday qutulib qoldi ekan? Yoki ko‘pirtirayaptimikin?»

Buning ustiga oq sochli kishi hamon kulib turibdi. «Ho-ho-ho»lab asabimga tegadi.

O‘rinsiz kulgisi uchun unga tanbeh bermoqchi bo‘lganim-da, olma kesib o‘tirgan mo‘ylovli kishi qo‘lidagi pakkichani stol ustiga qo‘yib, olma qoldiqlarini olib yerkan:

– Ular bilan gapirishni bas qiling, – dedi menga. –Ko‘rmayapsizmi, ular ruhiy kasal-ku?

Shunda to‘planib turgan kishilarga qaradim – vo, aja-bo! Darhaqiqat, qorovul hamrohligida ruhiy kasallar ketayotgan edi. Uzun sochligi ham – jinni. Doim qahqah otib turgani ham, qo‘lsizi ham. U keng ko‘ylakni kiyib yenglarini buklab qo‘ygan edi. Shuning uchun bir qarashda qo‘li borligini sezish qiyin edi. Bir so‘z bilan aytganda, hammasi jinni. Ularni olib ketayotgan mo‘ylovli kishi esa qorovul ekan.

Ularga hadiksirab qarayman, qurib ketgurlar bo‘g‘ib, yana bir korhol qilmasin, deb o‘ylab, asabiylashaman – axir ruhiy kasallar o‘z qilgan jinoyatlari uchun javob berishmaydi-da.

To‘satdan yonginamdagi qora soqol jinniga ko‘zim tushdi. U ayror ko‘zlari bilan stol ustidagi pichoqqa qaradi-da, sekin qo‘lga oldi.

Yuragim shuv etib ketdi. O‘sha zahoti sakrab turib, pichoqni olish uchun soqoliga yopishdim.

U menga qattiq qarshilik ko‘rsata boshladi. To‘satdan quturgan tishlari bilan menga og‘iz solmoqchi bo‘lgan edi, kekirdagidan tutdim.

Shunda mo‘ylovli qorovul meni to‘satdan orqaga itarib yubordi.

– Uyat emasmi, sizga, – dedi, – nega ularga yopishib oldingiz? Pichoq shu kishiniki-ku! U kishi jinni emas, axir. Manovi uchalasi mening kasallarim. Bu kishi esa siz bilan mendek oddiy yo‘lovchi. Biz u kishidan pichoqlarini iltimos qilgan edik. Pichoq o‘zlariniki. Uyat-a, uyat!

– Men u kishiga pichoqni bermoqchi edim, – deya g‘o‘l-diradim. – Axir u kishining o‘zlari menga tashlandilar-ku. Bo‘g‘moqchi bo‘ldilar. Rahmat, tashakkur! Ko‘rdingiz-ku qanaqa bejo harakat qildilar. Ehtimol, bu ham jinnidir. Agar qorovul bo‘lsangiz



unga ham yaxshiroq qarang. Harqalay, birovni bo'g'ib, netib qolmasin.

– Ehtimol, u ham ruhiy kasaldir, – dedi qorovul. – It bilsin kim u? Harqalay, mening partiyamdan emas. Uning nimasiga qarayman. O'zimmikilarni bilaman, menga ko'p o'rgatma.

– Kechirasiz, – dedim bo'g'moqchi bo'lgan kishiga, – men sizni ham ruhiy kasal deb o'ylabman.

– Hindistonning jo'jaxo'rozidek juda ko'p narsani o'ylaysiz, – dedi u. – Ablah, sal qoldi bo'g'ib o'ldirishiga. Nahotki ularning ifodasiz basharasi bilan mening tabiiy qiyofamni farqlay olmasangiz?

– Farqlay olmayapman, – dedim. – Aksincha sizning ko'zlaringizda allaqanday ma'nisizlik bor. Soqolingiz ham jinnilarnikidek tik o'sgan.

Haligi zamindor-jinni gapga aralashdi.

– Siz uning soqolini bittalab yuling, shunda ahmoqona gaplarni aytmay qo'yadi.

Soqolli kishi qorovul deya qichqirmoqchi bo'lganda, Igren stansiyasiga yetib kelgan edik. Ruhiiy kasallar o'z qorovullari hamrohligida chiqishdi.

Ular nihoyatda qattiq tartibda olib chiqildi. Faqat qo'lsizni ohista itarib tushirishdi.

Shundan keyin kuzatuvchi bizga shu Igren stansiyasida jinnixon borligi va tez-tez unga shu xil kasallarni olib kelishlarini aytdi. Nega ham olib kelishmasin? Harqalay, ular ham odam-ku! Xafa bo'lishning hojati yo'q.

Shaxsan men hecham xafa emasman. Faqat ahmoqqa o'xshab ular bilan uzoq suhbatlashganimni qarang. Bo'g'gan odamim, albatta, xafa bo'ldi. U menga uzoq vaqt ayanchli qarab, har bir harakatimni diqqat bilan kuzata boshladi. So'ng mendan hech qanday yaxshilik kutmadi shekilli, narsalarini ko'tarib, boshqa bo'limga o'tib ketdi.

He, ketsang ketaver.

1930

## CHO'TALCHI

Endilikda pora olishmaydi. Avvallari pul bermasang yoki olmasang qadam bosib bo'lmaldi.

Endilikda odamlarning xulqi yaxshilik tomonga o'zgarib ketdi.

Haqiqatan ham pora olishmaydi.

Yaqinda tovar stansiyasidan yuk jo'natishga to'g'ri keldi.

Shamollashdan vafot etgan ammamiz o'zining choyshabi, aytaylik har xil mayda-chuydalarini qishloqqa – qarindoshlariga yuborishimizni so'rab, vasiyat qilgan edi.

Mana, biz vokzalda, Rafael ruhidagi bir manzaraning guvohi bo'lib turibmiz.

Yuk qabul qiladigan uycha. Albatta, navbat. O'n ming kilogrammik tarozi ortida yuqori mavqedagi xizmatchi hisoblangan tarozibon turibdi. U raqamlarni tez-tez aytar, yozib olar, taroziga tosh qo'yar, yoriqlarni yelimlab, odamlarga turli xil tushuntirishlar berardi.

Faqat uning yoqimli ovozi eshitilib turadi:

– Qirq. Yuz yigirma. Ellik. Ko'taring. Oling. Jo'nating... E, nega bu yerda qaqqayasan, galvars, naryoqdan kel.

Shunaqa chaqqon va yoqimli mehnat manzarasi.

Faqat shunday chiroyli ishlash bilan birga tarozibon nihoyatda talabchan, qonunga rioya qiluvchi kishi edi. U davlat va fuqarolar manfaat uchun qoidaga qattiq rioya qilardi. Albatta hammaga emas, ikki-uch kishidan keyin yuk qabul qilishni rad etardi. Mol solingan quti salgina qusurli bo'lsa – olmaydi. Achinib turib rad etadi.

Quti yoki o'rami qusurli kishilar albatta oh-voh, dod-voy qilishadi. Nachora?

Tarozibon:

– Oh-voh qilguncha, qutingizni mustahkamlang, – deydi. – Shu atrofda mix-bolg'a ushlagan bir kishi yurgan edi, o'shanga uchrang, mustahkamlab beradi. Mana bu yeriga ikkita mix urib, simparch qilib bersin. Keyin keling, navbatsiz qabul qilaman.

Haqiqatan ham uycha orqasida mix va bolg'a ushlagan bir kishi turardi. U qutisi nosoz kishilarning mushkulini oson qilardi. Odamlar ham undan qilgan xizmati uchun do'stona so'zlari va pullarini ayashmasdi.

Mana, nihoyat, bir kishining navbati keldi. Ko'zoynakli, oq-sariq kishi edi. U ziyoli bo'lmasa-da, uzoqni yaxshi ko'ra olmasdi. Ko'zida taxomasi bo'lsa kerak. Ko'zlarim ko'rinmasin degan maqsadda oynak taqib olgan. Ehtimol, u optika zavodida ishlar, ko'zoynak tekinga kelgandir.

Mana, u o'zining olti qutisini o'n ming kilogrammlik tarozi ustiga qo'ydi. Tarozi olti qutini ham ko'zdan kechirib:

– Bo'lmaydi, – dedi. – Qutingiz nosoz. Ko'taring.

Bu so'zni eshitgan ko'zoynakning ruhi batamom tushib ketdi. Ruhi tushishdan oldin tarozibonga tashlanib, uni ancha behurmat qildi.

– Nima qilmoqchisan, ko'ppak! – dedi. – Men o'z shaxsiy qutilarimni jo'natmayapman-ku. Bu davlatniki, ya'ni optika zavodining qutilari. Endi nima qilaman bularni. Ot-ulovni, yo'lkiraga to'lanadigan yuz so'mni qayerdan topaman? Javob ber, ko'ppak, Bo'lmasa hozir qiyma-qiyma qilaman!

Tarozi olti qutini:

– Men qayerdan bilaman? – dedi-yu, qo'li bilan ket ishorasini bildirdi.

Uzoqni yaxshi ko'ra olmaydigan ko'zoynakli kishi tarozibonning bu harakatini boshqacha tushundi.

U pishillab, bir narsa esiga tushgandek bo'ldi va apil-tapil cho'ntaklarini kovlashtirib, sakkizta bir so'mlik chiqardi. Uni tarozibonga cho'zdi.

Bu holdan tarozibonning rang-ro'yi bo'zdek oqarib, bor ovozda:

– Nima demoqchisan? – deya qichqirdi. – Sen ko'zoynakli baytal, menga pora bermoqchimisani?!

Albatta, ko'zoynakli kishi o'zining sharmandali holatini darhol tushundi.

– Yo'q, – dedi. – Men shunchaki pulni cho'zdim. Uni ushlab tur, qutilarni tarozidan olay, demoqchiydim.

U o'zini butunlay yo'qotib qo'ydi, kechirim so'rashga ham, yoki basharasiga tarsaki yuborishlariga ham rozi edi.

– Uyat! – dedi tarozibon. – Bu yerda pora olishmaydi. Oltita qutingizni tezroq oling, ularga qarashga toqatim yo'q. Garchandki, davlat qutilari ekan, anovi ishchiga murojaat qiling, u mixlab-mustahkamlab beradi. Pul masalasiga kelsak, xudoga shukur qiling, meni siz bilan adi-badi aytib o'tirishga vaqtim yo'q.

Shu orada u xizmatchilardan bir kishini chaqirib, bo'lib o'tgan sharmandali voqea haqida bor ovozda gapira boshladi.

– Bilasizmi, hozir menga pora bermoqchi bo'lishdi. Qanday sharmandalik! Xayriyatamki, shoshilinchda pulni olib qo'yman, bo'lmasa hozir isbotlab ko'r-chi.

– Afsus, – dedi boshqa bir xizmatchi. – Hammasini aytib berish kerak. Odamlar bizda ish avvalgidek ketyapti, deb o'ylashsa kerak-da.

O'zini butunlay yo'qotib qo'ygan ko'zoynakli kishi qutilariga qarab yurardi. Uning qutilarini tuzatib, mustahkamlab qayta taroziga qo'yishdi.

Nazarimda, o'z qutilarim ham unohalik mustahkam emasdek tuyuldi.

Hali navbatim kelmasdan turib, o'sha oldiga borib, har ehtimolga qarshi ayrim qutilarimni ko'zdan kechirishni iltimos qildim. U mendan sakkiz so'm so'radi.

– Uchta mix uchun sakkiz so'm olishga uyalmaysizmi? – dedim.

U sirli, muloyim ovozda:

– To'g'ri, bu ish uchun sizdan uch so'm olsam ham bo'lardi, – dedi. – Lekin, meni ham tushuning-da, ishlagan pulimning teng yarmini anovi timsohga berishim kerak.

Shunda hamma muruvvatlarga osongina tushundim.

– Demak, tarozibon bilan bo'lisharkansiz-da? – deb so'radim.

Shunda ishchi so'zsiz qizarib ketdi, og'zidan bemavrid gullab qo'ygani uchun bir nimalar deb g'o'ldiradi, keyin nimalarningdir qimmatligidan nolib, men uchun ancha kechib, ishga unnay ketdi.

Nihoyat, navbatim keldi.

Men mustahkamlangan qutilarni taroziga qo'yib, mag'rur qarab turaverdim.

– Ketmaydi! – dedi tarozibon, – qutilaringiz mustahkam emas.

– Nahotki? – dedim. – Hozirgina uni mustahkamlab berishdi. Anovi ombir bilan tortib, mixlab berdi.

– Pardon, pardon, – dedi tarozibon, – kechirasiz. Hozir qutilaringiz soz, biroq avval mustahkam emasdi. Doim ko'z oldimda turgan edi-da. Aytdim-ku, pardon, bu – pardon.

Mening qutimni qabul qilib olib, hujjat yozdi. Hujjatda «quti mustahkam emas!» deb yozilgan edi.

– Bu nima qilganingiz? – dedim. – Nega odamni laqillatasiz? Axir, bu yozuv bilan yo'lda qutimni o'g'irlab ketishadi-ku. Bu yovuz esa ko'rilgan zararga ham kafolat bermaydi. Endi bildim sizning habashcha o'yiningizni.

– Pardon, kechirasiz, bu – pardon! – dedi tarozibon.

U yozuvni o'chirgach, uyga yo'l olarkanman, yo'l bo'yi o'z hamyurtlarimizning murakkab qalblarini, qayta qurilayotgan xulq-atvorlari va o'zlari istamagan holda o'ylab topgan qing'irliklarni o'ylab, o'sha hurmatli fuqarolarning jamiyatda tutgan mavqelariga hayron qolib bordim. Pardon, kechirasiz, bu – pardon.



## NOTIQ

Bolalarning bizga zarurligi xususida soʻz ham boʻlishi mumkin emas, albatta.

Ularsiz hatto davlat ham barqaror boʻlolmaydi. Bolalar – kelajagimiz. Hamma orzu-umidimiz oʻshalardan.

Buning ustiga kattalar oʻz meshchanlik odatlaridan osonlikcha voz kechmayptilar. Ehtimol, bolalar oʻsib, ulgʻayib bizdagi ana shu madaniyatsizlikni tuzatishar.

Ana shundan kelib chiqib, biz bolalarni qoʻlda koʻtarib yurishimiz, ularga gard yuqtirmasligimiz, qolaversa, burnimizni koʻtarmasligimiz kerak. Xoh, u oʻzimizniki, xoh birovniki, yaʼni begona boʻlsin, bir xil munosabatda boʻlish zarur.

Faqat bizning hayotimizda masalaning ana shu tomoniga yetarli eʼtibor berilmayapti.

Buning uchun Novorossiyskka yetmasdan bizning koʻz oldimizda roʻy bergan antiqa bir voqeadan misol qilib keltirish kifoya.

Vagondagi deyarli hamma kishilar Novorossiyskka ketishayotgan edi.

Ularning orasida umuman yana bir xotincham ham boʻlib, toʻgʻrirogʻi yoshgina bolali juvon ham bor edi.

Juvonning qoʻlida bolasi. Birga ketayotgan edi.

Ular Novorossiyskka ketishyapti. Uning eri oʻsha yerda zavodda ishlasa kerak. Oʻshani koʻrishga ketyapti.

Juvon eri huzuriga ketyapti. Hammasi odatdagidek, savatcha va tugunlari tokchaga qoʻyilgan, qoʻlida goʻdagi. Shu alfozda u Novorossiyskka ketyapti.

Juvon Novorossiyskka, erining oldiga ketyapti. Qoʻlidagi goʻdagi nihoyatda injiq. Bor ovozda chinqiradi, gohida boʻgʻilib qoladi. Koʻrinishidan kasalga oʻxshaydi. Yoʻlda qorni ogʻrib qolibdi. Tarmeva yegan yoki u-bu yoqmaydigan narsa ichgani uchun ogʻriq tutgan. Shuning uchun ham chinqiradi.

Bir soʻz bilan aytganda, norasida. U nima uchun, nega qorni ogʻriganini qayerdan bilsin. Yoshi nechada boʻlsa ekan? Ehtimol, uch yo ikki yashardir. Oʻz shaxsiy hayotida bolalarni kuzatmagan boʻlsang, bu buyumning necha yoshdaligini aytishga qiynalarkansan.

Faqat u oktabryatga oʻxshaydi. Koʻkragiga qizil belgicha tikilgan.

Ana shu norasida o'z oyisi bilan Novorossiyskka ketib borardi. Albatta, ular Novorossiyskka ketayotganda aksiga olib yo'lda kasalga chalinishdi.

Kasalligi tufayli go'dakkina tez-tez ingrar, chinqirib yig'lar, no-lish qilar, qisqasi o'ziga e'tibor berishlarini so'rardi. Qisqasi, sho'rlik onasiga sirayam orom bermasdi. Ikki kundan beri onasi uni qo'ldan qo'ymasdi. Uxlayolmaydi. Bir qultum choy ham icholmaydi.

Lixna stansiyasiga yaqin qolganda yosh ona yo'lovchilarga murojaat qildi.

– Kechirasizlar, – dedi u, – bolamga birpas qarab turinglar. Lixna stansiyasiga yugurib tushib, bir qoshiq sho'rva ichib chiqay. Ochlikdan sillam qurib ketdi. Novorossiyskka, erimning huzuriga bor-guncha yo'lda adoyi tamom bo'laman.

Yo'lovchilar unga qaramaslikka harakat qilishardi. Chinqirib, ba-qirib turgan kasal bolani kimam qo'lga olishni istardi. Kim biladi, qa-naqa ona u. Tashlab ketib qolsa nima bo'ladi, deb o'ylashadi. Boshqa ona bo'lganda, albatta, shunday qilishi mumkin.

Albatta, keyin bu hol ro'y bermadi, ona o'z suyukli farzandi hu-zuriga qaytib keldi, lekin buni yo'lovchilar oldindan bilishmasdi. Shu-ning uchun ham ular onaning iltimosiga rozi bo'lmay, rad etishdi.

Demak, bolani olib qolishmadi.

Vagonda shaharlik bir o'rtoq ketayotgan edi. Boshida kepka, chet el makentoshi va oyog'iga sandal kiyib olgan kishi yo'lovchilarga mu-rojaat qilib qoldi.

– Qanaqa odamsizlar, o'zi? – dedi. – Sizlarga qarashga ham ha-zar qilaman, yaxshi emas-da, o'rtoqlar! Birovning dardiga hamdard bo'lmaslik, yaxshimi? Ehtimol, sho'rlik ona bizning oldimizda ovqat-lanishga uyalayotgandir. Buning ustiga bolasi. Yaxshi emas-da, jamo-atchilikka bepisand qarash. Axir bu sotsializmdan chekinish emasmi, o'rtoqlar.

– Chekinging kelmasa, go'dakka o'zing qara! – deyishdi boshqa-lar, – yumshoq vagonda nutq so'zlashini qarang, bu daydini.

– O'zim bo'ydoq bo'lsam-da, – dedi sandalli, – buning ustiga qattiq uyqum kelishiga yoki bu ish qo'limdan kelmasligiga qaramas-dan, bolalar masalasiga befarq bo'lolmayman.

U shunday degancha bolani qo'lga olib allalay boshladi. Ju-von unga chuqur minnatdorchilik bildirib, Lixna stansiyasiga tushib ketdi.

U stansiyadagi bufetga kirib ketib, anchagacha chiqmadi. Poyezd o'n daqiqa turishi kerak. O'n daqiqa o'tib, ovoz berildi. Navbatchi qizil shapkasini silkitdi, juvon ko'rinmaydi...

Poyezd silkinib o'rnidan qo'zg'aldi, tezligini oshira boshladi, biroq yosh onadan darak yo'q.

Shunda vagonda har xil holatlar ro'y berdi. Birovlar bor ovozdak kuladi, ayrimlar poyezdni to'xtatish uchun tormozga yopishmoqchi bo'ladi.

Sandalli kishining rangi qum-qut o'chgan, uyqusi ham kelmasdan, suvga tushgan itdek bo'lib o'tiribdi. Endi nutq ham so'zlagisi kelmasdi.

U go'dakni tizzasiga olib o'tirgancha turli xildagi maslahatlarni eshitardi.

Albatta, ulardan biri o'z pulingga telegramma yubor desa, boshqasi «Novorossiyskkacha oborib go'daklar uyiga topshirasiz, mabodo go'dakni qabul qilishmasa, unda o'g'il qilib olasiz», deya maslahat beradi.

Norasida bo'lsa ingranadi, chinqiradi, xullas, qo'ldan tushgisi kelmaydi.

Dahshatli ikki soat ham o'tib, poyezd katta bir stansiyaga kelib to'xtadi. Sandalli kishi o'z go'dagini o'rab-chirmab, platformaga chiqib go'daklar uyiga uchramoqchi bo'ldi. Xuddi shu asnoda vagonda yosh ona paydo bo'lib, o'zini himoya qila boshladi.

– Kechiringlar meni! – dedi. – Issiq sho'rvani ichgandan keyin butun a'zoyi badanim bo'shshib, uxlagim kelib ketdi. Axir ikki kun ko'z yumman. Shuning uchun ataylab qo'shni vagonga kirib mizg'ib oldim. Bu yerga kirsam, uxlay olmasdim-da.

Shunday deganicha o'z go'dagini qo'lga olib allalay boshladi.

– Yaxshi ish qilmadingiz, xonim, – dedi sandalli kishi. – Agar uxlay olgan bo'lsangiz, tushunaman, yomon emas. Bolalar – bu bizning kelajagimiz. Ularni allalashga shaxsan men qarshi emasman.

Shunda vagonda hayotbaxsh, quvnoq qahqaha yangradi. Hammasi yaxshilik bilan tugadi.

1931





## CHAYQOVCHI

Bu yerda Siz bilan kolxozlar va sanoat, moliya rejalariga oid har xil dolzarb masalalarni muhokama qilib turganimizda hayot o'z oqi-mida davom etaveradi. Ya'ni, odamlar o'z taqdirларini o'zlari hal etishadi – uylanishadi, turmushga chiqishadi, o'zlarining shaxsiy hayot-lari haqida o'ylashib, hatto ayrimlar tovlamachilik va chayqovchilik bilan shug'ullanadilar. Albatta, endilikda chayqovchilik birmuncha qiyinlashib qoldi. Lekin, shunga qaramay, ayrim o'rtoqlar bu borada yangi-yangisini o'ylab topishmoqda.

Mana shu xil chayqovchilik haqida sizga hikoya qilib bermoq-chiman. Juda ajoyib dalil. Buning ustiga haqiqiy bo'lib o'tgan voqea. Qishloqdan kelgan bir qarindoshim shu yangilikdan meni xabardor qildi.

Simferopolda yashaydigan bir beva ayol, O. ismli tish do'xtiri tur-mushga chiqmoqchi bo'ladi.

Hozirgi zamonda turmushga chiqish ko'pam oson emas. Ayniqsa, ziyoli ayol o'ziga munosib ziyoli erkakni topishi amrimahol.

Bizning proletar mamlakatimizda ziyolilar masalasi haliga qadar o'ta jiddiy masala bo'lib kelmoqda. Xodimlar muammosi hamon ijo-biy hal etilganicha yo'g'-u, kechirasiz, tag'in Siz kuyovlar haqida ga-pirib o'tiribsiz. Shunisi ravshanki, ziyoli kuyovlar ayni paytda uncha-lik ko'p emas. Borlikka bor-u, lekin ular ham g'alatiroq – allaqachon uylanishgan, yoki ikki-uch oilali, yoki umuman uylanish qobiliyatidan mahrum, hayoti zaharga aylangan kishilar.

Ana shunday bir sharoitda Simferopolda erini yo'qotgan bir beva yashardi. Eri o'tgan yili sildan vafot etgan edi.

Alqissa, eri o'lib qoldi. Dastlab bu voqeaga beva yengil-yelpi qa-ragandek bo'ldi. Bekorchi g'alva, deb o'yladi. Keyin qarasa, tamoman boshqacha – kuyov degani ham yo'lda yotgan behuda narsa emas ekan. Qayg'urdi. Shunday qilib, bir yil davomida g'am-hasratda adoyi tamom bo'ldi. Unga har kuni bir xotin sut olib kelardi. Chunki u eri sil kasalidan vafot etgach, salomatligini asrash maqsadida kuchliroq ovqatlanishga o'tib olgan edi. Bir yilga yaqin sut ichar, semirib va o'zining g'am-anduhlari haqida sutchi xotin bilan chaqchaqlashardi. Bir kuni shu haqda sutchi xotinga yorilib qoldi.

Uning bu xil yorilishi qachon boshlangani noma'lum. Bir kuni oshxonaga kiriboq, o'zaro suhbatga tushib ketishdi: oziq-ovqatlar



qimmatlashib ketgani, sutning suyuqligi va umuman, kuyovlarning tanqisligi haqida. Sutchi ayol:

– To‘g‘ri, hamma narsani izlasa topish mumkin-u, lekin bu anqoning urug‘i, – dedi.

Tish doktori:

– Topish-tutishim yomon emas, – dedi. – Hamma narsa – uyim ham, sharoitim ham, pulim ham bor. Ko‘rinishim ham juda bedavo emas. Nachora, ikkinchi marta turmushga chiqishning hech iloji bo‘lmayapti. Gazetaga e‘lon bersa ham topilmaydi, chamamda.

– Gazetayam gap bo‘ldi-yu, boshqacharoq bir yo‘lini o‘ylash kerak, – dedi sutchi xotin.

– To‘g‘risi, men hatto pul ham ayamasdim, – dedi tish doktori, – haqiqiy erlik qiladigan kishi bilan tanishtirgani uchun pul ham bergan bo‘lardim.

Sutchi xotin:

– Qancha berardingiz? – deb so‘radi.

– Qanaqa odamning topilganiga qarab, – dedi doktor xotin. – Agar o‘sha kishi ziyoli bo‘lsa, yana albatta menga uylansa, hech o‘ylab turmasdan o‘ttiz so‘m shirinkoma bergan bo‘lardim.

Sutchi ayol taysalladi:

– O‘ttiz so‘m – bu kam. Keling, ellik so‘m bo‘laqolsin. Sizga shunaqasini topayki, o‘zingiz ham qoyil qolarsiz. Ko‘z ostingga olib qo‘yganim bor-da.

– Yo‘q, ehtimol, u ziyoli emasdir, – norozi bo‘ldi vrach ayol, – yoki biror lo‘ttivozdir.

– Qanaqasiga lo‘ttivoz bo‘lsin, – dedi sutchi ayol. – U o‘ta ziyoli yigit. Montyorlik qiladi. Yetti yillik maktabni to‘liq bitirgan.

– Yaxshi, men bilan tanishtiring, – dedi doktor xotin. – Hozircha xizmatigingiz uchun mana bu o‘n so‘mni olib turing.

Shunga kelishib, xayrlashishdi.

Shuni aytish kerakki, sutchi ayolning o‘z eridan boshqa ko‘z ostiga olib qo‘ygani yo‘q edi.

Katta pul sutchi ayolni hayajonlantirib yubordi, doktor xotindan pulni tezroq undirish uchun xayolida shirin rejalar tuza boshladi.

U uyiga qaytib, o‘sha zahoti eriga ro‘para bo‘ldi.

– Bir gap, Nikolasha, – dedi suyulib. – Osongina ellik so‘m ishlashning yo‘li topilib turibdi. Agar rozi bo‘lsang, shu pulni olib bema-lol yashash mumkin.

Bor gapni eriga aytib berdi: agar eri vrach ayol bilan to'satdan tanishtirishga rozi bo'lsa, o'sha boyvuchcha o'ylab o'tirmasdan unga ellik so'm berishi mumkinligini anglatdi.

– Agar o'sha beva nikohdan o'tishga qistagan taqdirda ham, – dedi u pirovardida, – bemalol rozi bo'laver. Hozir buni o'ylab o'tirmasa ham bo'ladi. Bugun ZAGS'dan o'tsang, erta yoki indin bemalol ajralib ketish mumkin.

Sutchi xotinning eri tushmagur mo'ylovchali, juda chiroyli yigit edi.

– A'lo! – dedi hayajon bilan. – Marhamat! Men roziman. Bekordan bekorga ellik so'm ishlashdan hamisha xursandman. Axir, boshqalar shuncha pul uchun bir oy ishlashadi. Nikohdan o'tish ham gap bo'ldi-yu.

Alqissa, ikki kundan so'ng sutchi xotin o'z erini tish doktori bilan tanishtiradi.

Tish doktori juda xursand bo'lganidan o'sha zahoti bir so'z ham demay, sutchi ayolga kelishilgan pulni sanab beradi.

Endi gapning bu tomonini eshiting.

Sutchi ayolning eri, mo'ylovchali, taniqli firibgar tezda vrach ayol bilan nikohdan o'tadi hamda vaqtincha unikida maza qilib yashay boshlaydi.

Besh kun yashaydi, bir hafta, keyin o'n kun yashaydi.

O'n birinchi kuni sutchi ayol kirib keladi.

– Ha, – deydi, – o'zi nima gap?

Montyor yo'taladi.

Qaytmaslikka qaror qildim, – deydi. – Endi shu vrach ayol bilan yashamoqchiman. Bu yerda yashash men uchun zavqliroq, – deydi.

Montyor o'zining bu qilmishidan qizarib ketgan bo'lsa-da, hech qanday sir boy bermay, o'z qarorida qattiq turib oldi. Vrach ayolnikida qoldi. Vrach ayol bu gapni eshitib bor ovozda xa-xolab kula boshladi. «Bu yerda majbur qilish yo'q, har kimning o'z mayli», dedi.

To'g'ri, shundan keyin sutchi ayol bu yerga yana ikki marta kelib, o'z erini qaytarish haqida janjallashgan bo'lsa-da, bundan biror ish chiqara olmadi. Buning ustiga, janjal va to'polonlarga chek qo'yish maqsadida sut keltirmaslikni aytishdi.

Shunday qilib, ellik so'm evaziga xasis va makkora sutchi ayol o'zining go'zal, ziyoli eridan ajraldi.

1931

---

<sup>1</sup> Nikohni qayd etish idorasi.

## «SADAQA»

Shu kunlarda hamma bir og‘izdan kulgili narsa yozishni iltimos qiladi.

Bilasizmi, go‘yo bu bizga bog‘liqdek. Go‘yo biz barmog‘imizni so‘rib o‘tirarmishmiz. Go‘yo kulgili voqealarni o‘ylashdan boshqa ishimiz yo‘qdek.

Shunga qaramasdan kulgili bir sarguzashtni aytishga ruxsat etasiz. Bu – haqiqiy turmushdan olingan.

Bir kuni kino oldida bir jononni kutib turardik.

Shuni ham aytish kerakki, bu go‘zal ko‘zga yaqin edi. O‘zi xizmatchi, nihoyatda ajoyib, bolasiz qiz.

Muhabbat ekan. Uchrashuvlar. Shunga o‘xshash har xil izhori dil-lar. Hatto qurilish mavzusida bo‘lmasa-da, «Qushlar qo‘nar butoqlar-dan butoqqa, Quyosh mehmon ham tog‘larga, ham boqqa» degandek she‘rlar ham bitildi.

Shu ma‘noda ayrim o‘rtoqlar dunyoqarashiga muhabbat yomon ta‘sir etadi. Ularda o‘ldim-kuydim va shunga o‘xshash boshqa xil insoniy hissiyotlar paydo bo‘ladi. Qushlarga, hatto odamlarga achinish, ularga yordam berish tuyg‘usi ko‘zga tashlanadi. Bizning kunlarimiz-da mutlaqo bo‘lmagan bir holat – yurakning allaqanday hayajoni oshadi.

Shunaqa, bir kuni ana shunaqa hayajonli yurak bilan kino oldida o‘z sevgilimni kutib turardim.

U xizmatchi bo‘lishiga qaramasdan, uchrashuvga vaqtida kelish-ning qadriga yetmas edi. Shaxsiy beparvolik oqibatida kechikishga odatlanib qolgan chamasi.

Shunaqa, kino oldida ahmoq bo‘lib, uni kuta boshladim.

Shunaqa, chiptaxona oldida odamlar oqimi. Kiringlar, degandek ko‘cha eshigi ham ochildi. Men bo‘lsam turibman. Quvnoq, harakat-chan. O‘ynagim, kulgim, har xil qiliqlar qilgim, kimnidir turtgim, ha-zillashgim, burnidan ushlab silkigim keladi. Qalbim kuy-qo‘shiq-larga limmo-lim, yuragim baxtdan tars yorilguday.

Bir payt qarasam, kiraverishda juda yupun kiyingan bir kampir tu-ribdi. Egnida yamoqli to‘qima ko‘ylak, ustidan eski nimcha, oyog‘ida yonlari yirtiq boshmoq.

Ana shu odmigina kampir kiraverishdagi eshik oldida turib, kira-yotganlarga biror narsa berarmikin, deya iltijoli qaraydi.

Uning o‘rniga boshqalar bo‘lganda ataylabdan ingichka ovozda kuylashar, yoki allaqanday fransuzcha so‘zlarni qalastirib, bezbetlik qilishardi. Kampir bo‘lsa nihoyatda kamtar, uyatchan.

Qalbimda insonparvarlik tuyg‘ulari jo‘sh urdi. Hamyonimni olib, undan tezda bir so‘m chiqardim-da, chin dildan, yengil ta‘zim qilib kampirga uzatdim.

Hayajondan uning ko‘zlarida marvarid yoshlar paydo bo‘ldi.

Kampir pulga qarab:

– Bu nima – deb so‘radi.

– Notanish kishilar qabul qilsangiz, onajon, – dedim.

Qarasam, uning betlari chuqur hayajondan bo‘rtib ketgandek bo‘ldi.

– Qiziq, – dedi u, – men sadaqa so‘ramadim, shekilli. Menga nima uchun bir so‘m beryapsiz?.. Ehtimol, birga kinoga kirish uchun qizimni kutayotgandirman. Hatto, bu xil dalillarni ko‘rishdan ham nomus qilaman.

– Kechirasiz, – dedim, – men... bu... tushunmay qoldim... Pardon. To‘g‘risi, bilmayman. Kinga nima kerakligi, kim nima uchun turganligiga aqlim yetmay qoldi. Shuncha xalq hazilmi?. Nima qilishni ham bilmay qolarkansan.

Juda noqulay, deb o‘yladim.

Ketmoqchi bo‘ldim.

Biroq kampir bor ovozda chinqira boshladi.

– Bu nima qiliq? – dedi u, – kinoga kirmoqchi bo‘lsang-u, ular sening shaxsiyatingni haqorat qilishsa? Shunday qilguncha qo‘llaringiz qurib, uzilib tushsa bo‘lmasmidi? Hozir qizim kelsin, siz bilan bir qatorda o‘tirib, buzilgan havodan nafas olguncha, yaxshisi, boshqa kinoga ketaman.

Kampirning qo‘llaridan ushlab, o‘tinib kechirim so‘radim. Jononni kutib turganimda, yana militsiya ko‘rib qolib, bir ishkal chiqarmasin, deb o‘ylab, chetroqqa o‘tmoqchi bo‘ldim.

Birozdan so‘ng sevgilim keldi. Men bo‘lsam haqorat qilgan kampir ko‘rmasin uchun atrofga qarashga ham uyalib, rangi-ro‘yim oppoq oqargan holda dovdirab turibman.

Chipta olib, mayda qadamlar bilan sevgilim tomon yurdim.

Xuddi shu asnoda orqadan kimdir kelib tirsagimdan tutdi.

Tezroq ketish maqsadida orqaga o‘girilgan edim, ro‘paramda o‘sha kampirni ko‘rdim.



– Kechirasiz, – dedi u, – hali sizni menga bir so‘m bermoqchi bo‘lgan?

Bir nima deb talmovsiragan edim, u so‘zida davom etdi.

– Esimda yo‘q, hozir kimdir menga bir so‘m berdi... Siz edingiz shekilli. Agar siz bo‘lsangiz, mayli, bera qoling. Qizim to‘g‘ri hisoblamabdi, ikkinchi qator biz o‘ylagandan qimmatroq ekan. Ketishga to‘g‘ri keladi. Iltimos, kechirasiz.

Hamyonimni olgan edim, sevgilim e‘tiroz bildirdi.

– Pulni sovurish zaril keptimi, – dedi. – Agar shungacha borib yetgan ekan, yaxshisi bu pulga bufetdan narzan olib ichaman.

Yo‘q, harqalay, kampirga bir so‘m berdim! Biz turli kayfiyatda kartinani ko‘rdik. Musiqa ohanglari ostida, sevgilim, tanishganimizga ikki hafta bo‘lishiga qaramasdan, hatto, biror shishacha atir sovg‘a qilmaganim, bu ham yetmagandek, arzimagan narsalarga pulni sovu-rayotganimni aytib, asabimni egovlay boshladi.

Eng oxirda quvnoq bir komediya ko‘rsatishdi. Biz hammasini unutib qah-qah otib kulardik.

1932

## QAHRAMONLAR SINOV I

Men, o‘rtoqlar, ikki marta frontda bo‘lganman – podsholik urushida va inqilob davri, fuqarolar urushida, aytish mumkin, o‘lgudek jang ham qilganman.

Faqat alohida qahramonlarni bilmayman.

Umuman olganda, qahramonlar bor edi. Ayniqsa, bir odam yuragimga chuqur o‘mashib qolgan.

Bu, harqalay, yirik inqilobchi, xalq yo‘lboshchisi, dohiy yoki Sibirni bo‘ysundirgan kishi emas edi.

U hisobchining oddiy yordamchisi, allaqanday Nikolay Antonovich edi. To‘g‘risi, hatto uning familiyasini ham unutib yuborganman.

Shu Nikolay Antonovich Aryupino shahar sovet xo‘jaligi boshqarmasida biz bilan birga ishlardi.

Men hech qachon idorada o‘tirib ishlashga ishqivoz emas edim. Doimo qandaydir bepoyon dala, hayvonlar, olmaxonlar o‘ynab yurgan qandaydir o‘rmon, yoki shafaq barq urib turgan qandaydir ulkan bir

kenglikni qo‘msardim. Velosipedda, tuyalarda yurgim, har xil so‘zlarni aytgim, ko‘ko‘par binolar, saroylar, temir yo‘llar va shunga o‘xshash narsalar bunyod etgim kelardi.

Yo‘q, peroni siyohdonga botirib o‘tirishga ishqivoz emasdim.

Shunga qaramay, menga siyohdon frontida javlon urishga ham to‘g‘ri kelgan.

Bu ishga bir qator baxtsiz sharoit majbur qilgan edi.

O‘shangacha sovxozda ishlardim. Quyunchilik va tovuqchilik bo‘yicha yo‘riqchilik lavozimini boshqarardim.

Shu lavozimda ishlar ekanman, g‘alati, nihoyatda ko‘ngilsiz bir voqea sodir bo‘ldi.

Ochig‘i, o‘rdaklarim ko‘lda cho‘kib keta boshladi. Mabodo menga, ya‘ni quyunchilik va tovuqchilik bo‘yicha sobiq yo‘riqchiga, o‘rdak suvda g‘arq bo‘ladi desangiz, men bunga sirayam ishonmagan va hatto javobiga masxaraomuz kulgan bo‘lardim. Aytish mumkinki, o‘rdak umuman suvga moslashgan jonzot, yoki parranda. U tabiatan suvga moslashgan. U o‘rdak, yoki baliqqa o‘xshab suvga sho‘ng‘iydi, suza oladi. Cho‘kib, yoki g‘arq bo‘lishi esa aqlga sig‘maydigan gap.

Faqat ayrim noma‘lum sabablarga ko‘ra, bizning o‘rdaklar ko‘lda cho‘kib keta boshladi. Tovuqlar ham ular bilan bir vaqtda g‘arq bo‘lardi. To‘g‘ri, tovuqlarning cho‘kishiga unchalik ajablanmasa ham bo‘ladi, chunki tovuqlarning tabiati shunga moyil. Lekin o‘rdakning cho‘kishi sirayam aqlga to‘g‘ri kelmaydi.

Shunga qaramasdan, o‘rdaklarim cho‘ka boshladi. Bir oy davomida o‘ttiz oltita o‘rdagim cho‘kib ketdi.

O‘rdaklarim g‘arq bo‘lyapti. O‘zim esa quyunchilik va parrandachilik bo‘yicha yo‘riqchiman. Shu xil ishlardan yuragim uvishib, qo‘llarim sovub, oyoqlarim shalvirab qoldi.

Bu ishni kuzata boshladik. Qarasak, hammasi joyida. Ko‘l muzida o‘yilgan teshik. O‘rdaklar suzib, sho‘ng‘ib yurishibdi.

Mana, ular suzib, sho‘ng‘ib, yayrab yurishibdi. Qarasak, ular muzdan qaytib chiqisha olmayapti.

Ayrim kuchliroq, tadbirliroq o‘rdaklar o‘z aka-ukalarining yordamida bir amallab muzdan chiqib olishadi. Ular boshqa kichik o‘rdaklarning boshiga bezbetlarcha oyoq bosib, o‘zlarini yuqoriga, muzdan tashqariga olishadi.

Holdan toygan keyingi o‘rdaklar, nimaga suyanishni topa olmay, baxtga qarshi cho‘kib ketishardi. Ular bir necha soat suzishar, bor

ovozda qichqirishar, nihoyat holdan toyib, muz o'yilgan teshikdan chiqa olmay g'arq bo'lisharkan.

Shunda qo'shni sovxoz dehqonlari:

– Nima qilyapsizlar o'zi, – deya maslahat berishdi. – Kallavaramlar, bunaqada butun jonzotlaring o'lib bitadi-ku. Yaxshisi, muzni kattaroq o'yinglar-da, bu tomoniga qum sepinglar. Aks holda, bittayam parranda qolmaydi.

Haqiqatan ham biz tomonimizdan tushunmaslik, to'g'rirog'i jinoiy qarovsizlik sodir bo'lgan ekan. O'shanda tovuqchilik bo'yicha bir amallab imtihon topshirgan bo'lsak-da, tovuqchilikning nozik sirlarini yaxshi o'rganmagan ekanmiz. Chunki imtihonni ocharchilik davrida, hatto quloqqa imtihon ham kirmaydigan paytda topshirgan edik. Buning ustiga, imtihon ancha janubiy rayonda olingan bo'lib, u yerda deyarli qish bo'lmay, muzdan esa asar ham yo'q edi. Qisqasi, bu xil savollar bizga berilmagan va biz bu haqda tasavvurga ham ega emas edik.

Sovxozimiz yigitlariga kelsak – ular bu masalada bir narsalarni bilsalar-da, lom-mim deyishmasdi. Chunki, bu ularga qo'l kelardi. G'arq bo'lgan o'rdaklar akt<sup>1</sup> qilingach, ular shu o'rdaklarni izlab topib, qovurishar, dimlashar, qaynatishar, keyin bo'tqa yoki olma bilan maza qilib tushirishardi.

Shunday qilib, o'ttiz oltita o'rdagimning cho'kib ketganligi haqidagi masala yuqori boshliqqacha ko'tarildi.

Boshliq bizni boshqarmaga chaqirib, turli xildagi fosh qiluvchi, ibratomuz so'zlar bilan do'q urdi.

– Shunday tajribali, tushungan, odobli, hatto fuqarolar urushining dastlabki yilida yarador bo'lgan kishi nahotki o'rdaklarning cho'kib ketishiga beparvo qarasa? Axir, bu iqtisodiy aksilinqilobchilik, qolaversa, angliya kapitali tegirmoniga suv quyish yoki josuslik emasmi? Agar shunday davom etarkan, siz bu lavozimga loyiq emassiz. Albat, biz Sizni bo'shatmaymiz, lekin bir yaxshilik qilib, o'zingiz bu ishdan keting. Qurib ketsin, o'sha boshqarmaga borib, jildlarga qog'oz tikib o'tirsangiz ham bo'ladi.

Boshliq shu xildagi fosh qiluvchi nutqidan so'ng meni idorada ishlashga yo'lladi.

Shunday qilib, sovxozlar boshqarmasi idorasiga kelib, o'zimning bevosita xizmat vazifamga kirishdim.

<sup>1</sup> Yo'qotilgani to'g'risida dalolatnoma.



Boshqarmada Shamshurin degan kishi komissarlik qilardi. O‘zi Qora dengiz matrosi. Fuqarolar urushining qahramoni, ikki marta yarador bo‘lgan, dovyurak kishi. Biroq, u ham haqiqiy qahramon emasdi. Haqiqiy qahramon hisobchi Nikolay Antonovich ekan.

Ana shu komissar Shamshurin juda qattiqqo‘l rahbar edi. U kechikishga yo‘l qo‘ymas, arzimagan narsa uchun idora xodimlarini qalastirib so‘kar, ularni kommunizm ishiga befarqlikda ayblardi. Shu masalada u qattiq qayg‘urar va hayajonlanardi.

– Hozir ham jinday erk berilsa, – derdi u, – darhol boshqa yoqqa og‘ib ketasizlar. Mabodo oq gvardiya yana qaytgudek bo‘lsa, o‘sha zahoti darrov orqa o‘girilib, turli xildagi podsholik va dvoryancha so‘zlarni ayta boshlaysizlar.

Haqiqatan ham oqlar fronti bizdan unchalik uzoqda emasdi. Yo‘q, hali u bizgacha yetib kelmagan. Biroq, bu front oldinga qarab harakat qilar, gohida biz Smolensk gubernasidagi Aryupino shahri qo‘ldan ketse kerak, deb kutardik.

Oqlar fronti yaqinlashgan sari, harbiy komissarimiz Shamshurin battar qahr-g‘azabga minardi.

U nihoyatda hayajonlanar, barchani og‘izga olib bo‘lmaydigan so‘zlar bilan haqorat qilar, har bir kishidan III Internatsional boshchiligidagi kommunistik harakat tomondami, yoki dvoryanlar sinfi tomondaligini qayta-qayta so‘rardi.

Albatta, hamma komissarni o‘zining mustahkam e‘tiqodi haqida ishontirishga harakat qilar, qasam ichar, hatto o‘zlaridan asossiz shubhalanganliklari uchun xafa bo‘lishardi.

Qisqasi, bir kuni komissar Shamshurin idorada bizga qarshi bir nima uyushtirgani uchun o‘z vazifasidan olib tashlandi. Qattiq hayfsan e‘lon qilishdan tashqari, o‘ng-so‘l og‘ishliklar va mansabini suiiste‘mol qilganligi uchun uni boshqa shaharga jo‘natishdi.

Aslida esa komissar xizmatchilaridan qay biri dushman ta‘sirida va qay birlari mehnatkashlar hokimiyatini qattiq qo‘llab-quvvatlashlarini bilmoqchi edi.

Yo‘q, hozir buni eslashning o‘zi ham g‘alati. Bu nihoyatda qaltis hazil edi. Hammasi oq-qora ip bilan ko‘klangan bo‘lishiga qaramasdan, odamlar bu hazilni issig‘ida yo sezishmadi, yoki oddiy hol deb tushunishdi.

Harbiy komissar Shamshurin mana bunday qilgan edi:

Oqlar fronti juda yaqin qolgan, hatto odamlar har kuni ko‘ngilsiz voqealar ro‘y berishi va hukumat almashinuvini kutishardi.



Shunda komissar Shamshurin o'zining maslakdosh o'rtog'i bilan quyidagicha kelishadi; Do'stiga yap-yangi sariq kitel kiydiradi, qo'liga kumush soqqachali hassa beradi, boshiga yangi kepka, oyog'iga baland poshnali shavro etik kiydiradi. Ertalab azon bilan uni yangi dvoryanlar hokimiyatining vakili sifatida o'z o'rniga o'tqazib qo'yadi.

O'zi esa yon tomondagi qaznoqchaga joylashib olib, darchadan o'z ko'zi bilan kuzata boshlaydi.

Albatta, bu manzarani hozir juda kulgili deb tasavvur qilish ancha qiyin. Biroq, o'shanda xizmatchilar har kuni bolshevizmning qulashi haqida asabiylashib, vahimaga tushgan pallada hech narsani sezmagan edilar.

Shunday qilib, ertalab hamma xizmatchilar to'planishdi.

Komissar tomonidan rozi qilingan qorovul Fyodor, eshik oldida turarkan, bolshevizmning qulaganligi haqida dvoryancha bir shior aytib, bir nimalar dedi. Keyin har bir xizmatchi navbat bilan boshliq oldiga kirib, ta'zim qilsin, deb buyurdi.

Shunda xizmatchilar hang-mang bo'lishdi va birin-ketin kabinetga yo'l olishdi.

Shunda yangi boshliqni mag'rur, dvoryancha vajohatda ko'rishdi. Uning qo'lida hassacha. Ko'zlari porlab turibdi. Uyalmasdan matn teruvchi oldida ham og'zidan bodi kirib, shodi chiqib turardi.

– Men, sen iflos qizillarni, – derdi, – tram-traram qilaman. Men sizlarga inqilobiy ko'tarilishni ko'rsatib qo'yaman. Men tram-traram qilib, senlarga dvoryan yerida turli xil kolxoz, sovxozlar va boshqa xil siloslar o'rnatishingga yo'l qo'ymayman...

Shunda, albatta, kirgan xizmatchi taysallab, o'zini yo'qotadi, kechirim so'raydi, qo'llarini silkitib, qanaqa inqilob, qanaqa silos degandek kulgili holga tushadi... Bizga nima... biz juda xursandmiz, deyshadi...

Qaznoqchada o'tirib, tishlarini g'ijirlatib, g'o'ldirayotgan komissarning ovozi yangi boshliqning baqiriq-chaqiriqlari va haqoratli so'zlari bosib tushardi.

O'n nafar xizmatchidan olti nafari so'roq qilindi.

Uch kishi qo'rquvdan kipriklarini pipiratib, bir nimalar dedi. Bitta hayvoni esa, yangi boshliqqa o'tgan-ketgandan gapirdi. Boshqasi esa, o'zi dvoryanlardan bo'lmasa-da, anchadan beri shu sinfga mansubligi va o'tmishda ularnikiga tez-tez mehmonga borib turishi, bu guruhdan

roziligi, turli xil shirinliklar, murabbolar, tuzlangan qo'ziqorinlar haqida uzoq aljiradi.

Shamshurin bo'lsa darchadan qarab turib, tishlarini g'ichirlatadi, lekin miq etmaydi.

Birdaniga hisobchi Nikolay Antonovich kirib qoladi.

– To'xtang, – deydi u, – ko'p baqirmang, hassachangizni ham silkitmang. Savol bering. Men javob beray.

Yangi boshliq:

– Tram-traram, – deydi, – bizning eski dvoryanlar hokimiyatiga xizmat qilasan.

– Xizmat qilaman? – deydi Nikolay Antonovich, – mening oilam bor, buning ustiga sizlarga xizmat qilishga unchalik xohishim yo'q.

– Tram-traram, – deydi, – nega endi xohishing yo'q ekan?

Shunda Nikolay Antonovich:

– Men kommunist bo'lmasam-da, – deydi qat'iy, – lekin inqilob uchun qon to'kkanman. Va men hamisha Sovetlar hokimiyati tomonida turganman va dvoryanlar hokimiyatidan hech qachon yaxshilik ko'rmaganman. Shuning uchun men o'z e'tiqodim haqida ochiq gapiraman, u yog'ini o'zingiz bilasiz.

U shunday dedi, bir vaqt qarasa sariq kitelli kishi jilmayib turibdi.

Qaznoqchada ham bir narsa taqirladi. Bu komissar Shamshurin bo'lib, hayajondan stuldan ag'darilib tushgan edi.

U stuldan yiqilgach, o'rnidan tura solib xonaga qarab yugurdi.

– Qani, qani u? – dedi, – to'xtanglar, men uni quchaman! Jo'rajonim, Nikolay Antonovich, endi men seni bir umr unutmayman. Endi sen mening tug'ishganim, sut emishganimsan.

Shunday deganicha uni mahkam quchoqlab, lablaridan o'pdi va mehribonlik bilan o'z stoli tomon boshladi. Uni choy-non, tovuq go'shti bilan siylab, u bilan siyosiy mavzuda uzoqdan uzoq suhbat o'tkazdi.

Shunda hamma nima bo'lganini bilib qolishdi. Nihoyatda qo'rqib ketishdi. Yangi boshliqning qulog'iga bir nima deb shivirlagan kishi o'zini oynadan otmoqchi bo'lgan edi, ushlab qolishdi.

Deyarli falokat ro'y bermadi. Hech qanday jazo ham qo'llanmadi. Hech narsa ro'y bermagandek bemalol, xizmat qilishaverdi. Faqat birlarining ko'zlariga tik qarashga uyalishardi.

Shu voqeaning ertasi kuni komissar Shamshurinni qing'irligi uchun javob berishga chaqirishdi. Darhol uni boshqa shaharga ishlash uchun jo'natishdi.

Bu voqea shu yo'sinda nihoyasiga yetdi.

Nikolay Antonovich avvalgidek ishlay boshladi, shundan keyin u bilan nima voqealar bo'lganini bilmayman.

Albatta, siz, hatto dvoryanlarga xizmat qilishga rozi bo'lgan bu kimsa qanaqasiga qahramon bo'lsin, deb so'rarsiz.

Faqat bir narsani aytishga ruxsat berasiz. Men har xil odamlarni juda ko'p ko'rganman. Og'ir turmush sharoitida o'z xarakter va qarashlarini tezda o'zgartira oladigan kishilarni ko'rganman, mening ojiz fikrimcha, Nikolay Antonovich haqiqiy mard, haqiqiy qahramon.

Bunga qo'shilmagan taqdiringizda ham, baribir, men o'z fikrimda qolaman.

1932

## OYDAN TUSHGAN

### 1

Keyingi ikki yil mobaynida hayot tubdan o'zgardi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, o'g'rilikka deyarli chek qo'yildi.

Hamma allaqanday ijobiylashib, jiddiylashib qoldi. Odamlar kam o'g'irlik qiladigan bo'lishdi. Pora ham olishmaydi.

Bunaqada satirikning do'koni batamom kasodga uchrashi mumkin.

Albatta, pora masalasi birmuncha murakkabroq.

Pora olishmaydi, biroq «qurug'i» gazaklagan. Ommani yangicha axloq ruhida qayta tarbiyalash ancha mushkul masala. Shuning uchun ham ba'zan nega, nima uchunligiga aqling yetmay, yurak hovuchlab qolarkansan.

Yaqindagina shu borada g'alati bir g'irromlikka duch keldim. Bu janubda yuz bergan edi. Boshqalarga o'rnak bo'lsin uchun hozir shu voqeani aytib bermoqchiman.

Qisqasi, bir mehmonxonada mendan «qadam haqqi» undirib olmoqchi bo'lishdi. Boshqacha qilib aytganda – pora olmoqchi bo'ldilar.

Tabiiy, avvalroq, – bundan bir necha yil burun shu arziyas mavzuda taxminan quyidagicha hikoya yozgan bo'lurdim.

## 2

Shunday qilib, og'aynijonlar, kamina kemada ketyapman.

Chor atrofim yaltiragan Qora dengiz. Misli ko'rilmagan go'zallik. Qoyalar. Burgutlar parvoz qiladi. Bularning hammasi borliq. Albatta, bor narsaning hammasi bor-da.

Shunday go'zallikka tikilib turib, odamlarga nisbatan hurmat-ehтиromim oshib ketadi.

«Qarang, – deb o'ylayman, – inson butun mavjudotning sarvari. Istasa – u kemada suzadi, istasa – burgutlarni kuzatadi, istasa – hozirning o'zidayoq qirg'oqqa tushib, mehmonxonaga joylashadi».

Shunaqa, ko'ngil quvonchlarga limmo-lim.

Faqatgina bir o'ygina xursand bo'lishga monelik qiladi: Kemadan tushgach, oddiygina bo'lsa-da, katalak bir xona menga nasib qilarmikin?

Kemada suzyapmiz, zerikaman, kapitan bo'lsa:

– Qiziq, – deydi menga yaqin kelib, – to'g'risi, Siz bechoraga qarab turib, achinib ketyapman. Qayoqqa boryapsiz o'zi? Biror ko'ngil to'laringiz bormi? Yoki Oydan tushganmisiz?

– Nima edi? – dedim.

– Hech nima, – deydi, – axir bu qanaqasi? Go'dak emassiz-ku. Qayerga joylashmoqchisiz? Kemaga nega o'tirdingiz? Men u yerga bormasligingiz uchun kemani iziga qaytarishga ham tayyorman.

– Mayli, – deyman, – yordamlashasizmi?

– Qanaqasiga? Xona olish uchun tanishingiz bordir yoki bandargoh xo'jayini sut emishgan akangizmi? Men sizga hayronman, – deydi.

– Nachora, – dedim, – bir iloji topilar. Shunday bir o'g'il bolacha so'zni bilamanki, – dedim, – ro'para kelganda har qanday mehmonxonaning eshigi o'z-o'zidan ochilib ketadi.

Kapitan:

– Balo pastiga, – deydi, – mendan – ogohlantirish. U yog'i – o'zingizga havola. Bo'lar endi, keldik, kemadan tushsangiz-chi.

Shunday qilib yetib ham keldim.

Qo'limda ikkita yuk: bittasi ko'rimsizgina, oddiy sovet savatchasi, ikkinchisi esa karton, to'g'rirog'i fanerdan qilingan zo'r jomadon.



Savatchani gazeta sotadigan kishining yonida qoldirdim. Katak astarli xalqaro rezina paltomni bilagimga tashlab, eksport jomadonim bilan mehmonxonaga kiraman.

Darbon yo‘limni to‘sdi.

– Bekorga kiryapsiz – joy yo‘q.

Navbatchiga yaqinlashib, buzilgan tilda:

– Yeyn shamber-simmer, – dedim dadil, – yavol?

Navbatchi:

– Voy, otaginam, haliga qadar bizga chet ellik kirmagan ediya, – dedi va u ham g‘alcha tilda: – Yavol, yavol, – dedi. – To‘g‘ri, shammer-simmer, so‘zsiz yavol. Bir daqiqa, bitte-dritte. Hozir birorta tuzukroq, kanasi kamroq nomerni tanlaymiz.

Men savlat bilan qaqqayib turibman, lekin vujudimda mayin bir titroq.

Begona tilda gapirishga ishqivoz navbatchi tag‘in so‘radi.

– Pardon, – dedi, – kechirasiz, janob. Bu zet Germaniya, oder, ehtimol, boshqa biror narsa kerakdir?

«Jin ursin, – deb o‘ylayman, ehtimol, u nemischasiga «O‘lat senga deyaotgandir?»

– No, – dedim, – ix bin eyne shammer simmer Ispaniya. Komprene? Ispaniya. Padespan. Kamarilya.

Shunda navbatchi batamom aqldan ozdi.

– Otaginam, – deydi, – bizlarda biror marta ham ispanlar bo‘lishmagan. Bir daqiqa, – dedi. – Bilaman, bo‘lmasamchi, – dedi, – eshitganman. Ispaniya, padespan, espanolka...

Qarasam, uning ham qo‘llarida titroq. Uniki birmuncha kuchliroq titrab turibdi. Ikkalamiz titrab gapiramiz.

Men buzilgan ispan tilida:

– Yavol, – dedim, – bitte-sirbitte. Mening jomadonimni nomerulloga obkeling. Keyin, yana nima kerakligini gaplashib olamiz.

– Yavol, yavol, – dedi navbatchi, – aziyat chekmasinlar.

O‘zi bo‘lsa hisob-kitobdan so‘z ochib turibdi.

– Qanaqasiga to‘laysiz? – deydi. – In valyut, oder, yoki bizning pulimizgami?

Shunday deganicha chet ellik mehmonlarga tushunarli bo‘lsin uchun barmoqlari bilan nol va turli raqamlarni ko‘rsata boshladi.

– Bunga aqlim yetmaydi, – dedim, – tezroq jomadonni olib kel.

Bo‘lmani egallab olay, mayli, undan keyin meni pishirib yesinlar, deb o‘y layman.

Mana, u mening jomadonimni, oldi. Shunday ehtiyotkorlik va chaqqonlik bilan ko‘tardiki, go‘yo jomadonning qulflari o‘z-o‘zidan ochilib ketadiganday.

Darhaqiqat, shunday bo‘ldi. Kasofat jomadonim to‘satdan ochilib ketib, undan turli xildagi arzimas qaqir-ququrlar to‘kildi. Nima ham bo‘lardi, deysiz, yamalgan ichki kiyim, uniqqan ishton, «Kil» nomli sovun va yana mamlakatimizda ishlab chiqarilgan boshqa xil matohlar.

Bu buyumlarni ko‘rgan navbatchining rangi qum-qut oqarib ketdi va shu onning o‘zida tushunib qoldi.

– Qalaysan endi, muttaham, – dedi, – qani, hujjatlaringni ko‘rsat.

Men bo‘lsam:

– Meniki bilmaydi, – dedim, – agar joy bo‘lmasa, mayli, ketaqolay.

Navbatchi darbonga:

– Ko‘rdingizmi, – dedi, – bu iflos chet elliklar bayrog‘i ostida ish ko‘rmoqchi bo‘lgan.

Hamma qaqir-ququrlarimni yig‘ishtirib, qochib qoldim.

– Nihoyat, shu yo‘l va yana ellik so‘m badaliga boshqa mehmonxonadan joy oldim.

### 3

Bundan ikki-uch yil avval shu mavzuda taxminan ana shunday osongina hikoya yozgan bo‘lardim.

Albatta, bu yoshlik. Farosatsizlik. Voqea-hodisalarga bir tomonlama qarash oqibati.

Hozir esa butunlay boshqacha. Endi haqiqatga yaqinroq ish tutiladi. Mubolag‘a, to‘qima va oshirib-toshirishlardan uzoqroq bo‘lish tuzuk. Har xil masalacha, fard va qaynovlarni yozging kelmay qolarkan.

Bir so‘z bilan aytganda, haqiqatgo‘y bo‘lish, yolg‘on-yashiq so‘zlamagan ma‘qulroq ekan.

Endi shu mavzudagi hikoya aynan bo‘lgan voqea asosida, birorta ham ortiqcha so‘z ishlatmasdan, bezab-bejamasdan, ustalik bilan quyidagicha tasvirlanadi.

Kemadan tushib to'g'ri mehmonxonaga yo'l oldim. Navbatchi istehzoli jilmayganча, go'yo menga emas, chetga qarab gapira boshladi.

– Azbaroyi savob, bilasizmi, shu zamonning odamlariga ham hayronsan. Kema kelishi bilan hammasi biz tomon yopirilishadi. Ataylab shunday qilishadi. Go'yo ular uchun bu yerda joylar tayyor turganday. Menga qarang, nima Siz Oydan tushganmisiz o'zi? Nahotki ahvolni tushunmasangiz.

Ketmoqchi bo'lgan edim, darbon yengil xo'rsinib olib, menga dedi:

– Endi, bilasizmi... joy topish juda mashaqqat. He, qurib ketsin shu joy ham. Hech qayerda yo'q. Bizda, albatta, topilishi mumkin, lekin... Siz navbatchi bilan yaxshiroq gaplashib ko'ring-chi...

– Jin ursin, – dedim, – ochiqroq gapirsangiz-chi?

Navbatchi o'z idorasidan mening boshim uzra darbonga dedi:

– Sizga ham hayronman, Fyodor Mixaylovich! Bizda bo'sh joy nima qiladi? Qayerdan oldingiz bu gapni? To'g'ri, bitta xona bor, lekin o'zingiz yaxshi bilasiz uning ham kaliti yo'q. Istasa – mayli, olsin.

– Kalitsiz bo'lsa ham mayli, beraqoling, – dedim.

– Kalitsiziga ham rozimisiz? – dedi navbatchi. – Oling. Lekinchi, ehtiyot bo'lish kerak. O'g'ri tushishi mumkin. Pardalarni shilib ketishsa, to'lov berishingizga to'g'ri keladi.

– Kiritsangiz bo'lgani, – dedim, – hech bo'lmasa xonadan tashqari chiqmasdan yotarman. Kirita qoling. Dengizda kema qattiq chayqalib, batamom holdan toyganman.

– Oling, – dedi navbatchi, – faqat yana bir karra eslatib qo'yay, kalit yo'qolgan, xona esa qulflog'lik. Ehtimol, Siz kalit yo'qolgan bo'lsa-da, xona ochiq turgandir, deb o'ylasangiz kerak.

– Kechirasiz, ichkariga kira olmasam, bu xil joy menga chikora? – dedim.

– Bilmayman, – dedi navbatchi, – xohishingiz.

Darbon menga yaqin kelib:

– Sizga yaxshi bir maslahat beraman, – dedi.

Unga uch so'm qistirdim.

– Mersi, – dedi, – istasangiz hozir hovliga chiqib kelaman. U yerda chilangar ishlayapti. U ochqich bilan xonangizni birpasda ochib beradi.

Chilangar ham keldi.

– Himm, – dedi u, – gap buyoqda deng hali. Tushunarli. Eshik ochish bir chaqalik ish deb o‘ylasha kerak-da. Koshki yuqori qavatga chiqib-tushish oson bo‘lsa. Holbuki, – dedi, – o‘zimming har bir soat vaqtimni valyutaga chaqib hisoblayman.

Chilangarga besh so‘m berdim.

U ochqich bilan eshikni ochdi va do‘stona ohangda:

– Ana Sizga, – dedi. – Bo‘lmasam-chi. Tushunarli. Kalitsiz yashashning qizig‘i yo‘q. Axir, ehtimol, ovqatlangingiz kelib qolar, yoki biror yoqqa suv ichgani chiqarsiz. Kalit bo‘lmasa qiyin-da. Ahmoq bo‘lib kuni bo‘yi o‘tirishga to‘g‘ri keladi.

– Shunday, – dedim, – odam yollashga to‘g‘ri keladi.

– E, yo‘q, – dedi, – pulni bekorga sovrishning nima hojati bor. Eski kalitlar orasidan Sizga birorta kalitcha tanlab berishga urinib ko‘raman. Bor-yo‘g‘i sakkiz so‘m bo‘ladi.

Kalit ham tanlandi. Karavotda fon baronlardek yotibman. Qo‘shni bo‘lmadagi patefondan janob Vertinskiyning qo‘shig‘i yangraydi. Tashqariga chiqib, u yoq bu yoqlarni aylanib kelaman. Qo‘limdagi kalit bilan o‘zimni yon qo‘shnilar darajasida his etaman.

Kechqurun aylanib kelishga otlanayotgan edim, navbatchi:

– Bilasizmi, – deb qoldi, – qurib ketgur, anovi kalit bilan Sizni ancha ovora qildik-da. Yo‘qolgandir, deb o‘ylasak, boshqa mixga ilingan ekan.

– Juda qiziq-ku, – dedim, – joyning o‘zi besh so‘m tursa-da, qo‘shimcha xarajatlari o‘n olti so‘m bo‘larkan-da.

– Qanaqasiga o‘n olti so‘m? – dedi navbatchi, – sakkiz so‘m emasmi?

– Yo‘q, o‘n olti so‘m, – dedim, – darbonga – uch so‘m, chilangarga – besh so‘m, kalit uchun – sakkiz so‘m.

– Qanaqa kalit?

– Chilangar tanlab bergan kalit-da, – dedim.

– To‘xtang-chi, – dedi u, – aytdim-a. Mana shu yerda ilig‘li turgan edi, hozir yo‘q. Qarab tursin, men unga...

– Sizlarda o‘ziga xos «Qo‘ynidan to‘kilsa-qo‘njiga» degan guruh borgan o‘xshaydi, – dedim.

Navbatchi ish haqining kamligidan nolib bir nimalar deya to‘ng‘illadi, shang‘illadi, keyin qo‘l silkib orqa o‘girildi-da, yangi kelgan mijoz bilan gapirisha boshladi.



– Bitta xona bor, lekin kaliti yo‘q.

Ko‘p o‘tmay, bu mehmonxonadan jo‘nab ketdim.

Temir yo‘l chiptalari bilan ham shu xil paysalga solish va ortiqcha xarajatlar bo‘lsa kerak deb o‘ylagan edim, harqalay yanglishibman. Chiptani tanish-bilish orqali qancha tursa, o‘z narxida olishga muvaffaq bo‘ldim. Shunday qilib, janubdan ruhiy bir osoyishtalik bilan qaytdim.

1932

## SHAXSIY HAYOT

Birda ko‘chadan ketayotgan edim, negadir xotin-qizlar menga qarashmayotganini sezib qoldim.

Avvallari yo‘liga bashang bo‘lib ko‘chaga chiqqaningda hamma senga qarashar, suzilishib, havoyi nigoh tashlashar, jon o‘rtovchi tiki-lishlar bilan tabassum hadya etishardi.

Endi esa butunlay boshqacha.

Ana shunisiga achinaman-da. Harqalay, xotin-qizlar kishining shaxsiy hayotida muhim rol o‘ynarkan, deb o‘ylayman.

Bir burjua iqtisodchisi, to‘g‘rirog‘i, kimyogari nimaiki qilgan bo‘lsak, shaxsan o‘zimiz uchun emas, xotin-qizlar uchun qilamiz, degan g‘alati fikr aytgan. Aytmoqchi, kurash, shuhrat, boylik, obro‘-e‘tibor, uy almashish, palto xarid qilishga o‘xshash barcha ishlar xotin-qizlar xohishi uchun qilinadi.

Albatta, burjuacha xushchaqchaqlik yo‘lida biroz oshirib, yolg‘onlagan bo‘lishi mumkin, lekin shaxsiy hayot masalasiga kelganda men u bilan yakdilman.

Xotin-qizlar shaxsiy hayotda birmuncha rol o‘ynaydi, deganiga qo‘shilaman.

Gohida kinoga borganingda yomon manzaraga ko‘z tashlashdan ham uyalmaysan. U yerda qo‘lchalarni silaysan, har xil bema‘ni gap-larni aytasan – bularning barchasi zamonaviy san‘atni va shaxsiy ha-yotimizning kambag‘alligini to‘ldiradi, uni bezaydi.

Shunaqa, birda xotin-qizlarning menga qaramay qo‘yganligini sez-ganimda qanday ahvolga tushganimni tasavvur qilib ko‘ring! «Qurib ketsin, o‘zi nima gap? Nega xonimlar menga qarashmaydi? Nimadan ekan-a? Ularga nima kerak o‘zi?», deb o‘ylayman.

Uyga qaytdim-u, o'sha zahoti oynaga qaradim. Unda g'ijimlangan basharamni ko'rdim. Qarashlarim ham ma'nisiz. Rangimda esa rang yo'q. «Ha-ha, buyog'i tushunarli, → dedim o'z-o'zimga. – Ovqatlashga zo'r berish kerak. Nursiz qiyofamni qon bilan bo'yamoq kerak».

Shunday qilib, shoshilinch ravishda turli xil yemishlar xarid qildim. Saryog', kolbasa, kakao va yana boshqa narsalar sotib oldim. Shularning hammasini to'xtovsiz yeb, icha boshladim. Qisqa muddat ichida ancha to'lishib, bardamlashib qoldim. Yuzlarimdan nur yog'iladi.

Shu ko'rinishda ko'cha aylanaman. Biroq, avvalgidek hamon xotin-qizlar menga qarashmasdi.

«Ha-ha, – dedim o'z-o'zimga, – ehtimol, raftorim o'zgarib ketgandir. Ehtimol, menga gimnastik mashqlar yetishmas, halqaga osilib, uzoqqa, yoki balandlikka sakrasammikan? Ehtimol, odatda xotin-qizlarning ko'zini o'ynatuvchi mushaklar yo'qdir menda». Turli xildagi gimnastik ashyolar sotib oldim. Halqa, tosh, yana qandaydir alohida ryuk.

Halqa va boshqa moslamalarda ahmoq bo'lib tortinaman, aylanaman. Ertalablari ryukda mashq qilaman. Qo'shnilarga tekinga tarasha yorib beraman.

Eng oxirda sport to'garagiga yozildim. Qayiqda suza boshladim. Zo'r berib eshkak eshaman. Noyabrgacha cho'mila boshladim. Bir kuni cho'kib ketishimga sal qoldi. Yaxshi suza olmasligim esimdan ko'tarilib, eng chuqur yerga sho'ng'ibman, bir payt suv yutib, nafasim qaytdi.

Mashqlar bilan yarim yil o'tib ketdi. Hayotim bir necha bor xavf ostida qoldi. Trapetsiyadan yiqilib, ikki marta boshim yorildi.

Ana shu qiyinchiliklarni mardonavor yengib, ajoyib kunlarning birida quyoshda qorayib, prujinaday tarang, baquvvat holda ko'chaga chiqdim. Zora xotin-qizlarning unutilgan xayrixoh tabassumiga endi sazovor bo'lsam.

Biroq bu xil tabassumni yana uchratmadim.

Shundan keyin derazani ochib qo'yib uxlaydigan bo'ldim. O'pkam toza havoga lim-lim to'la boshladi. Betlarim qip-qizarib, oqi oqqa, qizili qizilga ajraldi. Hatto qiyofam binafsharang tusga kirdi. Binafsharang qiyofa bilan bir kuni teatrga yo'l oldim. Teatrda bamisoli tantakdek xotin-qizlar gavjum yerda o'ralashaman, ayrim erkaklarning g'ashiga tegib, gohida ulardan turtki yeb, turli qiliqlar qilaman. Oqi-

bat, qarasam, mening holimga achinib turgan ikki-uch xil tabassumni ko'rdim, xolos. Bundan battar afsuslandim.

O'sha yerda, teatrda kattakon oyna oldiga kelib, kelishgan, mustahkam qomatim va oltmish besh santimetrcha keladigan ko'kragimga qarab faxrlanaman.

Qo'llarimni bukib, ko'kragimni keraman, baquvvat oyoqlarimni dam unday, dam bunday qo'yaman.

Shunday ajoyib, kelishgan qomatga xotin-qizlar nega qarashmaydi, ko'zlarini yog' tutganmi, it bilsin, ularga nima kerak o'zi, deya hayron bo'laman.

Katta oyna oldida turib, o'z-o'zimga havas bilan tikilar ekanman, tuzuk kiyinmaganimni sezib qoldim. Ochig'ini aytsam, juda xarob va aftoda kiyingan ekanman. O'zimni tizzasi siyqalangan kalta shimda ko'rib, uyatdan titrab ketdim.

O'zimning pastki kiyimlarimga qarar ekanman, hayratdan shundayam qotib qoldimki, bu hol birorta ham badiiy asarda tasvirlanmagan.

«Ha-ha, endi tushundim, – dedim o'z-o'zimga. – Yomon kiyinishim shaxsiy hayotimga dog' solib turarkan».

Oyoq-qo'llarimdan mador ketib, uyga qaytarkanman, kiyimlarimni tezda almashtirish uchun o'z-o'zimga so'z berdim.

Shoshilinch suratda yangi kiyimlar sotib oldim. O'zimga binafsharang movutdan so'nggi modada kostum tiktirdim. Ikki tomoni galfeli<sup>1</sup>, «Oksford» shimidan sotib oldim.

Yangi modadagi kostumda o'zimni xuddi havoda uchib yurgandek his qilaman.

Bozordan yelkalari keng palto sotib oldim. Dam olish kunlarning birida Tver xiyoboniga chiqdim.

Tver xiyoboniga chiqib, bamisoli o'rgatilgan tuyadek harakat qila boshladim. Dam u yoqqa yuraman, dam bu yoqqa. Yelkalarimni qimirlatib, oyoqlarimni kerib qadam tashlayman.

Xotin-qizlar men tomonga qo'rquv va hadik aralash kulib, ko'z tashlab qo'yishadi.

Hatto erkaklar ham olayib qarashadi. Hatto nima gapligiga tushunmasdan har xil qo'pol va madaniyatsiz tanbehlar berishadi.

Shu payt quyidagi so'zlarni eshitib qoldim:

<sup>1</sup> Yoni chiqqan shim.

– Voy, manavi tasqarani qaranglar! Muttahamning kiyinib olgani ni ko‘ring.

Turli xildagi piching-kinoyalar bilan mening ustimdan kulishardi.

Men bo‘lsam, hech narsani eshitmagandek, bir narsaga umid bog‘lab, xiyobonda yuraverdim.

Pushkin haykali oldida yaxshigina kiyingan bir xonimning men tomonga bir olam mehribonlik va mug‘ambirlik bilan tikilib turganini sezib qoldim.

O‘z navbatida men ham kulib, uning ro‘parasidagi o‘rindiqqa o‘tirdim.

Bashang kiyingan, bir vaqtlar nihoyatda go‘zal bo‘lgan xonim menga diqqat bilan qaraydi. Uning ko‘zlari mening qomatimga, nur yog‘ib turgan betlarimga havas bilan tikiladi.

Men boshimni egib, yelkalarimni silkib qo‘yarkanman, burjua iqtisodchisining xotin-qizlar haqidagi falsafiy fikrlarini eslayman.

So‘ng yana unga, mening har bir harakatimdan ko‘z uzmay qarab turgan xonimga nigoh tashladim.

Shunda, kiprik qoqmay turgan bu ko‘zlardan qo‘rqqa boshladim. Jononning bu ustunligidan negadir xursand emasdim. Uyga ketmoqchi bo‘ldim. Haykaldan aylanib o‘tib, tramvayga o‘tirib, istagan yoqqa, kiprik uzmasdan qarab turgan odamlar bo‘lmagan yerga ketgim keldi.

Biroq haligi bashang xonim to‘satdan yetib kelib:

– Kechirasiz, hurmatli... Bu, – dedi, – haqda gapirish juda o‘ng‘aysiz, lekin erimning xuddi shu xil paltosini o‘g‘irlashgan edi. Marhamat qilib, astarini ko‘rsatsangiz.

«Albatta-da, – deb o‘yladim, – bu tanishish uchun bahona bo‘lsa kerak, harqalay xotin kishi».

Men paltomni ochish bilan birga qavariq ko‘kragimni kerib, ko‘z-ko‘z qildim.

Paltoning astarini ko‘rgan xonim g‘alati chiyillab, qichqira boshladi. Albatta, bu uning paltosi edi! Ana bu muttaham (ya‘ni, men) o‘g‘irlangan paltoni yelkamga tashlab yurgan ekanman.

Uning qichqirig‘i qulog‘imdan o‘tib ketdi. Yangi shim va shu palto bilan yerning qa‘riga kirib ketishga tayyor edim.

Militsiyaga bordik, dalolatnoma tuzishdi. Menga savollar berishdi, men ham ularga to‘g‘risini aytaverdim.

Gap orasida ular mendan yoshimni so‘rashgan edi, bir raqamni aytdim va o‘sha onning o‘zida deyarli uch sondan iborat bu raqamdan o‘zim ham qaltirab ketdim.



«Ha-ha, mana nima uchun menga qarashmas ekan, – dedim o‘z-o‘zimga. – Men qarib ketibman. Men bo‘lsam o‘z shaxsiy hayotimdagi nuqsonlarni kiyim-kechakka to‘nkab yuribman-a!»

Bozordan xarid qilganim o‘g‘irlangan paltoni egasiga berdim-da, yuragim g‘ashlanib ko‘chaga chiqdim.

«Shusiz ham bo‘laveradi! – dedim o‘z-o‘zimga. Mening shaxsiy hayotim bu – mehnat. Endi ishlayman. Nafaqat deraza yorug‘ligidek xotin-qizlarga, balki odamlarga foyda keltiraman».

Burjua olimining fikrlaridan kula boshladim.

«Bu uydirma! – dedim o‘z-o‘zimga, – bekorchi valdirash! Ayni g‘arbona safсата!» Qah-qah urib kulaman. O‘ng va so‘l tomonimga tupurib olib, o‘tgan-qaytgan xotin-qizlardan yuz o‘g‘iraman.

1932–1935

## ASAB VA UNING DAVOSI

Kecha davolanish uchun ambulatoriyaga bordim.

Odam bamisoli tramvaydagidek ur-yiqit.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, eng katta navbat asab kasalliklari, ya‘ni asab vrachiga edi.

Masalan, jarrohga – basharasi tilinib, o‘t-beti majaqlangan atigi bir kishi. Ginekolog eshigi oldida bir xotin va yana bir erkak, asab vrachiga esa o‘ttizga yaqin kishi turardi.

– Hayronman, – dedim qo‘shnilarga. – Asab kasali shu qadar ko‘pki, qayerdan bo‘larkan-a? Narigilar bilan solishtirib ham bo‘lmaydi.

Kim bilsin, ehtimol, bozorda sobiq chayqovchi bo‘lsa kerak, semiz bir odam:

– Nega endi, hammasi ravshan, – dedi, – odamlar, insoniyat savdo qilishni xohlaydi, ular bo‘lsa ruxsat berishmaydi. Qarabsizki, betob bo‘ladi-da. Anig‘i shu...

Rangi zahil, tujurka kiygan oriq bir kishi e‘tiroz bildirdi:

– Har qanaqa bema‘ni gaplarni tarqatmang. Kerakli joyga qo‘ng‘iroq qilsam, insoniyatni ko‘rsatib qo‘yishadi Sizga... Qanaqa ablahlar davolanishga kelishadi-ya...

Ellik yoshlar chamasidagi, mo‘ylovi moshguruch bir qariya har ikki tarafni kelishtirmoqchi bo‘ldi.

– Nega unga tirg‘alib qoldingiz? Bu ulardagi oddiy yanglishish. Tabiiy, parishonxotirlik oqibatida gapirishadi. Asab kasalliklarining kelib chiqishiga boshqa chuqur sabablar bor. Insoniyat boshqacha yo‘ldan boryapti... Asab kasalliklarining kelib chiqishiga taraqqiyot, shahar hayoti, hammom, tramvay va boshqa ta’sirlar sabab... Ota-bobolarimiz tosh asrida ham ichganlar va boshqa ishlar bilan shug‘ullanganlar, biroq asab nima, kasallik nima bilishmagan. Hatto ularda vrach ham bo‘lmagan.

Sobiq chayqovchi:

– Nima, ularning orasidamidingiz, – dedi kinoya bilan, – yoki tanish-bilishingiz bormidi? Eh, bu qariyalarning yolg‘onchiligi...

– Ahmoqona gaplarni gapirmang, – dedi qariya. – Men taraqqiyotga qarshi gapirsam, siz bo‘lsangiz xotinlardek shallaqlik qilasiz. It bilsin, kallangizda nimalar achib, bijib yotibdi.

– Ha-ha, hali sizga taraqqiyot, qurilishlar yoqmay qoldimi? – dedi rangi zahil, tujrkali kishi, – sovet muassasasida bir xil silliq gaplarni eshitib turibman. Siz menga burjuacha bazisni ilmiy tomondan ma‘qullamang ko‘p. Bilasizmi, buning uchun javob berishga to‘g‘ri keladi.

Qariya hadiksirab chetga o‘girildi va qabul oxirigacha aynigan og‘zini ochmay o‘tirdi.

Yozgi shlapa kiygan, sovetlarga mansub xonim chuqur xo‘rsinib:

– Payqagan bo‘lsangiz, asosan proletarlar davolanishadi, – dedi. – Sinf juda holdan toygan...

– Xudo haqqi, bilasizmi, – dedi rangi zahil, tujrkali kishi. – Hozir telefon qilaman. Bu yerda qanaqa kasal guruh to‘plangan o‘zi. Naqadar past saviya! Sinfga nima bo‘pti! Juda sog‘lom sinf, faqat bir-ikki kishining asabi toliqqan, xolos. Bu bilan hammani yoppasiga kasalga chiqarish yaxshi emas-da.

– Menimcha, – dedim, – ayrim kishilarning asab kasalligiga o‘tmishdagi og‘ir hayot, urnash, inqilob, ovqatlanish ham... aytish mumkinki, asab hayotdagi bu notekisliklarga tob bera olmaydi.

Rangi zahil kishi qichqirib yubordi:

– Endi chiday olmayman, sabrim tugadi...

Xuddi shu asnoda ichkaridan vrachning «Navbatdagi kirsin», degan ovozi eshitildi.

Rangi zahil, tujrkali kishi so‘zini tamomlamasdan parda orqasiga kirib ketdi.

Birozdan keyin o'sha yerda «voy-voy» deya hi-hilay boshladi. Vrach trubka bilan eshitganda qitig'i, uning qitig'i kelardi. Parda orqasidan bemorning quyidagi so'zlari eshitildi:

– O'zim soppa-sog'man. Faqat uyqusizlik azob beradi. Juda yomon uxlayman. Hapdorimi, tomizgimi – biror narsa bersangiz.

– Sizga hapdori bermayman, – dedi vrach, – chunki u nuqul zarar keltiradi. Men yangi usulda davolamoqchiman. Avval kasalning sababini aniqlab, keyin unga qarshi kurashaman. Ko'rib turibman, sizning asab tizimingiz ishdan chiqqan. Endi savolimga javob bersangiz: qachonlardir qattiq asabiy iztirobga tushganmisiz? Eslang-chi.

Bemor dastlab gap nima haqda ketayotganiga tushunmaydi. So'ng bema'ni bir holga tushib, hech qanaqa asabiy iztirobga tushmaganman, deya aniq javob beradi.

– Yaxshiroq eslab ko'ring, – deydi vrach. – Buning ahamiyati katta. Sababini aniqlasak, o'shanga qarab muolaja qilamiz, tezda tuza-lib ketishingiz mumkin.

– Hech qanaqa asabiy iztirob chekmaganman, – deydi bemor.

– Ehtimol, biror narsadan qattiq hayajonlangandirsiz? – deb so'raydi vrach. – Yoki allaqanday qattiq qo'rqib, to'lqinlanib ketgandirsiz?

– Bir marta to'lqinlanganman, – dedi bemor. – Bunga ancha bo'lib ketdi. O'n yilcha avval.

– Qani aytib bering-chi, – dedi vrach, – bundan o'zingiz ham ancha yengil tortasiz. Demak, o'n yil mobaynida azoblanib kelgansiz. Nisbiylik nazariyasiga asosan, siz ana shu azoblanishni erinmasdan hikoya qilib bersangiz, o'zingizni ancha yengil his etasiz, hatto uyqungiz ham keladi.

Bemor chaynalib, bir nimalarni eslagan bo'ldi va nihoyat, hikoya qila boshladi.

– O'shanda frontdan qaytgan edim. Tabiiy, fuqarolar urushidan... Uyimda yarim yilcha bo'lmaganman. Uyg'a kirdim... Aytmoqchi, zinadan ko'tarilayotganda negadir yuragim uvishib ketayotgandek bo'ldi. O'shanda yuragim gohida hazillashib qo'yardi. Chunki poshsholik urushida ikki marta gazdan zaharlangan edim.

Zinadan ko'tarilaman. Albatta, kiyimlarim aftoda. Shinelcha. Cholvor. Kechirasiz, bit bosib ketganman.

Ana shu alfozda yarim yildan beri ko'rmaganim xotin huzuriga kirib boryapman.

Rasvogarchilik.

Maydonchaga ko'tarildim.

Shu holda ko'rinish noqulay, deb o'yladim. Basharam dabdala, Oldingi tishlarim yo'q. Oldingi tishlarimni ko'k banda qoqib olgan. Shu voqeadan oldin ularga asir tushgan edim. Dastlab ular meni gulxanda kuydirmoqchi bo'lishdi, keyin o'tinga achinishdi chog'i, tishlarimni qoqib olib, qo'yib yuborishdi.

Shu xil ko'rimsiz holatda zinadan ko'tarilar ekanman, oyoqlarim madorsizlanib ketayotganini his etdim. Tanam oldinga intilsa-da, oyoqlarim yura olmas edi. Albatta, yaqindagina terlama bilan og'rigan edim, hozir ham asorati bor.

Bazo'r uyga kirdim. Qarasam, stol turibdi. Stolda sho'rbaliq, ichkilik qo'yilgan. Stolda o'z jiyanim Mishka xotinimning bo'ynidan xaskashdek qo'llari bilan quchoqlab o'tiribdi.

Yo'q, bundan hayajonlanmadim. Yo'q, harqalay yosh xotin, bo'ynidan quchoqlatsa nima bo'пти. Harqalay, bundan qattiq iztirobga tushmadim.

Ular meni ko'rib qolishdi. Mishka araq shishani olib, tezgina stol ostiga qo'ydi. Xotinim bo'lsa:

– Assalom! – dedi.

Bundan ham to'lqinlanmadim. Men ham «salom» demoqchi bo'ldim. Qani endi ayta olsam. Nuqul «ss-ss» deyman. Chunki o'shanda kontuziyadan keyin biroz duduqlanar edim. Og'ir snaryad portlashidan kontuziya olib, tabiiy, hamma so'zlarni burro ayta olmas edim.

Qarasam, Mishkaning egnida mening frenchim<sup>1</sup>. To'g'risi, meshchanlardek hech qachon narsaga o'ch emas edim! Mato yoki movutni ham qizg'anmayman. Uning bu xil munosabatidan g'ashim kelib ketdi. Xo'rligim kelib, qaltirashga tushdim.

– Sizning frenchingizni maskaradga kulgi uchun kiydim, – deydi Mishka.

– Ablah. Yech, frenchni! – dedim.

---

<sup>1</sup> Harbiy bichimda tikilgan kamzul.



– Xotin kishining oldida frenchni qanday yechay? – dedi Mishka.  
– Agar bu yerda oltita xotin bo‘lsa-da, yech frenchni, ablah! – dedim.

Mishka shishani oldi-da, to‘satdan kallamga tushirdi.

Vrach uning hikoyasini bo‘ldi.

– Xo‘sh, endi hammasi tushunarli, – dedi. – Sababi ravshan... Demak, o‘shandan beri uyqusizlikdan azob chekasiz? Yomon uxlaysizmi?

– Yo‘q, – dedi bemor. – O‘shandan beri yomon uxlamasdim. Hatto o‘shandan beri juda yaxshi uxlardim.

– Bundoq deng? – dedi vrach. – O‘sha haqorat esingizga tushganda uyqungiz qocharkan-da? Ko‘rib turibman, shu xotira sizni ancha hayajonlantirdi.

– To‘g‘ri, hozir shunday bo‘ldi, – dedi bemor. – Aslida men buni unutib yuborganman. Xotinimdan ajralganimdan keyin, bu haqda biror marta ham eslaganim yo‘q.

– E, ajralganmisiz?

– Ajralganman. Boshqasiga chiqdim. Keyin uchinchisiga. Oxiri to‘rtinchisiga chiqdim. Hamisha uyqum a‘lo edi. Qishloqdan opam o‘z bolalari bilan kelib, mening xonamga joylashgandan beri uyqumda halovat yo‘q. Gohida navbatchilikdan kelib yotasan, qani endi uyqung kelsa. Bolalar to‘polon qilishadi, yugurib-yelishadi, burningdan tutib o‘ynashadi. Uxlay olmasam kerak, deyman.

– Kechirasiz, – deydi vrach, – sizning uxlashingizga xalaqit berisharkan-da.

– Albatta, xalaqit ham berishadi. Xona va dahliz unchalik katta emas. Ish ko‘p. Charchaysan. Ovqatlanish ham o‘ziga yarasha. Yot-sang – uyqung kelmasa. Bu ham azob...

– Tinchlik bo‘lsa-chi? Aytaylik, xona tinch bo‘lsa?

– Baribir uyqu yo‘q. Opam bayramda bolalari bilan Gatchinaga ketuvdi. Endi uxlayman deb tursam, qo‘shnim g‘altakda ko‘mir keltirib ag‘darsa bo‘ladimi. Shag‘ir-shug‘ur. Uxlamoqchi bo‘lib, «uxlay olmasam kerak», deb o‘ylayman. Ko‘rpam og‘irlashib ketgandek bo‘ladi. Yonginamda mandalina chalishadi. Oyoqlarim lov-lov yonadi...

– Menga qarang, – dedi vrach, – unda qanday jin urib mening huzurimga kelib o‘tiribsiz?! Kiyining. Xo‘p, mayli men sizga hapdori beraman.

Parda orqasidagilar esnashadi, xo'rsinishadi, nihoyat, zahil basharali bemor chiqadi.

– Navbatdagi, – deydi vrach.

Savdo haqida jon kuydirib gapirgan semiz bemor parda tomon shoshilarkan:

– Yo'q, zo'r vrachga o'xshamaydi, – deydi yo'l-yo'lakay qo'l silkib. – Yuzaki. Aftidan, menga ham yordam bera olmasa kerak.

Uning farosatsiz basharasiga qarab turib, u haq, deb o'ylardim, chunki tibbiyot bundaylarga yordam bera olmaydi.

1933

## BEOROM QARIYA

Bizning Leningradda bir pitak chol letargik uyquga ketdi. Bilasizmi, bir yilcha avval u shabko'rlikka giriftor bo'lgan edi. Keyin tuzalib ketdi. Hatto yemakxonaga chiqib, qo'shnilar bilan madaniy masalalarda so'kishib oldi.

Yaqinda to'satdan uyquga ketdi.

Kechqurun uni sakta uyqusi eltdi. Ertalab uyg'onib qarashsa, ahvoli batamom o'zgacha. Ochig'i, qarindoshlari qarashsa, u nafas olmasdan yotibdi, tanasida hayot asari yo'q. Tomiri urmaydi, ko'kragi ham ko'tarilib tushmaydi, hatto og'ziga oyna tutishgan edi, nafasdan bug'lanmadi.

Albatta, shunda cholning osongina o'lib qolganini sezishib, turli xildagi farmoyishlar bera boshlashdi.

Ular butun oila bilan uncha katta bo'lmagan bir xonali uyda yashaganlari uchun ham shoshib qolishdi. Hammayoq kommunal kvartira. Kechirasiz, shunday tang-u torki, hatto mayitni qayerga joylashtirishni ham bilmay qolishdi. Istang-istamang, shoshilishga to'g'ri keladi.

Shuni aytish kerakki, uyquga ketgan bu chol o'z tug'ishganlari bilan yashardi. Demak, er, xotin, bola, yana enaga. Buning ustiga, aytish mumkinki, ota, ya'ni xotinning otasi, uning qaynotasi. Sobiq mehnatkash, hammasi odatdagiday. Nafaqaxo'r.

Enaga – o'n olti yoshli qizcha, shu oilaga xizmatkorlikka olingan. Ular ikkalasi, ya'ni er va xotin hamda xotinning otasi – qaynata, hammasi xizmatda.

Ular xizmat qilishadi. Birda qarashsa qayg'uli bir hol – ota o'lib qolibdi.

Albatta, ko'z yoshi, yig'i-sig'i. Tor joyga tomosha degandek, shu ortiqcha dahmaza kam edi.

Shu ortiqcha dahmaza, top-toza, muloyim chol, sho'x-shodon chol uying torligini ham o'ylamasdan beozorgina o'lib yotibdi. U so'ligan bo'tako'z, yangi yeyilgan qrim olmasidek top-toza.

U hech nimani bilmasdan, hech nimani istamasdan, o'ziga beriladigan oxirgi e'tiborni kutib yotardi.

U o'zini tezroq yuvib-tarab, kiyintirib, qayergadir tezroq go'rcho'p qilishlarini kutardi.

Unchalik katta bo'lmagan xonada tiqilishib turmasdan uni mumkin qadar tezroq dafn qilishlarini kutardi. Buning ustiga bola g'ingshiydi. Enaga o'lgan kishi bilan bir xonada yashashdan qo'rqadi. Nodon qizcha, bir umr yashayman, hayot abadiy deb o'ylasa kerak. U murdaga qarashdan qo'rqadi. Tentak qizcha.

Er, ya'ni oila boshlig'i rayon dafn byurosiga qarab yugurdi. Va tezda u yerdan qaytib keldi.

– Hammasi joyida, – deydi. – Faqat ot masalasida jinday ishkal chiqib turibdi. Aravani hozirning o'zidayoq berishmoqchi, lekin otni to'rt kun kutishga to'g'ri keladi.

– O'zimam bildim-a, – dedi xotin, – otam tirikligida ham u bilan aytishgani-aytishgan edi. O'lgandan keyin unga aqalli ot topishni ham ravo ko'rmayapsan.

– He, jin ursin! – dedi eri. – Nima, men senga chavandozmanmi, otlar bilan shug'ullansam. Shuncha kutishga o'zimning ham toqatim yo'q. Har zamonda otangni o'ligini ko'rishga ko'zim uchib turibdi-da.

Shunda har xil oilaviy adi-badi boshlandi. O'likni ko'rib o'rganmagan bolakay bor ovozda yer uradi.

Enaga ham o'lik bor xonadonda xizmat qilishdan bosh tortdi. Shunda bu tashvishlardan toliqqan uy bekasining o'zi dafn byurosiga shoshildi va birozdan keyin bo'zdek oqarib, qaytib keldi.

– Otlarni bir haftadan keyin berisharmish, – dedi. – Agar mening ahmoq erim o'sha borganda navbatga yozilib kelganda edi, uch kun ichida otlarni olgan bo'lardik. Hozir esa o'n oltinchi bo'lib navbatga yozildik. Haqiqatan ham aravani hoziroq berisharkan.

O'zi esa bolasini tezda kiyintirib, enaganing qo'lidan tutganicha, tanishlarinikiga – Sestroretskka yo'l oldi.

– Menga bolam aziz, – dedi. – Go'dakligidanoq unga har xil qo'rqinchli narsalarni ko'rsatmayman. Sen esa o'z bilganingni qil.

– Men ham u bilan birga qola olmayman, – dedi eri. – O'zing bilasan. Bu qariya meniki emas. Hatto tirikligida xush ko'rmasdim, hozir esa u bilan birga yashashdan hazar qilaman. Uni yo'lakka chiqarib qo'yaman, yoki akamnikiga ko'chib o'taman. Ana shu yerda otlarni kutib yotaversin.

Shunday qilib, oila Sestroretskka ketdi, oila boshlig'i – er esa akasinikiga qochib qoldi.

Akasinikida esa butun oilasi bo'g'ma bilan og'rib yotardi, uni qo'yishga ruxsat berishmadi.

Shunda u noiloj uyga qaytib kelib, cholni kambargina stolga yotqizdi-da, yo'lakka, vanna yaqiniga chiqarib joylashtirdi. O'zi esa uyga kirib olib, ikki kun davomida hech qanday ovoz va taq-tuqlarga ham e'tibor bermasdan, qamalib yotib oldi.

Shunda kommunal uyda turli xildagi safsatabozlik, sustkashlikka o'xshagan mavhum bir holat ro'y berdi.

Odamlar shovqin-suron ko'tarishdi.

Xotinlar va bolalar kerakli joyga bormay qo'yishdi, aytishlaricha ular bu yerdan o'tishga yurak betlamay qolganmish. Shunda erkaklar murda qo'yilgan stolni olib, uy oldiga qo'yishdi. Bu esa o'z navbatida uyga kiruvchilarning qattiq noroziligiga sabab bo'ldi.

Burchakdagi xonada yashovchi kooperativ mudiri negadir ancha tanish xotinlar unga shikoyat bilan kelayotgani, ularning asabi bilan o'ynashib bo'lmasligini aytib, yuqoriga murojaat qildi.

Shoshilinch suratda uy boshqarmasidan odam chaqirildi. Undan ham biror foydali gap chiqmadi. Murdali moslamani hovliga chiqarib qo'yishni taklif etishdi.

– Bu, tirik qolgan istiqomat qiluvchilar orasida qattiq norozilik tug'dirishi mumkin, – dedi uy boshqaruvchisi, – shundayam ko'plar uy solig'ini o'z vaqtida – yarim yil ichida to'lamasdan cho'zib ke-lishyapti.

Shunda qariyaning egasi ikki kundan beri xonaga qamalib olib, cholning buyumlarini, mol-mulkini hisob-kitob qilayotgan kishining sha'niga ancha baqirib-chaqirib, do'q-po'pisa qilishdi.



Eshikni zo'rlik bilan buzib, murdali moslamani xonaga kiritib qo'yishga qaror qilishdi.

Stolni surish uchun ancha ha-halashdi, shunda marhum ohista nafas olib, qimirlay boshladi.

Ancha vahima va sarosimalikdan keyin, istiqomat qiluvchilarning aralashuvi bilan ish boshqacha tus oldi.

Ular yangi kuch bilan xonaga tashlanishdi. Ular qariya tirik, uyga kirishni so'rayapti, deya eshikni urib, baqira boshlashdi.

Biroq ichkaridan uzoq vaqt javob bo'lmadi. Faqat bir soatdan keyin:

– E, qo'ysangiz-chi arabcha hazilingizni, – degan ovoz eshitildi. – Bilaman, meni tuzoqqa tushirmoqchisizlar.

Uzoq muzokaralardan keyin qariyaning egasi cholning o'zi ovozi chiqarsin, deb iltimos qildi.

Qariya hali o'ziga kelmasdan turib mayin ovozda:

– Ho-ho... – dedi.

Bu ovozni ham ichkaridagi kishi inobatga olmadi.

Nihoyat, u qulfnig teshigidan qarab, cholni teshikning ro'parasiga olib kelinglar, dedi.

Teshikning ro'parasiga olib kelingan cholning tirikligiga anchagacha ishonmay, uning qo'l-oyoqlarini o'z'laringiz ataylabdan qimirlatib turibsizlar, dedi.

O'zligini batamom yo'qotib qo'ygan chol xuddi tirikligidagidek bor ovozda baqirib, qalashtirib so'ka boshladi. Shundan keyin eshik ochilib, chol tantanali sur'atda xonaga olib kirildi.

Tirik qolgan chol bo'lib o'tgan voqealar uchun ancha aytishib olgach, ko'pgina buyumlarining yo'qolgani va ayrimlarining pechkada, tutab yotganini ko'rib qoldi. Shu topda yotib o'lgisi kelib ketayotgan yig'ma karavoti ham yo'q.

Shunda qariya o'z yoshiga yarashmagan bir harakat bilan uyalmay-netmay umumiy karavotga chiqib yotib oldi-da, ovqat beringlar, deb so'radi. U non yeb, sut icharkan, meni qarindoshim deb andisha qilib o'tirmay mol-mulkimni talon-taroj qilganlaring uchun sizlarni sudga beraman, dedi.

Tez orada Sestroretskdan uning xotini, aytmoqchi, o'lib-tirilgan otaning qizi keldi.

Quvonch va qo'rquv ovozlari eshitildi. Yosh bola biologik holatning sirlariga unchalik tushunmagani uchun ham, qayta tirilishga be-

farq qaradi. Faqat o'n olti yoshli nodon enaga – goh tirilib, goh o'lib turadigan chol yashaydigan bu xonadonda xizmat qilishga norozilik bildirgandek bo'ldi.

To'qqizinchi kuni ko'zi qora latta bilan bog'langan, qora ot qo'shilgan mash'alali arava uy oldiga kelib to'xtadi.

Er, ya'ni oila boshlig'i derazadan uni birinchi bo'lib ko'rarkan:

– Ada, mana nihoyat sizga ajratilgan otlar keldi! – dedi.

Qariya bir tupurib olib, endi hech qayoqqa ketmayman, dedi.

U darchani ochib, tashqariga tupura boshladi va past ovozda kucherga tirik odamlarni ko'ziga chipqon bo'lmasdan, tezroq yo'qol, dedi.

Oq syurtuk<sup>1</sup>, sariq shlapa kiygan kucher olib chiqishlariniyam kutib o'tirmasdan, o'zi yuqoriga ko'tarildi-da, sovuq havoda qachongacha ko'chada kutaman, aytilgan narsani tezroq chiqarmaysanlarmi, deya baqirib, do'q urdi.

– Bu uyda odamlarning qanday yashashlari bilan ishim yo'q, – dedi u. – Hammalaringizga ma'lum, ot degan jonivor juda noyob. Bekordan bekorga chaqirib, transportni ovora qilish qat'iyman qilinadi. Ikkinchi bu uyga qadamimni ham qo'ymayman.

Istiqomat qiluvchilar qayta tirilgan qariya bilan birgalikda kucherini syurtuk va shlapasiga qo'shib maydonchadan, keyin zinapoyadan itarib, tushirishdi.

Kucher hech bo'lmasa, allaqanday safarnomaga qo'l qo'yib beringlar, degancha uy oldidan anchagacha ketmay turdi.

Qayta tirilgan qariya darchadan tupurib, qattiq dahanaki jang uchun kucherga mushtini do'laytirib qo'ydi.

Nihoyat, qichqiraverib ovozi bo'g'ilib ketgan, charchoq va xo'rlangan kucher ketdi, hayot yana o'z iziga tushdi.

O'n to'rtinchi kuni qariya o'sha tupurganda darcha oldida shamolab kasallandi va tezda chinakamiga o'lib qoldi.

Dastlab qariya yana hammani ahmoq qilyapti, deb bunga hech kim ishonmadi. Vrachni chaqirishgan edi, bu galgisi yolg'on emas, deb hammani yupatdi.

Shunda kommunal uyda istiqomat qiluvchilar orasida qandaydir vahimali shov-shuvlar tarqaldi.

---

<sup>1</sup> Erkaklarning uzun belburma kamzuli.

Ayrimlar o'z xonalarini qulflab, shaharga jo'nab ketishdi. Xotin, aytmoqchi otasining qizi byuroga kirishga ham qo'rqib, bolasi va yig'loqi enagani olib, yana Sestroretskka jo'nadi.

Er, ya'ni oila boshlig'i dam olish uyiga joylashmoqchi edi, bu gal kutilmaganda ikkinchi kuni arava kelib qoldi.

Umuman, o'shanda maxsus aravalar ichida ancha uzilish va kamchiliklar sodir bo'lib, bu xil kechikishlar doimiy bo'lmay, vaqtinchalik ekan.

Aytilishlaricha, hozir dafn bobidagi bu kamchiliklar bartaraf etilib, juda beminnat xizmat ko'rsatayotgan ekanlar.

Bundan ortig'i ortiq.

1933

## TUZOQ

Menga tanish bir yigitcha, shunchaki bir shoir – shu yil chet elda bo'ldi. U burjua madaniyati bilan yaqindan tanishish va kiyim-kechak olish maqsadida Italiya va Germaniyani kezib chiqdi. Juda qiziq narsalarni ko'rdi. Albatta, har qadamda qarama-qarshilik, ishsizlik, ulkan bo'hron, deydi. Oziq-ovqat va sanoat mollari nihoyatda ko'p, biroq sotib olishga pul yo'q.

U shunchaki bir gersoginya bilan birga ovqatlanibdi.

Bir tanishi bilan restoranda o'tirgan ekan, tanishi:

– Agar istasang, hozir kulgi uchun bir gersoginyani chaqiraman, – debdi. Osmono'par beshta uyi, bepoyon uzumzori va boshqa mol-mulklari bo'lgan haqiqiy gersoginya.

Albatta, aylantira boshlaydi.

Demak, telefon g'altagini aylantirib raqam teradi. Hayal o'tmay, yigirma yoshlardagi bir sohibjamol kirib keladi. Juda yaxshi kiyingan. O'ziga xos. Iltifotsiz qiyofada. Uchta dastro'molcha. Yalang oyoqlarida tuffichalari yaltiraydi.

Gersoginya o'ziga shnelklops<sup>1</sup> buyurar ekan, gap orasida:

– Bilasizmi, bir haftadan beri go'shtli ovqat yemaganman, – dedi.

Shunda shoir bir amallab fransuzcha-ruscha aralashtirib, marhamat qilib aytasangiz, muncha o'zingizni kambag'al, nochor qilib ko'rsatasiz, ala mezon, axir shuncha uyingiz bo'lsa, dedi.

---

<sup>1</sup> Mol etini urib yumshatib pishiriladigan ovqat.

– Bilasizmi, – dedi gersoginya, – bu uylar uchun yarim yildan beri odamlar ijara haqi to‘lashmaydi. Odamlarda pul yo‘q.

Bu kichik misolni burjuacha yo‘liga aytayapman. Ularda qizg‘in bo‘hron har tomonlama davom etayapti. Biroq ularda ko‘chalar niho-yatda toza.

Menga tanish shoir ulardagi ovro‘pocha tozalik va madaniyatni shunchaki og‘iz ko‘pirtirib maqtandi. «Shunday ulkan bo‘hronga qaramasdan, ayniqsa Germaniyada juda ajoyib, bamisoli ertaklarda-gidek tozalik va sarishtalikni ko‘rasiz, – dedi. – Qurib ketgurlar, ko‘chalarni sovun ko‘pigi bilan yuvishadi. Har ertalab zinapoyalarni qirtishlab tozalashadi. Mushuklarga zinapoyaga chiqishga va deraza tokchalarida yotishga ruxsat berishmaydi.

Negadir, bekalar o‘z mushuklarini ipda bog‘lab yurishadi.

Hammayoq ko‘z qamashgudek top-toza.

Qayerga tupurishingni ham bilmaysan.

Hatto, ikkinchi darajali joylar, kechirasiz, hojatxonalar ham samo-viy tozalikdan yaltiraydi. Inson qadr-qimmatini yuzasidan u yerga ki-rishning o‘zi ko‘ngilli.

U shu xil ikkinchi darajali bir muassasaga shunchaki kirib qoldi. Shunchaki kulgi uchun, ulardagi bu joylar biznikidan farq qilarmikin, deb qaradi.

Nimasini so‘raysiz. Hayrat va hayajondan dod deb yuborish mumkin. G‘aroyib bir ozodalik, havorang devorlar, ravoqlarda bi-nafshalar qo‘yilgan. Ochig‘i, kishining ketgisi kelmaydi. Kafedan ham yaxshi.

«Bu qanday balo, – deb o‘ylaydi. – Siyosiy oqimlar ma‘nosida bizlarning mamlakat oldinda, biroq tozalik ma‘nosida bizlar juda orqada ekanmiz. Yo‘q, Moskvaga qaytgach, shu haqda, Ovro‘poni o‘rnak qilib, albatta yozaman. Albatta, ko‘p yigitlar bu masalaga ri-yokorlik bilan qarashadi. Bilasizmi, ular shu xil arzimagan narsalar haqida yozib o‘qishni or deb bilishadi. Lekin, men bu to‘mtoqlikni bartaraf etishim kerak. Qaytgach, albatta poema yozib, o‘rtoqlar, if-loslik ko‘p bizda, bu yaxshi emas, degan g‘oyani ilgari suraman... Tozalik haqida kompaniya boshlanib ketgan pallada ayni muddao bo‘ladi».

Mana, bizning shoir eshikni yopib o‘tirib oldi. Binafshalarga havas bilan tikiladi, o‘ylaydi, yozilajak poemasi shon-shuhrati haqida orzu qiladi. O‘z-o‘zidan she‘rlar quyilib keladi.



*Hatto bu yerga kirish ham mazza,  
Binafshalar, gullar ravoqda.  
Nahotki bizlardan o'tdi Atilla,  
Ifloslik bizdadir, emas uyoqda.*

Keyin oxirgi nemischa fokstro<sup>1</sup>dan «Aufviderzeyn, xonim» misrasini kuylagancha ko'chaga chiqmoqchi bo'ladi, yo'q, ochilmayapti.

U eshikni ochmoqchi bo'ladi, lekin eshigi ochilmaydi. Tutqichni tovladi – ochilmadi. Yelkasini tirab itardi.

Dastlab biroz o'zini yo'qotib qo'yadi. Nahotki tuzoqqa tushgan bo'lsam, deb o'ylaydi.

Keyin manglayiga bir tushirdi.

«Eh, men ahmoq, – deb o'yladi, – axir, men kapital dunyosida turibman-ku. Bu yerda ular uchun har qadamda pfening to'lashing kerak. Ehtimol, tanga tashlash kerakdir. Shunda eshik o'zi ochilar. Qonxo'rlar! Ablahlar! Ha, bu mexanik. Yetti qavat teringni shilib olishadi-ya. Yaxshiyamki, cho'ntagimda tanga bor ekan. Mayda pul bo'lmasa, dog'uliga aylanib qolardim».

Cho'ntagidan tanga chiqaradi. «Hozir kapitalist cho'rtanni laqilataman, – deb o'ylaydi. – Hozir uning tomog'iga bir-ikkita tangani tiqay-chi».

Qarasa – tiqadigan joyi yo'q. Qarasa, hech qanday quti ham, yoriq ham ko'rinmaydi. Allaqanday yozuv bor-u, lekin unda raqam yozilmagan. Qayerga tashlash, qancha tashlash – noma'lum.

Tanishimiz biroz vahimaga tushdi. Yengil taqillata boshladi. Hech kim kelmadi. Eshikni oyog'i bilan tepa boshladi. Odam to'planayotganini eshitdi. Nemislar kelishdi. O'z lahjalarida bidirlashdi.

– Meni qo'yib yuboringlar, yaxshilar, – dedi ichkaridan shoir.

Nemislar vaziyatga tushunmasdan bir nimalar deb shushulashdi.

– Genosse, genosse, – dedi shoir, – der tyur, ablah, hecham ochilmayapti. Kompreneshen. Iltimos, meni ozod qilinglar. Ikki soatdan beri o'tiribman, axir.

– Shprexen zi doych? – deyishdi nemislar.

Shunda shoir o'zini tutib tura olmadi.

– Der tyur, – dedi, – der tyurni ochinglar. He, alvastiga o'xshamay ketgurlar!

<sup>1</sup> O'ziga xos raqs turi va shu raqsning kuyi.

To'satdan eshik oldida ruscha ovoz yangradi.

– Nega u yerda o'tiribsiz? – dedi u, – eshikni ocha olmayapsizmi?

– Ha-da, – dedi. – Ikki soatdan beri o'tiribman.

Ruscha ovoqli kishi:

– Bu ablahlarning eshigi mexanik, – dedi, – dastakni tortishni esdan chiqarganga o'xshaysiz. Suvni yuboring, eshikning o'zi ochiladi. Buni parishonxotir kishilar uchun ataylabdan qilishgan.

Tanishim aytganlarini qilgach, eshik bamisoli ertakdagidek o'z-o'zidan ochilib ketadi. Tanishimiz biroz gandaraklab ko'chaga chiqadi, atrofda nemischa pichirlash va hirlinglashni eshitadi.

– O'zim bu yerda muhojir bo'lsam-da, – dedi rus kishi, – nemislarning bir xil ixtiro va jimjimadorliklaridan to'yib ketganman. Menimcha, bu insonni tahqirlash, xo'rlash deb bilaman...

Mening tanishim muhojirning so'zini uzoq ma'qullab o'tirmadi, albatta, kostumining yoqasini ko'tarib oldi-da, chiqib ketdi.

Chiqaverishda qorovul kichik supurgi bilan uni uzoq tozalab, biroq pul undirgach, qo'yib yubordi.

Faqat ko'chaga chiqqandagina tanishim chuqur nafas olib, o'ziga kelgandek bo'ldi.

«Ha-ha, – deb o'yladi u, – demak, mashhur nemis ozodaligi ham o'z-o'zidan bo'lmas ekan-da. Nemislar ham madaniyatni qo'llash uchun har xil hiylalarni o'ylab chiqarishga majbur bo'libdilar-da.

O'zimizda ham shunga o'xshash bir nimalarni chiqarishsa bo'larmidi».

Mening tanishim shu bilan ancha bosilib qoldi va «Aufviderzeyn, xonim» deya kuylagancha hech nima bo'lmagandek mehmondorchilikka jo'nadi.

1933

## YOSH VERTERNING IZTIROBLARI

Bir kuni velosipedda ketib borardim.

Velosipedim ancha yaxshi, inglizcha BSA markasidan edi.

Bu ajoyib velosipedda men gohida asablarni tinchlantirish va ko'ngilxushlik uchun sayr qilardim.

Juda zo'r, zamonaviy mashhur mashina. Afsuski, g'ildiraklar to'liq emas-da, To'g'risi, g'ildiraklari to'lig'-u, biroq o'ziniki

emas – yig‘ma. Bittasi – inglizlarning «Uch miltiq», ikkinchisi – nemislarning «Duks» firmasida ishlangan. Chambaragi ukraincha. Umuman, quruq havoda yursa bo‘ladi. Albatta, ochig‘ini aytish kerak, haydash juda azob, lekin yashash og‘ir kezlarda ruhiy ko‘tarinkilik uchun minaman. Shunday qilib, bir kuni velosiped minib ketayotgan edim.

Kamennostrovskiy shoxko‘chasi. Xiyobon yonginasidagi maydonga burilib, o‘zimcha ketyapman.

Ro‘paramda tabiatning kuz pallasi. Maysalar sarg‘aygan. Jo‘yaklarda gullar yashnab yotibdi. Yo‘llarga oltinrang yaproqlar sochilgan. Tepamda bo‘zraygan osmon.

Qushlar chirqillaydi. Qarg‘a axlat titadi. Kulrang kuchukcha darvoza oldida akillaydi.

Kuz manzaralariga qarar ekanman, o‘z-o‘zidan yuragim yumshab, yomon narsalar haqida o‘ylamay qo‘ydim. Turmush go‘zallashib ketganday. Seni tushunadigan, aziz kishilar. Odob-axloq, shaxsga hurmat-e‘tibor. Yaqin kishilaringga muhabbat. Haqorat va qo‘pollikdan asar ham yo‘q.

Xayol surib borarkanman, to‘satdan hammani quchoqlagim, ularga qandaydir yaxshi bir gap aytgim kelib ketdi. «Og‘aynilar, hamma qiyinchiliklar ortda qoldi. Yaqinda biz ham fon baronlardek yashaydigan bo‘lamiz», deb qichqirgim keladi. To‘satdan hushtak ovozi eshitildi.

– Birovga jarima solindi-yov, – dedim o‘z-o‘zimga. – Kimdir ko‘chani noto‘g‘ri kesib o‘tgandir. Bundan keyin bu xato takrorlanmas. Turli xil xato, jarima va qoidabuzarlarni eslatuvchi bu xil jiddiy hushtaklarni bundan keyin kamroq eshitarmiz.

Mening yaqinginamda yana to‘satdan dahshatli hushtak ovozi, allaqanday shovqin va qo‘pol so‘kinish eshitildi.

– Ehtimol, bunchalik qattiq baqirmaydigan bo‘lishar. Baqirishga ku baqirishar, lekin bu xil haqoratomuz so‘zlarni aytishmas. Birovning orqamdan yugurib kelayotganini eshitdim. U xirildoq ovozda qichqirardi.

– Qayoqqa muncha shoshilasan, qanjiq! To‘xta deyapman.

– Kimni quvishyapti ekan, – dedim o‘z-o‘zimcha va bemalol haydab ketaverdim.

– Lyoshka, chapdan yugur, ablah, – dedi kimdir, – ko‘zdan qochirma uni!

Qarasam, chapdan bir bola yugurib kelyapti. U tayog'ini silkitib, mushti bilan o'dag'aylaydi.

Orqaga o'girildim. Basavlat, mo'ysafid qorovul chopib kelar, har-sillab baqirardi:

– Ushlanglar uni, og'aynilar! Lyoshka, ko'zdan qochirma!

Lyoshka meni nishonga oladi, u otgan kaltak velosipedning g'il-diragiga kelib urildi.

Shundagina bu janjal menga taalluqliligiga tushundim. Velosipeddan sakrab tushib, ularni kuta boshladim.

Qorovul yugurib keldi. Ko'ksidan xirillash eshitiladi. Nafas olishi ham shovqinli.

– Tutinglar uni! – deya qichqirdi u.

O'n choqli baquvvat kishilar yugurib kelib, qo'llarimni qaytara boshlashdi.

– Eslaringni yedinglarmi, og'aynilar, – dedim, – bu qari tentakka qo'shilib nima qilyapsizlar?

– Xizmat burchini o'tayotganda qilgan haqorating uchun tishingni qoqib olaman, – dedi qorovul, – mahkamroq ushlanglar... qo'yib yubormanglar u surbetni.

Olomon to'plandi. Kimdir:

– Nima qilibdi u? – deb so'radi.

– Yoshim ellik uchda, – dedi qorovul, – bu qanjiq meni holdan toydirdi. U boshqa yo'ldan yuryapti... velosipedda yurish ta'qiqlangan yo'ldan ketyapti... Holbuki, manglayida belgi qoqilgan. U bo'lsa xuddi devonadek haydab ketyapti. Hushtak chalsam ham qaramaydi. Oyog'ini aylantirgani-aylantirgan. Hech narsaga tushunmaydi, galvars. Osmondan tushganmi, nima balo. Yaxshiyamki, yordamchim uni to'xtatib qoldi.

Lyoshka timirskilanib olomon orasidan chiqdi-da, ombirdek panjalari bilan qo'limni siqa boshladi.

– Men bu chipor ilon yaxshi o'rmalamasin uchun qo'llarini sindiraman.

– Og'aynilar, – dedim, – men bu yerdan yurish mumkin emasligini bilmadim, axir.

– U hatto qochib ketmoqchi bo'ldi, – dedi bo'g'ilib qorovul. – Uning bahonasini qaranglar. Yaxshiroq ushlab, melisaga obo-ringlar, bunaqalar qochib qutulisharkan.

– Og'aynilar, – dedim, – mayli, jarima to'layqolay. Roziman. Qo'llarimni qayirmanglar.



Kimdir:

– Hujjatlarini ko‘rsatsin, – dedi, – mayli, undan jarima ola qolinglar. Militsiyaga sudrab yurishning nima hojati bor.

Qorovul va bir necha ko‘ngillilar meni militsiyaga obormoqchi bo‘lishdi, biroq qolgan odamlarning maslahati bilan qorovul qattiq so‘kingancha mendan jarima olib, qo‘yib yubormoqchi bo‘ldi.

Velosipedimda chayqalib ketib boryapman. Boshim g‘uvillab, ko‘zim tingandek mayda halqachalar paydo bo‘ldi. Aql-hushimdan ayrilgandek ketib boryapman.

Qirg‘oqqa chiqqach, yana o‘z mashinamga o‘tirarkanman:

– Xo‘p, nima bo‘libdi, – dedim. – O‘rgildim qo‘l qayiradigan sen fon barondan.

Qirg‘oqdan tinchgina ketib boryapman. Haligi ko‘ngilsiz voqea esimdan ko‘tarildi. Yaqin kelajakdagi ajoyib manzaralar ko‘z oldimda gavalana boshladi.

Mana men, aytaylik, har ikkala g‘ildiragi ham bir-biriga suvday o‘xshash velosipedda ketib boryapman.

Mana men, o‘sha mash‘um xiyobon tomon burildim. Qarasam, yumshoq shlapada qorovul kelyapti. Qo‘lida bo‘tako‘zmi, yoki kuzgi lolaga o‘xshash bir gul. U gullarini aylantirib turib:

– Voy, qayerga kelib qoldingiz, jo‘rajon? – deydi jilmayib. – Nega bunday bo‘ldi-a, azimim. Yoki anqovroqmiz-a? Qani, tezgina izingizga qayting-chi, aks holda gul ham bermasdan, jarima solishim mumkin.

U muloyim jilmaygancha menga bo‘tako‘zni tutqizadi. Va biz mehribonlik bilan do‘stona xayr-xo‘sh qilamiz.

Bu sokin manzaradan hamma qayg‘u-alamlarim unut bo‘ladi. Ruhiy bir ko‘tarinkilik bilan velosipedni haydab boryapman. O‘z-o‘zimga: «Zarari yo‘q. Yuragim yorilib o‘lmasman. Hali yoshman. Istagancha kutishga ham roziman», deyman.

Yana qalbinga quvonch va odamlarga nisbatan mehr-oqibat tuyg‘ulari quyilgandek bo‘ladi. Yana olijanob bir gaplar aytgim va bor ovozda: «O‘rtoqlar, biz g‘alaba qozondik, biz ulkan qiyinchiliklarni bartaraf qilib yangi hayot qurdik, kelinglar, yaxshisi, bir-birimizni hurmat qilaylik», deya qichqirgim keladi.

1933

## KULGILI FOJIA

Albatta, bir kishi yuz ming so‘m yutgani, shundan so‘ng qanaqa ko‘ngilli, ko‘ngilsiz voqealar ro‘y bergani haqidagi hikoyalar adabiyotda mavjud, hatto ko‘plab topilishi aniq.

Biroq biz hikoya qilmoqchi bo‘lgan voqea qiziqligi jihatdan bu borada shu paytgacha yozilganlardan tamoman farq qiladi.

Yana shuni alohida qayd qilmoqchimanki, buning hammasi qip-qizil haqiqat.

Tasavvur qiling: tong, Leningrad tuman qo‘ynida. Mehnatkashlar ishga otlanishyapti. Hozir ular choylarini ichib bo‘lib, g‘urur bilan tur-naqator yo‘lga tushishadi.

Nima gap? Kechirasiz, kimningdir chinqirig‘i eshutilmoqda-ku.

Bu qichqiriq, to‘polon va boshqa xil tovushlar biz yashaydigan kommunal uydan chiqyapti.

Uyda yashovchilar o‘sha yerga yugurib borishdi va quyidagi voqeaning guvohi bo‘lishdi. Shu kommunal uyda istiqomat qiluvchi Borka Fomin pushtirang qisqa ishtonda uy o‘rtasida kezib yuribdi. Chakagi-chakagiga tegmay qaltiraydi. Rang-ro‘yi ohakday oqarib ketgan. Uning bir qo‘lida gazeta. Ikkinchi qo‘lida pochta otkritkasi. Uchinchi qo‘l – xotinining qo‘lida talon bo‘lib, bor ovozda qichqiradi:

– E, e, chiqinglar hammalaring uydan! Hali hech narsa aniq emas. Shaxsan men, Borya bilan besh ming so‘m yutganimizga aslo ishonmayman.

Hayajonning zo‘rligidan burnidan mishiqisi tomchilab turgan Borka Fomin:

– Omonat kassadan ana bu otkritkani oldim, – dedi, – nima ekan deb qarasam. Pardon! Shuncha yutuq.

– Butun umrim g‘urbatda o‘tdi, – deya qo‘shildi unga xotini, – nahotki shunday ajablanarli hol yuz bersa, bo‘lishi mumkin emas. Agar Borkaning shuncha pulni yutgani chin bo‘lsa, aniq bilamanki, biror kor-hol ro‘y berib, ehtimol men bu pulni ko‘rmasman ham.

Qo‘shnilardan biri:

– Ba‘zan raqamlarga qaramasdan tez-tez xato bosishadi, – dedi. – Gohida birorta qo‘l sig‘may, tushib qolishi ham mumkin. Mehnatkashlar sochlarini yulib qolaverishadi, qarabsizki, yutuq ham bo‘lmaydi.

Turli xonadonlardan yetti nusxada gazeta olib chiqildi. Hamma qarab, solishtirib ko'rdi. Shak-shubha yo'q – yutuq chiqqan. Boshqalardan farq qilmaydigan Borka Fomin besh ming so'm yutibdi. Lekin shuncha pulni u nima qilishi hech kimga ma'lum emasdi.

Borkaning jiyani – unikida yashaydigan, haydovchilikka imtihon topshirayotganiga qaramay, hali odamlarga tik gapira olishga odatlanmagan o'n yetti yoshli Vovka Chuchelov Boris Andreyevichga:

– Ortiqcha baqirib-chaqirgandan ko'ra, yaxshisi omonat kassaga choping, tog'a, – dedi. – Agar u yerda shu pulni sizga berishsa, demak, chini bilan yutgan bo'lasiz.

Shunda boshqalar ham Boris Andreyevichga omonat g'aznaga yugurishni maslahat berib qichqira boshlashdi.

Xotini esa xotinligiga borib, ishonchsiz bir kayfiyatda iddao qildi.

– Hozir bu iflos tramvay ostida qoladi yoki uni avtobus turtib ketadi. Bekordan bekorga besh ming so'm yutishimga aslo ishonmayman.

Boris apil-tapil kiyinib, yugurib chiqib ketdi va hayal o'tmay qaytib keldi. Rangi-ro'yi ohakday oppoq.

Hozirgina bo'lak sayyoradan uchib kelgan kishidek, yig'ilganlarga siniq ovozda:

– To'g'ri, besh ming so'm yutdim, – deya ma'ni qildi. – Ular erta emas, indin kuni keling deyishdi. Yana ular: «Bu xil hodisa bizning rayonda har yuz yilda bir marta ro'y beradi, deb aytishdi.

Shunda hamma Boris Andreyevichni tabrikladi va organizmi pulni olgunga qadar toliqib qolmasligi uchun kushetkaga cho'zilishni maslahat berdi.

– E-e, chiqinglar hammalaring, uydan! – dedi xotini. – Shuncha pulni ololmasligimiz uchun nimalar ro'y berishini chuqurroq o'ylab olishim kerak.

Kun ham o'tib ketdi, ertasiga yana baqiriq-chaqiriq, to's-to'polon va haqorat so'zlar eshitildi.

Hamma yashovchilar voqea sodir bo'lgan yerga yugurishdi va quyidagilarning guvohi bo'lishdi:

Boris Andreyevich o'zining pushtirang qisqa ishtonida taxtada yotardi. Chakagi-chakagiga tegmay qaltiraydi, burnidan mishiqisi tomchilab turibdi.

– Yaxshiyamki, mening jonimga bu iflosni partiya safiga qabul qilishmagani. Aks holda, rosa ta'zirimni yerkanman-da, – dedi xotini.



– Nima bo‘libdi? – deb so‘rashdi qo‘shnilar.

– Nima bo‘lardi? – dedi xotini, – bo‘lganicha bo‘lardi. Bundan ikki haftacha avval, yutuq chiqishini ham kutmasdan, bamisoli aqlsiz go‘dakdek yuqori lavozimda ishlaydigan kishilardan tavsiyanoma so‘rabdi. Yaxshiyamki, unga berishmagan. Ko‘rdingizmi, imi-jimida yozilmoqchi bo‘lgan-da. Ana shunda yutuqning teng yarmini turli xil kurashlar uchun MOPR<sup>1</sup>ga va boshqa tashkilotlarga to‘lashga to‘g‘ri kelardi.

– Berish shart emas, – dedi qo‘shnilardan biri, – albatta boshqa birovlar o‘z harakati, masalan, tamaki uchun olti so‘mcha o‘zida qoldirib, qolgan hammasini qurilishga topshiradi.

– Yaxshiyamki, ahmoqlarni partiyaga qabul qilishmaydi, – dedi xotini, – aks holda, zap tomosha bo‘lardi-da.

– Bo‘lmagan ish haqida nega gapirasan? – deya qichqirdi Borka.

– Hayotda hamma narsa yaxshilikka buyursin.

– E-e, chiqinglar hammalaring uydan, – dedi xotini, – men yana nimalar sodir bo‘lishini o‘ylab olishim kerak.

Uchinchi kuni Borka pulning hammasini to‘liq sanab oldi. U chukur xo‘rsinib, yigirma so‘mini dirjabl<sup>2</sup>ga berib, qolganini uyga olib keldi. Eshikni ichkaridan berkitib oldi.

To‘rtinchi kuni azonda yana baqiriq-chaqiriq, ur-yiqit, to‘sto‘tpolon va haqorat so‘zlar eshitildi.

Bu – Boris Andreyevich. U xotini bilan janjallashib, undan ajralib boshqa juvonga o‘ralashib qoldi. Fenechka ismli bu xotin yo‘lakning oxirrog‘ida yashardi. Oppoqqina, malla sochli. Ehtimol, chuxlardan bo‘lsa kerak. Nihoyat darajada go‘zal, shoirlar orzu qilgandek nozik-nihol.

Boris Andreyevich narsalarini yig‘ishtirib, unikiga ko‘chib o‘tarkan, xotini haqida og‘zidan bodi kirib, shodi chiqardi:

– Undan butunlay ketdim, yetar mayda burjuacha qiliqlariga toqat qilganim. Shunday jo‘shqin zamonda mening arizamni qaytib olishga majbur qildi. Bu qilmishi uchun bir umr kechirmayman. Chunki uni har ko‘rganda shu voqea esimga tushib, qiynalib, o‘rtanib ketaman. Lekin men uni shu holicha tashlab ketmayman. Unga yuz so‘m beraman, zotan u alvasti mening ko‘ngil ishlarimga boshqa aralashmasin.

<sup>1</sup> Inqilob kurashchilariga ko‘mak beruvchi xalqaro tashkilot.

<sup>2</sup> Fransuz tilida «boshqariluvchi» ma‘nosini bildiradi. Yerdan turib boshqariladigan yirik hajmli havo uchog‘i.



Xotini esa:

– Ana, ana! Men sizlarga aytmovidimmi? – dedi.

Boris Andreyevichning jiyani Vovka ham tezda narsalarini yig'ishtirib tog'asi bilan Fenechkanikiga ko'chib o'tdi va ertalabgacha berilgan ziyofatda xursandchilik qildi.

Oltinchi kuni uydan yana shovqin-suron, baqiriq-chaqiriq va xotin yig'isi eshitildi.

– Nima gap? Pardon. UZR, nima bo'ldi?

– Eshitmadingizmi, kecha oqshom Boris Aidreyevichning butun pulini o'g'irlab ketishibdi.

Dahshat va iztiroblarga to'la g'alati bir hol ro'y berdi.

Boris Andreyevichning o'zi karavotda yotibdi, rangi-ro'yi bamisoli ohakday oqarib ketgan. U asabiy pichirlar, qo'llarini tentakona harakatlantirar va bu bilan o'zining behisob azob-uqubatlarini namoyish etmoqchi bo'lardi.

Uning yonida – gilamda Fenechka hushsiz yotardi.

Fenechkaning tuflisi va paltosini o'g'irlashibdi.

Shu orada Boryaning jiyani Chuchelovning haydovchilikka imtihon topshirmasdan, allaqayoqqa g'oyib bo'lgani aniqlandi. Qabih o'g'irlik ana shu ko'rmamak qarindosh tomonidan sodir qilingan, deb topildi.

Shunda to'satdan Fenechkaning akasimi yoki boshqa bir balosimi paydo bo'lib qoldi. Ehtimol, u ham chuxlardan bo'lsa kerak. Ko'kragida GTO<sup>1</sup> nishoni yaltirab turardi.

U bir so'z ham demasdan ortiqcha odamlarni turtib, tepib xonadan chiqara boshladi.

Eng oxirda Borka Fominni haydadi va sho'rlik ayolning hayotini barbod qilganligi, yana tuffli hamda palto uchun uning tumshug'iga boplab tushirdi.

Borka bo'g'irsoqday shishib ketgan betini ushlab, dodlagancha yo'lakka qochib chiqdi.

Xayriyat, sobiq xotini uni yana o'z qanoti ostiga oldi va birga yashashiga ruxsat etdi.

Xonaning o'rtasida – polda yotgan Borka alamingning zo'rligidan bo'lgan voqeani atrofficha tekshirishga kelgan militsionerni ham payqamay qoldi.

---

<sup>1</sup> Mehnat va mudofaaga tayyor.

Borka xotiniga:

– Voy. Sizdan qanday ajralib ketganimni o‘zim ham bilmay qoldim, – dedi. – Faqat Sizning muhabbatingiz mening haddan tashqari azoblarimga malham bo‘lib kelgan. Ag‘darma tuflisi va paltosi o‘g‘irlangan o‘sha mallasoch mashak bilan atigi uch kungina alahsigandek yashadim. Uning o‘sha muttaham, jallod akasini ham tanimas edim. Voy, bu dahmazalaridan boshim tars yorilay deyapti. O‘rtoq militsionerning huzurida bo‘lib o‘tgan barcha ko‘ngilsizliklar uchun Sizdan o‘tinib, chin dildan kechirim so‘rayman.

– E, bas qiling inqillashni, – dedi militsioner. – Bu gaplardan yuragim yorilar darajaga keldi. Iltimos, ovozingizni o‘chiring, aniq narsalar haqida gapirmasdan vaziyatni tushuntiring. Men dalolatnoma tuzishim kerak. Chuvrindilar hayotidan doston yozmoqchi emasman, – dedi.

– Xo‘p, mayli, – dedi Borka. – O‘sha oqshom Fenechka uxlagan edi. Men esimda yo‘q, nima uchundir bir muddatga hojatxonaga chiqdim. Ehtimol, Vovka Chuchelov buning hammasini kuzatib turgan-u, keyin xonaga kirib o‘sha pul va buyumlarni olgandir.

Militsioner shularni yozib olib jo‘nadi. Er-xotin yarashib, birbirlariga misli ko‘rilmagan sadoqat bilan yashay boshladilar.

Borka Fenechka bilan salomlashmay qo‘ydi. U allaqayerdan olgan tuflisini ko‘z-ko‘z qilib kiyib yurardi.

Borka yaqinda Fenechkaning singlisi Sima bilan gaplashgan edi. U: Sizni do‘pposlagan, o‘sha mallamo‘y odam uning akasi emas, o‘ynashi, deb aytdi. Shu bilan hamma narsa ravshanlashdi.

Borkaning azob-uqubatlari tugadi. U har kuni ishga boradi va har xil tantanali va‘dalar beradi.

– Mayli, nima ham qilardik, – deydi xotini. – Agar xohlasang biror kishidan tavsiyanoma so‘ra. Sen bamisoli go‘dakdek hamma narsaga intilasan.

Oradan ikki hafta o‘tgach, to‘satdan Borkani militsiyaga chaqirib qoldilar. Militsiyada uning jiyani Vovka Chuchelovni Gagra, ya‘ni Kavkazda qo‘lga olinganini ma‘lum qilishdi. O‘g‘ri puldan to‘rt yuz so‘mini sarflabdi, qolgan pulning hammasini Borka shu onning o‘zidayoq qaytib olishi mumkin ekan.

Borka rangi-ro‘yi ohakdek oqargan holda uyiga qaytdi. U taxtaga o‘tirdi. Qo‘lida esa katta pul. U atrofdagilarga istar-istamas qarandi va nimalar bo‘layotganiga tushunib yetmaydi.

– E-e, chiqinglar hammalaring uydan, – dedi xotini. – Hali nimalar bo‘lishi gumon.

Bu gumondorlik bor-yo‘g‘i uch kun davom etdi.

Shundan keyin Boris Andreyevich birdaniga, to‘satdan Fenechka-ning singlisi – Simaga uylandi, qo‘ydi.

Baxtiyorlikdan uch kun ishga chiqmadi. Buning uchun yarim yilga uni ishdan haydashdi. Lekin u ishdan haydalganiga o‘ksinmadi, aksincha hammasiga tupurdi. Pullarini omonat daftarchaga qo‘ydi. Daftarchani yo‘g‘on kanop ip bilan o‘rab-chirmab ko‘kragiga osib yuradigan bo‘ldi.

Fenechka, bularning hammasi men uchun ahamiyatsiz, dedi. Xotini bo‘lsa: «Ko‘rgilik ekan-da!» dedi va kutilmaganda bir polyak tanishiga turmushga chiqdi, uy-joysiz polyak esa uning xonasiga ko‘chib keldi.

Endi buyog‘i qiziq: Boris Andreyevich pullarini sarflab bo‘lgach, yana qanday voqealar ro‘y berarkan?

1934–1935

## IQROR

Shu kunlarda o‘g‘rilik kasbiga qiziqish unchalik zo‘r emas.

Bu hunar boshqa kasblar tufayli ancha kasodga uchrab qolyapti.

Shuning uchun o‘g‘rilik keskin kamayib ketdi. Odamlar ham bu kasbga ruju qo‘yishmayapti.

Bunga sabab, albatta, ayrimlar qayta toblangan bo‘lsa, ko‘plarni, aytaylik, o‘g‘irlanadigan narsaning turi qiziqitirmay qo‘ydi. Buning ustiga militsiyamiz, aniqrog‘i, jinoyat qidiruv organlari misli ko‘rilmagan yuksaklikka ko‘tarilgan.

Mana qarang, bizning Leningradda quyidagi aniq bir voqea sodir bo‘ldi.

F. ismli bir kimsa biroz ichdi. U maoshini olib, allaqanday chiroyli, sharqona bir yemakxonaga kirib, palma ostiga o‘tirdi-da, xurma-chasiga biroz ortiqcha quydi.

Keyinchalik u albatta, kam ichgan edim, dedi. Go‘yo faqat ovqat yeganmish. Uning aytishicha, faqat ikki qadah achchiq rus arag‘i ichib, ustidan pivo bilan jinday sarmo‘shlabdi. Kim bilsin, ehtimol, haqiqatan ham ovqatni ko‘proq yegani uchun yoki boshqa narsadan kayfi oshib qoldi. Hatto orkestrga qo‘shilib kuylay boshladi.

Buni ikki yo‘lto‘sar ko‘rib qolishdi. Ular shu yerda, restoranda o‘tirgancha, o‘zlaricha bir nimadan kuyib-yonib o‘tirishardi. Bir payt qarashsa, ularning ro‘parasida turli xildagi yemishlar va mandarinlar to‘la stolda bir «yo‘lovchi» o‘tiribdi. O‘tirgandayam tili kalimaga kelmasdan, g‘o‘ldirab turibdi.

Albatta, bu ikki ulfatning nozik pariga tekkandek bo‘ldi. Yuraklari gumurib ketdi. Shunda ular aqlini yo‘qotib qo‘ygan, shahrimizdagi bu boyvachchaning adabini berib qo‘ymoqchi bo‘lishdi.

Mana, ular unga yaqin o‘tirishib, bir-ikki og‘iz maqto‘v so‘zlar ay-tishdi. Begona odamlarning maqto‘vlaridan erib ketib, u yana ichdi, go‘yo koptok bo‘lib dumalash darajasigacha ichdi.

Shunda jinoyat olamining vakillari bizning adashgan o‘rtoqni ko‘chaga olib chiqishdi-da, bir chorrahadagi yo‘lakka kiritib, basharasiga tushirishdi va badanida bir tuki qolguncha tunashdi.

Uning paltosi va kostum-shimini yechib olishdi. Oyog‘idagi bo-tinkasini ham yechtirishdi. Hatto «zefir»dan qilingan ustki ko‘ylagini yechib olishdan ham uyalishmadi.

Shunday qilib, bizning hurmatli otaxonimiz, qurilish sohasining ajoyib xodimi, o‘rtoq F. ni yarim modarzo‘t bir qiyofaga keltirishdi.

Juda eski va yirtiq bo‘lgani uchun unda faqat lozim hamda paypoqni qoldirishdi, xolos.

Hech narsaning farqiga bormaydigan, buning ustiga, tunalgan ota-xon devor orqasiga o‘tdi-da, shirin uyquga ketdi.

Endi uxlovdiyamki, oradan biror soat o‘tar-o‘tmas, to‘satdan uyg‘onib chanqab, biror nima ichgisi keldi.

U darhol shimini ko‘tarmoqchi bo‘ldi – shimi yo‘q. Undan yuqoroqni sermaladi – kostumi yo‘q, hatto ko‘ylagi ham qo‘liga ilinmadi. Faqat ichki ishton va paypoq joyida.

Shunda basharasini ushlab ko‘rdi. Qarasa, basharasi dabdala, bir nima zirqiraydi.

Otaxonimiz dahshatga tushib, o‘sha zahoti hushyor tortdi, yarim yalang‘och oyoqlarida sakrab turdi va uyiga qarab juftakni rostladi.

Harqalay, odamlar yo‘q joydan u ishtonini ikki qo‘llab ushlagancha chopdi, ayrim joylardan – uylarning soyasidan nafasini rostlash, yoki boshqa maqsadda ohista, sekin yurdi.

Darhaqiqat, juda noqulay, uyatli ish bo‘ldi. Ehtimol, hozir tong yorishar. Ana, qushlar ham chirqillay boshladi. Buning ustiga mada-



niyatli, namunali shahar. Hammayoq toza, ozoda. Hammomdagidek yarim yalang'och bir kimsaning shahar oralab yurishini bir tasavvur qiling-a.

Darvoza oldidagi qorovulning hayratdan yoqa ushlaganini aytmasa ham bo'ladi. Ehtimol, kulgidan xirillab qolgani uchun ham uni ichkariga qo'yib yuborgandir.

Uning uyga kirishi, oila a'zolari huzurida paydo bo'lishi onlarini tasvirlab o'tirish umuman badiiyatga to'g'ri kelmasa kerak. Shuning uchun bundan ham qiziqroq voqealar oldida hozircha sukut saqlay qolaylik.

Shundaymi, shunday emasmi, ishqilib bizning hurmatli otaxonimiz bir amallab uyga kirdi va ichkaridan xonani bekitib oldi. Tungi o'g'irlik ham sirligicha qoldi.

Endi gapning buyog'ini eshiting.

Jinoyat qidiruvchilar o'sha oqshom ikkala o'g'rini qo'lga olishdi.

O'g'irlangan narsalar qayerda, deb ularni so'roq qilishdi. O'g'rilar esa, anig'ini aytisholmadi. Chorrahada bir odamdan yechib oldik, deyishdi.

Chorrahaga borishdi. Haligi odam u yerda yo'q edi.

– Bu qanaqasi? – deyishdi jinoyat qidiruv xodimlari. – O'g'ri topildi, narsalar topildi. Hammasi joyida. Faqat jabrdiyda yo'q. Demak, biz uchun qiyinchilikning hammasi hali oldinda. Uni izlashga to'g'ri keladi. Jabrdiydalardan jinoyatchilarni aniqlash birmuncha osonroq bo'lib qoldi. Doim shunaqa. Jabrdiydalar o'zlarini topishni ko'pda xohlashmaydi. Ular bir narsani topib, ikkinchi narsani yo'qotib qo'yishdan qo'rqishadi.

Umuman, uch kun davomida shahar tintishib, jabrdiydani izlashdi. Aniqlab, so'roq qildilar. Hech kim iqror bo'lmaydi. Ehtimol, jabrdiyda cho'chqaday iflos holga tushganidan uyalar, yoki jamoatchilik oldida sharmanda bo'lishdan qo'rqar.

Biroq, jinoyat qidiruv xodimlari ruhsizlanmadi. To'rtinchi kuni jabrdiydani topishdi. Ular uni o'g'irlangan shim cho'ntagida qolib ketgan bildirish qog'ozi orqali topishdi.

Jabrdiyda, meni hech kim tunagan ham, urgan ham emas, deya har qancha tonmasin, adolat tantana qildi. O'g'rilar bilan yuzmayuz qilishdi. Ular o'sha zahoti, shu odam, deya iqror bo'lishdi.

Shunda jabrdiyda ko'zlarini piri-piratib:

– Tan olishga majburman, – dedi. – Men edim. Faqat iltimos, jamoatchilikka bildirmasangiz.

Jinoyat qidiruv xodimlari kulib yūborishdi va:

– Bundan keyin, – deyishdi jabrdiydaga, – iching, ovqatlaning, lekin hushingizni yo‘qotmang. O‘g‘irlangan narsalaringizni olib ketishingiz mumkin.

O‘g‘rilar ularga... qo‘rquv aralash qarab olib, hozirgi zamonda o‘z kasblarining naqadar og‘irlashib borayotgani haqida o‘zaro pichirlab qo‘yishdi.

1935

## G‘AROYIB SARGUZASHT

Bir xizmatchining xotini, mayda burjua oilasidan chiqqan, juda yosh va nihoyatda go‘zal juvon bir aktyorni sevib qoldi.

U drama va komediya artisti edi. Shunday qilib, juvon uni yaxshi ko‘rib qoldi.

Juvon uni sahnada ko‘rgan va u o‘zining ajoyib ijrosi bilan oshufta ko‘ngilni maftun etgan, yoki aksincha, sahnada ko‘rmagan, balki artistona qaddi-qomati juvonga yoqqan va umuman, uni tel-balarcha sevib qolgan edi. Hatto bir paytlar u nima qilishini bilmay qolgan edi: eridan chiqib artistga tegsinmi yoki hayotini o‘zgartmay, ya‘ni eridan chiqmasdan turib, aktyor bilan shunchaki yuraversinmi?

Keyinchalik juvon drama aktyorida hech qanday sharoit va qulaylik yo‘qligi uchun eridan chiqmaslikka qaror qildi. Buning ustiga o‘tmishda ancha oilaviy qiyinchiliklarga duch kelgan artistning o‘zi ham uylanishni ko‘pam xohlamasdi.

Bir-birlarini sevib qolganliklari uchun ular ahyon-ahyonda uchra-shib turishardi.

Aktyor juvonga telefon qilar va u ham repetitsiyaga borib, sevgilisining rolini qanday mohirona o‘ynashini ko‘rar, bundan muhabbati battar lovullab, u bilan tez-tez uchrashib turishni istardi.

Ular uchrashib turadigan maxsus joy bo‘lmagani uchun, bami-soli Romeo va Julettadek ko‘chada, kino yoki kafeda uchrashishga shoshilishar va bir-birlariga jon o‘rtovchi so‘zlarni aytishdan nariga o‘tishmasdi.

Tabiiy, bu xil qisqa muddatli uchrashuvlar ularni unchalik qanoatlantirmas va ular doimo hayotning bu qadar shafqatsizligidan, hatto o'z muhabbatlarini izhor qilishga munosib joy yo'qligidan hasrat qilishardi.

Juvon artistnikiga kira olmas, chunki uning oilasi bor edi.

Juvon eri ishda bo'lganida bir necha bor taklif etdi. Aktyor ikki marta kirdi-yu, keyin butunlay rad etdi.

Asabiy, talantli, buning ustiga, xayolparast artist juvonnikida bo'lishdan qo'rqardi. Aytib bo'lmaydi, eri kelib qolishi va gap katta qozonda qaynab, otishuv yoki boshqa bir fojia ro'y berishi mumkin, deb o'ylardi.

Shu xil xayollar bilan artist majburiy kayfiyatda juvonnikida bo'ldi va qo'rquvdan qalt-qalt titrab, murdadek rangi oqarib o'tirdi.

Albatta, juvon bu kishining ruhiy zaifligini ko'rib, uni qiynab o'tirmaslik uchun uyiga taklif qilmay qo'ydi.

Bir kuni juvon yorilib qoldi:

– Unda, mana bunday qilamiz, – dedi. – Agar men bilan ko'rishishni istasangiz, kelgusi yakshanbada dugonamnikiga keling.

– Ana bu boshqa gap, – dedi drama artisti. – Axir, o'zingiz bilasiz, mening kasbim juda nozik, asabiy. Shuning uchun ham Siznikida dahshatga tushib o'tiraman.

Juvonning Sonechka degan yaqin dugonasi bor edi. Baletda qatnashsa kerak. Juda go'zal, ma'lumotli bir jonon.

Bizning xonimni eri ham o'z xotini uchun bundan ortiq dugona bo'lmasligini e'tirof etib, bu do'stlikni qo'llab-quvvatlardi.

Shunday qilib, bizning baletchi jonon ancha qizg'in yalinib-yolvorishlardan keyin dugonasiga o'z uyida sevgilisi bilan o'zaro kelishib olishlariga ruxsat berdi.

Yakshanba kuni ertalab bizning artist yaxshi kiyinib, shu uchra-shuvga otlandi.

Shuni aytish kerakki, tramvayda arzimas bir voqea sodir bo'ldi, ya'ni yonidagi kishi bilan aytishib qoldi. Umuman, santak-mantak, baqiriq-chaqiriq va shunga o'xshash gaplar. Natijada, bizning artist asablari tarang kishi emasmi, ancha qizishib ketdi. Qo'shnisi siqilib, tramvaydan tushayotgan edi, bizning artist chidab tura olmasdan naq uning basharasiga tupurdi. Va shu zahoti tramvayning tez yurib ketganidan juda xursand bo'ldi. Tahqirlangan kimsa tramvay orqasidan yugurmoqchi bo'ldi, lekin qolib ketdi.



Biroq, bu to‘qnashuvdan artistimizning kayfiyati zarrachayam buzilmadi. U o‘z sevgilisi bilan uchrashib, kommunal uyda yashovchi dugona – poshshanikiga yo‘l olishdi. Juda saranjom-sarishta, choq-qina xonaning kaliti endi ularning qo‘lida edi.

Ular xonaga kelib, o‘zlarining kelajak hayotlari haqida kelishib olish uchun divanga o‘tirishganda, to‘satdan kimdir eshikni taqillatdi.

Yosh juvon dahshatdan allaqachon tosh qotgan artistga ovozingni chiqarma, deya imo qildi.

To‘satdan eshik orqasidan:

– Ayting-chi, u kelib qolarmikin? – degan ovoz keldi.

Bu ovozni eshitgan juvonning rangi bo‘zday oqarib ketdi va aktyorga, bu erimning ovozi, deb shivirladi. Eri ularni ko‘chada birga ko‘rgan va ta‘qib qilib bu yergacha kelgan bo‘lishi mumkin edi.

Drama artisti bu nogahoniy balo-qazo haqida eshitib, o‘zini bata-mom yo‘qotdi va qalt-qalt titroqqa tushib, nafasini chiqarmasdan sevgilisiga ayanchli qaradi-da, divanning tagiga kirib ketdi.

Eshik orqasidan yana o‘sha ovoz eshitildi.

– Unda men xatcha yozib qoldiraman. Kelib-ketganimni aytarsizlar.

Shunday qilib, bizning xonimni eri (bu haqiqatan ham o‘sha edi) xatni yozib, eshik tagiga tiqdi-da, o‘zi chiqib ketdi.

Bizning xonim juda hayratga tushdi va o‘sha onning o‘zida xatchani olib o‘qishga tutindi. Shundan so‘ng u o‘krab yig‘lab yubordi va alamiga chiday olmasdan o‘zini divanga otib urdi.

Drama artisti ham ayolning yig‘loqi ovozidan sal-pal o‘ziga kelib, haligi xatchani o‘qidi-da, u ham hayratga tushdi.

Xatchada «Azizim Sonechka! To‘satdan vaqtli bo‘shab qolib, senikiga yugurdim. Afsuski, yo‘q ekansan. Soat uchda kiraman. Qattiq o‘paman. Nikolay» deyilgan edi.

Bizning xonim xo‘rsinib, ko‘z yoshlari orqali artistga qarab so‘radi:

– Siz nima deb o‘ylaysiz? Buyog‘i qanday bo‘ladi, a?

– Sizning eringiz, – dedi u, – dugonangiz bilan don olishib yurganga o‘xshaydi. Harqalay, u bu yerga o‘z oilaviy hayotidan shunchaki dam olish uchun kirmasa kerak. Endi sizning vijdongingiz qiynalmasa ham bo‘ladi. Qani, qo‘lchangizni bering-chi, jonim.

Aktyor o‘sha nozik qo‘lchani endi do‘rdoq labiga yaqin olib bo‘ruvdiyamki, eshik shiddat bilan taqilladi va orqadan dugonaning vahimali ovozi eshitildi.



– Voy, tezroq ochsalaring-chi! Bu menman! Bu yerga mendan boshqa kishi kirmadimi?

Bu soʻzlarni eshitgan bizning xonim oʻsha zahoti hoʻngrab yigʻlagancha eshikni ochdi-da, qoldirilgan xatchani dugonasiga tutqazdi.

Xatchani oʻqigan dugonasi biroz xoʻmrayib turib:

– Hech ajablanadigan yeri yoʻq, – dedi. – Zero, hamma narsadan xabardor ekansizlar, unda yashirib oʻtirishimning hojati yoʻq. Umuman, birov kelar ekan, sizlardan iltimos, hozirning oʻzidayoq bu yerdan ketinglar.

– Qanaqa birov boʻlarkan? – dedi bizning xonim. – Xatchadan aniqki, hozir senikiga mening erim keladi. Shunday pallada ketish xoʻb yaxshi-da! Ehtimol, men oʻsha muttahaarning bu iflos ostonaga qanday qadam qoʻyishini koʻrishni istarman.

Bu xil mushkul ahvoldan kapalagi uchib ketgan yosh yigit gunohlardan forigʻ boʻlish uchun joʻnab ketmoqchi edi, bizning xonim hech qayoqqa ketmaysan, dedi.

– Hozir erim kelsin, oʻshanda hamma chigallikni yechib tashlaymiz.

Harbiycha buyruqqa yaqin bu soʻzni eshitgan artist shapkasini izlab topdi-da, tezda xayrlashib chiqib ketmoqchi boʻldi. Shu asnoda uning ketish-ketmasligi haqida dugonalar oʻrtasida oʻzaro dahanaki jang, bahs-munozara boshlanib ketdi.

Dastlab, ikkala dugona ashyoviy dalil sifatida er kelguncha uni ushlab turmoqchi boʻldi. Birinchisi – eriga ularni oʻz uyiga qoʻygan yengiltak qushcha, yaʼni dugonasining kimligini, ikkinchisi esa – eriga xotining qanaqaligini koʻrsatib qoʻymoqchi edi.

Keyinchalik bu fikrlaridan qaytishdi. Dugona oʻzining isnodga qolishini, xotini esa erining koʻziga shu holda koʻrinishni istashmadi. Shunga kelishgan holda bizning artistga darhol joʻnab ketishga ruxsat berishdi.

Artist xursand boʻlgan holda endi xayrlashayotgan edi, toʻsatdan eshik taqillab qoldi. Bu – oʻsha, erning ovozi edi.

– Jonginam Sonya, bu menman! Oching!

Xonada ancha sarosima va parokandalik roʻy berdi.

Drama artisti oʻsha zahoti dahshatli qoʻrquvdan talvasaga tushib, oʻzini kasal yoki oʻlayotgan kishi holiga solib, divanga yotib olmoqchi boʻldi. Biroq, yonlamasiga yotgan yengiltak kishiga oʻt ochish bir-muncha osonligini oʻylab, bu fikrdan qaytdi.

U shu holatda u yoqdan bu yoqqa yurar, xonadagi buyumlarga bexosdan oyog‘i bilan tegib ketib, taqir-tuqur ovozlari chiqarardi.

Eshik orqasida turgan er esa ichkaridagi shovqinni eshitib juda hayron bo‘ldi va bu yerda biror gap borgan o‘xshaydi, deb o‘ylab, avvalgidan battarroq taqillata boshladi.

Shunda dugona artistga taklif qilib qoldi.

– Mana bu eshik, mening qo‘shnimning xonasiga olib chiqadi. Hozir sizga uni ochib beraman. O‘sha yerga o‘tasiz va qo‘shimcha eshik orqali yo‘lakdan chiqqach, narvon bor. Xo‘p, alangali salom!

Shunday degancha u eshikning zanjirini tushirdi va tashqarida eshikning oshiq-moshig‘ini ko‘chirar darajada itarayotgan erining vajohatidan qo‘rqib, artistga tezroq ketsang-chi, dedi. Shunda bizning artist o‘qday otilib, qo‘shni xonaga chiqdi. U yerdan yo‘lakka chiqmoqchi edi, aksiga olib yo‘lakka chiqadigan eshik orqa tomondan berkitilgan, osma qulf urilgan edi, shekilli.

Artist bu mushkul ahvol haqida ikkala xonimga bildirish uchun orqaga qaytgan edi – eshik berk, o‘ta olmadi. Kechikkan edi.

Er xonaga kirib, baland ovozda gap-so‘z boshlagani uchun uning kirishi ham maqsadga muvofiq emasdi.

Shunda artist juda tuturiqsiz odam bo‘lganligi sababli juda ko‘p mashmashalar tufayli o‘sha zahoti holsizlanib, boshi aylanib ketgani uchun karavotga yotib oldi. Bu yer unga go‘yo xavf-xatarsizdek edi.

U karavotga yotgan holda bu voqealar, ayniqsa, muhabbat mojarolari haqida xayol sura boshladi. To‘satdan yo‘lakka kimningdir qulfga kalit solayotganini eshitdi. Bir so‘z bilan aytganda, kimdir eshik oldida kuymalanib turibdi, albatta, u hozir xonaga kiradi.

Darhaqiqat, eshik ochilib xonaga shirinlik va bir shisha may solingan savatchani ko‘tarib, bir kishi kirdi.

Artist qarasa, xonaning egasi u yo‘q, bu yo‘q, ertalab o‘zi tramvayda haqorat qilib, basharasiga tupurgan kishi edi. Shuning uchun ham u har xil so‘zlarni qalashtirib, kechirim so‘ray boshladi.

Oyog‘ini tortib olishga ham eringan bizning artist yosh boladek qayta yotib olib, ko‘zlarini yumdi. Go‘yo u tush ko‘rayotgan, hade may har xil janjal va ko‘ngilsizliklardan forig‘ ajoyib hayot boshlanishini o‘ylab yotardi.

Keluvchi kishi g‘azabini arang haydab:

– Janoblar, nima bo‘lyapti o‘zi? – dedi shikoyatomuz. – Hozir bu yerga ma’shuqam kelishi kerak. Xonamga esa bir cho‘chqa kirib olibdi. Eshik qulflog‘liq bo‘lsa. Bu yerga u qanday kirdiykin?

Qarasa, hech kim uning qo‘lini qayirmayapti, hatto urishmayapti ham, shuning uchun artist hayajon va ilhom bilan gapira boshladi.

– Oh, pardon! Hozirning o‘zidayoq ketaman. Jindaygina dam olish uchun endi yotgan edim... bu sizning karavotingiz ekanini bil-mabman... Talay hodisalardan boshim aylanib ketdi...

Shunda xona egasining hayrati oshib, avvalgidan battarroq jahlg a minib, baqira boshladi.

– Bu qanday bema’nilik? Oyog‘ini yechmasdan mening karavotimga yotib olishini qaranglar uni. Hatto o‘z tanishlarimga ham oyog‘ini yechmasdan yotishga ruxsat bermayman. Bu qanday gap? Naqadar ablahlik!

U shunday degancha artistga tashlandi va uning yelkasidan tutib, karavotdan uzib oldi. Artistning basharasiga qaragan edi, ertalabki voqea esiga tushib ketdi.

Orada biroz sukunat cho‘kkandek bo‘ldi.

Xona egasi birpas o‘ylab turgach:

– Ha-ha, qo‘lga tusharkansan-ku, bitko‘z! – dedi va uning to-mog‘iga qo‘l cho‘zdi.

Xuddi shu asnoda eshik ohista chertilgandek bo‘ldi. Uy egasi:

– Yaxshiyamki, baxtingga hozir men kutayotgan juvon kelib qol-di. Aks holda, burda-burda qilgan bo‘lardim! – dedi.

Artistning yoqasidan tutib, eshikkacha sudrab keldi va uni bami-soli lattadek yo‘lakka itqitmoqchi bo‘ldi. Bu holga artist batamom ko‘ngan va hatto, undan minnatdor edi.

To‘satdan eshik ochilib, xona ostonasidan ajoyib, go‘zal bir malak ko‘rindi, go‘yo uy egasiga kelgan bu mehmon, o‘z navbatida, badnom bo‘lgan artistimizga xaloskor farishtadek tuyuldi.

Faqat bizning artist xonimga yaxshiroq qaragan edi, hayratdan ikki qadam orqa chekinib, tentirab ketdi, chunki kirgan xonim... uning o‘z xotini edi.

Darhaqiqat, aql bovar qilmaydigan, shunga o‘xshash voqeaning ro‘y berishi juda ajoyib edi.

Ikki soat davomida churq etmay turgan bizning artist to‘satdan ba-qirib, shovqin-suron bilan xotinidan bu yashirincha tashrifning sababi-ni so‘rab, qiyin-qistovga ola boshladi.



Xotini yig'lar, xo'rsinar va o'zi bilan birga ishlaydigan bu kishinikiga gohida shirinlik bilan choy ichishga kirib turishini aytdi.

O'zini yo'qotib qo'ygan haligi xodim esa, orani ochiq qilgan bo'lsalaring, o'zaro yarashib kelinglar, uchovlashib choy ichamiz, dedi. Biroq bu taklifdan aktyorning shunaqayam jazavasi qaynab, baqirib yubordiki, sho'rlik xotini shaytonlab qolay dedi. Xotin bilan birga ishlaydigan kishi esa, ertalab tramvaydagi ko'ngilsiz voqea esiga tushib, janjal ko'tardi.

Shunda, o'zi nima gap, deya hamma qo'shnilar to'planib kelishdi.

To'planganlar orasida bizning xonim eri bilan va uning dugonasi ham bor edi.

Ro'y bergan voqeani aniqlagach, oltovlon bir xonada to'planib, bundan keyin nima qilish kerakligini maslahat qila boshlashdi.

Baletda ishlaydigan jonon o'z dugonasiga:

– Buyog'i oppa-oston! – dedi. – Men Nikolayga turmushga chiqaman. Artist senga uylanadi, bu ikkalasi bir-biriga juda munosib, buning ustiga, bir tashkilotda ishlasharkan. Shunday qila qolaylik.

Artistning xotini istab kelgan xizmatdosh:

– Assalomu alaykum! – dedi. – Axir uning bir etak bolasi bor-ku! Qanaqasiga uylanay! Xo'p, sodda odamni topibsanlar-da.

Drama artisti:

– Mening xotinimni haqorat qilmang! – dedi. – Haliyam men uni yo'lda uchragan har qanday kimsaga bermoqchi emasman.

Artistning xotini:

– Unikiga kelishga o'zinning ham ko'zim uchib turgani yo'q, – dedi. – Uning uy-joyiga bir qaranglar. To'rt bola bilan unikiga qanday sig'aman?

– Haliyam bolalaring bilan seni bu yerga o'lsamam kiritmasman, – dedi xizmatdosh. – Shunday muttaham eri bo'la turib, yana mening xonamga ko'z tikadi-ya. Karavotimda cho'zilib yotibdi.

Baletdan chiqqan Sonechka kelishtirmoqchi bo'ldi:

– Unda bunday qilamiz, – dedi u. – Men Nikolayga turmushga chiqaman, artist bilan xotini mayli, avvalgidek o'z holicha qolaversin, Nikolayning xotiniga esa manovi ahmoq xizmatdoshni uylantirib qo'yamiz.

– Assalomu alaykum! – dedi xizmatdosh. – Ja oson yo'lini topdinglar-da. Hozirning o'zidayoq u bilan nikohdan o'taman. Qani, cho'ntaklaringni kengroq ochinglar-chi! Axir, men bu tasqara tullakni



birinchi marta ko'ryapman-ku. Kim bilsin, ehtimol, u kissavur ayol-dir?!

– Iltimos, xonimlarimiz haqorat qilinmasin, – dedi artist. – Men ham eng to'g'ri yo'l shu deb o'ylayman.

– Yo'q, bilasizlarmi, – deya gapga aralashdi bizning xonim. – Men o'z uyimdan hech qayoqqa ketishni istamayman. Bizda uch xona va vanna bor. Kommunal uyda tentirab yurishga tobi-toqatim yo'q.

– Uchta bema'nini deb, butun rejalarimiz barbod bo'ldi, – dedi Sonechka. – Qanday yaxshi bo'lardi-ya. Men Nikolay bilan, bu – anavi bilan. Qolganlar esa o'z holicha bo'lardi. Afsus.

Shunda xonimlar orasida o'zaro aytishuv, santak-mantak boshlanib ketdi. Shunda erkaklar yuraklarini ushlagancha, hammasi avvalgicha qolaversin, degan qarorga kelishdi. Shunga ko'nib, hammalari tarqalishdi.

Biroq, ish avvalgiday emas, butunlay boshqacha tus oldi. Sonechka tezda artist xotining xizmatdoshi – o'z qo'shnisiga turmushga chiqdi. Gohida ularnikiga artist mehmon bo'lib kelar, chunki u juda yumshoq va beozor tabiati bilan uy bekasiga yoqib qolgan edi.

Bizning xonim esa artistning tabiatidagi bachkanalikdan aynib, fiziolog bir kishini sevib qoldi. Nikolayga kelsak, juda ishga ko'milib ketgani uchun, ehtimol, muhabbat dostonini o'qishga uning vaqti yo'qdir. Harqalay, Sonechka bilan ahyon-ahyonda uchrashib qo'yar, yakshanba kunlari birgalashib, tez-tez shahardan tashqariga yo'l olishardi.

1935

## BECHORA LIZA

Qorachadan kelgan, unchalik o'qimishli ham, ovsar ham bo'lmagan yoshgina juvon shu yilning o'zida, albatta, boyib olishga qaror qildi.

Kapital mamlakatlardagi millioner va chayqovchilarga xos afsonaviy katta boyligni birdaniga qo'lga kiritmoqchi emasdi u.

Yo'q, albatta, juvon buni istamasdi. Umuman aytganda, aynan shunday bo'lishini ham xohlardi. Biroq, endilikda buning qanday nom bilan atalishini bilmasdi. Shuning uchun ham imkoniyat darajasida boylikka ega bo'lishga qaror qildi.

Juvon doimiy haydovchisi bo'lgan allaqanday zangori «Ford» mashinasini orzu qilardi. Choqqina dala hovlisi, bankda maxsus hisob-kitob varaqasi bo'lsa, yana yaxshi. Erining yuqori lavozimga, odamlar orasida, hamma yerda obro'-e'tiborga ega bo'lishi ham zarar qilmasdi.

Uning eri bo'lsa, oddiy muhandis. Shunchaki suv masalalari bilan shug'ullanadigan gidrolog. Shunday qilib, eri biror-bir maxsus kolonnani loyihalashtirmagan edi, albatta, ba'zi bir ijodkorlardek qilgan yangiligi yoki ixtirosi uchun pul va mukofotlar ham olmasdi.

Qisqasi, o'zining kamtarona yetti yuz tangasiga kun kechirardi. O'z ishining ravnaqiga ishongani uchun ham juda mamnun edi.

Bu summa uning xotininigina qanoatlantirmas edi. Chunki xotini bekorchi, havoyi va e'tiqodi zaif bo'lgani uchun ham afsonaviy hasham va boshqa narsalarni orzu qilardi.

Kimdir unga, umuman, yozuvchilar yomon yashashmaydi, debdi. Ulardan ba'zilarida yozuv mashinkasi, alohida uy, dala hovlisi, hatto avtomobili ham bo'larkan. Ana shu toifa orasidan o'zingga munosibrog'ini izla, deyishdi.

Biroq Liza uni qayerdan izlashni bilmasdi. Shuning uchun ham duch kelgan birinchi muallif bilan shoshilinch ravishda tanishib oldi.

Gap oramizda qolsin-u, kishi ruhining bu muhandisi, baxtga qarshi, juda kambag'al va g'alati bir shaxs edi. Bu ham yetmagandek, ichkilikni yaxshi ko'rarkan. Oradan bir oy ham o'tmasdan Lizaga tezda biror yerga kirib xizmat qilishni maslahat berdi. Davrning ulkan o'zgarishlarini aks ettiruvchi badiiy jihatdan g'o'r asarlar yaratgani uchun ham yozuvchi ko'pda o'ziga ishonmasdi.

Umuman, yozuvchi Lizaning umidini oqlamadi, shuning uchun ham u bu «tug'ma iste'dod»ni tark etdi, shu bilan birga adabiyot va uning qudratiga ishonmay qo'ydi.

Umuman, u yana o'z eriga qaytib keldi. Qaytib kelgan bo'lsa-da, tez orada boyib ketishdek avvalgi havoyi orzu-umidlaridan voz kechmagan edi.

Xuddi shu oralarda uni bir chet ellik bilan tanishtirishdi.

Ularni restoranda uchrashtirdilar. Va bu sayyoh, ya'ni chet ellik, deyishdi. U mehmonxonada yashar va bundan ko'pam rozi emas ekan. Agar topilsa, ikki oycha biror-bir kommunal uyda yashamoqchi emish, sizda topilmaydimi, deb so'radi.

Unda bunaqa xona bo'lmasa-da, bu taklifdan juda xursand bo'ldi va onasini ikki oycha boshqa yoqqa ko'chirishga qaror qildi. To'g'ri-da,

ko'rimsiz, ochiq-sochiq, shovqin-suronli mehmonxonada, qo'ng'iroq va qizlarning kirib-chiqishlariga tob bera olmagan erka sayyohginani ezma kampir bilan bir yerga qo'yib bo'larkanmi?

Shuning uchun ham bu chet ellik tantiq oqsuyakka o'z uyidan alohida xona ajratdi. Eri rozi bo'lmagan edi, bir amallab ko'ndirdi. Shunda chet ellik ko'z o'ynatuvchi yarqiroq garderoibi, atir-upalari, fotoapparat, shimni qisib turadigan ilgich va boshqa lash-lushlari bilan ularnikiga ko'chib keldi.

Hayotimda tub burilishlar ro'y beryapti deb o'ylagan Liza chet ellik bilan bermalol yashay boshladi.

U ham Lizani jon-dilidan sevib qoldi. Hatto, Lizaga rasmiy taklif ham qildi. Nikohdan o'tish mumkin bo'lmasa-da, bu taklifdan Liza nihoyatda xursand bo'ldi va o'z roziligini bildirdi.

Shunda Liza darhol erini tashladi. Chet ellik bilan o'z onasinikida tura boshladi.

Chet ellik deyarli rus tilida gapira olmas, aksincha, Liza faqat rus tilida gapirsa-da, bu hol ular orasidagi munosabatga, to'g'risi, ularning xalqaro baxtiyorliklariga monelik qilmas edi.

Umuman, Liza baxtiyor, Parij, London, O'rta Yer dengizi va boshqa joylarni orzu qilardi.

Bir oy mobaynida chet ellik rus tilida o'z fikrini sal-pal ifoda qiladigan bo'lgach, bir kuni shu tilda ancha ezmalanib turdi. Uning gaplaridan shu narsa anglashildiki, u Ovro'poga ketmoqchi emas ekan. Aksincha, shu yerda qolishni xohlarmish. Chet elda allaqanday qiyinchiliklar tufayli u ishlab turgan korxonaga yopilibdi. Shundan keyin, hatto ishsiz qolibdi. O'z kasbiga oid biror ish topish maqsadida Ittifoqqa kelgan ekan.

Lizaning rang-ro'yi oqarib ketdi va ruscha nimalar deb g'o'ldiraganini yana bir marta takrorlashini so'radi. Shunda u aytdi gaplarini yana bir karra takrorlab, eng oxirda o'zining gazli vino va mineral suvlar bo'yicha mutaxassis ekanligi, agar shu ixtisos bo'yicha biror ish topilsa, albatta, joylashish niyati borligini aytdi. Bu yerda, ya'ni Ittifoqda, albatta shu xil mutaxassislar juda kerak. Agar ishga joylashsam, biror yilga qolar-qolmas, xohlasang seni Parijga oborishim mumkin, dedi chaynalib.

Shunda Lizaning jahli chiqib ketdi va istehzo bilan o'zing-ku, ishsiz bir odam ekansan, yana nega erka-tantiqlik qilib, sayyohman, deysan, bermalol o'sha arzonigina mehmonxonada yashab yursang



bo'lardi-ku, deb o'yladi. Basharang va axloqing bilan atrofdagilarni jirkantirib, qalliq tanlashga balo bormi?

Shunda u Lizaga, men ham iqtisod va tejamkorlik uchun bu yerga ko'chib o'tdim-da, dedi.

Shunda Liza, kallamda butun olam ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi, deya yig'lab yubordi. Chet ellik sayyohlar haqida u butunlay boshqacha fikrda edi. Liza ularning hammasi shunday, ko'ngilxushlik uchun, sarf-xarajat qilish uchun bu yerga kelishadi, deb o'ylardi. Ishsiz bir to'nkaga turmushga chiqishim yetmay turuvdi. Bu xil bekorchilar, hatto, o'zimizda yo'g'-u. Shunda u boshqasini ko'zladi. Yaxshisi, o'zimizdagi idora xodimiga turmushga chiqsa ham, har oyda yuz chervonni qurtday sanab oladi.

Liza alam va xo'rlikdan uch kun qon-qon yig'ladi. Onam ko'chada qolib ketdi, deya chet ellikni mehmonxonaga haydadi.

Umuman, undan ajraldi, shu orada birinchi erining ishda qandaydir bir katta iqtisodiy kashfiyot yaratgani va uning evaziga o'n ming so'm mukofot olgani haqida gazetada e'lon chiqqanini eshitib qoldi.

Eri xotining qaytib kelishini o'ylamasdan bu pulni qurilishga o'tkazib yuboribdi. U juda tashabbuskor kishi bo'lib, pulga unchalik qiziqmasdi. Shuning uchun ham bu mablag'ni davlat ixtiyoriga o'tkazibdi.

Liza uyga qaytgach, shu haqda eshitib, shundayam qattiq asabiy-lashdiki, eri sho'rlik hozir bir kor-hol bo'lib qolmasaydi, deb o'yladi. Liza biroz o'ziga kelib, sal-pal tinchlandi, shunda, yana yaxshiroq biror chora topish kerak, degan qarorga keldi.

Kimdir unga hali o'zi yaqinda birga yashagani omadsiz yozuvchi kutilmaganda juda yuksaklikka parvoz qilibdi, dedi. U har xil bo'lmag'ur narsalarni yozishni tashlab, to'satdan bitta pyesa yozibdiki, bu asar Boris Shekspir yoki boshqalarnikidan sira qolishmas ekan. Shuning uchun u ayni kunlarda juda ko'p qalamhaqi ishlarkan.

Liza shu baxtiyor kunlarni kutmagani uchun o'z-o'zini qattiq ko'yib turmoqchi bo'ldi. Biroq, uning ikkita oilasi bo'lib, nisbatan baxtiyor yashayotgan ekan.

Teatr ishlari bilan yaqindan tanishish asnosida Lizaga juda katta boshqa xil imkoniyatlar tug'ildi. Buning ustiga teatrdagi uni juda ko'p ishlab, nihoyat katta pul topadigan bir komik – qiziqchi bilan tanishtirdilar.



Liza qiziqchi bilan darhol qo‘shilmoqchi edi, lekin unda g‘irromlik va firibgarlik xislatlarini ko‘rib, chet ellik sayyoh bilan bo‘lgan holga tushmasaydim, deya qo‘rqib ketdi.

Qiziqchiga turmushga chiqmadi, demak, ish shu darajaga borib yetgan ekan, yaxshisi, artistka bo‘lishga qaror qildi.

Estradada o‘ynab, pul topish uchun xarakterli raqslarni o‘rgana boshladi.

Biroq, chet ellik sayyoh va yozuvchi bilan yashagandagi ko‘ngilsizliklar oqibatida doktorlar unda yurak nevrozi va badanida allaqanday toshma borligini aniqlashdi. Shuning uchun u ashula o‘rgana boshladi!

Shu kunlarda u kuylar, yopiq konsertlarda va dam olish uylarida yaxshigina pul ishlamoqda edi.

Liza eriga bundan keyin birga yashaymiz, dedi. Go‘yo avvallari pulga va oilaviy hayotga qarashlari eskicha ekan, hozir ashula aytib, ming so‘m va undan ko‘proq ishlay boshlagach, butunlay qayta tarbiyalanibdi, shuning uchun ham xotinlarning mustaqilliklarini qo‘llab-quvvatlarkan.

Bu mamnunlik unga sayyoh haqidagi yangi xabarni eshitgach, pardek to‘zib ketdi. Aytishlaricha, o‘sha chet ellik sobiq eri bu yerdan o‘z kasbi bo‘yicha shundayam ajoyib bir ish topibdiki, natijada juda katta pul ishlayotgan ekan. Hatto, u shu yerdan bir qizga uylanibdi, hozir ishlarini yo‘lga qo‘yish uchun xotini bilan birga o‘z vataniga jo‘nab ketibdi, u yerdan avtomobil olib kelisharmish.

Lizaga, shunday ajoyib nusxani qo‘ldan chiqarishingga, ehtimol, ruscha yaxshi kelisha olmaganliklaring sabab bo‘lgan, deyishdi.

Ana shu yangilikni Liza ko‘tara olmadi. Hatto, vaqtincha ovozi ham yo‘qolib qoldi.

Xayriyat, ikki haftadan keyin ovozi qayta tiklandi. Hozir holi baqudrat kuylab yuribdi. Biroq badanidagi toshma negadir yo‘qolmayapti.

Mana, xonimlar qanday bo‘lishadi!

Mana, ular bizdagi odatdagidan boshqacha yo‘l bilan pul topishga hirs qo‘ysalar, qanday nochor holga tushadilar.

Shunday qilib, Liza artistka bo‘lgan ekan, bu uning uchun yaxshidir, biroq tomoshabinlar uchun o‘rtachadan bir bahya ham yuqori emas.

Albatta, bunday hollarda kuylashdan ko'ra hamisha raqs yaxshiroq. Yoshlar tomoshabinlarning bu qizg'in istaklarini inobatga olarlarga degan umiddamiz.

1935

## XAYOLPARAST QISSASI

«Hayotga peshvoz» kitobining muallifi, ko'rinishdan juda irodali, yosh shoir kurortda istarasi issiqqina bir qizni yaxshi ko'rib qoldi.

U shoira bo'lmasa-da, she'riyatga ixlos bilan qarar va bundan bizing shoirimiz moyday erirdi.

Bundan tashqari, qiz shoirga shaxs sifatida ham ma'qul edi. Aytmoqchi, tashqi ko'rinishdan uning didiga mos kelardi.

Qiz oq-sariqdan kelgan, shoirning o'zi aytmoqchi, o'sha kezlari janubda qoracha qizlarning ishqivozlari ko'p bo'lsa-da, lekin unda negadir shoirona hayajon uyg'otmas edi. Buning ustiga, u lirik, o'zi aytmoqchi, inqilobiy o'zgarishlar kuychisi edi. Shu tufayli ana shu qizga butunlay maftun bo'lib qoldi.

Umuman, shoir-da. Ma'lumotli. Jo'shqin va parishonxotir bir yigit. She'rlar yozadi. Gullarni, yaxshi yeb-ichishni yoqtiradi. Har qanaqa go'zallikka havas bilan qaraydi. Ayollarni yaxshi biladi. Psixologiyani tushunganligi uchun gohida ularga qattiq ishonadi.

Sentabr oyida janubiy qirg'oqqa yo'llanma bilan dam olishga kelib, shu qiz bilan tanishib qoldi. Chunki qiz ham o'z yo'llanmasi bilan sentabr oyida shu yerga kelgan edi.

Shu yerda ular kutilmagan baxtli tasodif orqali uchrashib qolishdi. Shu yerda tanishishdi ham. Shoir unga maftunkor nazar tashladi. O'z navbatida qiz ham unga jilmayib boqdi.

Bir oy mobaynida o't-alanga bo'lib yonishdi.

Bir tomonda – dengiz, tabiat, tashvishsiz hayot, tekin ovqat, ikkinchi tomonda – seni osongina tushunadigan kimsa, she'riyat, shirin tuyg'ular va go'zallik.

Bir-biridan zavqli kunlar bamisoli tushdek o'tib borardi.

Shunday qilib, ayriliq onlari ham yetib keldi. Xayrlashildi.

Qiz o'z yurti Leningradga qaytib, allaqanday fan bo'yicha maxsus kursni bitirishga kirishdi. Shoir bo'lsa o'z Rostoviga qaytdi va o'sha yerda she'riyatini davom ettirdi.

Biroq, o'sha yerda, kurortda tanishgani ofatijonni eslab, davom ettira olmadi. Uni sog'ina boshladi. Lirik bo'lgani uchun ham azoblanardi.

Ikki haftacha o'zining janubiy shahrida yashagach, chidab tura olmadi va birovga lom-mim demasdan uzoq Leningrad tomon yo'l oldi.

Faqat so'nggi daqiqada o'z xotiniga:

– Boshqacha yashayman, – dedi. – Ajralamiz. Pulni pochta orqali yuboraman.

Shunday deganicha, Leningradga jo'nab ketdi. Buning ustiga, qizning o'zi ham uni zo'r berib chaqirayotgan edi.

– Tezroq kel, – deb yozgan edi u. – Tanho o'zim yashayapman. Butunlay yolg'izman. Kursni ham tugatyapman. Hech kimga qaramligim yo'q. Birga sevgimizni davom ettiramiz.

Ana shu jon o'rtovchi so'zlarni yana bir karra xotirlar ekan, bizing shoir telbalarcha xushtori bilan uchrashishga oshiqdi.

Hatto u shu xil ajoyib imkoniyat bo'la turib, nega o'sha zahoti jo'nab ketmadim, deya hayron bo'lardi.

Qisqasi, shoir tez orada unikiga yetib kelib, qizni o'z og'ushiga oldi. Ikkalasi shundayam xursand edilarki, ta'rifiga til ojiz.

Qiz: «Ko'pga keldingmi?» deb so'radi. U:

«Butunlay!» – dedi.

Shundan keyin ular battar xursand bo'lishdi.

Faqat u qiznikida qola olmadi, chunki yotoqxonada uning bir o'zi emas ekan.

Uning saranjom-sarishta xonasida to'rtta joyxobni ko'rib, shoirning yuragi alamdan tars yorilay dedi.

– Birga o'qiydigan uch dugonam bilan yashayman, – dedi qiz.

– Ko'rib turibman, – dedi shoir. – Axir, siz menga tanho yashayman, deb yozgan edingiz-ku. Shuning uchun ham shoshilib kelavergan edim. Bundan chiqdi, maqtanchoqlik qilgan ekansiz-da?

– Men «tanho yashayapman» deganda xonani emas, nikoh va muhabbatni nazarda tutgan edim, – dedi qiz.

– E, bundoq deng, demak, anglashilmovchilik ro'y beribdida, – dedi shoir.

Shundan keyin ular qayta quchoqlashib, anchagacha bir-birlaridan ajrala olmay qolishdi.

– Xo'p, bezarar, – dedi shoir. – Vaqtincha mehmonxonada yashab turaman. Keyin o'ylab ko'rarmiz. Ehtimol, tezda o'qishni bitirsiz yoki men yaxshiroq bir she'r yozarman.

– Ana bu boshqa gap! – dedi qiz.

Shoir «Germes» mehmonxonasiga kelib, o‘sha yerda yashay boshladi.

U shundayam ko‘p xarajat qilgan ediki, bundan keyin nima bo‘lishiga aqli yetmay qoldi. Buning ustiga, kelgan kunining ertasi-gayoq, ikki kun surunkasiga sevgilisining tug‘ilgan kunini nishonlashdi. To‘g‘risi, birinchi kun qizning tug‘ilgan kuni edi. Hayot ko‘rgan shoirimiz, bir gap bo‘lar-da, deya ancha beparvo edi. Ikkinchi kun ham tug‘ilgan kun muttasil davom etdi. Shoirimizning xarajatdan esi og‘ib qoldi. Birinchi kun sevgilisiga o‘rama shirin kulcha sovg‘a qildi. Shu bilan hammasi tamom, deb o‘ylagan edi. Biroq, tug‘ilgan kunini bilib qolib, yana xarajatga tushdi. Unga marjon sovg‘a qildi. Sevgilisining marjonni olib aytgan so‘zlaridan u butunlay esankirab qoldi.

– Tug‘ilgan kunim munosabati bilan, – dedi u, – ana bu marjonni taqib, siz bilan biror restoranga borgim kelyapti.

Shu bilan birga sevgilisi Blok haqida bir nimani eslatdi, go‘yo u ham o‘z vaqtida turli xildagi restoran va qandolatxonalarda bo‘lishni yoqtirarkan.

Shoir sevgilisiga «Ha, endi u Blok...» deya beozorgina eslatsa-da, baribir kechasi qiz bilan restoranda bo‘lishiga to‘g‘ri keldi.

Rostovda faqat eshitib, ko‘zi ko‘rmagan buyurtma taomlarning bahosi uni butunlay holdan toydirdi.

Yo‘q, bizning shoirimiz xasis emas edi, bor-budini to‘kib tashladi. Mayda burjuacha or-nomusi kuchlilik qilib, sevgilisiga o‘zining og‘ir ahvoli haqida gapirmaslikka qaror qildi. Faqat mehmonxonada unchalik xotirjam emasligini aytgan edi, sevgilisi uning asabiylashayotganini ko‘rib:

– O‘zingni qo‘lga olishing kerak, – dedi.

U o‘zini qo‘lga olishga harakat qildi. Tug‘ilgan kunda ham «Ilhom parisi»ni ishga solib, bir-ikkita she‘rcha yozib, shu yerdagi biror-bir jurnalga sotmoqchi edi.

Bo‘lmadi. «Ilhom parisi» hadeganda unga qayishavermadi, qayishganda esa, shoir bir nima chiqmayotganidan o‘sal bo‘ldi. Harqalay, yozganlaridan unga shunisi aniq ediki, bu narsalar bilan qalamhaqi haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas. Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan bir holat ro‘y berdi, endi unda shoirona kayfiyatdan asar ham qolmagan edi.



Shunda bizning yosh shoir taqdirning teskari o'yinlari, uchi-ke-ti ko'rinmaydigan she'riyatning o'zi bilangina oson hayot kechirib bo'lmasligiga aqli yetib, bozorga chiqib, paltosini sotdi.

Xonimini istagan yerga olib borib, ko'ngilocharlik qildi.

Shundan keyin restoranda o'tkazgan bir oqshomning zavq-shavqi bilan hech narsa haqida o'ylamay, ikki kuncha xotirjam yashamoqchi bo'ldi. Qolgan hammasini keyin hal qilmoqchi edi. Harqalay, bir chorasini topilar. Hech bo'lmasa sevgilisidan qarz ko'tarishni o'yladi.

Xonim tug'ilgan kunining ertasigayoq birdaniga Leningradda vaqtli sovuq tushib qoldi. Shoirchamiz bo'lsa yengil kostumda ko'chada tipirchilab turar, sir bermaslik uchun, biz janubda deyarli hech nima kiymaymiz, chiniqib ketganmiz, derdi.

Umuman, u shamollab qoldi. O'zi joylashgan «Germes» mehmonxonasida yotib oldi. Biroq shoirning surbetligi u yerdagilarning jahlini chiqardi, avval xona uchun pulini to'la, keyin kasal bo'lsang, mayli, deyishdi.

Xayriyat, uning shoirligini bilishgach, unga rahmlari kelib, mayli to tuzalguncha yotaturing, deyishdi. Bu xil insoniy mehribonchilikdan shoirning ahvoli battar og'irlashdi va olti kun to'shakdan bosh ko'tarmay yotdi. Sovet davrida ham kasal yotgan kishidan xona uchun pul olishlarini o'ylab, dahshatga tushardi.

Xonimi uni ko'rishga u-bu narsa olib kelmaganda, kim biladi, ahvoli nima kechardi. Hatto tuzalmas ham edi.

Tuzalgandan keyin shoir yana «ilhom parisi»ni o'qqa tutmoqchi bo'ldi. Biroq, «ilhom parisi» unga qayrilib ham qaramasdi. Shoirning ruhi shunaqayam tushib ketdiki, agar shu qiyin ahvoldan sog'-omon qutulib olsam, bundan keyin shunday bir ish topayki, san'atga sirayam aloqasi bo'lmasin, deya o'z-o'ziga so'z berdi.

To'g'ri, shundan keyin uning xonasiga mehmonxona direktori kirdi. Bundan ruhlangan shoir tag'in she'riyatga yaqinlashib, uchinchi marta o'z kuchini sinab ko'rди.

*Qayta-qayta tikilaman osmonga  
Unda eshitilar propellerlar ovozi.  
Allaqanday bir narsa sho'ng'ir...*

Uch satrdan so'ng buyog'i to'g'ri kelmadi. Negadir «parashut» degan aviatsiya termini she'rga tushmayotgan edi. Shundan keyin shoir uzil-kesil bo'shahib, do'konini yig'ishtirdi.

Sevgilisining qarz berishiga ham ishonmay qo'ydi. Undan qarz olish uchun endi og'iz juftlayotganda, sevgilisi senga emas, o'z-o'zimcha aytdim-qo'ydim-da, deya uni batamom hayron qoldirdi. Kasallikdan sillasi qurigan shoir ro'y bergan ahvolga hadeganda tushunmasdi. Sevgilisi, oylikkacha hali bir hafta bor, kasal yotganingda ovqatga ancha xarajat qilishga to'g'ri keldi, agar imkoni bo'lsa, jinday qarz berib tursang, deb so'radi.

U: «Albatta», dedi.

Sevgilisi ketguncha o'zining koverkot kostumi boshiga suv quy-moqchi bo'ldi.

U kostumini bozorda pullagach, bir qavat mayka va sport shimida qoldi. Va go'zal kunlarning birida xuddi shu alfozda Litfond'ning Leningrad bo'limiga, bizning huzurimizga to'satdan kirib keldi.

Biz ham, o'z navbatida, yuqoridagi hikoyasi evaziga chipta uchun unga yuz so'm berdik. Shoyad shu bilan o'z yurtiga yetib olsa, deb o'yladik.

– Bu yo'lkiraga yetmaydi, – dedi u. – Chunki yana bir haftacha shu yerda yashamoqchi edim. Juda qolgim kelyapti-da.

– Keting endi, – dedik biz unga, – yaxshisi, o'sha yerda biror ishga joylashib oling. Ish bilan birga she'r yozasiz, ehtimol, yaxshilari ham chiqib qolar. Siz uchun eng to'g'ri yo'l shu.

– O'zimam shunday qilmoqchiman, – dedi u. Yosh mualliflar, o'z she'rlaridan tashqari biror-bir ishning ham boshini tutishlari kerak. Bo'lmasa, mana, o'zingiz ko'rdingiz-ku, nima bo'ladi. Shunga qarshi kompaniya bekorga boshlanmagan-ku, axir.

U tashakkur bildirib, g'oyib bo'ldi. Biz Litfond xodimlari shoirning quyidagi misralarini esladik.

*O, naqadar yaxshidir ilohiy birlik,  
Mangu uzilmas samoviy rishta.  
Biroq, insonlardagi o'zaro birlik  
Bunchalik qisqa-yu, muncha bebaqo.*

Shuning bilan havaskor shoir sarguzashtlari nihoyasiga yetdi.

1935

<sup>1</sup> Adabiyot jamg'armasi.

## QO'YMAN

Shunaqa kartina bor. Nomi aniq esimda yo'q, allaqanday bir rassom tomonidan chizilgan. «Qo'yman» deb ataladi.

Unda quyidagi holat tasvirlangan. Pivoxonaning eshigi oldida bir xotin butun bo'yi bilan tik turibdi. Xotin qulochini keng yoygancha erini ichkariga kirishga qo'ymanapti.

Eri qam ahmoq emaski, ichmaslikka darrov ko'na qolsa. Xotinini chetlashtirmoqchi bo'ladi.

Buning ustiga, xotining yonida qo'rqib, javdirab turgan bir go'dak. Shunday qilib, o'sha xotin butun vajohati bilan «qo'yman» deb turganday. Qiyofasida bir olam qayg'u va hayajon. Sochlari to'z'igan, hatto yaxshi taralmagan. Atrof esa bo'm-bo'sh. Kimsasiz. Yana hech kim bu holat bilan qiziqmaydi.

Inqilobgacha chizilgan juda zo'r kartina. O'sha davrning fojiali manzaralari juda mahorat bilan tasvirlangan.

Tomoshabin mazkur kartina orqali inqilobgacha shu xil badjahl ichkilikboz erlar bo'lgani, xotin-qizlarning nihoyatda og'ir hayot kechirganliklari, mayxona egalarining oxirgi chaqasini ichishga kelgan erlarini qovoqxonaga kirishga qo'ymagan mushtipar ayollarni istagan paytda haydab yuborishlariga qanoat hosil qiladi.

Shu ma'noda inqilobgacha yashagan o'sha mo'yqalam ustasi qanchalik kuchsiz bo'lmasin, haqiqiy holatni tasvirlashda o'z vazifasini a'lo darajada uddalagan desa bo'ladi.

Mazkur kartinaga qarab turib butun bir tarixiy davrni tasavvur qilsa bo'lardi. Misol uchun, hozirgi kunlarning o'sha davrdan tub farqi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Albatta, bizda insof bilan ichiladi. Aytaylik, imkoniyati bo'lsa bo'yinbog' tugunidan ortiqcha quyilmaydi. Avvalgiga nisbatan unchalik ko'p ichilmayotgani aniq. Ichib, yerda dumalab yotganlarni kundan kun kam kuzatamiz.

Avvallari yakshanba yoki podsholikning biror-bir bayram kunida ko'chaga chiqib qadam bossang, oyog'ing yerda yotgan mastning ustiga tushardi. Qorovul yoki mirshablar ular bilan ovora. Mastlarning qulog'ini burashar, aksirsin uchun burniga nashatirli paxta tiqishar, oyoqqa bostirib uchastkaga olib borishardi. U yerda, qop-qorong'u bo'lmasida, sho'rliklarni bamisoli tarasha maydalagandek bir-biriga urishardi.



Albatta, hozir unday emas. Mabodo qandaydir bir kimsa ichib, dumalab qolsa, o'sha zahoti «Tez yordam» degan kareta yetib kelib, tantanali suratda tasodifan o'chib qolgan kimsani hushyorxonaga olib ketadi. O'sha yerda uni yod surkab davolashadi, ilmiy maqsadlarda ichak-chavog'ini obdan yuvishadi. Boz ustiga, ertalab unga allaqanday ma'ruza ham o'qiydilar. Ana shu xizmatlar va davolash uchun hammasi bo'lib undan atigi o'n yoki yigirma so'm olishadi.

Aytdim-ku, Sizga, oradagi farq juda katta deb. Ana shu farq sharafiga qadah ko'tarsa bo'ladi.

Xotinlar masalasiga kelsak, ular ham yomon o'smadilar. Kartinada tasvirlangan xotinni hozir chiroq yoqib qidirsangiz ham topa olmaysiz.

Mabodo er mukkasidan ichkilikka berilgan bo'lsa, xotini bemalol undan ajralishi mumkin. Albatta, uy masalasi monelik ko'rsatmasa. Aytaylik, xotini uni juda yaxshi ko'rsa, eri qayoqqa borsa, u ham qo'shilib borishi, madaniy hordiq chiqarish uchun eri bilan bir stolda o'tirishi mumkin.

Vijdonini yo'qotganlar uchun qanchalik «qo'ymayman, kiritmayman» deb harakat qilmang, baribir foydasiz. Bunaqalarga boshqacha, zamonaviyroq bir chora ko'rish lozim.

Yaqinda biz ham o'sha rassomni ilhomlantirgandek hayotiy bir voqeaning guvohi bo'ldik. Kelajak avlod uchun bu voqeani ham bemalol chizib qoldirsa bo'ladi.

Viborg tarafga ketib borardik. Birdaniga yigirmadan ortiq kishining to'siq devor yoqalab shovqin-suron bilan ketib borayotganini ko'rib qoldik. Ular devorga qarab chuvillashadi. Ayrimlar darg'azab. Ba'zilar qo'lini paxsa qilgan. Uchinchi birovlar bor ovozda kulishadi.

Shu payt devor ustida kepka kiygan, havorang korjomali bir kishi paydo bo'ldi.

Odamlar bu kishining g'irt mastligini sezib qolishdi. U devor ustida chayqalib kela boshladi. Yiqilay-yiqilay deydi. Dam bir tomonga, dam ikkinchi tomonga munkib ketgandek bo'ladi.

Qarashsa, mastning qo'lida bir bola ham bor ekan. Mast uch yoshlardagi o'g'il bolani ko'tarib kelardi. Do'mboqqina bola. Sochlari jingalak. Burunchasi tugmaday. Qiqir-qiqir kuladi. Unga baribirdek. Har narsaga fahmi yetmaydi. Chayqalishdan huzur qilar, uni mast ko'tarib kelayotganiga sirayam aqli yetmasdi. Chamasi, u shu xil o'yin bor, deb o'ylardi.



Bu g'ayritabiiy yurish bilan yonma-yon bir ayol ham kelardi. Bir qo'li bilan odamlarni ikki tomonga ayirar, ikkinchi qo'lini vaqti-vaqti bilan boshi uzra shox qilib, mastning qo'lidagi bolani battar kuldirmoqchi bo'lardi.

Atrofdan turli xildagi norozi qichqiriqlar eshitiladi. Ba'zi ayollar bu ahmoqona sahnadan g'azablanib, go'dakning hayoti xavf ostidaligini tuyib dahshatga tushishar, mastga bu xil bema'ni yurishga tezda chek qo'yishni aytib, qichqirishardi. Mast esa ularga e'tibor ham bermasdan chayqala-chayqala oldinga yura boshladi.

Ular bilan yonma-yon kelayotgan ayol ham beparvo, go'dakni kuldirish uchun g'alati qiliqlar qilardi. Aftidan, u shu bolaning onasi va mastning xotini edi. Dahshatli sahna shundan darak berib turardi.

Nihoyat, bu holga ortiqcha chidab tura olmagan bir juvon militSIONERGA yugurdi va tezda uni boshlab keldi.

Shunda hamma baravariga chuvillashib, anovi ahmoq mast bolaning hayotini xavf ostiga qoldirayotgani, tentak onasi bo'lsa shu holda uni erkalatib qo'ygani haqida axborot berishdi. Bu xil dahshatli yurishga tezda barham berishni iltimos qilishdi.

Shunda militSIONER qo'lini shapkasning soyaboniga yaqin ko'tarib, buyruq berdi. Ular yurishdan to'xtadi.

Birdaniga haligi ayol yig'ilganlarga bas qilinglar, degan ma'noda qo'l silkidi. To's-to'polon tingach, u quyidagicha nutq so'zlay boshladi:

– O'rtoqlar, – dedi u, – o'g'limizni qo'lida ko'tarib yurgan ana bu mast kishi mening erim bo'ladi. Ayni paytda u ichkilikdan davolanib yuribdi. Bu borada ancha natijaga ham erishdi. Lekin hozircha u faqat yigirma seans o'tkazdi, xolos. Vrachlar esa yigirma besh seans o'tkazishni buyurgan. Xo'p, hozirgacha u qanaqa qusurlardan xalos bo'ldi, qanaqasidan yo'q. Keyingi paytlar u har kuni pivoxonada o'tiradi, men uni o'sha yerdan olib chiqa olmayapman. Qanchalik urinmay, u yerdan olib chiqishga kuchim yetmaydi, baribir pivoxona yopilguncha o'tiradi. Shunda men o'g'limizga yuguraman. Erim juda bolajon odam. O'g'lim bilan pivoxonaga kirdik deguncha erim o'rnidan turib bolani qo'limdan oladi-da, birgalashib uyga qaytamiz. Bolani qo'lidan olib ko'ring-chi, nima qilarkin? Iziga qaytib tag'in icha boshlaydi. Bolani tushirib yuborishi masalasiga kelsak, men ular bilan yonma-yon ketyapman-ku, erimning qo'lidan bola tushib ketsa, bir amallab ilib qolishga ulguraman. Albatta, har bir qaltis ishda xavf-

xatar va hayajon bo'ladi. Harqalay, erimning mukkasidan ichkilikka berilib, yo'qolib ketishidan va bu bilan o'ziga, o'g'limizga, qolaversa jamiyatimizga zarar keltirishidan bu ish yaxshiroq deb o'ylayman. Mana sizlarning qonuniy qichqiriqlaringiz, dag'dag'a-yu ajablanishlaringizga mening javobim.

Bu nutqni eshitgan ko'p kishilar qo'l silkishdi. Ayrimlar esa chapak chalib yuborishdi va o'tish uchun ularga yo'l ochishdi. Nutq davomida shamolda chayqalib turgan bug'doy poyasidek haligi mast ota birdaniga hushyor tortib, tantanali suratda yurib ketdi.

Shunda odamlar mastning bolani o'ta ehtiyotkorlik bilan mahkam tutib ketayotganiga ishonch hosil qildilar.

Onasi esa ular bilan baravar yurgancha, o'ng qo'lini boshi uzra shox qilib, bolani kuldirib borardi.

MilitSIONER ham bu ish yuzasidan qanaqa qaror chiqarishni bilmasdan yana qo'lini shapkasi soyabonigacha ko'tarib, chuqur xo'rsindida:

– Hammasi joyida... Mayli, yuraverishsin, – dedi.

Guruhdan kimdir qo'shimcha qildi:

– Hammasi joyida – mastlar yo'q.

Shunda hamma kula-kula o'z ishiga tarqaldi.

1935

## TENGSIZ NIKOH

O'tmish hayotdan olingan yana bir rasm bor. «Tengsiz nikoh» deb ataladi.

Tasavvur qiling, ana shu lavhada bir kelin-kuyov tasvirlangan.

Kuyov – taxminan, yetmish uch yoshlardagi, qarib, munkillab qolgan janobcha. Umuman, bu kimsa shundayam zaif va notavon ediki, hatto tomoshabinlarning qaragisi ham kelmasdi.

Uning yonida kelin. Oppoq nikoh ko'ylagidagi yoshgina qizaloqni ko'z oldingizga keltiring. O'n to'qqiz yoshlardagi murg'ak bir o'smir.

Uning ko'zchalarida hadik. Qo'lida cherkov shami titrab turibdi. Popning, xo'sh ayt-chi, tentak qiz, shu nikohga rozimisan, degan yo'g'on ovozig, u qaltirab, zaif ovozda arang javob berayotganday.

Yo'q, rasmdan qizaloqning titroq qo'lini ham, popning nutq so'zlashini ham ko'rmaysiz. Hatto, rassom o'sha davr mafkurasi-

ga to'g'ri kelmasligi sababli popning o'zini ham chizmagan. Lekin, bularning hammasini rasmga qarab turib tasavvur qilishingiz mumkin.

Umuman, bu badiiy lavha kishida hayron qolarli fikrlar uyg'otadi.

Binobarin, inqilobgacha ana shu qari tulki bemalol shu xil go'dakka uylanishi mumkin edi. Ehtimol, o'sha «janob oliylari» yoki senator hashamatli saroyda yashab, oyiga oltin bilan ikki yuz so'm nafaqa olar, shaxsiy fayton, yana boshqa xil imtiyozlarga egadir. Qiz bo'lsa, kambag'al oiladan. Onasi ham rozi bo'lib, mayli, erga chiqa qol, degandir.

Albatta, hozir bundaylar yo'q. Inqilob sharofati tufayli manguga barham yedi. Bo'lishi ham mumkin emas.

Bizda yoshgina qiz yoshgina yigitga turmushga chiqadi. Yoshi o'tib qolganlar o'ziga mosroq nusxani topishadi. O'ta qartayganlar esa o'ziga yarasha boshqa bir mashg'ulot topadi, ya'ni shashka o'ynaydi yoki qirg'oqda sayr qiladi.

Yo'q, albatta, gohida yoshgina bir qiz yoshi o'tgan kishiga turmushga chiqishi ham uchrab turadi. Faqat, bu yoshi o'tib qolgan kishi allaqanday yirik fiziolog, botanik yoki aqlni lol qoldiruvchi bir kashfiyot egasidir, bo'lmasa, nihoyatda mas'ul bir hisobchidir, mol-mulki bemalol yetib ortishi mumkin.

Bu xil nikohlar hech kimda hech qanday norozilik tug'dirmaydi. Qattiq sevib qolgan bo'lsa, gap ham bo'lishi mumkin emas. Ehtimol, u iste'dodli bir shaxs yoki kuchli xotira va chiroyli ovozga ega bo'lgan ajoyib notiqdir.

Aytaylik, masalan, yuqoridagi rasmda tasvirlangan qabih ishlar bundan keyin bizda takrorlanmaydi. Mabodo shunga o'xshash biror voqea ro'y beradigan bo'lsa, jamoatchilikning kulgisi va g'azabiga duchor bo'ladi.

Misol uchun, yaqinda Leningradda mana bunday voqea sodir bo'ldi.

Tasavvur qiling, oddiy, xizmatchi bir chol, shu yil to'satdan yoshgina bir qizga uylandi.

Tasavvur qiling-a, yigirma yoshlardagi juda go'zal va do'ndiq bu sohibjamol Penzadan kelgan edi. U bo'lsa, oltmish yoshlardagi bir chol. Umuman, shalviragan bir tullak. G'am-tashvish bo'ronidan basharasi bujmayib ketgan. Shilpiq ko'zlari qip-qizil, qontalash. Umu-

man, biror-bir ko'zga tashlanadigan fazilati yo'q. Bundaylar harakatdagi har bir tramvayda o'nlab topiladi.

Bu ham yetmagandek, ko'rishi ham yomon ekan. Ahmoq, daltonizm bilan kasallangan, ranglarni aniq ajrata olmas ekan. Yashil rangni ko'rsatsangiz – havorang, havorangni ko'rsatsangiz – oq deydi, tentak.

Shungacha ham u uylangan edi. Bu ham yetmagandek, o'z kam-piri bilan katalakdek xonada yashardi.

Shu xil kamchilik va nuqsonlariga qaramasdan, barchani hayratda qoldirib, yosh va go'zal bir qizga uylanadigan bo'ldi.

Bu holni u atrofdagilarga hozir zamon yangi, hatto keksalar ham yasharib, baquvvatlashib boryapti, degandek qilib tushuntirdi.

– Siz targ'ibot, tashviqot ishlari bilan kamroq shug'ullaning, – deyishdi atrofdagilar, – yaxshi o'ylab ko'ring, sizdan unga nima kerak? Uning sizga turmushga chiqishi kulgili latifa-ku.

– Tashqi ko'rinish va yuragimdan boshqa hech qanday boylikka ega emasman, – dedi chol. – Aytarli mol-mulkim ham yo'q: bir juft shim va bir juft yirtiq qo'lro'molcham bor. Xona masalasiga kelsak, bu shu kunning noyob boyligi, qari kampirim bilan arzimagan maydonda yashab turibman. Endi uyni ham bo'lishga to'g'ri keladi. Qarilikda taqdir in'om etgan go'zal yorim bilan o'zimga ajratilgan to'qqiz metrli yerda bemalol, baxtiyor yashashim mumkin.

– Bilganlaringni qillaring. Koshki, sen tasqaraga bir nimani tushuntirib bo'lsa! – deyishdi atrofdagilar.

Chol turarjoyini bo'ldi. Hammayoqni oqlab, bo'yab chiqdi. To'qqiz metrli kichkina hujrada guldek yashnagan, yosh xotin bilan yangicha hayot boshlandi.

Voqea quyidagicha tus oldi:

Cholning yoshgina hayot yo'ldoshi shu kichkina hujrani kattarog'iga almashtirdi. To'qqiz metrli joyga ortiqcha pul so'ramagan kishining topilganidan xursad bo'lishdi.

Shunday qilib, yosh xotin o'z tentakkinasi bilan o'n to'rt metrli joyga ko'chib o'tdi.

Biroz muddat shu yerda yashab turgach, katta sa'y-harakat bilan yana uyni almashtirishga kirishdi. Bu gal yigirma metrlikka. U o'zining keksa tentakkinasi bilan yangi joyga ko'chib o'tdi.



U yerga ko‘chib o‘tishi bilan yosh xotin janjal chiqardi va o‘sha zahoti gazetaga yigirma metrli, keng, qulay xonani turli rayondan ikkita kichik xonaga almashtiraman, degan mazmunda e‘lon berdi.

Albatta, birga yashashni orzu qilgan erkak va ayollar kammi, ular keng uyga, o‘zlarining ikkita xonalarini quvona-quvona almash-tirishdi.

Bir so‘z bilan aytganda, sirli nikohdan ikki oy o‘tar-o‘tmas, biz-ning qari tentak, nima bo‘layotganiga tushunolmay, shahardan tash-qarida – Ozerka degan joyda avvalgidan beshbattar, tor bir katalakda ko‘z ochib, yolg‘iz yashay boshladi.

Yosh juvon esa Vasilevskiy orolida choqqina, ajoyib xonaga ko‘-chib o‘tdi.

Tez orada uy-joyli bu xonim yosh bir muhandisga turmushga chiq-di. Ayni paytda, u nihoyatda mamnun va baxtiyor yashamoqda.

Qari tentak yosh xonimni firibgarligi uchun sudga bermoqchi bo‘ldi. Hatto, bu haqda huquqshunos bilan ham gaplashdi. Biroq, so-biq advokatdan chiqqan bu huquqshunos kulib turib, buni isbotlash juda mushkul, chunki o‘sha yosh juvon avval sevib qolib, keyin birga tura boshlagach, ko‘ngli qolgan bo‘lishi mumkin, dedi.

Shu gaplardan so‘ng, bizning qari tentak ancha o‘ziga kelgandek bo‘ldi. Endi har kuni u Ozerkadan poyezdda tentirab xizmatga borib kelmoqda.

Umuman, otaxon bunday bo‘lishini qayerdan bilsin. Tullak chum-chuqni tuzoqqa tushirishdi. U shirin xayollar, havoyi orzu-umidlarga berilgani uchun haddan ziyod jabr ko‘rdi.

1935–1936

## HAMMOM VA ODAMLAR

Leningrad hammomlaridan birida mana bunday voqea sodir bo‘ldi.

Bir texnik yuvinib bo‘lgach, kiyinishga chiqdi. Shunda u butun kiyimlarining o‘g‘irlanganini sezib, dahshatga tushdi. Faqat rahmdil o‘g‘ri unga nimcha, shapka va kamarini qoldiribdi, xolos. O‘sha tex-nik dod deb yubordi. Kiyim ilinadigan o‘z javoni oldida nima qilishini bilmay, qaqqayib turdi. Javoni yonida onadan tug‘ilganday bo‘lib, nu-qul qo‘llarini qimirlatib turar, batamom dovdirab qolgan edi.

O'zi savodsiz bir texnik bo'lsa, endi qanday qilib uyiga yetib olishni aqliga ham sig'dira olmas edi. Oyoqlari ustida chayqalgani chayqalgan.

Keyin u qizig'ida nimcha va shapkasini kiyib, qo'liga kamari-ni oldi-da, g'alati bir ko'rinishda hech narsaning farqiga bormasdan hammom dahliziga chiqdi.

– Bu hammomda har kuni bir o'g'irlik sodir bo'ladi, – deyishdi odamlar.

Bizning texnik sho'rlik boshi aylanib ketganidan eskicha lajjada «janoblar» so'zini ishlatib bir nimalar dedi. Ehtimol, u nihoyatda ha-yajonlanganidan o'zining yangi zamon kishisi ekanligini ham unutib qo'ygandir.

– Janoblar, endi men uyimga qanday ketaman-a? – dedi u.

Hali yuvinib ulgurmagan bir kishi:

– Mudirni chaqiringlar buyoqqa, – dedi. – Axir, bunga yordam berish kerak.

– Janoblar, mudirni chaqiringlar, – dedi texnik past ovozda.

Hammomchi paytavasi bilan tashqariga otildi va tezda mudirni boshlab kirdi. Shunda to'planganlar qarashsa, mudir xotin kishi ekan. Texnik boshidan kepkasini olib:

– Janoblar, bu nima gap-a? – dedi. – Qip yalang'och qilib ke-tishdi. Hammamiz erkak kishini ko'rishni orzu qilgan edik, buni qa-rangki, bir xotin kelib o'tiribdi. Qarang, erkaklar hammomiga xotin kishi mudirlik qilsa-ya, bu borib turgan maynavozchilik-ku, axir.

U uyat joyini shapkasi bilan bekitib, divanga o'tirdi. Boshqa odamlar ham:

– Ayol kishining bu yerda mudir bo'lishi borib turgan sharmanda-lik, – deyishdi.

– Ehtimol, sizlar uchun sharmandalikdir, – dedi mudira. – Ana u yoqda, to'siqning orqasida ayollar hammomi ham menga qaraydi. Ular uchun hech qanday sharmandalik emas. Iltimos, og'izlaringga qarab gapirsanglar.

Nimchasiga yaxshiroq o'ranib olgan bizning texnik:

– Biz, xonim, sizni haqorat qilmoqchi emasdik. Nega xafa bo'lasiz? Yaxshisi, – dedi, – mening uya qanday yetib olishim ha-qida o'ylasangiz.

– Albatta, mengacha bu yerda erkaklar mudir bo'lishgan, – dedi mudira. – O'shanda erkaklar bo'limida ish yaxshi ketsa-da, xotin-

qizlar bo'limida ahvol juda achinarli edi. Chunki mudirlar u yerga vaqt-bevaqt, tez-tez kirib turishgan. Shuning uchun ham ularni bu vazifadan chetlashtirishdi. Bu o'ringa xotin-qizlar tayinlanadigan bo'ldi. Men esam bu yerga faqat kerakli paytda, yoki u-bu narsa o'g'irlangandagina kiraman. Bundan hech narsa yo'qotmayman. Doim kiranimda, bu yerdagi har bir yuvinuvchi mening basharamga qarab «sharmandalik» deya, meni haqorat qilsa, bunga kim chidaydi? Yana bir marta ogohlantirib aytaman, kimda-kim meni xizmat o'rmimda yana shunday haqorat qilsa, uni militsiyaga topshirib yuboraman... Xo'sh, o'zi nima gap?

– Janoblar, nega bu ayol qo'rslik qiladi-ya? – dedi texnik. – Ko'rmaysizmi, jin urgurni. Uyimga ishtonsiz qanday yetib olishim haqida bosh qotirib tursam-u, yana unga «sharmandalik» so'zini aytishga haqqim yo'q emish. Tag'in menga militsiyaga topshirib yuboraman, deb do'q qiladi. Yo'q, bu yerda erkak kishining mudir bo'lgani tuzuk ekan. Hech bo'lmaganda, u menga o'zining eski shimini bergan bo'lardi. Bu, ayol mudira esa, meni batamom dindan chiqarmoqda. Endi-chi, janoblar, ana ko'rasiz, bu hammomda bir necha kun qolib ketaman.

Atrofdagilardan biri:

– Menga qarang, xonim, – dedi, – shu hammomda eringiz yo'qmi? Ehtimol, uning qo'shimcha shimi bordir. Agar bo'lsa, vaqtincha kiyib turishga bersangiz. Bechoraga qarang, ahvoli og'ir, uyiga qanday yetib olishni ham bilmay turibdi.

– Ayollar bo'limidan hamisha xotirjamman, – dedi mudira, – bu yerda esa, har kuni bo'lmasa-da, kunora vulqondek bir portlash ro'y beradi. Yo'q, janoblar, men bu yerda mudirlik qilishdan voz kechaman. Erim Vyatkada ishlaydi. Shuning uchun ishton haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Buning ustiga, bu yerda o'g'rilik bugun ikkinchi marta ro'y bergan. Yaxshiyamki, birinchisida arzimagan mayda-chuyda o'g'irlangan. Aks holda, yana shim top, deya boshimni qotirishardi. Bo'lmasa gap bunday: janoblar, qaysi biringda qo'shimcha shim bo'lsa vaqtincha berib tursalaring, chunki unga qaragim ham kelmayapti. Ko'zim tushganda diqqatim oshib, boshimga og'riq kiryapti.

– Mayli, – dedi hammomchi tilga kirib, – yana o'zinning qo'shimcha shimimni berib turishga to'g'ri keladi. Umuman, hammom uchun maxsus shimlar tiktirib qo'yish fursati keldi. Har kuni shu



ahvol. Axir, bunaqada menda ishton qolmaydi-ku, birodarlar. Bugun bunisi shim so'rasa, ertaga boshqasi. Axir, men ham qayerdan olaman?

Shunday qilib, hammomchi bizning texnikka o'zining chit ishtonini, yana bir rahmdil yuvinuvchi kurtka va shippagini berdi. Muzey eksponatiga aylangan do'stimiz yig'lamsiragancha tashqari yo'naldi. Hech narsaning farqiga bormasdan, boshi g'uvillab hammomdan chiqdi.

U chiqib ketgach, to'satdan kimdir qichqirib yubordi.

– Mana, bunga qaranglar, kimningdir nimchasi va bir poy paypog'i polda yotibdi.

Hamma topilgan narsalar tomon yopirildi.

– Ehtimol, bu narsalarni o'g'ri tushirib qoldirgandir, – dedi birov. – Qarang, nimchasi yap-yangi ekan, cho'ntagida biror nima yo'qmikin? Ko'plar hujjatlarini nimchasing cho'ntagida saqlashadi.

Cho'ntak ag'darib ko'rildi. Darhaqiqat, unda bir guvoynoma bo'lib, markaziy tikuvchilik ustaxonasida xizmat qiluvchi Selifanov nomiga berilgan edi.

Shunda hamma o'g'rining izi topildi, deya xursand bo'ldi.

Mudira zuddik bilan militsiyaga qo'ng'iroq qildi. Oradan ikki soat o'tar-o'tmas Selifanovnikida tintuv o'tkazildi.

Selifanov hayratdan yoqa ushlab:

– Eslaringni yedinglarmi? – dedi. – Axir o'sha hammomda bugun o'zimning ham narsalarimni o'g'irlashdi-ku. Bu haqda xabar ham qilganman. Mening nimcham masalasiga kelsak, ehtimol, uni o'g'ri tushirib qoldirgandir.

Anglashilmovchilik sodir bo'lgani uchun hammalari Selifanovdan kechirim so'rashdi.

Shu Selifanov xizmat qiladigan tikuvchilik ustaxonasining mudiri o'rtaga chiqdi.

– Xo'sh, – dedi u Selifanovga, – siz o'zingiz-ku, hammomda narsalaringizni o'g'irlatib jabr ko'rgan ekansiz, sandig'ingizdagi ana bu movut parchasi qayerdan kelgan? Bu ustaxonamizdan olingan-ku? Aytdim-a, nega movut kam qolgan deb. Demak, o'zlari olgan ekanlar-da? Yaxshiyamki, qiziqib, tintuvchilarga ergashib kelaveribman.

Selifanov bir nimalar deb g'o'ldiray boshladi, eng oxirda movutni o'g'irlaganiga iqror bo'ldi.



O'sha zahoti uni qamashdi. Shunday qilib, hammom voqeasi tugab, yangi ish qo'zg'atildi. Biz ham mavzular aralashib ketmasligi uchun hozircha sukut saqlaymiz.

1935

## KERAKLI YOSTIQ

Ochig'i, sayohatni yoqtirmayman. Qayerda tunash boshimni qotiradi.

Yuz imkoniyatdan atigi ikki martasida mehmonxonadan joy olganman.

Uning ham ikkinchi martasida xonani o'zlari, majbur bo'lib berishgan. Yanglishgan edilar-da. O'sha kunning ertasigayoq, xonani bo'shatib qo'ying, deyishdi, holbuki o'zim ham u yerda qola olmasdim.

Dastlab, ularning xushmuomalasi meni hayron qoldirdi.

Xizmatchi gul hidlab turib:

– Shuni aytishim kerakki, – dedi, – xonangizning jinday kamchiligi bor. Oynasi singan. Shuning uchun kechqurun u yerdan xonangizga mushuk sakrasa, yana qo'rqib-netib o'tirmang.

– Nega mening xonamga mushuk sakrarkan? – dedim. – Gapingiz g'alati-ku.

– Bilasizmi, – dedi xodim. – Shu deraza baravarligida axlat o'ra bor. Mushuk hayvon-da, qayerda nima borligini ajratmasdan, siznikiga sakrab tushishi mumkin.

Xonaga kirgach, mushukning psixologiyasiga tan berdim. Haqiqatan ham bu jonivor axlat o'ra bilan bu xonani ajrata olmasligi to'g'ri ekan.

Umuman aytganda, menga «luks» xonaning hojati yo'q, biroq liqillab turgan shaloq stollari bu iflos bo'lma ta'bimni ancha xira qildi.

Meni hayratga solgan narsa xonadagi ko'lmak edi.

Birovni chaqirib, uni tozalatmoqchi edim, biroq hech kim kelmadi. Shunda xizmatchi bilan gaplashdim.

– Xonada ko'lmak bo'lsa, – dedi u, – demak, kimdir suv sepgandir-da. Hozir bo'sh odam yo'q, ertaga, albatta, tozalattiraman, ungacha, ehtimol, o'zi ham qurib qolar. Bizlarda havo juda issiq.

– Keyin xona juda vahimali, – dedim. – Qop-qorong‘i, atigi bita kursi qo‘yilgan, karavot allaqanday qutiga o‘xshaydi. Albatta, mehmonxonalar har xil bo‘lishi mumkin. Yaqinda Donbassda bo‘lganimda, aynan, Konstantinovkada ko‘rpa o‘rniga joypo‘shni yopinib yotdim.

– Hali joypo‘shga kunimiz qolganicha yo‘q, – dedi xizmatchi, – lekin ko‘rpajild o‘rniga laxtak chitdan foydalanamiz. Qorong‘ilik masalasiga kelsak, harqalay, kashta tikmasangiz kerak. Ortiqcha valaqlash bilan ma‘muriyatni bezovta qilmasdan tezroq uxlang, o‘rtoq, kech bo‘lib qoldi.

Men u bilan bahslashib, asabimni buzmaslik uchun xonamga kirib, yechindim-da, karavotga cho‘zildim.

Hatto, dastlabki daqiqalarda nimalar bo‘layotganiga aqlim yetmadi. Tepalikdan quyiga qarab dumalayotganday edim.

Karavotning qanaqaligini, qanday qilsa undan yaxshiroq dumalash mumkinligini o‘ylab, o‘rnimdan turmoqchi bo‘ldim. Biroq, oyog‘im choyshabning yirtig‘iga kirib qolib, ancha ovora qildi. Bir amallab oyog‘imni undan chiqarib olib, chiroqni yoqdim. Nimaning ustida yotganimni ko‘zdan kechirdim.

Karavotning sim to‘ri bosh tomondan boshlab, xalta bo‘lib o‘rtalikka osilgani uchun ham uxlaydigan odamga bir tekis cho‘zilib yotishga imkon bo‘lmaskan.

Shunday qilib, men oyoq uchiga jomadonimni, uning ustidan esa yostiqliqni qo‘yib, o‘zim teskari yotib oldim.

Endi yotish o‘rniga o‘tirib qolgandek edim.

Shunda o‘rtalikka palto va saxtiyonimni qo‘ydim-da, hosil bo‘lgan inshoot ustida yotib, xurraxonto‘rani otmoqchi bo‘ldim.

Endi ko‘zim ilinganda, kanalar «beozor» chimchilay boshladi.

Ikki-uchta kana bo‘lsa qo‘rqmasdim, lekin bu yerda uchuvchi kavaleriya bilan hamkorlikda kanalarning butun bir harbiy bo‘linmasi hujumga o‘tgan edi.

Dastlab, talvasaga tushgandek bo‘ldim, so‘ng rejali kurash boshladim.

Jang qizg‘in davom etayotgan bir paytda, to‘satdan chiroq o‘chib qoldi.

Butunlay himoyasiz qolgan bir ahvolda oh-voh deb xona o‘rtasida nari-beri yura boshlagan edim, taxta devor orqasidan xotin kishining yo‘g‘on ovozi eshitildi:

– Jin urgur, nega xonada masiqqandek nari-beri yurasiz?

Dastlabki daqiqalarda hayratdan tosh qotdim. Keyin qo'shni bilan dahanaki jang boshladik. Asablarimiz jo'shib ketib, bisotimizdagi eng noyob haqoratli so'zlar bilan bir-birimizni «siyladik».

– Agar qachonlardir siz jin urgur bilan uchrashib qolsam bormi, – dedi nihoyat qo'shni, – shuni yaxshi bilingki, naq tuproq bilan bitta qilaman.

Unga javoban qattiq bir haqoratni ishlatgim keldi-yu, biroq shaytonga hay berdim-da, yonimdagi qutini devorga tarsillatib urdim. Mil-tiq otilgandek bu tovushdan u jimib qoldi.

To'shagimni devordan ichkariroqqa olib, begona kanalar menga hujum qilmasliklari uchun grafindagi suvdan polga halqa qilib quya boshladim. Shundan keyin, butun a'zoyi badanimni yaratganning ixtiyoriga topshirib, qayta yotib oldim.

Do'zax azoblari ostida endigina ko'zim ilingan ekan, to'satdan devor orqasida xotin kishining dahshatli qichqirig'i eshitildi.

– Agar meni uyg'otish maqsadida qasddan baqirgan bo'lsangiz, – deya qichqirdim, – bu bezorilingiz uchun ertaga javob berasiz!

Shunda yana og'zaki aytishuv boshlanib ketdi. Ma'lum bo'lishicha, uning karavotiga hovlidan mushuk sakragani uchun qo'rqib ketibdi.

Xizmatchi adashganga o'xshaydi. Mushukni menga va'da bergan edi-ku, tentak, qarasam, mening oynam bus-butun. Demak, unikida oyna yo'q ekan-da.

Umuman, qayta mudray boshladim. Biroq, asabim taranglashib, birdaniga cho'chib-cho'chib tushardim. Har cho'chiganda karavotning to'ri g'ijirlab, allaqanday bema'ni ovoz chiqarardi.

Tongga yaqin karavotdan to'shakni olib polga yoydim. Mana shu joyga cho'zilgan edim, rohatdan maza qilgandek bo'ldim.

O'tgan yili Feodosiya shahrida «Dehqonlar uyi»da ko'rganim bir peshlavhadagi so'zlarni o'z-o'zimcha takrorlab qo'ydim: «Tezroq uxla, sening yostig'ing boshqaga ham kerak!»

Shu asnoda hovlida elektr arraning g'izillashi eshitildi.

Umuman, sal-pal o'zimga kelgach, bexosiyat mehmonxonani tark etdim.

Bundan keyin shu shahar va mehmonxonani yelkamning chuquri ko'rsin, deya qasam ichgan edim. Biroq, taqdir teskari yo'l tutdi.

Poyezdda yuz chaqirimcha yurgach, qarasam, menga boshqa pasportni berishibdi. Bu xotin kishining pasporti bo‘lib, u bilan erkak kishi yura olmas edi.

Ikkinchi kuni mehmonxonaga qaytdim.

O‘z navbatida mening pasportim bilan jo‘nab, noiloj qaytib kelgan qo‘shnim bilan uchrashish men uchun jahannam azobi edi.

Xayriyat, u suzish bo‘yicha yo‘riqchi bo‘lib, juda go‘zal qiz ekan. U bilan samimiy tanishib olgach, tungi janjalni butunlay unutdik. Harqalay, mehmonxonada tunashning o‘ziga xos yaxshi tomonlari ham yo‘q emas. Shu ma’noda sayohat gohida ajoyib uchrashuvlarga sabab bo‘larkan.

1935–1937

## KASALLIK QISSASI

Ochig‘ini aytsam, kasal bo‘lganda uyda yotishni xohlayman.

Albatta, kasalxona yorug‘, madaniy bo‘lishi turgan gap. Hatto u yerning ovqatlari ham to‘yimli bo‘lishi mumkin. Biroq, uyingdagi somon ham xushxo‘r tuyularkan.

Kasalxonaga meni «ichterlama» deb olib kelishdi. Uydagilar shu bilan dardim ancha yengil bo‘lar, deb o‘ylashdi.

Biroq ular o‘z maqsadlariga erisha olmadilar, chunki mening mahrimga tushgan bu kasalxona unchalik yaxshi emas edi.

Bemorni olib kelishlari bilanoq hisobga olishadi va uning ko‘zi o‘sha zahoti: «O‘lganlarning jasi soat 3 dan 4 gacha beriladi» degan peshlavhaga tushadi.

Boshqa bemorlarni bilmadim-u, lekin men bu e‘lonni o‘qiganimda gandraklab ketdim. Chunki issig‘im baland, ehtimol, a‘zoyi badanimdagi hayot rishtasi uzilay-uzilay deb turgandir. Ana shunday ahvolda yuqoridagi so‘zlarni o‘qib ko‘ring-chi.

Meni hisobga olayotgan kishiga:

– Bu nima degani, o‘rtoq feldsher, – dedim. – Nega bunaqa qabih so‘zlarni osib qo‘ygansizlar. Axir, bemorlar uchun uni o‘qish ko‘pam qiziq emasdir.

Feldshermi yoki tabibmi, ishqilib, o‘sha mening gapimdan hayron qolib:

– Anavi kasalga qaranglar, – dedi. – Muncha og‘zi sovuq bo‘lmasa: o‘z-o‘zini tanqid deganlariga, buyam haddan oshib ketyapti.



Hali tuzalishingiz dargumon-u, yana tanqid qilasiz-a. Koshki foydasi bo'lsa, avval o'lib ko'ring, keyin bilasiz, soat uchdan to'rtgacha berilishingizni.

Tabibchanning popugini bosib qo'ymoqchi bo'ldim-u, yana issig'im o'ttiz to'qqiz-u sakkiz daraja bo'lganligi uchun bahslashib o'tirmadim. Faqat unga:

– Sen, meditsina tuvagi, hali shoshmay tur, – dedim, – tuzalib olay, bu surbetliging uchun javob berasan. Nahotki bemorlarga shunday deyilsa? Axir, bundan ular adoyi tamom bo'lishadi-ku.

Feldsher og'ir bemorning bu xil tushuntirishidan o'sal bo'lib, damini ichiga yutdi. Shu orada hamshira yugurib kirib:

– Qani, bemor, yuring, – dedi, – sizni yuvadigan bo'limga obo-raman.

Bu so'zdan etim battar jimirlab ketdi.

– Yuvadigani bo'lim demasdan, vannaxona desang bo'lmaydimi, – dedim. – Bu ibora birmuncha chiroyli, kasalning ham ruhini ko'taradi. Bundan tashqari, harqalay ot emasman-ku, meni yuvishsa.

– Bo'lar-bo'lmasga jahli chiqavergandan kasal bo'lgan ekan-da, – dedi hamshira. – Agar shu xil har narsaga burningizni tiqaversangiz, tuzalishingiz gumon.

Meni vannaxonaga olib kelib, yechinishni buyurdi. Yechina boshladim, bir payt qaragam, vannada, suvning ustida bir kalla ko'rindi. To'satdan ko'rib qoldim, bemorlardan bo'lsa kerak, bir kampir suvda o'tirardi.

– Sen itvachchalar, nega meni xotin-qizlar vannasiga olib keldinglar? – dedim hamshiraga. – Bu yerda kimdir cho'milyapti-ku, axir.

– Ha endi, bitta bemor kampir o'tirsa-o'tiribdi-da, – dedi hamshira. – Unga ahamiyat bermang. Kampirning issig'i juda baland, hech narsaning farqiga bormaydi. Uyalmasdan yechinavering. Shu orada biz kampirni vannadan chiqarib olib, siz uchun toza suv quyib qo'yamiz.

– Ehtimol, kampir farqiga bormas, lekin hozircha men farqlay olaman-ku, – dedim. – Vannalaringda nima suzib yurganiga qarash, men uchun ko'pam zavqli emas.

To'satdan o'sha tabib kelib qoldi.

– Men, – deydi, – bu xil injiq bemorni birinchi ko'rishim. Bu surbetga dam u narsa yoqmaydi, dam bu narsa. O'layotgan bir kam-

pir miq etmasdan cho‘milib turibdi-yu, u bo‘lsa g‘ish-g‘isha qiladi. Kampirning issig‘i qirqdan baland bo‘lgani uchun hech narsani ko‘rmaydiyam, hech narsaning farqiga ham bormaydi. Kasalxonaga behush kelgan bemorlarni yoqtiraman-da. Shunda ularni o‘zimiz xohlagancha yuvib-taraymiz, hatto ular e‘tiroz bildirib, ilmiy mavzuda safsata ham sotishmaydi.

Shunda cho‘milayotgan kampir ovoz chiqarib qoldi.

– Meni suvdan chiqarib olinglar, – dedi, – bo‘lmasa, hozir o‘zim chiqib, hammalaringni do‘pposlayman.

Shunda ular kampirga yopishib, menga yechinishni buyurishdi.

Yechinib bo‘lgunimcha vannaga issiq suvni quyib, menga, o‘tiring, deyishdi.

Ular fe‘limni bilib qolishgani uchun men bilan adi-badi aytib o‘tirmasdan, atganlarimga osongina ko‘nishardi. Cho‘milib bo‘lganimdan keyin, bo‘yim baravari keladigan keng ichkiyim berishdi. Dastlab, menga qasddan shunaqa keng ko‘ylak-lozim berishdi, deb o‘yladim, keyin bilsam, ularda bu odatiy hol ekan. Qoida bo‘yicha gavdasi kichik bemorlar – katta ko‘ylakda, aksincha, kattalar kichik ko‘ylakda yurisharkan.

Hatto, meniki boshqalarnikidan ancha tuzukroq edi. Kasalxona tamg‘asi mening ko‘ylagimning yengiga, boshqalarda esa, kimning ko‘kragiga, yana kimningdir beliga urilgan bo‘lib, bu inson qadr-qimmatini ancha pastga urardi.

Issig‘im ko‘tarilayotgani sababli bu narsalar haqida ular bilan bahslashishni lozim topmadim.

Meni o‘ttizga yaqin har xil kasallar yotgan palataga yotqizishdi.

Aftidan, ba‘zi birovlar og‘ir kasal, yana birovlar tuzalayotgan bemorlar bo‘lib, hatto, hushtak chalib o‘tirishardi. Ayrimlar piyoda surishadi. Qolganlar esa zerikib palatama-palata yoki omborlarda tentirab, devorlardagi yozuvlarni o‘qishardi.

– Ehtimol, men ruhiy kasallar ichiga tushib qolgandirman? – deb so‘radim hamshiradan. – Siz nima deysiz? Har yil kasalxonaga yotaman, lekin bunaqasini birinchi bor ko‘rib turishim, hamma yoqda tinchlik, ozodlik, sizlarniki bamisoli bozor.

Hamshira bo‘lsa:

– Sizni alohida palataga yotqizib, yoningizga militsioner qo‘yaylikmi, yo, – deydi. – Harqalay, pashsha yoki kanalaringizni qo‘rib turadi?

Bosh vrachni chaqiring, deb shovqin ko'tardim, lekin baxtga qarshi yana o'sha feldsher keldi. U nihoyatda lanj ko'rinardi. Uni shu holda ko'rib, butunlay hushimdan ketibman. O'ylashimcha, uch kundan keyin ko'zimni ochdim.

– Qoyil, – dedi hamshira, – organizmingiz juda mustahkam ekan. Barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi. Hatto, biz sizni bilmasdan ochiq oyna oldiga ham qo'yib ko'rdik, baribir tuzala boshladingiz. Endi, qo'shni kasallardan biror nima yuqtirmasangiz, Sizni bemalol tuzaladingiz, deya tabriklasa bo'ladi.

Lekin, organizmim boshqa kasalga chalinmadi, faqat shifoxonadan chiqadigan kunim bolalar kasalligi – ko'kyo'talga yo'liqdim.

– Ehtimol, bu kasallikni, – deydi hamshira, – qo'shni binodan yuqtirgansiz. U yerda bolalar bo'limimiz bor. Siz esa, bilmasdan ko'kyo'tal bola ovqat yegan qoshiqni tutgandirsiz. Shu orqali ko'kyo'tal yuqqan.

Hokazo, tez orada organizmim asliga qaytib, tuzala boshladim. Endi kasalxonadan chiqaman, deb turganimda, aksiga olib yana kasallanib qoldim. Bu gal asab bilan. Asab tufayli badanimda maydamayda toshmalar paydo bo'ldi. Vrach: «Ko'pam asabiylashmang, bu o'z-o'zidan yo'qolib ketadi», dedi.

Men esa, javob bermaganlari uchun battar asabiylashardim. Ular meni butunlay unutib yuborishdi, yo kerakli biror narsalari yo'qdir, yoki kimdir kelgan-u, bunga ruxsat bermayapti. Nihoyat, qandaydir ayollar kasalligi aniqlanib, hamma oyoqqa turdi.

– Odam shunaqayam ko'payib ketdiki, – deydi feldsher, – hatto, tuzalgan bemorlarni chiqarishga ham vaqt topa olmayapmiz. Atigi sakkiz kun ortiqcha qolyapsiz, shunga shunchami? Bu yerda shunaqa bemorlar borki, tuzalganiga uch hafta bo'lsa-da, miq demay yurishibdi.

Yaqinda shifoxonadan chiqarishdi va uyga qaytdim.

– Bilasanmi, Petya, – deb qoldi xotinim. – Biz seni allaqachon narigi dunyoda bo'lsang kerak deb o'ylovdik. Chunki kasalxonadan «Ushbu xatni olishingiz bilanoq, tez kelib eringizning jasadini olib keting» degan bildirish qog'ozi kelgan edi. Bu xabarni o'qishi bilan xotinim shifoxonaga yuguribdi. Ular hisob bo'limida anglashilmovchilik ro'y beribdi, deya kechirim so'rab, uni qaytarib yuborishibdi. Boshqa bir kishi o'lgan-u, ular negadir meni deb o'ylashgan. Holbuki, o'shanda men batamom sog'ayib ketgan va asab kasalligiga cha-

lingan paytlarim edi. Umuman, bu xunuk xabar haqidagi gap meni nihoyatda g'azablantirdi va shifoxonaga borib, kimlarnidir tergapkoyigim keldi, biroq bu ulardagi odatiy gap deb o'ylab, shashtimdan qaytdim.

Hozir kasallanib uyda yotibman.

1936

## XAVFLI ALOQALAR

Zamonaviy yosh xotin o'ziga qarata kichraytirib aytilgan erkalashni yoqtirmaydi. Masalan, unga «og'izcha», «qo'lcha» yoki «oyoqcha» desangiz, jinidan battar ko'radi.

Bundan uning jahli chiqadi. Hatto, shu tufayli portlash ro'y berishi mumkin.

Bir juvon menga:

– Jin ursin, qanaqasiga oyoqcha bo'larkan, – dedi, – men qirq birinchi o'lcham boshmoq kiyaman, o'zingizcha nimalar deb valdirayapsiz. Odam emas – ablahsiz, – deydi, – shu xil ahmoqona qilg'ingiz bilan hayotimni quritmoqchimisiz?

Sizga ochig'ini aytay, bu gaplardan kapalagim uchib ketdi.

– Eski davrda, – deydi u, – bu xil almoyi-ajmoyi erkalashlarni tantiq xonim yoki grafinyalar eshitishni xohlashgan. Men esa, tupurdim, sizdaqa erkaklarga, – deydi.

– Assalomu alaykum, – dedim, – bu so'zlaringizni qanaqasiga tushunsa bo'ladi?

Uning so'zlarini qanaqasiga tushunsa bo'lardi, qaysiki o'shandan beri biror marta ham qo'ng'iroq qilmasa yoki ro'para kelganda salomlashmay o'tib ketsa.

Bu o'z-o'zidan ravshan: zamonaviy yosh juvonlar o'zlaricha bir mardlik yoki qahramonlik ko'rsatgisi keladi. Bilishimcha, ularga risoladagi narsalar yoqmaydi. Ular uchun erkak zoti, albatta, uchuvchi, hech bo'lmaganda, bortmexanik bo'lishi shart. Ana shunda ular tanib bo'lmas darajada gul-gul ochilib ketishadi.

Qiziq, ulardan, nega endi hamma odamlar uchuvchi yoki bortmexanik bo'lishi kerak ekan, deb so'rab ko'ring-chi.

Albatta, bortmexaniklik kasbi ma'lum darajada qiziq, odamlarda har xil kayfiyat uygotadi. Buni o'zim ham bilaman. Biroq, bu – ham-



ma xuddi o'shalardek osmonning qa'rida parvoz qilsin degan gap emas-da.

Ko'plar yerda, idora yoki boshqa joylarda kamtarona bir kasb bilan shug'ullanishsa, yomonmi?

Yana ularga, negadir kinooperatorlar yoqadi. G'alati, it bilsin, nima sababdan ekan, g'altakni g'irillatishsa, «Nanoleon» deb o'ylashadi.

Yana Arktikadan kelganlar ham xotin-qizlarning muhabbatini qozonishadi. Axir u yerda hammayoq muz – qor. Shimol yog'dusi. Bay-bay-bay!

Umuman aytganda, to'rt marta uylangan bo'lsam-da, birortasi ham menga toqat qila olmadi. Dastlab ikki xotinim bortmexaniklarga og'ib ketdi. Uchinchisi kinooperator bilan yura boshladi. Ha endi, shunday ham bo'lishi mumkin, deb o'yladim.

Biroq, to'rtinchi nikohimning kutilmagandagi qilig'idan batamom esankirab qoldim. Boshimga tushgan shu kulfatni, bir fuqaro sifatida boshqa erkaklarga aytib bermoqchiman. Zero, ular shu xil nikohdan ehtiyot bo'lsinlar.

Bir juvon bilan tanishib qolgan edim. Turmush qurishga qaror qilgach, uni qattiq ogohlantirib:

– Shuni unutmangki, – dedim, – men osmonga parvoz qila olmayman, bundan tashqari, sizni xursand qilish uchun parashut bilan tomdan ham sakramoqchi emasman. Mabodo, osmoniy kasb, ya'ni uchuvchilikka ishqibozlik qilsangiz, unda sizga boshqa savolim yo'q, nikoh masalasini to'xtatib turaylik.

– Kasbning ahamiyati yo'q, – dedi u, – uchuvchilarga ham befarqman. Faqat, eng asosiysi, oramizdagi do'stlik birmuncha erkinroq bo'lsin, demoqchiman. Shaxsan tergashni yoqtirmayman. Sizgacha yetti yil erim bilan yashaganman. Lekin shu vaqt ichida erim, hatto biror marta meni boshqalar bilan teatrga borishimga ruxsat bermagan. Endi esa, siz bilan oramizdagi nikoh o'zaro o'rtoqlarcha munosabat zaminida qurilishini istayman. Masalan, agar siz birov bilan yurishni istasangiz, marhamat, hech narsa demayman. Mabodo, men ham birov bilan uchrashsam, siz ham, albatta, qarshilik ko'rsatmasligingiz kerak. Ana shunda ikkala sevishgan qalb bir-birini yaxshi tushungan va ular orasidagi nikoh uzoq davom etgan bo'ladi. Erning kasbi oddiy bo'lsa, nima qipti, bu qaytaga yaxshi. Qolaversa, u o'zining oilada tutgan o'rmini bilib, mendan ortiqcha narsalarni talab qilmay qo'yishi mumkin.

– Men to‘rtinchi marta uylanishim, – dedim unga, – shuning uchun har qanday tushuncha va talablardan boshim aylanib ketgan. Birinchisiga – har qanaqa ‘kichraytib erkalashlarim yoq-magan edi. Ikkinchisi – kinooperator bilan yurib ketdi. Ehtimol, siz ham biror karomat ko‘rsatarsiz, – dedim. – Demakki, butun ixtiyorimni olib qo‘ygan ekansiz, keling, mayli, sizningcha bo‘la qolsin.

Shunday qilib, turmush qurdik-da, alohida-alohida uyda yashay boshladik. Munosabatlarimiz ko‘ngilli va do‘stona davom etardi. Oradan hafta o‘tmasdanoq, u Arktikada bo‘lib qaytgan eski tanishi bilan aylanishib qoldi.

O‘ramizdagi shartga binoan:

– Agar istasangiz, keling, ajrala qolaylik, – dedi u. – Mabodo menga nisbatan ko‘nglingizda hamonki moyillik bor ekan, unda shoshilmasa ham bo‘ladi. Chunki, tanishim yaqin orada ekspeditsiyaga jo‘naydi. O‘shanda yana munosabatlarimiz yaxshilalanib qolar.

Tanishining jo‘nab ketishini ahmoq bo‘lib ikki oy kutsam bo‘ladimi. Nihoyat, qo‘shni ayol o‘z-o‘zidan yorilib qoldi.

– Uni bekorga kutyapsiz, – dedi. – O‘zingizni o‘ldirsangiz ham u qaytib kelmaydi.

Oradan yana bir oycha o‘tdi. Bir kuni to‘satdan xotinim paydo bo‘lib, tanishidan butunlay xalos bo‘lganini, buning ustiga, u tag‘in o‘zining shimol safariga jo‘naganini aytdi.

– Endi mening ilojim yo‘q, – dedim unga, – chunki qo‘shni juvon bilan yuribman. Mabodo, hamonki menga maylingiz bor ekan, unda ajralishim mumkin, – dedim.

Shunday qilib, qo‘shnimdan ajralmoqchi bo‘ldim. Endi ajralgan edim hamki, qarasam, bir oylik tinch hayotdan so‘ng xotinim Arktikaga ketgan kishining sayohatdagi yo‘ldoshi va do‘sti bilan topishibdi. Bu qutbchi negadir ketmay qolgan edi. Va mening xotinim u bilan topishib olib, birga yashay boshladi.

Yana bir necha oy kutishga kelishib yurgan edim, to‘satdan o‘sha qutbchidan bola ko‘rishini eshitib qoldim.

– O‘ramizdagi nikoh juda g‘alati-ku, – dedim unga. – Umuman, qutbchi, bortmexanik va kinooperatorlardan to‘yib ketdim.

– Agar xohlasangiz, – dedi xotinim, – u meni tashlab ketguncha yoki bolaning suyagi qotguncha kutishingiz mumkin.

O'shanda yana shartlashganimizdek yashayveramiz. Agar xohlamasangiz, unda ixtiyoringiz. Umuman, – deya davom etdi u, – nolish va inqillashlaringiz bilan jonimga tegdingiz. Ixtiyoringim o'zimga emas-ku, axir. Qanaqa zamonaviy erkaklarni sevib, qanaqalarini ko'rolmaslik yuragimning amrida. GTO znachogingiz bo'lmasligi, mayli, aqalli, kulgi uchun sanitarlar kursini ham o'tamagansiz, axir. Hali sizdan voroshilovcha merganlikni o'rganishni yoki qutbga jo'nashni so'rab ham o'tirmayman. Umuman, – deydi yana u, – bu kasblarni qo'yib turaylik, omadsizligingiz faqat kasbga ham bog'liq emas, ochig'i, xarakteringiz yaxshimas, zamonadan orqada qolgansiz. Hozir o'z kapitalini ko'zko'z qiladigan boylar yo'q, xotin-qizlarning muhabbatini qozonish uchun shaxsiy fazilatlaringizni yaxshilash kerak bo'ladi.

– Juda qiziq-ku, – dedim, – bittasi kichraytib erkalashni yoqtirmasa, ikkinchisi bola tug'ib berishi yetmagandek, yana ma'ruza o'qisa.

To'satdan u qo'shni xona eshigini ochib, kichraytib gapira boshladi:

– Vanichka, – dedi u, – ana bu odamcha yana janjallashishga kepti. Bo'yinchasiga tushirib, haydab yuborsang-chi uni! Uni ko'rsam jazavam tutib qolyapti.

To'satdan xonaga Arktikaga jo'nagan o'sha kimsaning do'sti kirdi. Shimol havosida chiniqqan baquvvat bir yigit. Buning ustiga, yoqasiga parashutchi nishonini taqib olgan.

– Nega bu yerda qizishib turibsiz, yigitcha? – dedi u.

Boshqa hovliqma erkaklar ham shunday nochor ahvolga tushib qolishdan ehtiyot bo'lsinlar uchun yuqoridagi voqealarni yozib qoldirish maqsadida tezda ular bilan xayrlashdim.

Bu xil erkin nikohlarga qarshiman. Men o'zaro mas'uliyat zamirida qurilgan mustahkam nikoh tarafdoriman. Bu xil munosabatni qayerdan topsa bo'larkin? Umrim bino bo'lib parashutni ko'rmagan, Ligovdan boshqa yerda yashamagan bo'lsam.

Boshqalar bilan tenglashish uchun qahramon bo'lishga to'g'ri keladi, shekilli.

1936

## KATTA SHAHAR CHIROQLARI

Kommunal uyimizda istiqomat qiluvchi bir kishinikiga qishloqdan otasi keldi.

Albatta, u o'g'lining kasalligi tufayli tashrif buyurgan edi. Binobarin, umrining oxirigacha ham Leningradni ko'rmagan bo'lardi. O'g'li kasallanib qolgani uchun ham keluvdi-da.

O'g'li esa bizga qo'shni bo'lib, restoranda ofitsiantlik qilardi. Xo'randalarga ovqat tarqatar va hisob-kitobda suyagi yo'q edi.

Bir kuni kechki mehnatga berilib, ishxonada uzoqroq qolib ketdi va uyiga jo'nash uchun tashqari chiqqan edi, aytaylik, pazandalik nazoratida qattiq shamollab qoldi. Dastlab, u tumov bo'lib, yetti kuncha aksirib yurdi. Keyin shamollash ko'krak qafasiga o'tib, issig'i birdaniga no'ldan plus qirq darajaga ko'tarildi.

Bu ham yetmagandek, o'sha arafada dam olish kunini madaniy o'tkazish maqsadida Pavlovskka jo'nagan, yo'lda xotinini vagonga chiqarish uchun ancha terlab-pishishiga to'g'ri kelgan edi.

Ana shularning hammasi bir bo'lib, ayni kuch-g'ayratga to'lgan bir kishini batamom holdan toydirib, to'shakka mixlab tashladi.

Tabiatan juda vahimachi bo'lgan ofitsiant bemorimiz endi tuzal-mayman va hatto, o'zinning doimiy xizmat vazifamni bajarishga ham qaytmasam kerak, deb o'yladi.

Shuning uchun oxirgi «vasiyati»ni aytib qolish maqsadida otasini Leningradga taklif etdi.

Yo'q, otasini qizg'in sevishi va umrining oxirida u bilan uchra-shishni ko'pam xohlamasdi, aksincha qirq yil mobaynida otasini biror marta ham so'ramagan, hatto uning bor-yo'qligiga ham befarq qarardi. Biroq, eridagi juda yuqori haroratni ko'rgan xotini boshqa odamlar oldida izzatlablik qilib, otasiga: Leningradga keling, o'g'lingiz kasal, mazmunida telegramma jo'natdi.

Leningradda o'g'li tuzala boshlagan bir paytda hammani hayrat-da qoldirib, uzoq o'lkalardan oyog'iga choriq kiyib, xalta ko'targan, hassali otajoni yetib keldi. Keyin ma'lum bo'lishicha, uning xaltasida etik bo'lib, bu haqda «Boy bilim bilan, kambag'al kiyim bilan», deb tushuntirdi.

Hamma – qo'shnilar, shu jumladan o'g'il ham yetmish yoshlardagi kamtarin, hatto xudojo'y bir qariya kelib, odamlarga oxir zamon-dan amrima'ruf qilsa kerak, deb qo'rqishgandi.



Biroq, to'g'risini aytish kerak, butunlay teskarisi bo'lib chiqdi.

Qariya juda kamdan kam uchraydigan qiziqqon, biroz janjalkash, qo'pol va shallaqi ekan. Bu ham yetmagandek, u nafaqat aksilinqilobchi, balki siyosiy jihatdan butunlay qoloq bir kimsa edi.

U kelgan zahoti hovlida qorovul bilan aytishib oldi va shu uyda o'n ikki yildan beri yashovchi qo'shninikiga mehmonga kelgan bir o'smirni quloq cho'zma qildi.

Shundan keyin, otaxon uy boshqarmasi raisi bilan shundayam jiddiy suhbat qurdiki, dastlab rais hozirgi zamonda ham shu xil qoloq fikrli kishilar borligiga hayron qoldi va hatto, uning turadigan joyiga bildirmoqchi ham bo'ldi.

Otaxon kelgan zahoti, narigi uyini karyer<sup>1</sup>ga topshirib, ma'lumotnoma olib kelsa, shu Leningraddan doimiy yashash uchun turarjoy olish mumkin emasmi, deb so'radi. Bundan o'g'li qo'rqib ketdi.

Albatta, qariya, o'ziga qolsa, nisbatan ancha tuzuk odamdir, biroq kelgan kuniyoq deyarli barcha qo'shnilarga o'tirishmadi. Ehtimol, uni tushunishga ularda madaniyat yetishmas. Shuning uchun ham ular qariyani kamsitishar, uni ahmoqqa chiqarib hazillashishar, qishloqcha, sahroyi qiliqlaridan istehzoli kulishardi. Har kim unga o'zicha allaqanday bir bema'ni gapni aytgisi kelardi. Chunonchi, qorovul har ko'rganda undan xo'rozdek bo'ynini cho'zib: «Ayting-chi, yigitcha, qaysi kolxozdan kelgansiz?» deb so'rardi.

Hatto, o'g'li, ofitsiant Gavrilov ham bu borada boshqalardan qolishmas, gohida kulgi uchun gazetaga qarab turib:

– Ota, bugun yana ko'chaga chiqa ko'rmang, – derdi, – mo'ysafid va sariqlarni tutib ketisharkan. Hamma yoqda oblava<sup>2</sup>.

Albatta, bu gaplar ichiqoralik bilan emas, shunchaki hazil yo'sinida aytilsa-da, yetmish ikki yoshli, bu yerdagilarni qo'shib hisoblaganda hammasidan aqlli, musofir qariyaga unchalik xush yoqmasdi. Ular bo'lsa uni befarosat, ahmoq va anqov bir kishi, deb o'ylashardi.

Albatta, bu xil kamsitishlar uning xulqiga salbiy ta'sir etmasdan qolmasdi.

Qariya bu yerda necha kun yashagan bo'lsa, shuncha marta janjal, qiy-chuv va ur-yiqit ro'y berdi.

<sup>1</sup> Qazishma ishlariga demoqchi.

<sup>2</sup> «Ov» uyushtirishyapti ma'nosida.

Kelishidan atigi olti kun o'tmasdanoq, pivoxonada aytishib, to'polon ko'tardi. Hatto uni militsiyaga ham topshirmoqchi bo'lishdi. Biroq, u tezda qochib qutuldi va ko'chada uzoq tentirab yurdi.

Mana, u ko'chada g'ing'illab, qo'shiq aytib ketib boryapti. Qishloqcha kiyingan, nihoyatda to'pori, soch-soqoli oppoq bir qariya.

Ko'chadan ketib borarkan, to'satdan adashib qolganini sezdi.

Adashish – bu bo'lmagan gap. Axir, u manzilni biladi-ku. To'satdan atrofdagi mastlardan qo'rqib, hushyor tortgandek bo'ldi.

Bir yo'lovchidan qayoqqa qarab yurishini so'radi. Yo'lovchi bilmas ekan, militsiyaga murojaat qiling, dedi.

Albatta, bizning qariya pastda turgan militsionerning yoniga birdaniga bora olmadi – qo'rqdi. Hayajonini bosish uchun yana ikki-uch mavze yurdi.

So'ng, hushtak chalib, baqirib bermasin, tag'in deb o'ylab, hayiqibgina postda turgan militsionerga yaqinlashdi.

Shunda ichki tartibga muvofiq militsioner keluvchi kishiga oq qo'lqopli qo'lini furajkasi soyavoniga yaqin keltirib, chest<sup>1</sup> berdi.

Janjalga odatlanib qolgani uchun allaqachon tayyor turgan qariya bu kutilmagan holatdan ancha dovdirab qoldi va o'zicha bir nimalar deb g'o'ldiradi.

Militsioner undan qaysi ko'cha kerakligini so'rab, qayoqqa borishini ko'rsatdi va yana bir marta chest berdi-da, o'z ishi bilan shug'ullana boshladi.

Bir paytlar general va baronlar uchungina qilinadigan mana shu kichik harakat, hurmat va ehtirom bizning musofir qariyamizda katta taassurot qoldirdi.

Militsioner ikkinchi marta chest berib, unga yolg'ondan emas, chinakamiga aniq yo'lni ko'rsatgani uchun qariya hayajondan qaltirab ketdi.

Keyin ma'lum bo'lishicha, qariya boshqa militsionerga borib undan ham xuddi o'shandek hurmat-ehtirom ko'rgach, bu mehribonlikdan cholning yuragi iyib ketibdi.

Anig'ini bilmayman-u, lekin bu hol, albatta, qariyaning tabiatiga ijobiy ta'sir etgan shekilli, odamlar bu gal uning juda bosiq va vazmin qaytganini sezishibdi. Hatto qorovulning yonidan odatdagi qo'rsiligini tashlab, chest berganicha indamasdan uyiga o'tib ketibdi.

<sup>1</sup> Harbiychasiga hurmat bajo keltirish ma'nosida.

Anig'ini bilmayman-u, ehtimol, bu arzimas haqiqat tabiatining qayta tarbiyalanishida ma'lum rol o'ynagandir. Harqalay, odamlar Gavrilovning otasi bilan nimadir, oliy darajadagi bir o'zgarish ro'y berganini sezishdi.

O'z uylari orqasidagi burchakda turgan militsioner bilan qariya-ning suhbatlashib turganini kimdir ikki marta ko'rganmish.

Ayrim, qo'polroqlar o'zlaricha bir paytlar qariyani militsiyaga topshiramiz deganlari uchun u qo'rquvdan shunday mo'min-qobil bo'lib qolgan, deya to'qib-bichishdi. Lekin, ayrimlar buni o'zlaricha tushunishdi.

Uyimizda yashovchi, qand kasaliga chalingan ziyolinamo kishi bu haqda:

– Men shunga aminmanki, – dedi, – odam shaxsiyatiga nisbatan hurmat, e'tibor va maqto'v misli ko'rilmagan zo'r ahamiyat kasb etadi. Ko'pchilik tabiatlar ana shu tufayli tongda ochilgan atirguldek tezda o'z-o'zini namoyon qiladi.

Ko'pchilik bu fikrga qo'shilmadi, hatto shu xususda uyda natijasiz bahs-munozara bo'lib o'tdi.

Uch kundan keyin Gavrilovning otasi o'g'liga qishloqa uni kechiktirib bo'lmaydigan ishlar kutayotganini aytdi.

Uyimizdan ayrimlar qariyaga qilgan noo'rin hazillarini yuvish uchun uni vokzalgacha kuzatib chiqishdi.

Poyezd jo'nab ketar ekan, otaxon vagon eshigi yonida g'oz turgan cha kuzatib qoluvchilarga chest berdi.

Hamma, hatto otaxon ham kuldi va u o'z yurtiga jo'nab ketdi.

Ehtimol, u yerda ham uning odamlarga nisbatan hurmati boshqacharoq tus olsa kerak va bundan uning hayoti yanada mazmunli va yorqin bo'ladi.

1936

## XOTIRLASH

Yaqinda mo'min-qobil bir kishi vafot etdi.

U shunchaki bir ishchi edi. Chunonchi, uning hayot yo'li tugagan kuni u haqida juda ko'plar gapirildi, marhumning ajoyib inson va o'z ishining ustasi ekanligi alohida ta'kidlandi.

Hamma buni uning vafotidan keyin sezib qolishdi.

Odamlar uning toza va madaniy kiyinishiga e'tibor berishdi. U o'z dastgohini qanday asrardi-ya: changlarini puf-puflab tozalar, har bir murvatchasini latta bilan artardi.

Buning ustiga, juda subutli bir kishi edi.

Chunonchi, shu yoqda xastalanib qoldi. Tomorqada ahvoli og'irlashdi. Dam olish kuni polizga kirib, u-bu ish qilgan bo'ldi. Ekinlar va daraxtlarni parvarishladi. Shunda to'satdan o'zini yomon his etdi. Boshi aylanib, yiqilib tushdi.

Uning o'rmiga boshqa kishi bo'lganda edi: «Menga valerianka to-mizinglar!» yoki «Professorni chaqiringlar!» deb qichqirgan bo'lardi. U bo'lsa sog'lig'i haqida qayg'urmadi ham. Yiqilgan yerida: «Eh, savil, jo'yakka yiqilib tushdim, kartoshkamni toptadim, shekilli», dedi.

O'sha asnoda vrachga yugurmoqchi edilar, lekin u odamlarni ishdan qo'yish yaxshi emas, deya rozi bo'lmadi.

Har holda, uni uyiga olib borishdi va u yerda yaxshi vrachlar nazorati ostida ikki oycha kasallanib yotdi.

Uning dafn marosimi juda ajoyib o'tkazildi, albatta. Musiqa motam valsini chalib turdi. Qabristongacha kuzatish uchun juda ko'p xizmatdoshlari keldi.

Juda tantanali nutqlar so'zlandi. Qanday ajoyib odam edi-ya, deya hayron bo'lishar, sha'niga maqtov so'zlari aytishardi.

Eng oxirda uning bevasi yonida turgan yaqin do'stlaridan biri:

– Kimda-kim o'z do'sti va o'rtog'ining ruhini shod etishni istasa, – deya e'lon qilib qoldi, – marhumning bevasi o'z uyida bir piyola choyga taklif etadi.

Kuzatib keluvchilar orasida ular bilan birga ishlaydigan M. ismli bir kishi ham bor edi. Garchand shu M. marhumni yaqindan unchalik bilmasa-da, ishxonada atigi ikki marta ko'rgan edi.

Beva taklif qilganda u ham marhumnikiga kira qoldi. Ochig'i, chin qalbdan kirdi. Boshqa hech qanday g'arazli fikri yo'q edi. Xotirlashga ichkilik uchun ham kirmagan, chunki hozir ovqat-uchilik bilan bironi qoyil qilib bo'larmidi. U shunchaki odam-garchilik uchun bordi. «Shunday ajoyib odam edi, kel, kira qolay, qarindosh-urug'larining xotiralarini birpas eshitib chiqarman», deb o'ylovdi.

Shunday qilib, bir guruhga qo'shib u ham kirdi.

Hamma uyga kirdi. Albatta, dasturxon yozilgan. Rang-barang taomlar.



Hammalari yechinishdi. Bizning M. ham shapkachasi va paltosini yechdi. Motamsaro qarindoshlarning xotiralarini eshitish uchun kirib o'tirdi.

Shunda oshxonaga uch kishi kirib keldi.

– Bu yerda eng yaqin qarindoshlar yig'ilishgan, ularning orasida siz begonasz-ku, – deyishdi. – Beva uning uyiga so'roqsiz bostirib kelganingizni surbetlik deb tushunyapti. Qani, paltongizni kiyib, bu yerni bo'shatib qo'ying!

Bu so'zlardan, albatta, u juda og'rindi va ularga bu yerga shunchaki ochiqko'ngillik bilan, qalb amri bilan kirganini aytib, tushuntira boshladi. Ulardan biri:

– Bilamiz sizning qalbingizni, – dedi, – siz bu yerga ovqatlangani kirgansiz. Bu marhumga nisbatan o'ta hurmatsizlik. Qani, shunday qayg'uli paytda do'stlar va qarindoshlarning tabiatini xira qilmasdan, jo'nang bu yerdan.

U shu so'zlarni aytilish bilan birga, uning paltosini olib yelkasiga tashladi.

Ikkinchisi esa uning furajkasini olib, ikki qo'llab boshiga shundayyam kiydirib qo'ydi, hatto quloqlari qayishib ketdi.

Yo'q, ular, hatto unga qo'llarini ham tekkizishmadi. Shu ma'noda hammasi madaniy tarzda tugagandek edi. Biroq, ular uning qo'lidan ushlab dahlizga chiqarib qo'yishdi. Shu yerda beva tomondan ayrim qarindoshlar sal hadlaridan oshishdi, hatto bittasi tizzasini ishga soldi. Bu nafaqat jismoniy jihatdan, balki ma'naviy jihatdan nihoyatda og'ir edi.

Qisqasi, hech nimaga tushunmasdan, ko'nglida bir olam alam va xo'rliklar bilan zinapoyadan otilib tushib ketdi.

Va uch kun uxlay olmadi.

Kecha oqshom esa u mening huzurimga keldi.

Nihoyatda asabiy edi. Alam va xo'rlikdan engagi titrab turar, ko'zlaridan yosh tomchilardi.

U yuqoridagi hikoyani aytib berdi va shu haqda mening fikrimni so'radi. O'z navbatida men ham yosh suhbatdoshimga:

– Sen-chi, azizim, – dedim, – kichkina bir xatoga yo'l qo'yibsan. To'g'ri, senga ishonaman. Sen u yerga yuraging buyurganini qilib kirgansan. Biroq, beva o'z yaqinlarini va erini yaxshi biladigan odamlarnigina taklif etgan. Agar zavod marhumning xotirasiga bag'ishlangan kechaga seni taklif etsa-yu, u yerdan seni «begona», deb

haydab chiqarganlarida edi, bu haqiqatan adolatdan bo'lmadi. Ishning ana shu nozik tomoniga hamisha e'tibor berish kerak. O'z navbatida, ularni ham oqlamoqchi emasman. Ular senga nisbatan qo'pol va hissizlarcha munosabatda bo'lganlar. Boshingga furajkaningni kiydirib qo'ygani esa, ahmoq, to'g'risi, cho'chqa ekan!

Shunda ro'paramda o'tirgan M. biroz jilmaygandek bo'ldi.

– Endi tushundim, – dedi u, – qaysi ma'noda meni begona de-yishganini. Boshqasining menga ahamiyati yo'q.

Shunda uning qo'lini qisib, kitob sovg'a qildim. Va biz eng yaqin do'stlardek xayrlashdik.

U ketgach, hatto o'z mashinalarini mehribonlik bilan silab-siy-paydigan o'sha odamlar nega bu kishiga shunday munosabatda bo'lishdi, behayolarcha haydab yuborishdi ekan, deb o'yladim. Ehtimol, ular mashinalarini asrab-avaylashar. Harqalay, «Ehtiyot bo'ling!» «Qattiq tashlanmasin!» deb yozilgan qutilarni zinapoyadan itqitib yuborishmaydi-ku.

O'zimcha, odamlarga ham bo'r bilan bir nima yozib qo'ysa yomon bo'lmadi, deb o'yladim. Chunonchi, «Chinni buyum!» «Ohistaroq!» degandek ogohlantiruvchi so'zlarni. Harqalay, odam bu – odam. Mashina esa unga xizmat qiladi. Demak, u mashinadan sirayam kam emas.

Ana shu mashinalar haqida o'ylab turib, bo'lib o'tgan voqeani hikoya qilishga jazm etdim. Mana, u sizning oldingizda.

1937

## O'G'RILIK MANZARALARI

Inqilobning boshlarida jinoyat qidiruv bo'limida kichik tergovchi bo'lib ishlaganman.

Albatta, o'shanda bu soha bo'yicha yirik mutaxassislar yo'q edi. O'qish va yozishni bilgan har bir kishi bu qiziqarli xizmatga kira olardi.

Darhaqiqat, juda qiziq va g'alati ishlar qo'limizdan o'tardi.

Hamma ishlardan ham ko'ra, Ligovda ro'y bergan sirli bir voqea tez-tez esimga tushib turadi.

Birda ishxonada choy ichib o'tirardim.

Birdaniga terlab ketgan bir kishi huzurimga otilib kirdi.

– Men, strelkachi Frolovman, – deydi. – Ligovda xizmat qilaman. Kecha oqshom echkimni o'g'irlab ketishdi. Bu shunaqayam

og'ir yo'qotishki, qarang, alamimdan qanday qaltirayapman... Yalinalman, tezda jinoyatni ochib, echkimni qaytarsangizlar.

– Ko'pam qaltirama, – deyman unga, – qani, o'tirib, bir boshdan aytib ber-chi. Sening so'zlaringdan dalolatnoma tuzaman, keyin tezda voqea sodir bo'lgan yerga boramiz, o'g'rini topib, undan sening echkingni olib beramiz.

– Bundan ikki kun oldin, – dedi u, – toza sog'ilgan sut ichib semirish maqsadida bir echki sotib olgan edim. Bu echki evaziga bir qop un berganman. Juda qadimiy, zotdor echki edi. Kecha uni qaznoqchaga qamab, qulflab qo'ygan edim, o'g'rilar hovliga tushib, qulfini sindirib, echkini o'g'irlashgan. Echkisiz va unsiz nima qilaman endi, xonavayron bo'ldim.

O'g'ri haqida juda jiddiy dalolatnoma tuzdim-da, katta tergovchini chaqirib unga topshirdim va zudlik bilan o'sha yerga jo'nab, issig'ida o'g'irlikni aniqlang, dedim.

Katta tergovchimiz juda tajribali xodim edi. Faqat uning bir kamchiligi bo'lib, qattiq hayajonlanganda hushdan ketib qolardi. Qachonlardir bir o'g'ri unga to'pponchadan o'q uzgan. O'shandan beri jinday qo'rroq bo'lib qolgan. Masalan, allaqanday taxta tushib ketsa, yoki boshqacharoq bir taqillash eshitilsa, birdaniga cho'chib tushar va o'sha zahoti hushdan ketardi. Shuning uchun ham uning yolg'iz o'zini yuborib bo'lmas, albatta, birovni ergashtirib yuborish kerak edi. Aslida o'zi juda yaxshi izquvar bo'lib, o'g'riliklarni juda tez va oson aniqlardi. Hamma uni Volodya amaki derdi.

Ana shu Volodya amaki:

– Tezroq bo'l, Ligovga birga boramiz, – dedi menga, – strelkaching echkisini kim o'g'irlaganini aniqlaymiz.

O'n daqiqadan keyin strelkachi hamrohligida poyezdga o'tirib Ligovga jo'nadik.

Mana, strelkachi bizni hovlisiga olib kirdi. Choqqina, bir qavatli uyga ko'zimiz tushdi. Hovli baland devor bilan o'ralgan. Yana echki qamalgan o'sha kichik omborcha bor edi.

Endilikda bu omborcha lang ochiq. Sindirilgan qulfi zanjirda zo'rg'a osilib turardi. Omborcha bo'm-bo'sh. Hech qanaqa echki-pechki yo'q. Faqat jinday pichan yotardi.

Volodya amaki tezda omborchani ko'zdan kechirib:

– O'rtoqlar, – dedi. – Sizning ko'z o'ngingizda qulfbuzarlik yo'li bilan sodir qilingan o'g'rilik manzarasi. O'g'ri devordan oshib



tushgan, temir bilan qulfni sindirib qaznoqchaga kirgan va echkini olib ketgan. Hozir tuproqni ko'zdan kechirib, izni aniqlayman va o'g'ringing ko'rinishini sizga aytib beraman.

Volodya amaki shunday degancha, yerga yotib olib, izni ko'zdan kechira boshladi.

– Ko'z o'ngingizda, – dedi u, – haqiqiy o'g'ringing odimlari. Izi-ga qaraganda, o'g'ri o'rta yoshlardagi uzun, ori-q bir kishi. Etigining nag'ali ham temirdan.

– Mening ham etigimning nag'ali temirdan, – dedi strelkachi, – yalinaman sizga, yana meni o'g'ri bilan adashtirmang. Siz tu-fayli tag'in qamalib-netib qolmay. Buning ustiga, men ham ori-q va o'rta yoshdaman. Siz ko'zoynagingizni taqib, yaxshiroq qarang-chi, u yerda boshqa iz yo'qmi?

– Bundan tashqari yana bir oddiy iz ham bor, – dedi Volodya amaki. – Shu izning yonida yana o'g'il yoki qiz bola oyoqchalarining izi ham tushgan. Shunday qilib, ko'z o'ngingizda oddiy, tungi o'g'rilik manzarasi. Ikki o'g'ri va ularning kichik yordamchisi hovliga tushish-gan, qulfni sindirib, uchovlon echkini o'g'irlashgan...

– Qanaqasiga o'g'ri ikkita bo'lsin? – dedi strelkachi. – Axir, fa-qat mening nag'alimning izi tushgan-ku, bundan chiqdi o'z echkim-ni o'zim o'g'irlagan ekanman-da? Nega ishni chuvalashtirasiz? Yo'q, sizni bekorga taklif etgan ekanman.

Shunda hovliga juda ko'p kishi to'plandi. Ular qani nima bo'larkin deya katta qiziqish bilan kuzatib turishardi.

– Unda, – dedi Volodya amaki, – o'g'ringing bir o'zi va kichik yordamchisi bo'lgan taxmin ham bor. Buning ustiga, o'sha bolaning sandalchasi yirtiq bo'lib, paypoqsiz kiyilgan, bolaning o'zi olti yoki yetti yoshlarda.

U shunday deyishi bilanoq, odamlar guruhi orasidan bola yig'isi eshitildi.

Shunda odamlar strelkachining jiyani, shu yerda yashaydigan o'smir Minka degan bolakayning yig'lab turganini ko'rishdi.

Hamma unga qarab, oyog'ida yirtiq sandalchani ko'rishdi.

– Nima uchun yig'layapsan, Minka?

– Ertalab turib, qaznoqchaga kiruvdim, – dedi Minka. – Echki-ga karam yaprog'i bergan edim. Echkini ikki marta siladim-da, ariq-dan baliq ovlash uchun chiqib ketuvdim. Lekin qulfga teginmovdim. Eshik ham ochiq edi.



Hamma hayron qoldi. Hatto Volodya amaki ham juda hayratlandi.

– Qanaqasiga bu tentak echkimni silagan bo‘lsin, – dedi strelkachi, – qachonki ertalab o‘g‘irlangan echkini silab bo‘larkanmi? Buni qarang-a?

Volodya amaki manglayini artib olib:

– Juda sirli o‘g‘irilik, – dedi. – Yoki, bizningcha, bu o‘g‘ri jin-niga o‘xshaydi. Kechqurun qulfni sindirib qo‘ygan-u, kunduzi echkini o‘g‘irlagan.

– Ehtimol, u Minkaning echkiga karam yaprog‘i berishini kutgan-dir, – dedi strelkachining xotini, – shundan keyin echkini olib ket-gandir.

– Uchtasidan biri, – dedi Volodya amaki, – yoki bola echkiga karam berganini tushida ko‘rgan, – bu yoshda bolalar shu xil tushlar ko‘rishi mumkin, yoki hovli egalarining anqovliklari tufayli o‘g‘ri esi-ni yo‘qotib qo‘ygan.

– Yana to‘rtinchi bir taxmin ham bor, – dedim men. – Ehtimol, o‘g‘ri boshqa narsani o‘g‘irlash uchun qulfni sindirgandir. Ertalab echi tashqariga chiqib ketib, adashib qolgandir.

– Yo‘q, echkinging o‘zi ketishi mumkin emas, – dedi strelka-chi. – Hovlim baland devor bilan o‘ralgan, hammayoq berk. Eshik ham prujinali – o‘z-o‘zidan yopiladi. Qaznoqchada esa echkidan boshqa hech narsa yo‘q edi. U yerda avvallari echkiga ayribosh qil-gani bir qop un turardi. Echkini shu qaznoqchaga qamaganim aniq. Zotdor echki edi, juda alam qilyapti!

Strelkachi shunday degancha, alamidan qo‘lidagi tayoq bilan qaz-noqchaning eshigiga qattiq urdi. Volodya amaki otishuv ro‘y berdi, deb o‘ylab, o‘sha zahoti hushdan ketib yiqildi.

Suv keltirishni buyurdim. Volodya amaking betiga suv sepib, unga yanchilgan qalampir hidlatgach, u o‘ziga kelib, yana ishini da-vom ettirdi.

– Endi hammasi menga ravshan, – dedi u. – O‘g‘ri eshik-ni sindirib kirgach, u yerda boylik o‘rniga echkini ko‘rib, olmaydi, chunki echki ma‘rab, hovli egalarini uyg‘otishidan qo‘rqadi. Keyin, uyga qaytib, o‘g‘irlamaganidan pushaymon qiladi. Shunda echkinging og‘zini bog‘lash uchun qop va ip bilan ertalab yana bu yerga keladi. Minka esa shu orada undan oldin kirib, echkiga karam berib, chiqib ketgan bo‘lishi mumkin.

Shunda hamma tergovchini olqishladi. Minka bo'lsa battaroq yig'ladi.

– Juda to'g'ri, – dedi bir xola, – tong bilan ko'chada ketayotgan edim, allaqanday bir kishining qop ko'tarib borayotganiga ko'zim tushdi. Qopda bir nima xurillab turardi.

Volodya amaki strelkachidan so'radi:

– Yaxshilab eslab ko'ring-chi, ehtimol, echki emas, cho'chqangiz bo'lgandir. O'g'rining qopidagi sizning cho'chqangiz bo'lishi mumkin. Yoki kecha echki o'miga sizga adashtirib cho'chqani sotishgandir. Siz ham unga yaxshi qarab o'tirmasdan qaznoqchaga obkelib qamab qo'ygandirsiz.

Strelkachi yig'lamsirab:

– Yo'q, sizlarni bekorga taklif qilganga o'xshayman, – dedi. – Axir aytdim-ku, qaznoqchamda echki bor edi. Anovi qopdagi narsa esa menikidan o'g'irlanmagan.

– Men uning qayerdan o'g'irlanganini bilmayman, – dedi Volodya amaki, – lekin shunisi aniqki, o'g'ri qopga solib echkini emas, cho'chqani olib ketgan... Bolakay Minka aytsin-chi, qaznoqchadagi jonivor nima edi. Ayt-chi, Minka qaznoqchadagi jonivorning rangi qanaqa, uning nechta oyog'i bor edi? Agar yolg'on ko'rsatma bersang, qonun oldida javob berasan.

Minka alam bilan yig'lamsiradi.

– Uning rangi oq, oyog'i ham uchta edi, – dedi chinqirib.

Bu gapni eshitgan tergovchining yana behush bo'lib yiqilishiga sal qoldi.

– Oq rangda. So'zsiz bu cho'chqa bolasi va uning bir oyog'ini o'g'ri vetchina<sup>1</sup> ishlab chiqarish uchun kesib olgan bo'lishi mumkin.

Strelkachi dod deb yuborgancha cho'nqayib o'tirib oldi.

– Voy, bu nima degan gap-a? – dedi u. – Ular nima qilmoqchilar, meni! Bu izquvarlarni bekorga taklif qilgan ekanman. Mening echkim bor edi, axir, ular uch oyoqli cho'chqa bolasi deyishadi-ya!

Volodya amaki Minkaga:

– Amakingga o'zing ayt, – dedi, – qaznoqchadagi echki edimi yoki cho'chqa bolasi... U ma'rardimi yoki xur-xur qilardimi?

Minka ko'zyoshlarini oqizib:

– U yerda nima borligini bilmayman, – dedi. – Men baliq oviga ketgan edim. O'sha ahmoq echkiga qo'limni ham tekkizganim yo'q. Faqat unga karam berdim-u, tez chiqib ketdim.

---

<sup>1</sup> Dudlangan go'sht demoqchi.

– Hammasi aniq, cho‘chqa bolasi bo‘lgan, – dedi Volodya amaki.

U shunday deyishi bilanoq yuqoridan «Ba a-a!» degan tovush eshitildi.

Bundan odamlar guruhi hayratdan qichqirib yuborishdi. Oyoqlari qaltirab, gindiraklab ketgan strelkachi:

– Og‘aynilar, echkim shu yerda, axir! Ana uning ovozi yuqoridan kelyapti! – deya qichqirdi.

Shunda hamma bir muddat yuqoriga qarab qoldi. Va echkinging tomda, tarnov oldida turganini ko‘rishdi. Tom pastakkina bo‘lishiga qaramay, echkinging u yerda turishi juda g‘alati ko‘rinardi.

– Og‘aynilar! – deya qichqirdi strelkachi. – Ho‘, ana, mening echkim. Kim uni shunday balandlikka chiqarib qo‘ydi ekan-a, og‘aynilar?

Volodya amaki:

– Ha, bu cho‘chqa bolasi emas, chinakamiga echki, – dedi. – Qanday jin urib bu yerga keldim-a? Yana bosh qotirib o‘tiribman-a.

– Og‘aynilar, – dedi strelkachi, – echkimning tomda turganini tushimda ko‘ryapmanmi-a?

– Tushda ko‘rayotgan bo‘lsang, tezda uyg‘on, – dedi strelkaching xotini. – Echkimiz, haqiqatan ham, tomda turib, o‘sha yerdan sen ahmoqqa qarayapti.

– Ehtimol, sen kecha unga echkini ayribosh qilgach, xursandchilikdan ichgandirsan, – dedi Volodya amaki, – mastlikda echkini qaznoqchaga qamash o‘rniga, tomga haydagandirsan. Bunga ajablanmasa ham bo‘ladi. Echkinging tomda turishiga sabab, faqat shu.

– Bilasizlarmi, – dedi strelkachi, – men zotdor echkimni azoblaguncha, yaxshisi, sizlarning hammalaringni tomga irg‘itgan bo‘lardim. Uy orqasida qurilish uchun keltirilgan taxtalar bor edi, men ular yerda qalashib yotmasin deb devorga suyab qo‘ygan edim. Biroq, taxtalar juda nishab qo‘yilgan edi. Hayronman, echki undan qanday tomga chiqib oldiyan?

Shunda odamlar orasidan bir kishi chiqib:

– Men meditsina doktoriman, – dedi. – Men bu dalilni tasdiqlashim mumkin. Juda ko‘p echkilar tog‘da boqiladi va ular juda nishab, xavfli qoyalarda ham bemalol yura oladilar. Yana shu xil Eron va Shveysariya echkilari bo‘ladiki, ular nafaqat xavfli qoyalarda chopa oladilar, balki uch metrcha uzunlikka bemalol sakray oladilar. Ehtimol, sizning echkingiz ajdodlari orasida shu xil zotdorlari bo‘lgandir. Unda



nishab qo'yilgan taxtadan tomga chiqib olganidan ajablanmasangiz ham bo'ladi. Buning ustiga, tomingizda nafaqat maysa, balki qoraqat va har xil bargli butalar o'sib yotibdi.

Strelkachi Frolov mag'rur ko'krak kerdi:

– Bir qop unga echkini almashtirayotganimda, bu echki juda zotdor, degan edilar. Men ham ularga ishongandim. To'g'ri ekan, endi nihoyatda baxtiyorman. Tomda turgan zotdor, tog' echkimga qararkanman, ko'zlarimdan quvonch va baxtiyorlik yoshlari oqmoqda.

– Endi, – dedi Volodya amaki, – bu voqea menga butunlay ravshan. O'g'ri qandaydir bir qimmatbaho narsani olish uchun qulfni sindirgan. Qaznoqchada echkini ko'rgach, alamidan bir tupurgan-da, boshqa yerdan bir nima o'g'irlash uchun chiqib ketgan. Mana, uning izlari... Aytmoqchi, bu mening izlarim-ku. Uniki esa, mana bular... ertalab uyg'ongan Minka ochiq saroyga kirib, echkiga karam bergan. Mana bu – Minkaning izlari. Echki aylanmoqchi bo'lib saroydan chiqadi va ana shu taxtalar orqali osongina tomga ko'tariladi. Buning ustiga tom to'la ko'kat... Mana bu nuqtalar – uning izlari. Kimning bo'lardi? Echkining-da!.. Uy egasi uyg'onib, qaznoqchani ochiqligini va singan qulfni ko'radi. Va bizga yugurib, o'g'irlik haqida xabar beradi. Mana, uning izlari... Endi, bu yerda nima sodir bo'lgani hammaga ravshandir... Qani, tomdan echkingizni tushiring-chi, biz ham xotirjam Leningradga jo'naymiz. Chunki u yerda bundan ham chigal o'g'irilklarni ochishimizga to'g'ri keladi. Bu yerdagi vazifamiz oshig'i bilan bajarildi.

U shunday degancha xayrlashish uchun boshidan shapkachasini olgan edi, tomdan echki yana «Ba-a-a!» deya ovoz berdi.

– Tergovchi og'aynilar, – dedi strelkachi vahima bilan. – Zotdor echkim tomdaligini ko'rib turibsizlar. Endi uni qanday tushirib olishni so'ramoqchiman. Buning ustiga, tom juda nishab, u yerga chiqsam, yoki zotdor echkim, yoki o'zim yiqilib, bir baloga giriftor bo'lamiz... O'rtoq tergovchilar, agar echkimni sog'-omon tushirib bersalaring, mukofotga bir stakan sut va qadoq non beraman.

Odamlar guruhidan bir kimsa otilib chiqib:

– O'zim nogiron, sal-nal oqsasam-da, bu mukofot evaziga echkingizni men tushirib beraman, – dedi. – Faqat o'zimni mo'riga bog'lash uchun menga arqon kerak, chunki arzimas echkingiz deb yerga qulab tushishni xohlamayman.



Unga arqon berishdi va u to'planganlarning olqishlari ostida narvon bilan tomga chiqib oldi.

U arqonning bir uchini mo'riga, ikkinchi uchini beliga bog'ladi. Shu holatda o'zicha nima bo'larkin deya qarab turgan echki tomon siljiy boshladi. U endi yaqinlashayotganda, eski mo'ri bir qimirlab, keyin titilib ketdi.

Xayriyat, bog'langan kishi qulamadi, bir nimani ushlab qoldi, lekin mo'ridan bir g'isht ko'chib, Volodya amakining boshiga tushdi va yengil jarohatladi. U o'sha zahoti hushdan ketib, gumburlab quladi.

Tomga chiqqan kishi echkini tutib oldi. Va to'planganlarning qiy-chuvlari ostida echki bilan taxtadan sirg'alib tushdi.

– Echkini olib tushganing tuzuk, – dedi strelkachi, – lekin sen cho'loq maymun mo'rimni ishdan chiqarding-ku, shuning uchun senga mukofot bermayman.

– Unda hozir echkingni qayta tomga otaman! – dedi nogiron.

– Xo'p, bo'пти, beraman, – dedi strelkachi. – Faqat iflos qo'lingni echkimga tekkizma!

Shunda u echkisini mehribonlik bilan o'pdi-da, uni qaznoqcha tomon sudradi.

Yaralangan Volodya amaki ketmoqchi edi, egasi qo'ymadi.

– Juda aniq va ravshan ishlaganlaring uchun, o'rtoq tergovchilar, sizlarni echki suti va issiq non bilan ziyofat qilmoqchi-man, – dedi.

Biz o'rindiqqa o'tirib ziyofatni kuta boshladik. Volodya amaki Minkani chorlab, unga:

– Nega, sen ahmoq bola, – dedi qat'iy, – tergov organlarini chalg'itasan? Nega, jonivorning oyog'i uchta edi deding?

Minka tersayib:

– Axir, men uchgacha sanay olaman-da, – dedi.

Shunda to'planganlar baravariga kulib yuborishdi.

Strelkachining darvozani ochib, chet kishilar tez chiqib ket-sin deyishiga qaramay, ular ketishni istamas, go'yo echki yana bir yo'qoladigandek qarab turishardi.

Keyin strelkachi chet kishilarni haydab chiqargach, echkini sog'ish uchun qipcha bilan qaznoqcha tomon yugurdi.

Rang-ro'yi oppoq, u yerdan qaytib chiqdi-da:

– Bilasizmi, echkida bir tomchiyam sut yo'q, – dedi, – kimdir uni sog'gan. Ana sizga tomosha.

– O‘zimam shunday o‘ylovdim-a, – dedi Volodya amaki. – Jinoyat manzarasi menga oyday ravshan. O‘g‘ri qaznoqchadan hech narsa topa olmagach, echkini sog‘ib, sutini ichgan-da, kuch to‘plab, jo‘nab ketgan.

To‘satdan boshqa qipcha ko‘targan strelkachining xotini kirib keldi.

– Yo‘q, – dedi u, – erim chet kishilarni haydayotganda echkini o‘zim sog‘gan edim.

Shunda hammalari kulib yuborishdi va non yeb, sut icha boshladilar.

Keyin uy egasi bilan mehribonlarcha xayrlashib, poyezdga chiqmoqchi bo‘ldik.

Darvozadan endigina chiquvdik hamki, uy egasining qichqirig‘ini eshitdik.

– Qaznoqchada mening eski kigiz etigim bor edi, yo‘q-ku! – deya qichqirardi u bizga.

– O‘g‘rilik manzarasi menga ravshan, – dedi Volodya amaki. – O‘g‘ri echki bilan ovora bo‘lib yurmasdan, shu kigiz etikni olib ketgan.

Shundan keyin yana bir marta xayrlashib, jo‘nab ketdik.

Yarim yildan keyin, qish yetib kelganda bu jinoyat uzil-kesil ochildi.

Ligov ko‘chasidan o‘tib borayotganda strelkachi o‘z kigiz etigini birovning oyog‘ida ko‘rib, yashil tamg‘asidan tanib qolibdi.

U o‘sha odamni ushlabdi. O‘g‘ri militsiyada iqror bo‘lib, o‘sha kuzda qulfni sindirib, bir qop unni o‘g‘irlamoqchi edim, dedi. Unning borligini unga bir kishi aytgan, strelkachining qopdagi unni echkiga ayribosh qilganidan xabarsiz ekan. Natijada anglashilmovchilik ro‘y bergan. Unni topa olmagan o‘g‘ri kigiz etikni qo‘ltig‘iga qisib jo‘nab ketaveribdi.

O‘g‘rini yarim yilcha qamaydilar. Bu haqda Volodya amaki ham eshitib:

– O‘g‘rilik manzarasi butunlay ravshan, – dedi. – O‘g‘ri unni o‘g‘irlamoqchi bo‘lgan-u, lekin kigiz etikni o‘g‘irlashga to‘g‘ri kelgan. Shuning uchun ham u qamalib yotibdi.

O‘g‘ri qamoqda yotaversin-u, shu orada o‘sha zotdor echki o‘z egasiga ikkita jajji uloqcha tug‘ib beradi. Bundan strelkachi Frolov nihoyatda xursand.

Qisqasi, bu echki unikida juda uzoq yashadi. U devorga suyak qo'yilgan taxtalar ustidan sakrab, hammani hayron qoldirardi. Biroq, negadir echki tomga boshqa chiqmadi. Ehtimol, o'sha tomga chiqqanidan unga juda ko'ngilsiz xotiralar qolgandir.

Minka esa voyaga yetdi. Hozir u konchilik institutining talabasi Mixail Stepanovich Frolov.

Aytmoqchi, u mening shu haqda hikoya yozishimni eshitib, yonimga keldi va kitobxonlarga salom topshirishimni so'radi. Endi u nafaqat uchgacha, balki uch trillion va undan ham ko'proqqacha sanay olishimni bildirib qo'ying, dedi.

Mendan, Minkadan va Volodya amakidan qadrli kitobxonlarga alangali salom!

1937

## OXIRGI KO'NGILSIZLIK

Bu gal o'tgan kishilar hayotidan olingan qayg'uli bir voqeani aytib berishga ruxsat etasiz.

Bu – aniq dalil bo'lgani va tirik qolgan kishilarni xafa qilmaslik maqsadida, uni kulgili va hazil-huzil yo'sinida tasvirlamoqchi emas-miz.

Biroq bu voqea ma'lum darajada qiziq va kulgili bo'lganligi sababli beixtiyor kulgi qo'zg'asa, ehtiyotsizligim uchun tiriklar va o'liklardan hoziroq kechirim so'rashga tayyorman.

Albatta, bu dalil dastlab unchalik kulgili ham emasdi. Aksincha, kichik bir xizmatchi, shu kunlarimizda unchalik mashhur bo'lmagan bir kishi o'lib qoldi.

Odatdagidek, o'limidan keyin u haqda yaxshi gap-so'zlar bo'ldi: go'yo bu kishi o'z mehnat o'rmida vafot etgan, biz shunday ajoyib, jonkuyar bir xodimdan, mehribon do'stimizdan ayrilib qolgandek edik.

Shunisi ravshan ediki, tirikligida biror kimsa unga shu xil ajoyib gaplarni aytmagan, uning o'zi ham atrofda gilarining bu xil maqto'v so'zlarini xayoliga keltirmagan holda dorulbaqoga hijrat qilgan edi.

Albatta, hali o'lmaganda kim biladi – u bilan yana nimalar ro'y bermasdi. O'sha atrofda gilarining o'zlari uni ming bir baloga giriftor qilgan bo'larmidilar.

U beozorgina o'lgach, uning xususida, shu xil g'oyibona mehribonchiliklar boshlanib ketdi.

Bir tarafdin, do'stlarim, yaxshigina o'lim har kimga ham nasib etavermas ekan. Shuning uchun sizlarning ortiqcha qayg'urishlaringizga ko'pam muhtoj emasmiz.

Qisqasi, u xizmat qiladigan muassasada ishdan keyin hamma bir joyga to'planib, marhum haqida har xil xotiralarni qayg'urib eslashdi.

So'ng direktorning o'zi so'z oldi. U butun notiqlik san'atini ishga solib, shundayam ta'sirli gapirdiki, hatto o'zining ham ko'zlarida yosh aylandi. Ko'zlariga yosh olib, marhumni haddan oshirib maqtadi.

Shunda qolganlarning ham bardoshi chil-chil sindi. Hammalari bir-bir turib, sodiq do'st, o'g'il, uka, ota va muallimdan ajralib qolganliklarini yig'lamsirab gapirdilar.

O'tirganlardan kimdir boshqalarga o'rnak bo'lsin uchun marhumni katta obro' va dabdaba bilan dafn qilish kerakligini aytdi. Boshqalar ham bu tantanaga havas qilib, yanada yaxshiroq mehnat qilishlari mumkin, dedi.

Hamma buni bir og'izdan ma'qulladi. Direktor bo'lsa, ko'pam ziqnalik qilavermasin, hamma xarajat yig'ilgan mablag' hisobiga bo'lsin, dedi.

Shunda yana bir kishi o'rnidan turib, bu xil ajoyib kishilarni katta ko'chadan jimgina olib o'tmasdan, musiqa sadolari ostida dafn qilish kerak degan taklifni kiritdi.

Marhumning qarindoshi, ya'ni tug'ishgan jiyani, Kolesnikov degan yigit buni eshitib o'rnidan turdi.

– Voy, xudoyim, – dedi, – tog'am bilan necha yil bir uyda yashadim-a! U bilan tez-tez so'kishib turardik, deb aytmoqchi emasman. Lekin shu kungacha tog'amning shu qadar yaxshiligini, ajoyib odam ekanligini bilmagan ekanman. Mana, endi sizlar shu haqda gapirganlaringda sizlarning har bir so'zlaringiz bamisoli qo'rg'oshindek yuragimga quyilmoqda. Nega ham sho'rlik tog'am uchun yaxshi sharoit yaratib bermadim-a? Endi bir umr o'ksinib yuraman. Yo'q, hozirning o'zidayoq bir yerga borishim kerak. Oltita karnay va bitta dafdan iborat eng yaxshi duxovoy orkestrni taklif etaman. Bu orkestr tog'am uchun alohida motam kuylarini chalsin.



– To‘g‘ri aytding, – deyishdi hamma baravariga, – orkestrni chaqir. Shu bilan rahmatlik tog‘angga qilgan odobsizligingni yuvgan bo‘lasan.

Qisqasi, ikki kundan keyin dafn marosimi bo‘ldi. Juda ko‘p xaloyiq to‘plandi va gulchambarlar qo‘yildi. Musiqachilar ham yomon chalishmadi, o‘tgan-ketganlarning diqqatini o‘ziga jalb etdi, hatto ko‘plar «Kim vafot etibdi?» deya pichirlashib, so‘rab qo‘yishardi.

Tog‘aning jiyani direktorga yaqin borib:

– Bu orkestrni o‘zim taklif etdim, – dedi. – Ular, dafn marosimi tugashi bilan tezda haqini to‘laysizlar, bizlar Stari Russiga gastrolga ketishimiz kerak, deyishdi. O‘z vaqtida to‘lashimiz uchun nima qilishimiz kerak?

– Orkestr uchun o‘zing to‘lamaysanmi hali? – dedi direktor.

Jiyancha hayron qoldi, hatto qo‘rqib ketdi.

– Axir, Sizning o‘zingiz aytdingiz-ku, dafn xarajatlari yig‘ilgan mablag‘ hisobidan bo‘ladi, deb.

– To‘g‘ri, – dedi direktor, – lekin bizning xarajat yo‘rig‘imizda orkestr uchun to‘lash ko‘zda tutilmagan. Axir, juda kichik, arzimabir kimsa o‘lsayam azza-bazza orkestr taklif etilaversa, bilasanmi nima bo‘ladi? Yo‘q, bu ish qo‘limdan kelmaydi. Buning uchun uyushmada mening patimni bittalab yulishadi.

Direktor bilan birga ketayotgan kishilar ham:

– Axir, har bir o‘ladigan kishi uchun korxonaga to‘layvermaydiku? – deyishdi. – Yuk mashinasi, yana boshqa xarajatlarga to‘laganlari uchun rahmat de. Zero, o‘zingni tog‘ang ekan, orkestr uchun to‘lasang, biror yering kamayib qolmas.

– Nima? – dedi jiyancha, – aqlaringni yedinglarmi, ikki yuz so‘mni qayerdan olaman?

– Unda qarindoshlar bilan maslahatlashib bir amallanglar, – dedi direktor.

Jiyancha o‘zi ham bilmasdan marhumning bevasiga yetib olib, unga ro‘y bergan voqeani tushuntirdi.

Beva avvalgidan battarroq chinqirib yig‘ladi va bir so‘m ham to‘lay olmasligini aytdi.

Kolesnikov guruh orasidan siqilib o‘tib, musiqachilarga yaqinlashdi va pulni kim to‘lashini aniqlamaganlaricha karnaylarga puflashni to‘xtatishlarini so‘radi.

Orkestrchilar safida parokandalik ro'y bergandek bo'ldi. Ularning boshlig'i:

– Musiqani to'xtatmaymiz, oxirigacha chalamiz, to'lamasanglar, sud orqali buyurtma bergan kishidan to'latib olamiz, – deya mis likopchalarni qayta daranglatib munozaraga chek qo'ydi.

Shunda Kolesnikov direktorga qarab borayotgan edi, u ham biror ko'ngilsizlik ro'y bermasin tag'in deb o'ylab, mashinaga o'tirdi-da, jo'nab ketdi.

Yugur-yugur va parokandalik dafn marosimi qatnashchilari orasida g'alati kayfiyat tug'dirdi. Direktorning zudlik bilan jo'nab ketishi va bevaning chinqirib yig'lashi odamlarni batamom hayratga soldi. Har xil shivir-shivirlar, savol-javoblar boshlanib ketdi. Kimdir, direktorni oyliklarni kamaytirish masalasida zudlik bilan chaqirib qolishibdi, degan ovoza tarqatdi.

Umuman, qabristongacha butunlay tartibsiz bir holatda yetib kelishdi. Mayitni qabrga qo'yishda, hatto, nutq ham so'zlanmadi va bu juda tezlik bilan amalga oshirildi. Hamma mavhum kayfiyatda tarqaldi. Ba'zilar marhumning hayotlik davridagi arzimas kamchiliklarini eslab, rosa qalashtirib so'kishdi.

Ertasiga jiyancha direktorni shundayam qiyin-qistovga oldiki, u xo'p, uyushma bilan gaplashib ko'ray-chi, dedi. Shu bilan birga u uyushmaning vazifasi o'liklar haqida adi-badi aytishish emas, tiriklar haqida g'amxo'rlik qilishdir, deb qo'shib qo'ydi.

Shunday qilib, Kolesnikov orkestrchilardan qutulish maqsadida, drap paltosini pullaguncha ancha yugurib yeldi, onadan emgan suti og'ziga keldi. Jiyancha o'z paltosini 260 so'mga pulladi. Orkestrga to'lagandan tashqari uning yonida yana 60 so'm «mo'may»gina pul qoldi. Tog'asining jiyani ana shu qolgan pulga uch kun surunkasiga ichdi.

Bu holat direktor boshchiligidagi mazkur muassasaning yuqori darajada emasligidan darak beradi.

O'sha tog'aning mast jiyani mening yonimga kelib, ko'z yoshlarini yengiga artirdi-da, o'z hayotidagi shu ko'ngilsiz voqea haqida o'pkasi to'lib hikoya qilib berdi. Aytishicha, mazkur ko'ngilsizlik uning hayotida oxirgisi bo'lmasa kerak.

Tog'asi uchun esa bu ko'ngilsizlik oxirgisi edi. Harqalay, shunisi ham yaxshi.

1938

## ROZA-MARIYA

F. qishlog'ida istiqomat qiluvchi Lebedev degan bir o'rtoq yangi tug'ilgan chaqalog'ini cho'qintirishni o'yladi.

Shu pallagacha u dinga qarshi edi. Cherkovga qatnamasdi. Shariat topshiriqlarini bajarmas, hatto, aksincha, bir paytlar ilg'or qarashlari bilan xudosislar to'garagiga ham yozilgan edi.

Shu mavsumda u qiz ko'rdi. Ana shu chaqaloqni cho'qintirishni o'ylab qoldi.

Ochig'i, xotini – yosh ona uni shu ishga majbur qildi. Hatto, xotini ham emas, xotining uzoqni ko'ra olmaydigan ota-onalari ishini chappa aylantirib yuborishdi. Ular, cho'qintirmaslik yaxshi emas, qizaloqning ulg'ayib qolishi bor, yoki aytaylik, xudo ko'rsatmasin o'lib qolishi bor, cho'qintirmasdan bo'larkanmi, deya oh-voh qilishdi.

Siyosiy jihatdan qoloq kishilarning arzimas gap-so'zlari uning quloq'ini qomatga keltirdi.

Qizig'i shundaki, Lebedevning o'zi qizalog'ini cho'qintirishni siyayam xohlamas edi. Bu gapni eshitishi bilan uning yuragi o'z-o'zidan titrab ketdi. U ichki qarama-qarshiliksiz ularga rozilik berdi.

– Mayli, – dedi, – cho'qintirsanglar cho'qintiraveringlar. Faqat shu masala atrofida ko'pam shov-shuv ko'tarmanglar. Men o'z e'tiqodimda sobit turibman. Istasam – cho'qintiraman, istasam, aksincha – cho'qintirmayman. Harqalay, ortiqcha gap-so'zlar boshlanib, ish chuvalashib ketmasa bo'lgani. Aytib bo'lmaydi-da, shu zamonada qizalog'ini cho'qintiribdi, cherkovga murojaat qilibdi, bir paytlar uning tog'asi boylarda qorovul bo'lib xizmat qilgan, degan turli xildagi mish-mishlar tarqalsa yaxshi emas.

Shunda uning xotini, agar qizaloqni cho'qintirish masalasida o'zi ortiqcha gap-so'z qilmasa, bu masalani shunday imi-jimida amalga oshirish mumkin, dedi.

Xotining ota-onalari qizaloqni cho'qintirish masalasida ruhoniylar bilan kelishdilar. Ruhoniy ham besh so'm badaliga qizaloqni cho'qintirishga rozi bo'ldi, ma'lum kun va soatni belgiladi.

Shu orada ota-onalar o'z chaqaloqlarini Roza ismi bilan ZAGS ro'yxatidan o'tkazishdi hamda shu haqda manufaktura<sup>1</sup> olib qo'yib, aytilgan kunda cho'qintirish uchun cherkovda hozir bo'lishdi.

<sup>1</sup> Bu yerda maxsus navbat deyilmoqchi.



O'sha kuni u yerda yana bir chaqaloqni cho'qintirmoqda edilar. Biznikilar esa, qani, qanday cho'qintirisharkanlar deb navbatda kutib turishdi.

Avvaldan dinga qarshi tuyg'uga ega bo'lgan Lebedevning o'zi cherkov qoidalariga tanqidiy nazar bilan qarab, jim tura olmas edi. Befarqlik yaxshi emas. U otaxonga turli xil ilmoqli tanbehlar bera boshladi.

Otaxon nimaiki desa, Lebedev istehzoli kulib qo'yar, «Ja, oshirib yubording-ku!» «Yana qanday uydirmalarni aytarkansan?» deya uning jig'iga tegardi. Yoki otaxonning sariq sochlariga qarab turib, birdaniga «Avliyolar orasida birorta ham mallasi yo'q edi... Uni qaranglar, muncha sariq» deb yuborardi.

Bu oxirgi tanbeh qarindoshlar o'rtasida kulgi qo'zg'atdi. Shuning uchun ham otaxon cho'qintirishdan bir muddat to'xtab, atrofda qilarga yoqimsiz qarab qo'ydi.

Lebedevning chaqalog'i qo'lga olinganda u avvalgidan ham bat-tarroq tanbehlari bilan otaxonni kamsita boshladi. Hatto ochiqchasi-ga:

– Ho', menga qara, soqolvoy, – dedi Lebedev. – Agar mening bolamni cho'qintirish asnosida shamollatib qo'ysang bormi, joyingni jannatda qilib qo'yaman-a!

Bu gapni eshitganda otaxonning qo'llari titrab ketdi.

– Menga qarang, – dedi u Lebedevga, – bu yerga meni masxara qilishga kelgan bo'lsangiz, sizga tushunmayapman. Nima qilayotganingizni bilasizmi o'zi? Chaqalog'ingizni qo'limda tutib uni poklash uchun duo o'qiyotganimda qalbimda sizga nisbatan bir ko'rolmaslik va nafrat uyg'onmoqda. O'zingiz o'ylang, shu niyat bilan men qizalog'ingizga qanday qilib hayotga yo'llanma berishim mumkin. Ehtimol, endi butun umr u kasallanib yurar, yoki, aksincha, kar va soqov bo'lib qolishi mumkin.

– Shuni yaxshi bilki, – dedi Lebedev, – agar chaqaloqni nobud qilsang, sochlaringni bittalab yulaman.

– Bilasanmi nima? – dedi otaxon. – Yaxshisi, manovi kuchuk-vachchangni adyolga o'ra-da, ibodatxonadan tez yo'qol. Men hozir besh so'mingni qaytaraman va bu xil bema'ni gaplaringni eshitgandan ko'ra, yaxshilikcha ajrala qolaylik.

Shunda Lebedevning qarindoshlari, bas qil-da endi, agar cho'qintirishni istasang, ibodatxonadan chiqquncha sabr qil, ana o'shanda yuragingni bo'shatib olasan, hozir esa, popni ko'pam



asabiga tegaverma, aks holda chaqaloqni yerga tovlab urishi mumkin, degan ma'noda gap qilishdi. Qara, uning qo'llari qaltirab turibdi, deyishdi.

Lebedev ichdan qahr-g'azabga mingan bo'lsa-da, o'zini arang bosisib olib, ruhoniya hech nima demadi. Faqat:

– Xo'p, bo'ldi, endi boshqa gapirmayman, – dedi. – Cho'qintirishingni davom ettir, paxmoq soch.

Otaxon cherkovcha qiroatini boshladi. Lebedevga qarab:

– Chaqaloqni nima deb ataymiz, – dedi. – Unga nima deb ism qo'ygansizlar?

– Roza deb ism berganmiz, – dedi Lebedev.

– Bu tashvishlaringiz bilan menga qanchadan-qancha tashvish keltirdinglar, – dedi otaxon. – Bu ham yetmagandek meni masxara qilasiz, yana chaqaloqqa boshqacha ism qo'ygansizlar. Roza – bu aslida juhutchu nom, bolani shu nom bilan cho'qintirishga qarshiman. Uni adyolga o'rab, ibodatxonadan chiqib ketinglar.

Lebedev o'zini yo'qotib qo'ydi.

– Yana nima istaysan, – dedi u. – Dam bolani kasal qilasan, dam uni cho'qintirishdan butunlay bosh tortasan. Axir bu nom Roza, ya'ni gul, o'simlik degani. Aytaylik, misol uchun kooperativning kas-siri Rozaliya Stepanovna bu boshqa gap. Uning nomi juhutchu desa bo'ladi. Bu yerda esa cho'qintirmaslikka asosingiz yo'q.

– Bolangizni adyolga o'rang, – dedi otaxon. – Men, umuman uni cho'qintirmayman. Muqaddas kitobda bunaqa nom yo'q.

Qarindoshlar oraga tushishdi.

– Aylanay, taqdir, xudo haqqi, jahldan tushing. Biz uni bilmasdan shu ism bilan ZAGSdan o'tkazib qo'yibmiz.

– Men sizlarga aytdim-ku, – dedi Lebedev, – popning qanaqaligini. U davlat ZAGSiga qarshi boryapti. Hammalaringiz ko'rib turib-sizlar, u siyosiy jihatdan yot dunyoqarashga ega.

Pop qarasa, qarindoshlarning o'zlari ham, bolani ham olib ketishmayapti, shuning uchun ularga qaqshatqich zarba bermoqchi bo'ldi. U o'zining parcha ridosini yechib tashladi. Shunda yig'ilganlar popning lozimda va uzun qo'njli etikda qolganini ko'rishdi.

Pop shu xil ko'rimsiz holatda sanamga yaqin kelib, shamlarni o'chira boshladi. Jomdagi muqaddas suvni ham sepib tashlamoqchi bo'ldi.

Binobarin, ibodatxonada yana bir musofir kishi bor edi. U kooperativ ishlarini tekshirishga kelgan bo‘lib, bekorchilikdan cherkovga kirgan va bu yerda nima ishlar qilinayotgani bilan tanishmoqchi edi.

Shu odam so‘z olib gapira boshladi:

– Kamina eskicha urf-odatlariga qarshi bo‘lsam-da, bu yerdagi mahalliy xalqning omiligini ko‘rib juda ajablandim, – dedi. – Zero, chaqaloqning ota-onalari uni buvak qilib bu yerga cho‘qintirishga olib kelishibdimi, qanday bo‘lmasin, bu ishni amalga oshirish kerak. Ro‘y bergan noqulay ahvoldan chiqish uchun chaqaloqqa qo‘shaloq ism berishni taklif etaman. Masalan, sizlarda u Roza bo‘lsa, mayli, bu yerda – Mariya bo‘la qolsin. Ikkalasi bir bo‘lib – Roza-Mariya bo‘ladi. Hatto bizga ma‘lum qilishlaricha, Ovro‘poda shu nomda operetta ham bor.

– Mening muqaddas kitobimda qo‘shaloq nom yo‘q, – dedi pop. – Bu bilan meni yo‘ldan ozdirmoqchi bo‘lganlaringizga hayronman. Agar istasanglar, chaqaloqni Mariya deb atayman. Zinhor Roza deyishga tilim bormaydi.

– E, bilganingni qil, – dedi Lebedev. – Mayli, u Mariya deb olaversin. Keyin o‘zimiz o‘ylab ko‘ramiz.

Otaxon tezgina ridosini qayta kiydi va besh daqiqa orasida cherkov qoidalarini bajardi.

Lebedev popdagi ikkilanishlarni bartaraf qilishda yordam bergan haligi musofir kishi bilan suhbatlashdi. Shunday qilib, hamma ish silliqliqina bitdi.

Faqat Lebedevning bu ish shov-shuvsiz amalga oshirilsin, degan umidi puchga chiqdi. Qarabsizki, bu voqea hatto matbuotda chiqib turibdi. Mana bunday: e‘tiqoding monelik qilsa, cherkovga borma. Shunga qaramay, mabodo ibodatxonaga keldingmi, o‘zingni odamdek tut, har xil bema‘ni tanbehlar bilan otaxonning jig‘iga tegma.

1938

## QIZIQARLI O‘YIN

Yaqinda restoranda ovqatlanib bo‘lgach, bilyardxonaga bosh suqdim. Aytmoqchi, u yerda qanaqasiga soqqa dumalatishlarini tomosha qilmoqchi edim.

So‘zsiz, bu juda qiziq o‘yin. U nihoyatda zavqli bo‘lib, kishini har xil bema‘ni xayollardan forig‘ etadi. Hatto ko‘plar bilyard o‘yini

kishida mardlik, chamalash va hukmronlikni rivojlantiradi, deyishadi. Vrachlar esa, bu o'yin tuturiqsiz erkaklar uchun g'oyat foydali, deb tasdiqlashadi.

Bilmasam. O'ylab ham ko'rganim yo'q. Ayrim tuturiqsiz erkaklar bilyard o'ynab pivoga shundayam bo'kishadiki, o'yindan so'ng, arang uyiga emaklab yetib oladi. Menimcha, bu o'yin asabiy va xafa kishilar uchun unchalik foyda qilmasa kerak. Cho'tlab, chamalash masalasiga kelsak, bu boshqa gap. Yaqinda shu yerda bizning uyimizdan bir kishi o'z raqibining ko'zini kiy bilan yaxshigina chamaladi. Harqalay, u ko'r bo'lmasa-da, ko'zi sal qiyshayib qoldi. Mana sizga chamalash, mana sizga cho'tlash. Endi u mabodo boshqa ko'zni ham cho'tlaydigan bo'lsa, umuman bu kishi cho'tlash qobiliyatidan mahrum bo'ladi.

Demak, foyda masalasiga kelganda, bu kampirlar aytadigan afsonadan nariga o'tmaydi.

Biroq, albatta, juda zavqli ermak. «Bir narsa tikib» o'ynashni tomosha qilish, ayniqsa ko'ngilli.

Endilikda kamdan kam pul tikib o'ynashadi. Lekin, o'ziga xos, tabiiyroq biror nima o'ylab topishadi. Ba'zilar boy bergan kishini bilyard taxtasi ostidan o'tishga, ayrimlar esa ikki shisha pivo qo'yishga majbur qilishadi. Boshqalar o'yin uchun haq to'lattiradi.

Bu gal bilyardxonaga kirganimda juda kulgili bir manzaraning guvohi bo'ldim.

Boy olgan kishi o'zining mo'ylovli raqibini barcha soqqalar bilan bilyard taxta ostidan o'tishga majbur qildi. Uning cho'ntaklarini soqqalarga to'ldirdi, keyin har qo'lga bittadan soqqa tutqazdi, bu ham yetmagandek engagi ostiga ham bitta soqqa qistirib qo'ydi. Boy bergan kishi shu holatda, umumiy kulgi ostida bilyard taxtasi tagidan emaklab o'ta boshladi.

Yangi partiyani ham boy olgan o'sha kishi sho'rlik mo'ylovini yana o'sha holatda, faqat bu gal kiyni o'rtasidan tishlatib stol ostidan o'tishga majbur qildi.

To'planganlarning kuchli qahqahasi ostida u sho'rlik tag'in stol ostidan emaklab o'tdi.

Yangi partiya uchun ular nima o'ylab topishini hech kim bilmasdi.

– Kel, yaxshisi, bir osonroq narsa o'ylab topaylik, – dedi mo'ylovli kishi. – Bunaqada juda holdan toydim.

Darhaqiqat, u shundayam qaltirab turardiki, hatto mo'ylovlari ham shalvirab pastga osilib tushgan edi.



– Shu xil jarimalar evaziga sen ahmoqdan yaxshigina bilyardchi chiqara olaman, – derdi g'alaba qozongan kishi.

G'olibning yana bir do'sti ham bor edi. O'sha:

– Men bir narsa o'yladim, – dedi. – Agar u yana yengilsa, bunday qilamiz: u barcha soqqalar bilan bilyard ostiga kirishdan tashqari, uning oyog'iga bir quti pivo bog'laymiz. Ana shu holda emaklab o'tsin.

G'olib kulib yubordi.

– Ofarin, – dedi u. – Ana bu boshqa gap!

– Agar quti pivoli bo'lsa men o'ynamayman, – dedi boy bergan kishi. – Quruq qutining o'zi bilan emaklash ham oson emas.

Umuman, u yana yutqazdi. Odamlarning umumiy kulgilari ostida unga soqqalarni tutqazishdi, og'ziga kiyni tishlatib, oyog'iga qutini bog'lashdi-da, emakla, deyishdi. Bu ham yetmagandek g'olibning do'sti qo'lidagi kiy bilan mo'ylovlini turtib, tezroq emaklasang-chi, deb hirlingladi.

G'olib shundayam xa-xolab kula boshladiki, hatto qornini ushlab stulga o'tirib qoldi.

Mo'ylovli bilyard ostidan bir amallab o'tib oldi. U atrof-dagilarga qimir etmasdan bir muddat karaxt tikilib turdi, keyin cho'ntaklarini soqqalardan bo'shatarkan, oyog'idagi pivoli qutini yechdi-da, bo'ldi, endi boshqa o'ynamayman, dedi.

Kula-kula g'olibning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi.

– Yo'q, azizim, Yegorov, – dedi, – yana bir partiya o'ynaymiz. Juda g'alati bir nima o'ylab topdim.

– Yana nimani o'yladinglar? – deb so'radi u.

G'olib kulgidan arang tiyilib:

– Kel, Yegorov, – dedi, – mo'ylovingga o'ynaymiz. Yumshoqina mo'ylovingni ko'pdan beri ko'rarga ko'zim yo'q. Agar g'alaba qozonsam, mo'ylovingni qirqaman. Maylimi?

– Yo'q, mo'ylovga o'ynashga rozi emasman, – dedi u. – Bo'lmasa, menga oldindan qirq ochko to'plashga ruxsat beringlar.

Umuman, u yana yutqazdi. Hali hech kim o'ylab ham ulgurmasdan yutgan kishi oshxona pichog'ini oldi-da, yengilgan raqibining yumshoq muylovini arralagandek kesa boshladi.

Zalda hamma kulgidan o'lib qolay dedi.

To'satdan yig'ilganlardan kimdir g'olibga yaqinlashib:



– Chamamda, shu xil jarimalarga rozi bo‘layotgan raqibingiz ahmoqqa o‘xshaydi, – dedi. – Siz bo‘lsangiz bundan foydalanib jamoatchilik oldida undan kulib o‘tiribsiz.

– Sizga nima? – dedi g‘olibning do‘sti. – Axir uning o‘zi rozi bo‘lyapti-ku.

G‘olib kulgidan toliqqan ovoz bilan o‘z raqibiga:

– Yegorov, buyoqqa kel, – dedi. – Jamoatga shu jarimalarning hammasiga roziligingni o‘z tiling bilan ayt!

Boy bergan kishi yarmi kesilgan mo‘ylovini ushlab turib:

– Albatta, o‘zim roziman-da, Ivan Borisovich, – dedi.

G‘olib to‘planganlarga qarab:

– Ba‘zi birovlar o‘z haydovchilarini uch soatlab sovuqda kutishga majbur qilishadi, – dedi. – Men esam juda insonparvarman. Korxonamiz haydovchisini issiq xonaga taklif etaman. Bu ham yetmagandek, o‘zimni u bilan teng olib, o‘rtoqlarcha birga bilyard o‘ynayman. Uni yaxshi o‘ynashga o‘rgataman. Yaxshi o‘ynamasa, yengilgina jazolayman ham. Xo‘sh, shunday bo‘lgach, u menga yana nima deyishi mumkin?

– Oralarinda satarosh yo‘qmi, birodarlar, – deb so‘radi haydovchi, – iltimos, mo‘ylovimni tekislab qo‘ysaydi.

Yig‘ilganlar orasidan bir kishi chiqib, cho‘ntagidan qaychi chiqardi-da:

– Bajonidil, mo‘ylovingizni tekislab qo‘yaman, – dedi. – Agar xohlasangiz mo‘ylovingizni Charli Chaplinnikiga o‘xshatib tekislayman.

Satarosh haydovchining mo‘ylovini tekislar ekan, g‘olibga yaqinlashib:

– Bu sizning haydovchingiz ekanligini bilmabman, – dedi. – Men u sizning do‘stingiz deb o‘ylabman. Aks holda, bu xil maynavozchilikka yo‘l qo‘ymagan bo‘lardim.

G‘olib jinday hadiksirab:

– O‘zlari kim bo‘ladilar? – deb so‘radi.

– Men siz xaqingizda maqola yozaman, – dedim.

G‘olibning rangi oqarib:

– Men sizga o‘z familiyamni aytmayman! – dedi.

– Shu dalilning o‘zi yetarli menga, – dedim. – Faqat Ivan Borisovich degani juda semiz, sariq bir kishi edi, deya qo‘shib qo‘yaman. Albatta, bu son sizga ta‘sir etar, ta‘sir etmaganda ham bosilib chiqqan satrlar orasidan sizning chirib, irib ketgan qalbingiz ko‘rinib tursa, biz uchun kifoya.

Maqola haqidagi gapni eshitgan g'olibning do'sti qarmoqni uzgan cho'rtandek tezda bino orqasiga g'oyib bo'ldi.

G'olib esa uzoq vaqt do'ng'illab turdi, pivo ichdi va hammasiga tupuraman, deya baqira boshladi.

Haydovchining mo'ylovini tekislab qo'yishdi, u ancha yosh va chiroyli ko'rinardi. Hatto men unchalik yovuz bo'lmagan shu odam haqida felyeton yozmoqchi bo'ldim.

Ko'rib turibsiz, uyga qaytgach, yozdim ham. Uni siz o'qidingiz va shu xil qiziqqon o'yinchilar borligiga hamda yuqoridagidek yoqimsiz, sariq erkaklar uchrab turishiga hayron qolib turgandirsiz.

1938

## SURAT

Shu yil ruxsatnoma uchun menga surat kerak bo'lib qoldi. Boshqa shaharlarda qanday bo'lishini bilmayman-u, lekin bizning tomonlarda suratga tushish odatdagi oddiy ishlardan emas.

Bizlarda atigi bitta badiiy suraxona bor. U yakka fuqarolar bilan birga alohida guruh va yig'inlarni ham suratga tushiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, buyurtmalarni olish uchun uzoq kutishga to'g'ri keladi.

Alohida guruh va tadbirlar uchun emas, yolg'iz o'zim bo'lganim sababli qattiq tashvishlanib, muddatidan ikki oy oldin suratga tushdim.

Suratni qo'limga berganlarida o'zimga hecham o'xshamasligimni ko'rib, hayron qoldim. Mening ro'paramda tashqi ko'rinishi bedavo bir shaxs turardi.

Suratni bergan juvondan:

– Nega odamlarni bunday tushirasizlar? – deb so'radim. – Qarang, betimda ola chiziq va ajinlar to'lib yotibdi-ku.

– Odatdagidek tushirilgan, – dedi juvon. – Faqat retushchi'miz kasalligini hisobga olishingizni istardim. Suratga yaxshi chiqmaydigan qiyofangizdagi nuqsonlarni bo'yashga kishi topilmadi.

Parda orqasida turgan suratkash:

– Bu surbet yana nimadan norozi? – deb so'radi.

Yaxshi tushirmagansiz, og'ayni. Xunugini chiqaribsiz. Nahotki, men shunday bulsam?

<sup>1</sup> Suratning kam-ko'stini tuzatuvchi.

– Men operetta artistlarini tushiraman, o‘shalar ham biror marta norozi bo‘lishmagan, – dedi suratlash. – Uni qaranga, bu kishining ajinlari ko‘p emish... Obyektivim juda aniq va tiniq oladi... Texnikani tushunmaysiz-u, yana hamma narsaga burningizni tiqasiz-a.

– Tushunsangiz-chi, – dedim, – axir, yuzimning nimasi tiniq emas. Aytmoqchimanki, o‘zim qanday bo‘lsam, shunday tushiring-da. Munday qarab, ko‘rishga arzisida.

– O, yana u kishi ko‘rarmishlar, – dedi suratlash. – Uni suratga tushirgandan keyin qarab ham ko‘rarmish. Injiqlikning zap vaqtini topibdi-da. Kamchilik topalla yana... Yo‘q, men sizning xuddi o‘zingizni tushirishni istayman. Boshqa gal kelganingizda shunday tushiramanki, o‘zingiz ko‘rganda, voy deb yuborasiz.

Ular bilan tortishib o‘tirmadim. Ruxsatnomada har qanday surat ham bo‘laverar deb o‘yladim. Shunday ham qandayligimni odamlar yaxshi bilishadi-ku.

Shu xayollar bilan bo‘limga keldim. Militsiya serjanti suratimni ruxsatnomaga yopishtirdi. Keyin esa:

– Menimcha, bu surat sizniki emas, – dedi.

– Qanaqasiga meniki bo‘lmasin, – dedim. – Ishoning, bu mening o‘zim. Suratlashdan so‘rang. Tasdiqlashi mumkin.

– Har gal suratlashdan so‘rab o‘tirish osonmi? – dedi serjant. – Yo‘q, men suratda o‘zingizning qiyofangizni ko‘rishni istayman. Bu yerda butunlay boshqa kishi. Allaqanday qo‘tirga yo‘liqqan bemorga o‘xshaydi. Hatto betingiz ko‘rinmaydi. Boring, qaytadan tushing.

– O‘rtoq boshliq, tushunsangiz-chi, – deyman.

– Yo‘q-yo‘q, eshitishni ham istamayman, – dedi u, – boring, qaytadan suratga tushing.

Suratxonaga qarab yugurdim.

– Bilasizmi, juda yomon tushirgansiz, – dedim, – hatto bu mahsulotingizni yopishtirishmadiyam.

– Mahsulot juda yaxshi, – dedi suratlash. – Faqat sizni tushirganda hamma chiroqlarni yoqa olmaganimizni hisobga olishingiz kerak. Bitta chiroqda tushirganmiz. Shuning uchun ham yuzingiz sal xiraroq chiqqan. Shunga qaramay, yaxshiroq tikilsa, bema'lol tanish mumkin. Qarang, quloqlaringiz qanday chiroyli chiqqan.

– To‘g‘ri, quloq yomon emas, – dedim, – lekin yuzlarim qani? Axir yuzlarim odamning basharasiga o‘xshashi kerak edi.

– Bilmayman, – dedi suratkash, – sizning yuzingiz bizni qiziq-tirmaydi. Bizning o‘z yuzimiz bor.

– Unda mening yuzlarim qayerda? – dedim. – Axir, men suratga tushgunga qadar ikki hafta dam olish uyida bo‘lganman. To‘rt kilo semirgan edim. Endi esa, suratga tushirib, meni ming baloga giriftor qilib o‘tiribsizlar.

– Nima, sizning yuzlaringizni o‘zimga olibmanmi, – dedi suratkash. Aytdim-ku, yuzingizga qorong‘ulik tushgan deb. Natijada u yaxshi ko‘rinmay qolgan.

– Yuzsiz nima qilamiz unda? – dedim.

– O‘zingiz bilasiz, – dedi suratkash. – Lekin qayta tushirmayman. Hammani qayta tushiraversam, rejani to‘ldira olmayman, mukofotdan mahrum bo‘laman. Menga sizning suratga mos kelmaydigan basharangizdan reja afzal.

Buyurtmachilar menga:

– Suratkashning jig‘iga tegmang, – deyishdi. – Aks holda, boshqalarni ham sizdan battar tushirishi mumkin.

Yig‘ilganlardan bittasi:

– Hurmatli o‘rtoq, g‘iz etib bozorga tushing, – deya maslahat berdi, – o‘sha yerda bir suratkash bor. To‘pga o‘xshash apparatida besh daqiqa ichida suratingizni olib beradi.

Bozorga yugurdim. Suratkashni ham topdim.

– Yo‘q, men faqat o‘z qog‘ozingizga tushira olaman, – dedi u. – Qog‘ozingiz bo‘lmasa, yaxshisi kelmay qo‘ya qoling, baribir tushirmayman. Qog‘oz opkelsangiz mayli. Agar parto‘shak opkelsangiz ham tushirib berishim mumkin. Chunki Barnauldan xolam kelgan, yotishga to‘shak yo‘q.

Endi ketaman deb turganimda qayoqdandir bir sotuvchi chaqirib qoldi.

– Bizning do‘konga kiraqol, – deya taklif etdi. – Har xil tayyor mahsulotlar mavjud.

Qarasam, gazeta ustida har xil tayyor suratlarni yoyib tashlagan. Uch yuztacha kelar-ov.

– Istaganingni tanlab ol, – dedi sotuvchi. – Bemalol, yopishtiraverasan. To‘xta, hozir o‘zim tanlab beraman. Senga o‘lchami kerakmi, yoki o‘xshashligi?

– O‘xshash bo‘lsin, – dedim. – Faqat yaxshi tanla, unda yuzi ham aniq bo‘lsin.



– Yuzidan ham topish mumkin, – dedi u. – Faqat u boshqalardan besh so‘mcha qimmatroq turadi. Ma, mana bu suratni ol. Bundan yaxshisini topa olmaysan. Yuzi ham bor, o‘xshashligi ham senga ancha o‘xshab turibdi.

Ikki dona suratga o‘ttiz so‘m to‘lab, yana bo‘limga yo‘l oldim.

Militsiya serjanti suratni yopishtira boshladi. Keyin:

– Axir, bu xotin kishi-ku! – dedi.

– Qanaqasiga xotin bo‘lsin, – deyman. – Kostum kiygan erkak-ku.

– Qanaqasiga erkak bo‘lsin, – deydi serjant, – axir qara, ko‘kragida to‘g‘nog‘ichi bor-ku. Ana shu to‘g‘nog‘ichidan ham bilsa bo‘ladi, bu – ayol.

Suratga qaradim. Darhaqiqat, xotin kishi ekan. Kostumi ostidan xonimlar kiyadigan ko‘ylakcha. Ko‘kragida manzarali to‘g‘nog‘ich osilib turibdi. Sochlari erkakcha tekislangan. Yuzlari menikiga o‘xshaydi.

– Asl suratingizni olib keling, – dedi serjant. – Aytib qo‘yay, yana bu yerga xotin kishi yoki bolaning surati bilan kelsangiz bormi, boshqalarning qiyofasida yashirinmoqchi bo‘lgan, xavfli shaxs sifatida javobgarlikka tortilasiz.

Butun hafta mobaynida garangsib yurdim. Qayerda suratga tushsam ekan? Sakkizinchi kun suratkash bilan suhbatlashganda hushdan ketib qoldim. Ular meni toza havodan nafas olsin degan maqsadda, tashqariga olib chiqib, maysaga yotqizib qo‘yishdi. O‘zimga kelib yana bo‘limga bordim. Cho‘ntagimdagi o‘sha yuzsiz, birinchi suratlarimni olib militsiya serjantining oldiga qo‘ydim.

– Mana, o‘rtoq boshliq, – dedim, – shundan boshqa chorasini topa olmadim. Bo‘lgani shu.

Serjant suratga qarab oldi-da:

– Ana bu boshqa gap, – dedi. – Bo‘larkan-ku. O‘xshaydiyam.

Umuman, qayta suratga tushganim yo‘q, deb aytmoqchi bo‘ldim. Keyin oynaga qarasam, haqiqatan ham, suratdagiga o‘xshagandayman. Xuddi o‘zim.

– Suratda sochingiz kamroq to‘kilganga o‘xshab ko‘rinsa-da, bezarar, – dedi serjant. – Bir yilga qolar-qolmas shunga tenglashib qolarsiz deb o‘ylayman.

– Hali yo‘l guvoynomasi, a‘zolik chiptasi va qarindoshlarga yuboradigan suratlariga tenglashish uchun ham, oldindan tayyorgarlik ko‘rishim kerak, – deyman men.

Serjant suratimni yopishtirdi-da, ruxsatnoma bilan meni qizg'in tabrikлади.

1943

## OLIJANOB O'YIN

Birinchi may kuni men bilan quyidagi voqea sodir bo'ldi.

Yozgi bog'ning yo'lkasidan ketib borardim. To'satdan bolalarning ovozini eshitdim. Allaqanday bolalar barmoqlari bilan mening oyoqlarimni ko'rsatib, bir nimalar deb qichqirishardi.

– Amakijon, amakijon, qarang, botinkangizning bog'ichi yechilib qolibdi.

Oyoqlarimga qaradim. Darhaqiqat, bir poy botinkamning bog'ichi yechilib qolgan edi.

Bolalarga rahmat aytib, o'rindiqqa o'tirdim-da, botinkamning bog'ichini qayta bog'lay boshladim. Bolalardan kattarog'i, ehtimol, shu guruhning boshlig'i bo'lsa kerak. O'n uch yoshlardagi o'smir telpagini orqaroq surib qo'yarkan, bamisoli katta odamlardek:

– Yaxshiyamki, o'z vaqtida ko'rib qolganimiz, – dedi, – bo'lmasa shu yechilib qolgan bog'ichni ikkinchi oyog'ingiz bilan bosib, hozirgacha uzgan bo'larmidingiz. Natijada ortiqcha xarajatga qolardingiz.

Bolalarga yana bir marta rahmat aytib, ularga hayratlanib qaradim. Ular o'ntacha bo'lib, o'rindiqni to'ldirib o'tirishardi. Ular to'satdan taraddudlanib qolishdi va o'zaro shivirlashib olishdi-da, ro'paradagi o'rindiqdan turib ketayotgan ayolga qarab qichqirishdi.

– Xolajon, xola, kitobingizni unutib qoldirdingiz!

Haligi ayol bolalarga bir qarab oldi-da, iziga burilib, kitobini olib jo'nadi.

Bolalarga avvalgidan ham kuchliroq hayrat bilan qaray boshladim. Mening qarab turganimni ko'rgan telpakli o'smir:

– Bu o'zimizcha bir o'yin, – dedi. – Birinchi aprelda odamlar o'zaro bir-birlarini aldashadi. Ataylabdan: «Qara, burningga siyoh tegibdi», yoki: «Qara, cho'ntagingdan puling tushdi», deyishadi va o'zlari «xo-xo»lab kulishadi. Biz Birinchi mayda shuning aksini qilamiz. Birinchi mayda hech kimni aldamaymiz. Aksincha, odamlar esdan chiqargan narsalarni ularning eslariga solamiz. Bu kunda biz «eng

yaxshi, qahramonona» ishlarni amalga oshiramiz. Chunki bu – Birinchi may.

Bog' yo'lagida bir kishi ko'rindi. Uning jinday kayfi bor edi. Gandiraklab boryapti. Ming'irlab bir qo'shiqni kuylar va shu kuy ohangiga qo'l silkiib qo'yardi.

Bolalar unga qarab shundayam qichqirishdiki, quloqlarim jaranglab ketdi.

– Hoy amaki, qarang, orqangiz ohakka bo'yalibdi!

Haqiqatan ham, o'tkinchining yelkasi, beli, cholvori va hatto kep-kasi ham allaqanday oqqa bo'yalgan edi.

O'tkinchi bolalarga ayyorona ko'z qisib qo'ydi-da, aldamay qo'yaqolinglar degan ma'noda barmog'i bilan yolg'ondakam po'pisa qilib qo'ydi.

– Yo'q, ishoning, aldamayapmiz, orqangiz butunlay ohakka bo'yalgan! – deya qichqirishdi bolalar.

O'tkinchi orqamga qarayman deb o'girildi, bo'lmadi, yana shu ishni takrorlamoqchi bo'lgan edi, qulab tushishiga sal qoldi. Istagiga erisha olmagach, u bolalarga qarab, yana «barmoq po'pisa» qildi-da, keta boshladi.

Telpakli bola:

– Qani, do'stlar, yuguringlar uning ortidan, – deb buyurdi. – Kiyimlarini tozalanglar. Tez!

Ikki bola o'rindiqdan tura solib, o'tkinchining izidan yugurishdi. U bolalardan xavfsirab qadamini tezlatdi va bolalarga qo'l silkiy-silkiy, tutqich bermay jo'nab ketdi.

Bolalar o'z o'rindiqlariga qaytib kelishdi. Telpakli bola:

– Yo'q, kattalar hali bunga ko'nikishmagan, – dedi. – Hamisha odamni «ovora» qilishadi. Gohida rahmat o'rniga faqat so'kishadi.

O'smir men tomon qarab olib, o'z fikrini boshqacha yo'sinda davom ettirdi:

– Albatta, hamma ham so'kavermaydi. Ayrimlar o'z foydalariga ekanini sezib, bizga rahmat ham aytishadi.

Shu asnoda yoshi o'tib qolgan bir ayol ro'paramizdagi yo'lkadan o'ta boshladi. Bolalarga qarab olib, chuqur xo'rsindi. Aftidan, u of-tobshuvoqda birpas o'tirmoqchi edi.

Uning bu niyatini bolalar sezmay qolishdi. Shunda u:

– Qani, surilibroq o'tiringlar, bolakaylar! – dedi.

O'smir buyruq berdi:

– Buvijon uchun o‘rindi q bo‘shatilsin. Tez!

Uch bola o‘sha zahoti o‘rindi qdan turishdi va qumga o‘tirib olishdi.

Boshqalardan kattaroq ko‘rinadigan o‘smirga qarab:

– Juda yaxshi narsani o‘ylabsizlar, bolalar, – dedim. – Axir, Birinchi may kunida o‘zlarinigiz aytmoqchi faqat «yaxshi, qahramonona» ishlaringiz juda olijanob o‘yin ekan. Juda-juda ibratli o‘yin. Ta‘rifiga so‘z yo‘q. Endi o‘zaro bir gap, bu tadbirni faqat Birinchi mayda emas, har kuni amalga oshirsa yaxshi emasmi? O‘smir qat‘iy ovozda:

– Yo‘q, har kuni mumkin emas! – dedi. – Chunki har kuni odamlarni kuzatib, tanbeh beraversa, kishining boshi og‘rib ketadi.

O‘smir boshqalarga:

– Qani, ko‘chaga ketdik, – dedi, – bu yerda boshqa ishimiz qolmadi.

Bolalar chumchuqlardek pirillab uchishdi. Ketishdi. Shunda men Birinchi may kuni faqat «yaxshi va qahramonona» ishlar qilishga asoslangan bolalarning bu olijanob o‘yini haqida uzoq o‘yga toldim. Va bundan keyin mamlakatimizdagi barcha bolalar ham shunday qiladilar degan qarorga keldim.

Kattalar masalasiga kelsak, ular bilan ancha ovoragarchilikka to‘g‘ri keladi. Chunki kattalar: «O‘zi nima gap? Shundayam bizning ishimiz boshimizdan oshib-toshib yotibdi. Yana siz qandaydir bolalar o‘yini bilan boshimizni qotirasizmi?» deyishlari mumkin.

Ularning gapi ham to‘g‘ri. Chunki, kattalar shusiz ham urushda o‘zlarining yaxshi jihatlarini namoyish etdilar. Ehtimol, ishqivozlik tarzida bir paytlar kelib, bolalarning shu olijanob harakatiga qo‘shilishar.

O‘shanda nafaqat urushda, balki boshqa jabhalarda ham ajoyib g‘alabalar qo‘lga kiritiladi.

1945









## VOQEA

Kecha, azizlar, bizning kommunal uyimizda anchayin muhim voqea sodir bo'ldi.

Shu desangiz, rafiqam bilan endigina kinodan qaytgan edik. O'zimning xonamda o'tiribman. Kalavotda. Poyabzalimni yechyapman. Bir etigimni endi yechgan ham edimki, tashqaridan ayanchli qichqiriq eshitildi. Aytish mumkinki – chinqiriq.

Xotininimning rang-ro'yi oppoq oqarib ketdi va shivirlab dedi:

– Xudo haqqi, Stepanidani tunashyapti! Boyaqishning do'rilloq ovozi... Bosqinchilar...

Stepanidani qutqarish uchun yo'lakka chiqmoqchi edim, xotininim yo'limni to'sdi.

– Eshikni tambala. Jinoiy ishga bosh suqishga balo bormi. Sen har holda oilali odamsan.

Men esa:

– Rost, birovlarining ishiga suqilib nima ham qildim. Eng muhimi, poyabzalimni yechib qo'ydim – shamollab qolishim mumkin, – dedim.

Biz eshikni buyumlar va kiyim-kechak solinadigan javon bilan tambalab, og'irroq bo'laversin deb ustiga jimgina o'tirib oldik. Birdan yo'lakda nimadir gursillab ketdi. Keyin jimlik cho'kdi.

Xotininim dedi:

– Ketishdi, chog'i.

Ayni shu payt bizning derazamiz sindi va kaska kiygan o'to'chiruvchi taqillatib ham o'tirmay xonamizga suqilib kira boshladi.

– Uyingizni alanga qurshab olgan, sizlar esa javonda salqinlab o'tiribsiz.

Qizig'i shundaki, nafaqat bizni, balki hamma ijarachilarni derazadan chiqarib olishga to'g'ri keldi. Stepanidaning chinqirig'ini eshitgach, hamma eshigini qulflab, buyumlar bilan tambalab olgan ekan. Va biror kimsa ham o'z xohishi bilan chiqib kelmagan. Stepanidani istisno etganda, albatta. Bu tentak ayol o't ketishiga sabab bo'lgan, dod-voy solgan va hovliga yugurib chiqqan ekan.

Zarar to'qson rublni tashkil qildi.

## YOMON ODAT

Fevral oyida mazam qochib qolsa bo'ladimi, birodarlar. Shahar kasalxonasiga yotdim.

Shunday qilib, shahar kasalxonasida yotibman deng, davolanyapman va dilim orom olmoqda. Atrofda osudalik va sukunat. Hammayoq saranjom-sarishta, hatto yotishga ham iymanasan. Tuflamoqchi bo'lsang – ana tufdon. O'tiring kelyaptimi – mana senga kursi. Burun qoqmoqchimisan – marhamat qilib yengingga qoq, choyshabga esa – zinhor-bazinhor, bunga ruxsat berishmaydi. Bunaqa tartib yo'q, deyishadi.

Nailoj, ko'nasan.

Ko'nmay ham ko'rchi? Bundan ortiq g'amxo'rlik, lutfi karam yana qayerda bor? Faraz qiling, rasvogina bir odam yotibdi, unga tushlik ham keltirishadi, to'shagini ham tekislab berishadi, qo'ltig'iga issiq o'lchagich ham qistirishadi, hatto sog'ligi bilan qiziqishadi ham.

Kim qiziqadi, dersiz? Muhimi, ilg'or kishilar – shifokorlar, shafqat hamshiralari va yana o'sha feldsher Ivan Ivanovich.

Bu xizmatchilarning bariga nisbatan shu daraja mehrim ortdiki, moddiy tashakkurnoma bildirishga ahd qildim.

Hammasiga bera olmaysan, xayolimdan o'tkazdim, uyingni topa olmay qolishing mumkin. Bittasiga beraman, deya o'yladim. Va kinga berishimni chamalay boshladim.

Qarasam, feldsher Ivan Ivanovichdan boshqa arzirlik odamning o'zi yo'q ekan. Ko'rib turibman, u kelishgan, basavlat odam va hammadan ko'proq harakat qiladi, ba'zan hatto oshirib yuboradi ham.

Mayli, unga bera qolaman, deya o'yladim. Va uning cho'ntagiga pulni qanday solish haqida o'ylay boshladim: qanday qilsam uning ham hamiyatiga tegmayman, ham tumshug'imdan yemayman.

Tez orada qulay fursat ham tug'ila qoldi.

Feldsher karavotimga yaqinlashib, salomlashdi.

– Assalomu alaykum, tuzukmisiz? Ichingiz kelib turibdimi?

E-ha, o'yladim men, ilindi.

– Ha, shukur. Keling, o'tiring, otamlashamiz.

Feldsher karavotga cho'kkancha indamay o'tiraverdi.

– Endi, – deyman unga men, – ahvollar qalay, nimalar haqida yozishyapti, maoshlar durustmi, ishqilib?

– Maoshlar-ku, uncha katta emas, lekin ziyoli bemorlar o‘lim to‘shagida ham choychaqa qistirish payidan bo‘lishadi.

– Aybga buyurmaysiz-u, o‘lim to‘shagida bo‘lmasam ham, berishga tayyorman. Buni hatto ko‘pdan buyon orzu qilardim.

Pulni chiqardim va unga uzatdim. U esa minnatdorlik bilan oldi va qo‘llari bilan qulluq qilib qo‘ydi.

Hammasi ertasidan boshlandi.

Kamina juda tinchgina va yaxshi yotgan edim, shu vaqtga qadar meni hech kim bezovta qilmagandi, endi esa feldsher Ivan Ivanovich moddiy minnatdorchiligimdan es-hushini yo‘qotgan edi go‘yo.

Mening karavotim yoniga kuniga o‘n, yoki o‘n besh marta keladi-yov o‘ziyam. Bilasizmi, bir qarasangiz yostig‘imni to‘g‘rilab qo‘yadi, yana bir qarasangiz vannaga tortqilay ketadi, ichimni yuritishni taklif etadimi-yey. Birgina issiq o‘lchagichlari bilan qiynab yubordi meni, yashshamagur. Oldinlari kuniga bir, yo ikki marotaba qo‘yardi, issiq o‘lchagich o‘lgurni. Endi esa o‘n besh martalab qo‘yadi o‘ziyam. Avvallari vanna ham salqingina bo‘lardi va menga yoqardi, endi esa vannani naq qaynoq suv bilan to‘ldirib qo‘yadi, dodingni kimga aytasan.

Unaqasiga ham, bunaqasiga ham chap berib ko‘rdim, hech ish chiqmadi. Men unga yana pul tiqishtirdim – meni o‘z holimga qo‘y, baraka topkur deb, u esa yana avvalgidan battar harakat qiladi deng.

Bir hafta o‘tdi – qarasam, bu yog‘i endi bo‘lmaydigan. Holdan toyib, qattiq charchadim, o‘n besh futcha vazn tashlab, ozib ketdim, ishtaham ham yo‘qoldi.

Feldsher esa harakat qilgani-qilgan.

Bir marta esa u ko‘ppak meni qaynoq suvda pishirishiga bir bahya qoldi deng. Xudo haqqi. Yaramas, meni shunaqa issiq vannaga tiqdiki, oyog‘imdagi qavariq yorilib ketdi va terisi ko‘chib tushdi.

Men unga:

– Odamlarni qaynoq suvda kuydirishga kim ruxsat berdi, ablah? Moddiy minnatdorlikni endi tushingda ko‘r, – dedim.

U esa:

– Bo‘lmasa – bo‘lmas. Ilmiy xodimlar yordamisiz o‘laving, – deydi.

Shunday deb, chiqib ketdi.

Endi esa hammasi avvalgi holiga qaytdi: harorat o‘lchagichni bir marta qo‘yishyapti va boshqa muolajalarni esa – ehtiyoj bo‘lganda.



Vanna ham ilgorigiday salqin, kaminani esa boshqa hech kim bezovta qilmay qo‘ydi. Choychaqalar bilan kurash olib borilayotgani bejiz emas ekan.

Ha, birodarlar, bejiz emas ekan!

## YOMON PULLAR

Zavodda chilangar bo‘lib ishlovchi Ivan Petrovich Martinov eshikni ohista ochdi va ehtiyotkorlik bilan qadam tashlamoqchi edi-yu, lekin o‘zini tutib qola olmadi va xonaga emaklaganday ag‘darildi. Xotini qo‘llarini bir-biriga urdi va kastrulkani jahl bilan itarib yubordi.

– Yana to‘yib olibsan-da! Zolim, yana ichibsan-da, sho‘rim qursin.

– Zinhor, – dedi chilangar, tik turishga urinarkan. – Hushyorman, mutlaqo hushyorman... Qara, Masha... Agar xohlasang, o‘choq-qacha yetib bora olaman, xohlasang – karavotgacha... Qara.

Ivan Petrovich yon tomonga qadam qo‘ydi, biroq o‘zini tutib qololmadi va karavotga quladi.

– Zinhor, – dedi u, yostiqa boshini qo‘yarkan. – Hushyorman, mutlaqo hushyorman... Qara, Masha, hammasi joyida... Mana u, burnim, butun... Mana u, kostum, butun... Telpakni o‘ylayotgan bo‘lsang – mana u, telpak, cho‘ntagimda... Qara, Masha... Zinhor... Mutlaqo hushyorman... Agar maoshni o‘ylayotgan bo‘lsang – mana u. Qara, Masha...

Chilangar qo‘lini cho‘ntagiga tiqdi va bir nechta mayda tangalarni chiqardi.

– Mana u, maosh. Qara, Masha.

Xotini karavotga o‘tirib oldi va big‘illab yig‘lay boshladi. Chilangar hayron bo‘lib boshini yostiqdand uzdi va birdan hushyor tortib karavotga o‘tirib oldi.

– Masha, – dedi u, – Mash... deymen. Sen yig‘lama, albatta, Mash... Menda nima ayb? Men ozginagina. Ozginagina, Masha. Mutlaqo hushyorman... Bir stakan olgan bo‘lsam olgandirman, balki. Men va Vasil Ivanich... Menda nima ayb?..

– Mushuk aybdor, – dedi xotini istehzo bilan, lablarini ranjigan-namo burarkan.

– Mushuk emas, – dedi chilangar. – Mushukni men ayblamayman. Zinhor. Men senga, Masha, bir boshidan gapirib beraman. Er-talab, albatta, ishga kelsam, zavodda yigitlar sandiraqlab yurishibdi. Aytishlaricha, kassir Ivan Markich pulga ketgan ekan. Demak, ma-osh... Kassaga yaqinlashdim, kassir Ivan Markich esa zerikib o'tiribdi va pullarga termuladi...

– Gapni aylantirma, – dedi xotini. – Mastmisan, yostiqa bur-kanib uxla.

– Men mast emasman, – dedi chilangar. – Men, Masha, mutlaqo hushyorman. Men senga bir boshidan gapirib beraman. Menda nima ayb?.. Kassaga yaqinlashdim, kassir Ivan Markich esa do'rillagan ovozda dedi: «Yigitlar, uch kishidan navbatga tu-ringlar. Bugun yomon pullar tegdi – hammasi yirik kupyuralar». Men esa: «Nimalar deyapsiz, Ivan Markich, ustimizdan kulyapsiz-mi? Aqlga sig'maydi. Buni qayerda almashtiramiz?», dedim. Shu payt Vasil Ivanich kelib qolsa bo'ladimi. «Sen, – deydi, – kassir bilan gap talashma. Hozir uchinchi kishini olamiz-u, ko'chaga yu-guramiz va pullarni eng yaxshi ko'rinishda almashtirib olamiz...». Menda nima ayb, Masha?.. Nachora, imzo chekdik, oldik, chiq-dik. Ko'chada esa hech kim alishtirmaydi. «Xalq farovonligi»ga bordik – yo'q. Xususiy savdogarlarga bordik – yo'q. «Ha, – deydi, – sotib olish bo'lsa – mendan emas, sotib olish bo'l-masa – mendan ekan-da. Jo'nab qol-chi bu yerdan...» Ketdik ham. Menda nima ayb? Shunday qilib, ketdik. «Vena»ning yo-nidan chiqib qolibmiz. Kirdik. Tamaddi qildik, to'ladik, ichdik. Qaytimini esa yirik pulda berishdi – o'ndan besh. Almashtirish uchun ketdik, albatta. Tamaddi qildik, to'ladik, ichdik. Qaytimi-ni esa, yaramaslar, uchtalik qilib berishdi. Uncha yirik pul emas, lekin almashtirish kerak. Menda nima ayb, Masha?... Uchtalikni almashtirishga ketdik. Tamaddi qildik, to'ladik, ichdik... Menda nima ayb?.. Keyin esa, o'z-o'zidan ma'lum, yana allaqanday nusxa yonimizga keldi. «Yirik pullarni mayda pullarga almashtirishimiz mumkin, – dedi. – Evaziga deyarli hech nima so'ramaymiz». Biz esa: «Kechga qolding. Yo'lingdan qolma», deb javob berdik. Menda nima ayb, Masha?.. Mutlaqo hushyorman...

Chilangar Ivan Petrovich yana yostiqa boshini burkadi va shu za-hotiyoq xurrak ota boshladi.

## IRIM-SIRIM

Har xil irim-sirimlarga sira ishonmayman. Bekorchi gaplar. Masalan, deylik, ko'cha bo'ylab ruhoniylar ketib boryapti. Ha, ketayotgan bo'lsa yaxshi. Uni o'z holiga qo'ying. Balki u xalq sudiga ketayotgandir yoki tergovchi chaqirgandir uni. Men qayoqdan bilay? Shundan ham qandaydir xulosalar chiqarish kerak emas-ku, emishki, ruhoniyni uchratib qolsang, bu yaxshilikka olib kelmasmish. Bekorchi gaplar. Safsata.

Yoki, deylik, yo'lingizni qora mushuk kesib o'tdi... Ayrimlar mushukka ko'zi tushishi bilan shu zahotiyoyq ortiga qaytadi. Aniqrog'i, qo'rqib ketadi. Yumushiga bormaydi. Yo'li berk bo'larmish.

Yana safsatabozlik. Yana bekorchi gaplar. Ha, mushuk yugursa yuguribdi-da, shunga shunchami? Uni oyog'ing bilan turtib yubor yoki yo'lning u tarafiga o'tib, hech narsa ko'rmaganday yumushingga ketaver. Yo'q, orqaga yo'rtib qolishadi.

Men, o'rtoqlar, ochiq aytaman: bu bekorchi irim-sirimlarga hecham ishonmayman... Bir kuni shunday bo'lgandi. Ivan Ivanovich Kryukov, uni tanirsiz balki, tavallud kunini nishonlash uchun bizni uyiga taklif etdi. Xotini tavallud kuniga katta o'rama kulcha pishiribdi, deng. Ustiga shakar unidan ham sepibdi. Va uni laganda keltirib, stol ustiga qo'ydi. Mezbon esa, e'tibor bering-a, qo'lini bir-biriga ishqalaydi.

– Mana, – deydi, – e'tiboringizni mana bu o'rama kulchaga qaratib. Bu o'rama kulcha oddiy kulcha emas. O'rama kulchani ichida mehmonlar uchun sovg'a bor.

– Ol-a? – dedik biz.

– Ha-da, sovg'asi bor ichida. O'n tiyinlik kumush tanga solib pishirilgan. Tanga kimga tegsa, o'sha dunyoda eng baxtli inson bo'ladi. Baxtimizni sinab ko'raylik... – deydi. – Irimi shunaqa.

Mezbon o'rama kulchani kesib, mehmonlarga ulashdi. Yeya boshladik... Oramizda esa Petrovich ismli tul kishi bor edi. O'ta uyatchan va baxtsiz odam edi u. Hayotda omadi chopmasdi: baytalinig ham oyog'i sindi, xotini ham, bilsangiz agar, yaqinda olamdan o'tdi va umuman olganda omadsiz kishi edi u. Xuddi mana shu Petrovich tanga haqida eshitishi bilan o'zini qo'yarga joy topa olmay qoldi.

– Eh, – deydi, – qani edi tanga menga nasib etsa. Bir omadim kelarmidi.



Va o'rama kulchanning ustiga engashib olganicha kulchani paqqos tushira ketdi, mezbon esa uni kesishga bazo'r ulguradi, deng.

U o'n bir bo'lakni paqqos tushirdi, o'n ikkinchisiga kelganda – taqqa to'xtadi!

– E-voh, – deydi, – tangani topdim, shekilli. Tilim ostida...

Petrovich barmog'ini og'ziga solib, tangani chiqarib olmoqchi bo'ldi, lekin shodligini ichiga sig'dira olmay entikib nafas olgan edi, tomog'iga bir narsa tiqildi. Va tangani yutib yubordi.

Petrovich oppoq oqargan ko'yi o'rmidan turdi.

– Bunaqasi ketmaydi, birodarlar. Kattaroq tangani solish kerak-da. Qanday yutib qo'yganimni bilmay qolibman...

Odamlar uning ustidan xoxolab kula boshlashdi. Petrovich esa kulmasdi. Esankiraganicha stolning yonida turar va cho'michdagi suvni tinmay ho'plardi.

Suv ichib, o'ziga keldi-da, kula boshladi.

-- Garchi tangani yutib yuborgan bo'lsam-da, lekin nima bo'lganda ham menga baxt kulib boqdi. Endi hayotda ham omadim chopishi tayin.

Lekin uning omadi chopmadi. Kechga tomon uning mazasi qochdi va ikki kundan so'ng ming azobida qiynalib jon berdi.

Do'xtirlarning gapiga qaraganda, go'yoki Petrovich tanga tufayli jon berganmish, emishki, tanga ichakda turib qolganmish. Tanga, harholda uncha katta bo'lmasa-da, lekin yangi, chetlari g'adir-budir ekan, ichakdan sirg'alib o'ta olmabdi.

Petrovichni dafn etishdi. Shu ma'noda uning omadi chopdi.

## NOMA'LUM DO'ST

Pyotr Petrovich ismli kishi rafiqasi Katerina Vasilyevna bilan Malaya Oxta shahrida istiqomat qilardi. Turmushi yaxshi, badavlat yashardi. Xo'jalik, garderob, sandiqlar mol-mulk bilan liq to'la... Uning ikkita samovari bo'lardi. Dazmollarning esa son-sanog'i yo'q – naq o'n beshta edi o'ziyam.

Biroq shunchalik boy-badavlat bo'lishiga qaramay, uning turmushi zerikarli edi. Boyliklaridan ko'z uzmas, rafiqasiga tikilganicha hech qayoqqa jilmasdi. Ostona hatlab hovliga chiqishga qo'rqardi. Uning yo'qligidan foydalanib buyumlarini o'g'irlab ketishmasin tag'in.



Bir kuni esa Pyotr Petrovich pochtadan xat oldi. Maxfiy xat. Kimdan ekanligi yozilmagan.

Xatda shunday soʻzlar yozilgandi: «Eh, sen, qari tuya. Yosh xotinchang bilan yashayapsan-u, lekin atrofingda nimalar boʻlayotganidan bexabarsan. Xotinchang esa bir huzurtalab bilan aylanishib yuribdi, tentak. Nomaʼlum doʻsting boʻlganim uchun seni xabardor qilib qoʻyyapman: agar sen, aljigan chol, yigirma toʻqqizinchi iyul, shanba kuni kechqurun soat yettida Mehnatkashlar bogʻiga kelsang, rafiqang aysh-ishratga qanday oʻch ekanligini oʻz koʻzing bilan koʻrasan. Koʻzingni och, miyasi aynigan chol. Chuqur ehtirom ila, «nomaʼlum doʻsting».

Xatni oʻqib boʻlgach, Pyotr Petrovich serrayib qoldi. Soʻngra nimalar boʻlganini eslay boshladi. Yodiga tushdi: Katerina Vasilyevna ikkita maktub oldi, lekin kimdanligi haqida lom-mim demadi. Umuman olganda, oʻzini gʻalati tuta boshladi: onasinikiga serqatnov boʻlib qoldi va mayda-chuyda xarajatlar uchun pul soʻraydigan odat chiqardi. «Ha, yaramas! – oʻyladi Pyotr Petrovich. – Qoʻynimda ilon saqlab yurgan ekanman-da... Hechqisi yoʻq, ustimdan kulishlariga yoʻl qoʻyib boʻpman. Ushlab olaman-da, abjagʻini chiqaraman – tamom-vassalom».

Yigirma toʻqqizinchi iyul, shanba kuni Pyotr Petrovich oʻzini kasallikka solib yotdi. Divanga choʻzilib, rafiqasini kuzata boshladi. U esa hech narsa boʻlmaganday uy yumushlari bilan band edi. Biroq kechqurun yorildi:

– Pyotr Petrovich, onamnikiga bormasam boʻlmaydi. Ogʻirlashib qolibdi.

Oʻzi esa yuziga oro berib, shlapani kiydi-yu, joʻnadi-ketdi.

Pyotr Petrovich shosha-pisha kiyinib, chap qoʻliga tayoq oldi, oyogʻiga kalishini ildi-yu, xotinining izidan tushdi.

Mehnatkashlar bogʻiga keldi, odamlar tanib qolmasin, deb yoqasini koʻtargancha yoʻlka boʻylab u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Birdan favvora boʻyida oʻtirgan koʻyi olislarga tikilayotgan rafiqasiga koʻzi tushdi. Soʻng unga yaqin keldi.

– Ha, – dedi, – assalomu alaykum. Jazmaningizni kutyap-sizmi? Xoʻsh, Katerina Vasilyevna, basharangizni yorsam ham kamlik qilar...

Xotini koʻzyosh qila boshladi.

– Pyotr Petrovich, Pyotr Petrovich! Boʻlmagʻur xayollarga bormang. Sizga aytmogʻchi emasdim-u, endi aytmasam boʻlmas... – dedi xotini.

Shunday deb, yengining ichidan maktub chiqardi.

Xatda Katerina Vasilyevna hayoti jar yoqasida turgan, halok bo'layotgan odamni qutqarishi kerakligi yozilgandi. U kimsa yigirma to'qqizinchi iyul, shanba kuni Mehnatkashlar bog'iga kelishini o'tinib so'ragandi.

– G'alati, – dedi u. – Kim yozipti ekan?

– Bilmasam, – javob qildi Katerina Vasilyevna. – Unga achin-ganimdan bu yerga keldim. Kim ekanligini bilmayman.

– Xo'-o'sh-sh, – dedi Pyotr Petrovich, – kelishga kelding. Kel-dingmi, endi qimirlamay shu yerda o'tir. Men, – dedi u, – favvora ortiga berkinaman. Ko'ramiz, o'sha nusxa kim ekan. Uning biqinidan darcha ochib qo'yaman.

Pyotr Petrovich favvora ortiga berkinib, kuta boshladi. Rafiqasi esa qarshisida – rangi somonday, zo'rg'a nafas olardi... Oradan bir soat o'tdi – hech kimdan darak yo'q. Yana bir soat o'tdi, hech kim yo'q. Shunda Pyotr Petrovich favvora ortidan chiqib keldi-da:

– Mayli, – dedi, – piqillamang, Katerina Vasilyevna. Bu, hoynahoy, kimningdir hazili bo'lsa kerak. Uyga qayta qolaylik... Shuncha yurganimiz yetar... Betayin akangizning ishi bo'lmasin, tag'in.

Katerina Vasilyevna boshini chayqadi.

– Yo'q, buning tagida jiddiy bir gap bor. Notanish kimsa sizdan qo'rqqanidan yaqin kela olmagan bo'lsa, ajab emas.

Pyotr Petrovich tupurdi, xotining bilagidan tutdi, ular yo'lga tushdilar.

Mana, er-xotin uyga ham yetib kelishdi. Ne ko'z bilan ko'rsinlarki, uy esa ag'dar-to'ntar bo'lib yotardi. Sandiq va javonlar ochilgan, daz-mollar har tomonga uloqtirilgan, samovarlar yo'q – talon-toroj. De-vorda esa to'g'nog'ichga ilingan quyidagi yozuv osig'liq turardi: «Siz shaytonlarni boshqacha yo'l bilan uydan chiqarib bo'lmadi. Tuxum bosganday o'tirasizlar... Kostumlarining bo'yi esa, qari tuya, men-ga to'g'ri kelmas ekan. Bo'y degan ham shunchalik beo'xshov va pa-kana bo'ladimi? Bu ishingga qoyil bo'lmadim. Rafiqangga esa chuqur ta'zim bajo aylaymiz».

Er-xotin yozuvni o'qib «oh-voh» qilishdi, polga o'tirib, yosh bola-larday yig'lay boshlashdi.

## OVRO·POLIK

Idora xizmatchisi Seryoja Kolpakov bir necha kun aqldan ozgan-day bo'lib yurdi.

U shahar telefon stansiyasiga ikki marotaba borib, u yerda telefon apparatining narxi va uni o'rnatish shartlari haqida vazminlik bilan, erinmay surishtirdi.

Bu juda arzon va hamyonbop edi.

Seryoja Kolpakov shahar stansiyasiga uchinchi marta – shartnoma imzolash haqidagi qat'iy qaror bilan kirib bordi. U aldanib qolmayin, deb ma'lumotlar byurosiga uchinchi marotaba yo'l oldi va narxlar haqida vazminlik bilan yana surishtira boshladi. Bundan tashqari, Seryoja telefon sohasidagi eng yangi ixtirolar haqida suhbatlashishga ham urinib ko'rdi, biroq o'zining qog'ozlariga o'ralashib qolgan bag'ritosh va quruq, xudbin ma'lumotchi xonim ilmiy kashfiyotlarga sovuqqonlik bilan qarab, hatto jamoatchilik ishiga xalal bermaslikni istehzoli ohangda so'rashga jazm etdi.

Shunda o'zining eng ilg'or g'oyalarini inobatga olmaganlaridan ranjigan Seryoja Kolpakov hamyonini chiqarib, stol ustiga otib yubordi va ovozi bilan balandlatib, o'zi ham muassasada xizmat qilishini hamda insonga xalaqit berish nima ekanligini yaxshi tushunishini bildirib qo'ydi. Lekin, baxtga qarshi, u xalal berishi shart.

Shu tobda Seryoja Kolpakovning yuzida mag'rurlik ifodasi zuhur etdi va zudlik bilan shartnoma tuzish istagida ekanligini bildirdi. Seryojani mudirning huzuriga yuborishdi va yarim soatdan so'ng shartnoma imzolandi.

– Faqat, iltimos, hurmatli o'rtoq, – dedi Seryoja mudirga, ovozi titrab, – shoshilishingizni iltimos qilaman. Men band odamman. Har bir soniyam qadrlri.

Ko'chaga Seryoja Kolpakov boshqa inson bo'lib chiqdi. U shoshilmay, vazmin odimlar va o'tkinchilarga yengil istehzo bilan nazar tashlardi.

– Ro'yobga chiqdi, – shivirlardi Seryoja Kolpakov. – Uzoq kutilgan orzuim ro'yobga chiqdi. Va nihoyat, Sergey Ivanovich Kolpakovda telefon bor. Sergey Ivanovich Kolpakov, sakkizinchi toifali xodim, ta'bir joiz bo'lsa, hayotning umumiy tarmog'iga ulandi. Sergey Ivanovich Kolpakov, xizmatchi – madaniy ko'nikmalar va odatlarga ega bo'lgan haqiqiy, asl ovro'palik inson.



Sergey Ivanovich bosh kiyimini yechdi, peshanasidagi terni artdi va telefon sohasining foydali jihatlari hamda umuman, inson dahosi haqida fikrlar ekan, vazmin qadam ila xizmatga yo‘l oldi.

Bir necha kun tushdagiday o‘tdi.

Sergey Ivanovich telefonni qayerga qo‘yishini xayolan tasavvur qilardi. Bir ovro‘pachasiga karavot oldiga qo‘ygisi kelardi, bir qarasang, aksincha, stolga qo‘ygisi kelib qolardi. Seryoja ovoz chiqarib o‘ziga o‘zi e‘tiroz bildirar, qizishardi, biroq bir qarorga kela olmadi. Nihoyat, tantanali kun ham yetib keldi. Uning xonadoniga sumka osgan, apparat ko‘targan kishi kirdi-da, quvnoq ohangda so‘radi:

– Qayerga qo‘ndiray?

Seryoja Kolpakov indamay, qaltiroq qo‘llari bilan karavot yonidagi devorni ko‘rsatdi.

Xullas, telefonni o‘rnatishdi.

Seryoja Kolpakov yangi, yaltillab turgan apparatga zavq-shavq bilan boqarkan, karavotga cho‘zildi. Keyin o‘tirib oldi, go‘shakni qu-log‘iga tutdi va qo‘ng‘iroq qila boshladi.

– «A» guruhimi? Sinov...

Telefon malikasi nimadir deb ming‘irladi, lekin Seryoja eshitmadi. U har soniyada qo‘li bilan go‘shakni his etarkan, uni ilgakka ohistagina ildi. U yana zavq bilan yostiqqa suyandi.

Sergey Kolpakov ajoyib qutidan ko‘zini uzmay chamasi ikki soat karavotda cho‘zilib yotdi. Keyin yana qo‘ng‘iroq qilishga tutindi. U o‘zining tanishlarini xotirasida xayolan birma-bir o‘tkaza boshladi. Afsuski, tanishlar kam bo‘lib, ularning telefonlari yo‘q edi. Shunda Seryoja Kolpakov qo‘ng‘iroq qilish mumkin bo‘lgan har qanday manzilni topish haqida hatto biroz hadik bilan o‘ylay boshladi. Biroq bunaqa joyning o‘zi ham topilavermadi.

Seryoja karavotdan sakrab turdi, telefon kitobchasini qo‘liga oldi va uni shosha-pisha varaqlay boshladi, baxtga qarshi qo‘ng‘iroq qilish mumkin bo‘lgan joy yo‘q edi.

Shunda Seryoja Kolpakov Kolomenskiy o‘t o‘chirish bo‘limiga qo‘ng‘iroq qildi.

– Nima? – so‘radi kimdir bo‘g‘iq ovozda. – Yonyaptimi?

– Yonyapti, – ma‘yus ohangda dedi Seryoja.

U go‘shakni joyiga osdi-yu, to‘shakka cho‘zildi.

Kechqurun Seryoja Kolpakovni bezoriligi uchun qamoqqa olishdi.



## TIRIK MURDA

Bir ishchi g'alati voqeani boshidan kechirdi. Bu shunaqa g'alati voqeaki, undan xabar topganning yarmi, hoynahoy, ichishni tashlab yuborsalar kerak. Lekin bo'sh kelma, hurmatli o'quvchi! Ichishni tashlash – bu unchalik qo'rqinchli emas. O'z vaqtida yermoyidan boshqa hamma narsani ichgan muallif ham, masalan, bu zararli odatni tashladi. Endi qalay, deysanmi? Yashasa bo'ladi.

Bu g'alati voqeani esa Petrograd fabrikalaridan birining ishchisi aytib bergan edi. U familiyasini keltirmasligimizni iltimos qilgandi. Uyalaman, deydi. Nachora, familiyasini keltirmaymiz, shunchaki Fedya Jukov deb ataymiz.

– Endi men pivo ichmayapman, – dedi Fedya Jukov. – Ko'ngil tortmaydi. Garchi o'qimishli professorlar go'yoki pivo organizm uchun juda foydali va go'yo u sababli organizm semiradi, deyishsada, men buni tan olmayman. Albatta, o'qimishli professor bir stakan-gina pivoni tushlikka va yarim stakanginasini kechki ovqatga simiradi – unga foydali, uning organizmi semiraveradi ham. Stakanlarga qanoat qilmaydiganlar-chi, ular uchun pivodan yomoni yo'q. Men esa, masalan, pivodan hushimni yo'qotaman. Va murdadan farqim qolmaydi. Hatto nafas olishim ham to'xtaydi. Shanba kunlaridan birida yigitlar ichishga o'tlanishdi. Men ham ergashdim. Rosa ichibmiz, o'ziyam. Faqat bir payt, beshinchisidan keyin, kayfim oshib qoldi va stulda oqargan ko'yi o'tiribman, deng, zerikyapman. Yigitlar, albatta, tinchlik berishmaydi:

– Fedya, Fedya...

Fedyasi tushmagur esa og'zini ochganicha lom-mim demaydi. Yigitlar tananing zaifligi uchun xaloyiqdan uzr so'rashdi, qo'ltig'imdan olishdi va uyga oborib tashlashdi. Uyda karavotga yotqizishdi, karavotda esa o'zimni yanada yomonroq his etdim. Xotinim juda qo'rqib ketdi, badanimni ho'l sochiq bilan ishqalay boshladi, buyam kor qilmagach, vrachga yugurdi. Kommunal vrach keldi. Meni ko'zdan kechirdi va dedi:

– Uning organizmida pivoning ta'sirida allanima o'rnidan ko'chib ketganga o'xshaydi. Ichagi buralib qolgandir, balki. Kasalxonaga olib boringlar. O'sha yerda tekshirib ko'rishadi.

Meni kasalxonaga olib borishdi, deng. Keyin nima bo'lganini eslay olmayman. Oldimda temir devor paydo bo'lgandek edi go'yo.

Faqat sovuq va ochlikdan o‘zimga kela boshladim. Uyg‘ondim. Atrof zim-ziyo. Nimaga qorong‘i ekan-a? Hammayoq zulmat. Bu nima maynavozchilik? O‘zi men qayerdaman?

O‘tirib oldim. Qarasam, taxtaning ustida qip-yalang‘och o‘tiribman. Atrofimda kasallar taxlanib yotibdimi-yey, yoki boshqa narsalarmi, yo bo‘lmasa marhumlarmikin, bilmadim. Shu qadar hushimni yo‘qotayozdimki, shu qadar qo‘rqib ketdimki! Qayerda ekanman-a? Yo o‘lganmikinman-a? Yoki bo‘lmasa pivodan hushimdan ketganman-u, meni o‘ldiga chiqarishdimikan?..

Eh, ha! Ana xolos! Gugurt chaqib, atrofni ko‘zdan kechirmoqchi bo‘ldim. Kissamga qo‘l yugurtirdim. Kissam yo‘q – faqat qip-yalang‘och oyoq. Gimnastyorkamga qo‘l cho‘zdim – qip-yalang‘och qorin. Juda jasur odamlardanman, albatta, hatto o‘t-olovman, shu tobda esa, tan olaman, qo‘rqib ketdim.

Bir payt eshik yonida yo‘lakda kimningdir oyoq tovushini eshitdim. Keyin u tutqichni ushlab, eshikni ocha boshladi. Eh, nima qilsam ekan-a? Qorovul kelayotgan bo‘lsa-chi? Uni qo‘rqitib yubormasam edi. Qorong‘ida o‘rningdan turib yoki qichqirib yuborsang bormi – naq yuragi yorilib o‘ladi.

Eh, nima qilsam ekan? Shu payt esa eshik ochildi va qorovul kirib keldi. Qorong‘i bo‘lsa-da, uning mosh-guruch soqolli, boshiga kartuz kiyib olgan qariya ekanini ilg‘adim. Eh, nima qilsam ekan-a? Qimirlab bo‘lmaydi, ovoz chiqarib bo‘lmaydi, faqat lablarim orasidan «tss» degan ovoz chiqarayapman.

Bir payt qorovul «tss»ni eshitib qoldi-yu, g‘alati ohangda chi-yillab yubordi-da, yiqilib tushdi, keyin jon vahmida emaklab eshik tomon oshiqdi. Ana xolos! Qo‘rqitib yubordim-ku. Endi farqi yo‘q.

– To‘xta, ukatoy! Qo‘rqma! Bu men – Fedyaman! – deb baqirdim.

Qorovulning ortidan yugurib chiqdim, yuguryapman-u, oyog‘imdagi taxtacha, raqam yozilgan bo‘lsa kerak, shaloplaydi. Qorovul esa ortiga o‘girilib qaradi-yu, shataloq otib qochib qoldi.

Yo‘lak bo‘ylab yuguryapmiz deng, uchragan odam borki, har tomonga sochiladi. Mening esa hech nima bilan ishim yo‘q. Qandaydir xonagacha yugurib bordim. Quladim.

– Birodarlar, bu men – Fedya Jukovman! Tirikman...

Meni karavotga yotqizishdi, vino tutishdi. Men baqirdim:

– Yo‘q, yetar, ichmayman! Ichmayman!.. Hech qachon og‘zimga olmayman!

Shunday qilib, ichishni tashlab yubordim. Qorovul esa sog'ayib ketdi. Hatto meni ko'rgani kirdi. Biz u bilan do'stlashib ham qoldik va bir shishadan porter ichdik.

## XO'JALIK HISOBI

Bayramga hisobchi Goryushkin uyida ziyofat uyushtirdi. Taklif etilganlar ko'p emasdi. Mezbon qandaydir ko'tarinki kayfiyatda yo'lakda mehmonlarga peshvoz chiqar va po'stinlarini yechishga yordamlasharkan, taklif etilganlarni ichkariga boshlardi.

– Bu kishi, – derdi u, mehmonni rafiqasiga tanishtirarkan, – mening eng yaqin do'stim va xizmatdoshim.

Keyin qo'li bilan o'g'lini ko'rsatib, derdi:

– Bu esa, e'tibor bering, mening tentakvoyim... Lyoshka. Uchiga chiqqan shumtaka, men sizga aytsam.

Lyoshka tilini chiqardi, mehmon esa o'zini biroz noqulay sezib, dasturxon atrofidan joy oldi.

Hamma yig'ilgach, mezbon birmuncha tantanali ohangda dasturxonga taklif qildi.

– O'tiringlar, – derdi u ko'tarinki kayfiyatda. – O'tiringlar. Dasturxonga marhamat... Bag'oyat xursandman... osh bo'lsin...

Mehmonlar qoshiqlarni baravar jarang-jurung qila boshlashdi.

– Ha-a, – dedi birozdan so'ng mezbon, – bilsangiz agar, hamma narsa qimmatlashib ketdi. Nimani olmang – narxi chaqadi. Narxlar osmonda.

– E, nimasini aytasiz, – dedi rafiqasi g'amgin qiyofada, sho'rvani simirarkan.

– Xudo haqqi, – ilib ketdi mezbon, – haqiqatan ham to'xtovsiz oshmoqda. Aytaylik, manavi sho'rvani oling. Shuyam gapmi? Arzimas narsa. Suvdan bo'lak hech nima yo'qday. Qani, chamalab ko'ring-chi, shu suyuqlik qancha turadi?

– H-ha, – deb qo'ya qolishdi mehmonlar.

– Haqiqatan ham, – davom etdi mezbon. – Boshqa narsa – tuzni oling. Arzimagan mahsulot, ahamiyatsiz narsa, qani, yana chamalab ko'ring-chi, u qancha turarkin?

– Ha-a, – cho'zdi tentakvoy Lyoshka, aftini burushtirarkan, – birorta mehmon tuzlab qolsa bormi...

Hozirgina sho'rvasiga tuz sepgan pensne taqqan yoshgina yigit qo'rq-pisa tuzdonni nari itardi.

– Sepavering, sepavering, – dedi uy bekasi, tuzdonni uning yoniga surarkan.

Mehmonlardan sado chiqmasdi. Mezbon ishtaha bilan sho'rva ichar va mehmonlarga muloyim qarab-qarab qo'yardi.

– Ikkinchi ovqat ham keltirildi, – e'lon qildi u ko'tarinki kayfiyatda. – Yoki bo'lmasa, janoblar, ikkinchi taom – go'shtini olaylik. Ijzotingiz bilan sizdan so'rasam, shu go'sht qancha turadi? Aytingchi, qani? Bu yerda necha funt go'sht bor?

– Sakkizdan to'rt-besh, – ma'yus axborot berdi xotini.

– Hisobga to'g'ri bo'lishi uchun besh deb hisoblaymiz, – dedi mezbon. – Oltin hisobida ellik tiyindan to'g'ri kelyaptimi? Kishi boshiga shunchadan... Necha kishimiz?..

– Sakkiz kishi, – hisobladi Lyoshka.

– Sakkiz kishi, – takrorladi mezbon. – Yarim funtdan... Har bir og'izga kamida choraktadan.

– Ha-a, – deb qo'ydi xafa bo'lgan ko'yi Lyoshka, – ba'zi mehmonlar go'shtni xantal qo'shib paqqos tushiradi.

– Ha-ya, – dedi mezbon, muloyim jilmayarkan, – xayolimdan ko'tarilayozibdi – xantal... Qani, umumiy hisobga xantalni, uni-buni, anavini ham qo'shib xomcho't qilib ko'ringchi. Kishi boshiga bir rubldanga borib qoladi...

– Ha, bir rubldan, – dedi Lyoshka, – Pal Yeliseyevich tirsagi bilan ko'zguni turtib yuborganida bir so'mdanga to'g'ri kelgandi-yov...

– Eh-ha! – qichqirib yubordi mezbon. – Tasavvur qiling, bir gal mehmonlar uyimizga kelganda ulardan biri, albatta bilmasdan ko'zguni turtib yuborsa bo'ladimi. O'shanda tushlik rosa qimmatga tushgandi. Biz atayin hisoblab chiqqandik.

Mezbon xotiralarga cho'mdi.

– Sirasini aytganda, – dedi u, – bu tushlik ham ancha-munchaga aylanadi. Buni xomcho't qilish qiyin emas.

U qalam oldi va yeyilgan taomlarni bitta qoldirmay yozib, xarajatni hisoblay boshladi. Mehmonlardan sado chiqmas, hech kim qimirlamasdi, faqat sho'rvasiga ehtiyotsizlik bilan tuz sepgan yosh yigitgina daqiqa sayin terlagan pensnesini yechar va uni sochiq bilan artardi.

– Eh-he, – dedi nihoyat mezbon, – besh rubldan ko'proqqa to'g'ri kelyapti...



– Elektr quvvati-chi? – g'amgin qo'shib qo'ydi ayoli. – Uyni isitish-chi? Mariyaga to'lanadigan xizmat haqi-chi?

Mezbon qo'lini sermab, peshanasiga shapatilab urdi va kulib yubordi.

– Haqiqatan ham, – dedi u, – elektr, isitish, xizmatkor haqi... Ijara puli-chi? Ma'zur tuting, janoblar, rost-da, xonaning ijara puli! Qani, sakkiz kishi, to'rt sarjin kvadrat... Har sarjiniga to'qson tiyindan... Bir kunga, demak, uch tiyin... Hm... Buni qog'ozda hisoblash kerak...

Pensne taqqan yosh yigit stulda g'imirlab qoldi va birdan yo'lak tomon yo'naldi.

– Qayoqqa ketyapsiz? – qichqirdi mezbon. – Qayoqqa ketyapsiz, azizim, Ivan Semyonovich?

Mehmon hech nima demadi va birovning kalishini kiyib, xayrma'zurni nasiya qilganicha chiqib ketdi. Uning ortidan qolganlar ham tarqala boshlashdi.

Mezbon stolda qo'lida qalam tutganicha yana uzoq vaqt o'tirdi, keyin dedi:

– Har bir kishiga oltin hisobida beshdan bir miqdorida tiyin.

Buni u xotini va Lyoshkaga aytdi – mehmonlardan esa asar ham qolmagandi.

## HAJVCHI

Yaqinda menga telefonda qo'ng'iroq qilishdi. Kimdir muloyim, yumshoq ovozda so'radi:

– O'rtoq Zoshchenkomisiz?

– Ha.

– Gap shundaki, biz kuchaytirgich ustida tajriba o'tkazyapmiz. Birorta hikoyangizdan uch-to'rt satr o'qib berishingizni o'tinib so'raymiz.

Kechiktirib bo'lmaydigan muhim yumushim bor edi. Uni to'xtatishni hecham xohlamasdim. Lekin men ko'ngilchan odamman. Kamina, bundan tashqari, har xil yangi ixtirolarni hurmat qilaman. Telefon go'shagiga bir necha satrni o'qib berdim.

– Juda soz, – dedi muloyim ovoz. – Minnatdorman. Jarangdorlik a'lo darajada. Endi eshittirishimizni tinglab ko'rishingizni iltimos qilamiz. Marhamat, xonaning burchagiga borib turing. Va quloq tuting.

Go'shakni stol ustiga qo'ydim-da, o'n qadamcha yurib to'xtadim. Ikki daqiqalar chamasi tentakday g'o'dayib turdim. Keyin qaytib keldim.

– Qalay?

– Hech narsa eshitmadim.

– Unda besh qadamcha yuring va shu taxlit o'tiringki, qulog'ingiz go'shak bilan bir sathda bo'lsin.

Uzoqlashdim va o'tirib oldim.

– Qalay?

– Xudo haqqi, hech nimani eshitmayapman! – dedim jahl bilan.

– Unda, – dedi hamsuhbatim kula-kula, – go'shakni qo'ying va yotib uxlang.

Haligi odam yayrab, miriqib, entikib xoxolab kulardi.

Nimasini aytasiz, chindan ham juda xunobim chiqdi. Go'shakni uzib olishimga sal qoldi. Qarang-a, allaqanday yaramas meni o'n daqiqacha laqillatsa-ya. Hatto o'tirishga ham majburladi.

Keyin o'zimni bosib oldim. Hatto tirjayib qo'ydim. Nima bo'пти? Hammasi joyida. Syujet tayyor, yozsa bo'ladi. Dolzarb mavzu – telefon bezorilari haqida mo'jazzgina hajviy hikoya qoralash ham mumkin. Mana shu bo'lmag'ur ishda yigirma rublni halol ishlab oldim.

Har bir bema'nigarchilikning tagida hikmat bor, deb shuni aytisalar kerak-da.

## BAYONNOMA

Navbatchi militsioner peroni siyohdonga botirdi-da, dedi:

– Jim-m, o'rtoqlar... bir boshidan gapiring... kim kimni turti?

– Uni manavi turti, – dedi bir kampir, odamlar oralab stol yoniga kelarkan. – Uni o'sha turti... Hu-u, shaytoni la'in, – dedi.

Xola ko'rsatgan qop orqalagan kishi indamay turar va tez-tez pi-shillardi. Uning yonida jabrlanuvchi va bir nechta guvohlar turishardi.

Jabrlanuvchi yelka qisgancha xijolatli alfozda ming'irlardi:

– Men nima qipman?.. Hech nima... Guvohlar...

– Uni o'sha turti, – takrorladi xola. – Turtib, keyin nima deydi, deng: hu-u, iblisning modasi dedi. Men tramvayda qarama-qarshi o'tirgandim, deng. Smolenskoye qishlog'iga, jiyanimnikiga ketayotib edim.

– Jim-m... – dedi navbatchi, – birpas sabr qiling, xola.

– Sabr qil, emish, – ranjidi xola. – Nega sabr qilarkanman-a? Kuppa-kunduz kuni odamlarni turtadigan vaqtlar o'tib ketgan. Turta-turta turtilib bo'ldik.

– Birpas jim tursangiz-chi, – dedi navbatchi, peroni yana siyohga botirarkan. – Kimsiz o'zi?

– Menmi? – so'radi xola. – Guvohlarmiz biz... Jiyanimnikiga ketayotgan edik... Kunduz kuni turtkilashlariga chidab bo'larkanmi. Qo'yib bersang, o'lgunicha turtgan bo'larmidi...

– Sabr qiling, xola, – dedi militsioner, – sizni turtishmabdi-ku... Sizga savol berishadi. Hozircha birpas jim tursangiz.

– Meni turtishmagan bo'lsayam...

– Jim-m... Sizni turtishdimi? – so'radi militsioner jabrlanuvchidan.

– Meni... – dedi jabrlanuvchi. – Xo'sh, nima qipti... Hech nima. Xo'p, turtishibdi. Shunga shunchami. Tramvayda bo'p turadiku. Guvohlarning talabi bu – militsiyaga o'zlari boshlab kelishdi.

– Afv eting, pardon, – dedi guvohlardan biri. – Men ham ko'rdim... Bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi... Bayonnoma tuzish kerak...

– Aytyapman-ku, – yana bidirlay ketdi xola, – bayonnoma, albatta, bayonnoma tuzish kerak... O'rtoq militsioner esa menga o'qrayadi... Naq markazgacha boraman... Kuppa-kunduz kuni-ya, bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi...

Militsioner uchinchi marotaba peroni siyohga botirdi-da, bayonnoma yozishga tutindi, familiya... jinsi... sobiq unvonlarni so'rab oldi. Navbatchi militsioner uzoq vaqt yozdi, harflarni dona-dona qilib qatorlashtirdi. Keyin so'radi:

– Qayerda bo'ldi bu voqea? Qaysi joyda?

– Tramvayda, – dedi xola, – tramvayda. Aytyapman-ku, tramvayda, deb, o'rgulay... Smolensk qishlog'iga jiyanimnikiga ketayotgan edim...

– Joyi, ko'chaning nomini ayting.

– Semyonovsk ko'chasidan ketayotgandik...

– Uf-f, – dedi militsioner, peroni qo'yarkan. – Semyonovsk, dedingizmi? Bizning tuman emas bu. Bu, o'rtoqlar, ikkinchi tuman. O'sha yoqqa boringlar...

– Qanaqasiga? – savol bera ketishdi guvohlar. – Yozuv-chizuv qilib bo'lingan bo'lsa, nima farqi bor...

– Ikkinchi tumanga boringlar, dedim-ku.

– Agar meni o‘ldirishganida-chi?

Qayerda o‘ldirishgan?

Qayerda bo‘lardi... Semyonovsk ko‘chasida-da...

Ikkinchi tumanga borishingiz kerak.

Boramiz ham! – fig‘oni falakka chiqdi xolaning. – Boramiz ham. Buni shunday qoldirib bo‘lmaydi... Jabrlanuvchi qani?

Jabrlanuvchi ko‘rinmasdi. U yuz bergan g‘ala-g‘ovurdan foydalanib, juftakni rostlab qolgandi. Shu vaqtgacha jim o‘tirgan qop ko‘targan kishi norozi ohangda g‘o‘ng‘illadi.

– Sen-chi, sen, – dedi u, xolaga yuzlanarkan, – sen nega dumingni likillatasan?

– Kim likillatyapti? – nag‘masini boshladi xola, savatini yana stol ustiga qo‘yarkan. – Kim likillatyapti, deyaqman?

– Sen likillatyapsan. Shu g‘alvani o‘zing boshlading, iblisning modasi...

Xolaning vajohati o‘zgardi.

– O‘rtoqlar, bu nimasi, – dedi u, – haqorat qilyapti-ku, axir.

– Mana endi mumkin, – dedi militsioner, peroni to‘rtinchi bor siyohdonga botirar ekan. – Voqea bizning tumanda ro‘y berdi. Bayonnoma yozamizmi?

– Ma‘zur tutasiz, – ming‘irladi xola, – bayonnoma deganingiz nimasi? O‘rtoq militsioner, xudo xayringizni bersin... Nima uchun... Biz tinchgina, jim suhbatlashyapmiz...

Xola savatini oldi-da, yo‘lak tomon yurdi. Guvohlar asta-sekin tarqalishdi. Qop ko‘targanning bir o‘zi qoldi. U zarurat bo‘lmasa-da, ancha vaqtgacha militsionerdan ikkinchi tuman qayerda ekanligini so‘rab-surishtirdi, so‘ng qo‘lini siltab, ma‘yus pishillagancha chiqib ketdi.







## MUNDARIJA

|  |   |
|--|---|
| Barhayot kulgi ( <i>So'zboshi o'rnida</i> )..... | 3 |
|--|---|

### KO'NGILLI UCHRASHUV

|   |    |
|---|----|
| Ibodat ( <i>Ne'mat Aminov tarjimalari</i> ) ..... | 6  |
| Musibat .....                                     | 8  |
| Qarmoq .....                                      | 11 |
| Farovon turmush .....                             | 13 |
| Inqilob qurboni.....                              | 16 |
| Oyimtilla .....                                   | 19 |
| Stakan.....                                       | 22 |
| Matrenaxon .....                                  | 24 |
| Iskovuch.....                                     | 28 |
| Itfurusht.....                                    | 30 |
| Hisob-kitobli nikoh .....                         | 32 |
| Muhabbat .....                                    | 35 |
| Kuyov.....  | 37 |
| Baxt .....  | 41 |
| «Begona» qarindoshlar .....                       | 44 |
| Dehqondan chiqqan iste'dod.....                   | 46 |
| Halol odam.....                                   | 49 |
| Tabiat o'yinlari.....                             | 51 |
| Bemor.....  | 53 |
| Hammom.....                                       | 55 |
| Asabiy kishilar .....                             | 58 |
| Aktyor .....                                      | 60 |
| Inqiroz.....                                      | 63 |
| Qashshoqlik.....                                  | 65 |
| Ma'muriy manmanlik .....                          | 67 |
| Limonad .....                                     | 70 |
| Ovoz yozgich .....                                | 71 |
| Aravakash .....                                   | 73 |
| Dada .....  | 76 |

|                              |     |
|------------------------------|-----|
| O'tin .....                  | 78  |
| O'g'rilar .....              | 80  |
| Yo'lovchi .....              | 82  |
| Er .....                     | 84  |
| Korjoma .....                | 86  |
| Tormozsiz yigit .....        | 88  |
| Ezibichki .....              | 90  |
| To'rt kun .....              | 93  |
| Kinodrama .....              | 95  |
| Tejamkorlik .....            | 97  |
| Bochka .....                 | 98  |
| Hayitdagi hodisa .....       | 100 |
| San'at shaydosi .....        | 102 |
| Quturish .....               | 103 |
| Xonimning musibati .....     | 105 |
| G'alati hordiq .....         | 106 |
| Kalish .....                 | 108 |
| Montyor .....                | 110 |
| Madaniyat ajoyibotlari ..... | 112 |
| Ishqibozi .....              | 115 |
| Mayda-chuyda .....           | 117 |
| Etikchalar .....             | 119 |
| Meshchanlar .....            | 120 |
| Beg'arazlik .....            | 122 |
| Jarohlik .....               | 124 |
| Shohona etik .....           | 126 |
| Mahsulotning sifati .....    | 128 |
| Sansolarlik .....            | 130 |
| Tabib .....                  | 132 |
| Mojaro .....                 | 134 |
| Ilmiy hodisa .....           | 136 |
| Mushuk va odamlar .....      | 138 |
| Chet elliklar .....          | 139 |
| G'olibiyat .....             | 141 |
| Ko'rilmagan tomosha .....    | 144 |
| Zilzila .....                | 147 |
| Bemorlar .....               | 150 |
| Ko'ngilli uchrashuv .....    | 152 |
| Cho'talchi .....             | 156 |
| Notiq .....                  | 159 |
| Chayqovchi .....             | 162 |
| «Sadaqa» .....               | 165 |
| Qahramonlar sinovi .....     | 167 |

|                                   |     |
|-----------------------------------|-----|
| Oydan tushgan .....               | 173 |
| Shaxsiy hayot .....               | 179 |
| Asab va uning davosi .....        | 183 |
| Beorom qariya .....               | 188 |
| Tuzoq .....                       | 193 |
| Yosh Verterning iztiroblari ..... | 196 |
| Kulgili fojia .....               | 200 |
| Iqror .....                       | 205 |
| G'aroyib sarguzasht .....         | 208 |
| Bechora Liza .....                | 215 |
| Xayolparast qissasi .....         | 220 |
| Qo'y mayman .....                 | 225 |
| Tengsiz nikoh .....               | 228 |
| Hammom va odamlar .....           | 231 |
| Kerakli yostiq .....              | 235 |
| Kasallik qissasi .....            | 238 |
| Xavfli aloqalar .....             | 242 |
| Katta shahar chiroqlari .....     | 246 |
| Xotirlash .....                   | 249 |
| O'g'rilik manzaralari .....       | 252 |
| Oxirgi ko'ngilsizlik .....        | 261 |
| Roza-Mariya .....                 | 265 |
| Qiziqarli o'yin .....             | 268 |
| Surat .....                       | 272 |
| Olijanob o'yin .....              | 276 |

## NOMA'LUM DO'ST

|   |     |
|---|-----|
| Voqea ( <i>Abduvohid Umirov tarjimalari</i> ) ..... | 280 |
| Yomon odat .....                                    | 281 |
| Yomon pullar .....                                  | 283 |
| Irim-sirim .....                                    | 285 |
| Noma'lum do'st .....                                | 286 |
| Ovro'polik .....                                    | 289 |
| Tirik murda .....                                   | 291 |
| Xo'jalik hisobi .....                               | 293 |
| Hajvchi .....                                       | 295 |
| Bayonnoma .....                                     | 296 |

**Rus adabiyoti durdonalari**

---

*Adabiy-badiiy nashr*

**MIXAIL MIXAYLOVICH ZOSHCHENKO**

**KO'NGILLI UCHRASHUV**

*Hikoyalar*

**Tarjimonlar: Ne'mat Aminov va Abduvohid Umirov**

Nashr uchun mas'ul *Mizrob Bo'ronov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi *Zuhriddin Qudratov*

Muharrir *Zuhriddin Qudratov*

Rassom-dizayner *Bezkod Zufarov*

Texnik muharrir *Lina Xijova*

Kichik muharrir *Matluba Salimova*

Musahhihlar: *Adolat Umirova, Shohida Hojiyeva*

Kompyuterda tayyorlovchi *Buruloy Dushanova*



Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 19-martda ruxsat etildi.

Bichimi  $60 \times 90 \frac{1}{16}$ . Ofset qog'oz. «Times New Roman» garniturasida ofset usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 19,0.

Nashr tabog'i 19,21. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 20-425.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz).

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)

**Zoshchenko M. M.**

Z 84

Ko'ngilli uchrashuv [Matn]: Hikoyalar / M.M. Zoshchenko. –  
Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 304 b.

ISBN 978-9943-6585-7-8

**UO'K 821.161. 1-31**  
**KBK 83.3 (2Ros-Rus)**



22 120,25.







**M.M. Zoshchenko**

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-6585-7-8



9 789943 658578